

Министерство по развитию информационных технологий и  
коммуникаций Республики Узбекистан

Государственное унитарное предприятие Центр научно-технических и  
маркетинговых исследований – «UNICON.UZ»  
(ГУП «UNICON.UZ»)

**Русско-узбекский толковый словарь терминов  
по электронной технике и радиоэлектронике**

*Переработанное, дополненное второе издание*

---

Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва  
коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги  
«UNICON.UZ» – Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi  
Davlat unitar korxonasi  
(«UNICON.UZ» DUK)

**Elektron texnika va radioelektronikaga oid atamalarning  
ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati**

*Qayta ishlangan, to‘ldirilgan ikkinchi nashri*

---

Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва  
коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги  
«UNICON.UZ» – Фан-техника ва маркетинг тадқиқотлари маркази  
Давлат унитар корхонаси  
(«UNICON.UZ» ДУК)

**Электрон техника ва радиоэлектроникага оид  
атамаларнинг русча-ўзбекча изоҳли луғати**

*Қайта ишланган, тўлдирилган иккинчи нашири*

**Toshkent – 2015**

Под общей редакцией Кадилова А.А.

Словарь составлен д.т.н, профессором Мухитдиновым М.М.

переведен и отредактирован  
Ахмедовой Ё.Н, Тулягановым Ш.Ш., Адашевой Ш.Ж.

Компьютерный набор: Адашева Ш.Ж.

Рецензенты: заведующий кафедрой «Электроники и радиотехники» ТУИТ,  
к.т.н. Фазилжанов И.Р., профессор кафедры «Информационные  
технологии» ТУИТ, д.т.н. Турсунбаев Ф.К.

---

A.A.Kadirovning umumiy tahriri ostida.

Lugʻat t.f.d, professor M.M.Muxitdinov tomonidan tuzildi,

Yo.N.Ahmedova, Sh.Sh.Toʻlaganov, Sh.J.Adashevalar tomonidan  
tarjima va tahrir qilindi.

Kompyuter ishlari: Sh.J.Adasheva

Taqrizchilar: TATU «Elektronika va radiotexnika» kafedrasini mudiri,  
t.f.n. I.R.Faziljanov, TATU «Axborot texnologiyalari» kafedrasini  
professori, t.f.d. F.K.Tursunbayev

---

A.A.Kadirovning umumiy tahriri ostida.

Luġat t.f.d., professor M.M.Muxitdinov tomonidan tuzildi,

Ё.Н.Ахмедова, Ш.Ш.Тўлаганов, Ш.Ж.Адашевлар томондан  
таржима ва тахрир қилинди.

Компьютер ишлари: Ш.Ж.Адашева

Тақризчилар: ТАТУ «Электроника ва радиотехника» кафедраси мудири,  
т.ф.н. И.Р.Фазилжанов, ТАТУ «Ахборот технологиялари» кафедраси  
профессори, т.ф.д. Ф.К.Турсунбаев.

## Содержание

Введение .....	VI
Русско-узбекский толковый словарь терминов по электронной технике и радиоэлектронике .....	1
Алфавитный указатель терминов на русском языке .....	728
Алфавитный указатель терминов на узбекском языке (латиница) ....	780
Алфавитный указатель терминов на узбекском языке (кириллица) ...	831
Алфавитный указатель терминов на английском языке .....	882
Список использованных источников .....	932

## Mundarija

Kirish .....	VIII
Elektron texnika va radioelektronikaga oid atamalarning ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati .....	1
Atamalarning rus tilidagi alifbo ko‘rsatkichi .....	728
Atamalarning o‘zbek tili (lotin alifbosi) dagi alifbo ko‘rsatkichi .....	780
Atamalarning o‘zbek tili (kirill alifbosi) dagi alifbo ko‘rsatkichi .....	831
Atamalarning ingliz tilidagi alifbo ko‘rsatkichi .....	882
Foydalanilgan manbalar ro‘yxati .....	932

## Мундарижа

Кириш .....	X
Электрон техника ва радиоэлектроникага оид атамаларнинг русча-ўзбекча изоҳли луғати .....	1
Атамаларнинг рус тилидаги алифбо кўрсаткичи .....	728
Атамаларнинг ўзбек тили (лотин алифбоси) даги алифбо кўрсаткичи ..	780
Атамаларнинг ўзбек тили (кирилл алифбоси) даги алифбо кўрсаткичи .	831
Атамаларнинг инглиз тилидаги алифбо кўрсаткичи .....	882
Фойдаланилган манбалар рўйхати .....	932

## Введение

В настоящее время невозможно представить себе не только научные исследования, но и повседневную жизнь без радиоэлектронной аппаратуры. Электроника стала неотъемлемой частью нашей жизни. В быту и на производстве, в научно-исследовательском институте и конструкторском бюро, всюду мы сталкиваемся с электроникой. Именно она позволила создать современные средства связи, компьютерные системы и технологии, электронную аппаратуру, выполняющую сложнейшие и тончайшие операции.

Невозможно найти отрасль промышленности, в которой не использовались бы электронные приборы или электронные устройства измерительной техники, автоматики и вычислительной техники. Причем тенденция развития такова, что доля электронных информационных устройств и устройств автоматики непрерывно увеличивается. Это является результатом развития интегральной технологии, внедрение которой позволило наладить массовый выпуск дешевых, высококачественных, не требующих специальной настройки и наладки микроэлектронных функциональных узлов различного назначения.

Промышленность выпускает почти все электронные функциональные узлы, необходимые для создания устройств измерительной и вычислительной техники, а также систем автоматики: интегральные электронные усилители электрических сигналов; коммутаторы; логические элементы; перемножители электрических напряжений; триггеры; счетчики импульсов; регистры; сумматоры и т.д. На основе больших и сверхбольших интегральных схем созданы и выпускают микропроцессоры и микропроцессорные комплекты, представляющие собой вычислительную машину или ее основные узлы, изготовленные в одном корпусе или в нескольких малогабаритных корпусах. Функции, выполняемые интегральными схемами микропроцессоров, могут быть заданы подачей на их входы внешних электрических сигналов, осуществляемой по определенной программе. Тем самым данные микросхемы позволяют реализовать большое количество разнообразных операций по обработке цифровых сигналов без каких-либо изменений в технологии их изготовления.

Использование базовых матричных кристаллов и программируемых логических матриц является другим способом расширения функциональных возможностей интегральных схем.

В развитии электроники на протяжении многих лет остается стабильным только одно – это непрерывное изменение элементной и схемотехнической баз.

В связи с широким выбором интегральных схем, параметры которых известны из технических условий, изменились задачи, стоящие перед разработчиками электронной аппаратуры. Если раньше значительная часть времени уходила на расчеты режимов отдельных каскадов, определение их параметров, решение вопросов термостабилизации и т. п., то в настоящее время главное внимание уделяется вопросам выбора схем соединений и взаимного согласования микросхем.

Типовые микроузлы позволяют собрать нужный электронный блок без детального расчета отдельных каскадов. Разработчик электронной аппаратуры, определив, какие преобразования должен претерпеть электрический сигнал, подбирает необходимые интегральные микросхемы, разрабатывает схему их соединений и вводит обратные связи требуемого вида.

Для успешного формирования профессионального мышления, создания современных учебников и учебных пособий чрезвычайно важны разработка терминов и, соответственно терминологических словарей на государственном языке.

Русско-узбекский толковый словарь терминов по электронной технике и радиоэлектронике разработан в Центре научно-технических и маркетинговых исследований – «UNICON.UZ» ГУП.

В словаре отражен широкий спектр терминов по электронным, оптоэлектронным, полупроводниковым, электровакуумным, газоразрядным приборам, радиотехническим системам, телевидению, радиопеленгаторам, антеннам, радиотелеметрическому оборудованию, средствам радиосвязи, бытовой радиоэлектронике, способам и средствам записи и воспроизведения информации, лазерной технике.

Словарь включает свыше 2200 терминов, расположенных в алфавитном порядке.

Словарь содержит термины и определения на узбекском языке с терминами и определениями – эквивалентами на русском языке, а также термины – эквиваленты на русском и английском языках.

Названия статей (термины) даются преимущественно в единственном числе. Следует иметь в виду, что определение термина раскрывает суть термина и отражает его основное содержание. При формулировке толкований терминов на русском и узбекском языках главное внимание было сконцентрировано на раскрытие физической сущности процессов, происходящих в радиоэлектронных устройствах.

Словарь рассчитан на инженерно-технических и научных работников использующих в своей практической деятельности отечественную и зарубежную нормативную и техническую документацию, а также преподавателей и студентов высших и средних специальных учебных заведений. Словарь особенно полезен для работников издательств, переводчиков, авторов учебников и учебных пособий.

Заранее выражаем признательность за замечания и предложения. Они будут учтены при подготовке очередного издания словаря.

Наш адрес: 100202, г. Ташкент, ул. Богишамол, 7<sup>а</sup>.  
Государственное унитарное предприятие  
«Центр научно-технических и маркетинговых  
исследований» – «UNICON.UZ»,  
Служба терминологии и словарей

## Kirish

Bugungi kunda nafaqat ilmiy tadqiqotlarni, balki kundalik hayotimizni radioelektron apparaturalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Elektronika hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Turmushda va ishlab chiqarishda, ilmiy-tadqiqot instituti va konstruktorlik byurosida, hamma yerda biz elektronika bilan to'qnash kelamiz. Aynan, elektronika zamonaviy aloqa vositalari, kompyuter tizimlari va texnologiyalarini, murakkab va nozik operatsiyalarni bajaradigan elektron apparaturalar yaratish imkonini berdi.

Sanoatda, elektron asboblardan yoki o'lchash texnikasining elektron qurilmalaridan, avtomatikadan va hisoblash texnikasidan foydalanmaydigan sohani topish mumkin emas. Rivojlanish tendensiyasida elektron axborot qurilmalari va avtomatika qurilmalarining qismi uzluksiz ko'payib boraveradi. Bu integral texnologiyaning rivojlanish natijasi bo'lib, ommaviy arzon, yuqori sifatli, maxsus sozlash talab etmaydigan va turli yo'nalishdagi mikroelektron funksional uzellarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi.

Sanoat deyarli barcha elektron funksional uzellarni o'lchash qurilmalari va hisoblash texnikasini yaratish uchun zarur bo'lgan, shuningdek, avtomatika tizimida ham ishlab chiqaradi: elektr signallarini integral elektron kuchaytirgichlar; kommutatorlar; mantiqiy elementlar; elektr kuchlanish ko'paytirgichlar; triggerlar; impuls hisoblagichlar; registrlar; summatorlar va boshqalar. Katta va o'ta katta integral sxemalar asosida hisoblash mashinalari yoki uning asosiy uzellarini o'zida ifodalaydigan, bitta korpusdan yoki bir nechta kam gabaritli korpuslardan tayyorlangan, mikroprotsessorlar va mikroprotsessorli komplektlar yaratilgan. Integral sxemali mikroprotsessorlar tomonidan tashqi elektr signallar kirishida berilishi mumkin bo'lgan va ma'lum dastur asosida amalga oshirilib bajariladigan funksiyalardir. Shunday qilib quyidagi mikrosxemalarni ishlab chiqarish texnologiyasida hech qanday o'zgarishsiz ko'p sonli turli xil raqamli signallarni qayta ishlaydigan operatsiyalarni bajarishga imkoniyat beradi.

Bazaviy matritsali kristallar va dasturlanadigan mantiqiy matritsalaridan foydalanish integral sxemalar funksional imkoniyatlarini kengaytirishning boshqa usulidir.

Faqat birgina elementli va sxemotexnika bazasining uzluksiz o'zgarishi ko'p yillar davomida elektronikani rivojlanishida stabil bo'lib qolmoqda.

Integral sxemalarni keng tanlash bilan bog'liq holda, parametrlari texnik shartlarida ma'lum bo'lgan, elektron apparaturalarini ishlab chiqaruvchilarning oldidagi vazifalari o'zgargan. Agar, ilgari vaqtning muhim qismi alohida kaskadlarni hisoblash tartibiga, ularning parametrlarini aniqlashga, termostabilizatsiya va shu kabi savollar yechimiga ketgan bo'lsa, hozirgi kunda asosiy e'tibor ulash sxemalarini tanlash va mikrosxemalarni o'zaro muvofiqlashtirish kabi savollarga ajratilgan.

Namunali mikrouzellar alohida kaskadlarni detalsiz hisoblab, zarur bo'lgan elektron blokni yig'ish imkonini beradi. Elektron apparaturani ishlab chiquvchi elektr signali qanday o'zgarishlarga chidamli bo'lishini aniqlab, zarur bo'lgan



integral mikrosxemalarni yig'ib oladi, sxemalar ulanishini ishlab chiqadi va teskari aloqani talab etilgan shaklda kiritadi.

Kasbiy tafakkurni shakllantirish, zamonaviy darsliklar va o'quv qo'llanmalarini yaratish uchun, atamalarning, binobarin, atamashunoslik lug'atlarining davlat tilida ishlab chiqilishi favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi – «UNICON.UZ» DUKda elektron texnika va radioelektronikaga oid atamalar ruscha-o'zbekcha izohli lug'atining qayta ishlangan, to'ldirilgan ikkinchi nashri ishlab chiqildi.

Lug'atda elektron, optoelektron, yarimo'tkazgichli, elektrovakuum, gaz-razryadli asboblari, radiotexnika tizimlari, televideniye, radiopelengatorlar, antenalar, radiotelemetrik uskuna, radioaloqa vositalari, maishiy radioelektronika, axborotni yozish hamda qayta tiklash usullari va vositalari, lazer texnikasi bo'yicha atamalarning keng spektri aks ettirilgan.

Lug'at alifbo tartibida joylashtirilgan, 2200 dan ortiq atamani o'z ichiga oladi.

Lug'at o'zbek tilidagi atama va ta'riflarni hamda ularning rus tilidagi muqobilini, shuningdek, atamalarning rus hamda ingliz tillaridagi ifodasini o'z ichiga oladi.

Aksariyat hollarda atamalar birlik shaklda berilgan. Shunga e'tibor qaratish kerakki, atamalarning ta'riflari hajm jihatdan unchalik keng bo'lmasa ham, ularning mohiyatini ochib beradi, asosiy mazmunini aks ettiradi. Atamalarning o'zbek va rus tillaridagi izohlarini ta'riflashda asosiy diqqat-e'tibor radioelektron qurilmalarda yuz beradigan jarayonlarning fizik mohiyatini ochib berishga qaratilgan.

Lug'atdan o'zining amaliy faoliyatida mamlakatimizda va xorijda ishlab chiqilgan normativ-texnik hujjatlardan foydalanadigan muhandis-texniklar, ilmiy xodimlar, shuningdek, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining o'qituvchi va talabalarini foydalanishlari mumkin. Lug'at asosan, nashriyot xodimlari, tarjimonlar hamda darsliklar va o'quv qo'llanmalarining mualliflari uchun foydalidir.

Lug'at yuzasidan bildiriladigan fikr-mulohazalar uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz. Ular lug'atning keyingi nashrini tayyorlashda e'tiborga olinadi.

Bizning manzil: 100202, Toshkent sh., Bog'ishamol ko'chasi, 7<sup>a</sup> uy  
«UNICON.UZ» – «Fan-texnika va marketing  
tadqiqotlari markazi» Davlat unitar korxonasi,  
Atamashunoslik va lug'atlar xizmati

## Кириш

Бугунги кунда нафақат илмий тадқиқотларни, балки кундалик ҳаётимизни радиоэлектрон аппаратураларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Электроника ҳаётимизнинг ажралмас қисмига айланиб улгурди. Турмушда ва ишлаб чиқаришда, илмий-тадқиқот институти ва конструкторлик бюросида, ҳамма ерда биз электроника билан тўқнаш келамиз. Айнан, электроника замонавий алоқа воситалари, компьютер тизимлари ва технологияларини, мураккаб ва нозик операцияларни бажарадиган электрон аппаратуралар яратиш имконини берди.

Саноатда, электрон асбоблардан ёки ўлчаш техникасининг электрон қурилмасидан, автоматикадан ва ҳисоблаш техникасидан фойдаланмайдиган соҳани топиш мумкин эмас. Ривожланиш тенденциясида электрон ахборот қурилмалари ва автоматика қурилмаларининг қисми узлуксиз кўпайиб бораверади. Бу интеграл технологиянинг ривожланиш натижаси бўлиб, оммавий арзон, юқори сифатли, махсус созлаш талаб этмайдиган ва турли йўналишдаги микроэлектрон функционал узелларни ишлаб чиқаришни йўлга қўяди.

Саноат деярли барча электрон функционал узелларни ўлчаш қурилмалари ва ҳисоблаш техникасини яратиш учун зарур бўлган, шунингдек, автоматика тизимида ҳам ишлаб чиқаради: электр сигналларини интеграл электрон кучайтиргичлар; коммутаторлар; мантиқий элементлар; электр кучланиш кўпайтиргичлар; триггерлар; импульс ҳисоблагичлар; регистрлар; сумматорлар ва бошқалар. Катта ва ўта катта интеграл схемалар асосида ҳисоблаш машиналари ёки унинг асосий узелларини ўзида ифодаладиган, битта корпусдан ёки бир нечта кам габаритли корпуслардан тайёрланган, микропроцессорлар ва микропроцессорли комплеклар яратилган. Интеграл схемали микропроцессорлар томонидан ташқи электр сигналлар киришида берилиши мумкин бўлган ва маълум дастур асосида амалга оширилиб бажариладиган функциялардир. Шундай қилиб қуйидаги микросхемаларни ишлаб чиқариш технологиясида ҳеч қандай ўзгаришсиз кўп сонли турли хил рақамли сигналларни қайта ишлайдиган операцияларни бажаришга имконият беради.

Базавий матрицали кристаллар ва дастурланадиган мантиқий матрицалардан фойдаланиш интеграл схемалар функционал имкониятларини кенгайтиришнинг бошқа усулидир.

Фақат биргина элементли ва схемотехника базасининг узлуксиз ўзгариши кўп йиллар давомида электроникани ривожланишида стабил бўлиб қолмоқда.

Интеграл схемаларни кенг танлаш билан боғлиқ ҳолда, параметрлари техник шартларида маълум бўлган, электрон аппаратураларини ишлаб чиқарувчиларнинг олдидаги вазифалари ўзгарган. Агар, илгари вақтнинг муҳим қисми алоҳида каскадларни ҳисоблаш тартибига, уларнинг параметрларини аниқлашга, термостабилизация ва шу каби саволлар ечимига кетган бўлса, ҳозирги кунда асосий эътибор улаш схемаларини танлаш ва микросхемаларни ўзаро мувофиқлаштириш каби саволларга ажратилган.

Намунали микроузеллар алоҳида каскадларни деталсиз ҳисоблаб, зарур бўлган электрон блокни йиғиш имконини беради. Электрон аппаратуранини ишлаб чиқувчи электр сигнали қандай ўзгаришларга чидамли бўлишини аниқлаб, зарур бўлган интеграл микросхемаларни йиғиб олади, схемалар ула-нишини ишлаб чиқади ва тескари алоқани талаб этилган шаклда киритади.

Касбий тафаккурни шакллантириш, замонавий дарсликлар ва ўқув қўлланмаларинини яратиш учун, атамаларнинг, бинобарин, атамашунослик луғатларининг давлат тилида ишлаб чиқилиши фавқулодда муҳим аҳамият касб этади.

Фан-техника ва маркетинг тадқиқотлари маркази – «UNICON.UZ» ДУК да электрон техника ва радиоэлектроникага оид атамалар русча-ўзбекча изоҳли луғатининг қайта ишланган, тўлдирилган иккинчи наشري ишлаб чиқилди.

Луғатда электрон, оптоэлектрон, яримўтказгичли, электровакуум, газ-разрядли асбоблар, радиотехника тизимлари, телевидение, радиопеленгаторлар, антенналар, радиотелеметрик ускуна, радиоалоқа воситалари, маиший радиоэлектроника, ахборотни ёзиш ҳамда қайта тиклаш усуллари ва воситалари, лазер техникаси бўйича атамаларнинг кенг спектри акс этирилган.

Луғат алифбо тартибида жойлаштирилган, 2200 дан ортиқ атамани ўз ичига олади.

Луғат ўзбек тилидаги атама ва таърифларни ҳамда уларнинг рус тилидаги муқобилини, шунингдек, атамаларнинг рус ҳамда инглиз тилларидаги ифодасини ўз ичига олади.

Аксарият ҳолларда атамалар бирлик шаклда берилган. Шунга эътибор қаратиш керакки, атамаларнинг таърифлари ҳажм жиҳатдан унчалик кенг бўлмаса ҳам, уларнинг моҳиятини очиқ беради, асосий мазмунини акс этти-ради. Атамаларнинг ўзбек ва рус тилларидаги изоҳларини таърифлашда асо-сий диққат-эътибор радиоэлектрон қурилмаларда юз берадиган жараёнлар-нинг физик моҳиятини очиқ беришга қаратилган.

Луғатдан ўзининг амалий фаолиятида мамлакатимизда ва хорижда ишлаб чиқилган норматив-техник ҳужжатлардан фойдаланадиган муҳандис-техниклар, илмий ходимлар, шунингдек, олий ва ўрта махсус ўқув юртла-рининг ўқитувчи ва талабалари фойдаланишлари мумкин. Луғат асосан, наш-риёт ходимлари, таржимонлар ҳамда дарсликлар ва ўқув қўлланмаларининг муаллифлари учун фойдалидир.

Луғат юзасидан билдириладиган фикр-мулоҳазалар учун олдиндан миннатдорчилик билдирамиз. Улар луғатнинг кейинги нашрини тайёрлашда эътиборга олинади.

Бизнинг манзил: 100202, Тошкент ш., Боғишамол кўчаси, 7<sup>а</sup> уй  
«UNICON.UZ» – «Фан-техника ва маркетинг  
тадқиқотлари маркази» Давлат унитар корхонаси,  
Атамашунослик ва луғатлар хизмати

Термин	Определение
--------	-------------

## А

### **Абонентский**

#### **громкоговоритель**

**uz** - abonent radiokarnayi

абонент радиокарнайи

**en** - subscriber's loudspeaker

Бытовой радиоэлектронный аппарат, предназначенный для приема и воспроизведения трансляционных программ, передаваемых по сети проводного вещания.

Simli eshittirish tarmog' i orqali uzatiladigan translyatsiya dasturlarini qabul qilish va eshittirish uchun mo'ljallangan maishiy radioelektron apparat.

Симли эшиттириш тармоғи орқали узатиладиган трансляция дастурларини қабул қилиш ва эшиттириш учун мўлжалланган маиший радиоэлектрон аппарат.

### **Абсолютное черное тело**

**uz** - absolyut qora jism

абсолют қора жисм

**en** - absolute black body

Тело, полностью поглощающее весь падающий на него поток излучения. Коэффициент поглощения абсолютного черного тела равен единице и не зависит от длины волны излучения.

O'ziga tushadigan nurlanish oqimini to'liq yutuvchi jism. Absolyut qora jismning yutilish koeffitsiyenti birga teng bo'lib, nurlanish to'lqin uzunligiga bog'liq emas.

Ўзига тушадиган нурланиш оқимини тўлиқ ютувчи жисм. Абсолют қора жисмнинг ютилиш коэффиценти бирга тенг бўлиб, нурланиш тўлқин узунлигига боғлиқ эмас.

### **Автодинный прием**

**uz** - avtodin qabul

автодин қабул

**en** - autodyne reception

Радиоприем сигналов незатухающих волн, при котором единственный контур используется одновременно как цепь настройки на входной сигнал и как резонатор генератора биений; соответствующая электронная лампа или транзистор служат одновременно детектором колебаний и иногда усилителем.

So'nmaydigan to'lqin signallarini radioqabul qilish, bunda yagona konturdan bir vaqtning o'zida ham kirish signaliga sozlash zanjiri, ham tepkili tebranishlar generatorining rezonatori sifatida foydalaniladi; tegishli elektron lampa yoki tranzistor

## A

bir vaqtning o'zida tebranishlar detektori, ba'zan kuchaytirgich bo'lib xizmat qiladi.

Сўнмайдиган тўлқин сигналларини радиоқабул қилиш, бунда ягона контурдан бир вақтнинг ўзида ҳам кириш сигналига созлаш занжири, ҳам тепкили тебранишлар генераторининг резонатори сифатида фойдаланилади; тегишли электрон лампа ёки транзистор бир вақтнинг ўзида тебранишлар детектори, баъзан кучайтиргич бўлиб хизмат қилади.

### **Автоинформатор**

**uz** - avtoinformator

автоинформатор

**en** - answer phone auto-caller

Устройство для многократного воспроизведения речевой информации.

Nutqli axborotni ko'p marta qayta eshittirish uchun mo'ljallangan qurilma.

Нутқли ахборотни кўп марта қайта эшиттириш учун мўлжалланган қурилма.

### **Автоматическая станция**

**uz** - avtomatik stansiya

автоматик станция

**en** - automatic station

Станция, управляемая автоматически посредством внутреннего оборудования.

Ichki uskuna vositasida avtomatik ravishda boshqariladigan stansiya.

Ички ускуна воситасида автоматик равишда бошқариладиган станция.

### **Автоматический радиопеленгатор**

**uz** - avtomatik radiopelengator

автоматик радиопеленгатор

**en** - automatic direction finder

Радиопеленгатор, осуществляющий автоматическое измерение и индикацию радиопеленга объекта, излучающего радиосигнал, на частоту которого он настроен.

Chastotasiga sozlangan, radiosignal tarqatuvchi obyekt radiopelengini avtomatik ravishda o'lcaydigan va qayd qiladigan radiopelengator.

Частотасига созланган, радиосигнал тарқатувчи объект радиопеленгини автоматик равишда ўлчайдиган ва қайд қиладиган радиопеленгатор.

## A

### **Автономный инвертор**

**uz** - avtonom invertor

автоном инвертор

**en** - self-commutated inverter

Инвертор, в котором коммутация вентиляей осуществляется либо путем выключения и включения полностью управляемых приборов (транзисторов и запираемых тиристоров), либо с помощью устройств принудительной коммутации, входящих в состав схемы преобразователя и создающих коммутирующее напряжение, обеспечивающее выключение не полностью управляемых приборов (тиристоров).

Ventillarni kommutatsiyalash to‘la boshqariladigan asboblar (tranzistorlar va berkiladigan tiristorlar)ni uzib qo‘yish va ulash yo‘li bilan yoki to‘la boshqarilmaydigan asboblar (tiristorlar) uzib qo‘yilishini ta‘minlaydigan kommutatsiyalovchi kuchlanish vujudga keltiradigan va o‘zgartirgich sxemasi tarkibiga kiradigan majburiy kommutatsiyalash qurilmalari yordamida amalga oshiriladigan invertor.

Вентилларни коммутациялаш тўла бошқариладиган асбоблар (транзисторлар ва беркиладиган тиристорлар)ни узиб қўйиш ва улаш йўли билан ёки тўла бошқарилмайдиган асбоблар (тиристорлар) узиб қўйилишини таъминлайдиган коммутацияловчи кучланиш вужудга келтирадиган ва ўзгартиргич схемаси таркибига кирадиган мажбурий коммутациялаш қурилмалари ёрдамида амалга ошириладиган инвертор.

### **Автоэлектронный**

#### **проектор**

**uz** - avtoelektron proyektor

автоэлектрон проектор

**en** - autoelectronic projector

Электронный микроскоп, формирующий изображение объекта электронными пучками, эмитируемыми этим объектом под воздействием электрического поля.

Obyekt tasvirini elektr maydon ta‘sirida bu obyekt emitterlaydigan elektron dastalar orqali shakllanti-radigan elektron mikroskop.

Объект тасвирини электр майдон таъсирида бу объект эмиттерлайдиган электрон дасталар орқали шаклантирадиган электрон микроскоп.

## А

### **Адаптер видеотекста**

**uz** - videomatn adapteri

видеоматн адаптери

**en** - videotext adapter

Бытовой радиоэлектронный аппарат, предназначенный для приема и запоминания электрических сигналов алфавитно-цифровой информации, поступающих по телефонному каналу связи, с последующим отображением ее на экране телевизионного приемника или бытового видеомонитора.

Telefon aloqa kanali orqali keladigan alifbo-raqamli axborot elektr signallarini, keyinchalik televizion qabulqilgich yoki maishiy videomonitor ekranida aks ettirish bilan qabul qilish va хотирада saqlash uchun mo'ljallangan maishiy radioelektron apparat.

Телефон алоқа канали орқали келадиган алифбо-рақамли ахборот электр сигналларини, кейинчалик телевизион қабулқилгич ёки маиший видеомонитор экранида акс этириш билан қабул қилиш ва хотирада сақлаш учун мўлжалланган маиший радиоэлектрон аппарат.

### **Адаптер телетекста**

**uz** - telematn adapteri

телематн адаптери

**en** - teletext adapter

Бытовой радиоэлектронный аппарат, предназначенный для приема и запоминания электрических сигналов справочной алфавитно-цифровой информации телевизионных программ, передаваемых за время обратного хода луча по кадру с последующим отображением на экране телевизионного приемника или бытового видеомонитора.

Kadr bo'ylab nurning qaytish yo'li vaqti ichida uzatiladigan televizion dasturlarning ma'lumotnoma alifbo-raqamli axborot elektr signallarini, keyinchalik televizion qabulqilgich yoki maishiy videomonitor ekranida aks ettirish bilan qabul qilish va хотирада saqlash uchun mo'ljallangan maishiy radioelektron apparat.

Кадр бўйлаб нурнинг қайтиш йўли вақти ичида узатиладиган телевизион дастурларнинг маълумотнома алифбо-рақамли ахборот электр сигналларини, кейинчалик телевизион қабулқилгич

## А

ёки маиший видеомонитор экранида акс эттириш билан қабул қилиш ва хотирада сақлаш учун мўлжалланган маиший радиоэлектрон аппарат.

### **Азимутально-дальномерный радиомаяк**

**uz** - azimuthal-masofa  
o'Ichagich radiomayoq  
азимутал-масофа

ўлчагич радиомаёқ

**en** - azimuthal-distance measure  
radio beacon

Радиомаяк радиотехнической системы ближней навигации, обеспечивающий получение информации об азимуте и дальности только на борту подвижного объекта или на борту подвижного объекта и на радиомаяке.

Yaqin navigatsiya radiotexnika tizimining, azimuth va masofa to'g'risidagi axborot faqat ko'chma obyekt bortida yoki ko'chma obyekt bortida va radiomayoqda olinishini ta'minlaydigan radiomayog'i.

Яқин навигация радиотехника тизимининг, азимут ва масофа тўғрисидаги ахборот фақат кўчма объект бортида ёки кўчма объект бортида ва радиомаёқда олинисини таъминлайдиган радиомаёғи.

### **Азимутальный радиомаяк**

**uz** - azimuthal radiomayoq  
азимутал радиомаёқ  
**en** - azimuthal radio beacon

Радиомаяк радиотехнической системы ближней навигации, обеспечивающий получение на борту подвижного объекта информации только об азимуте.

Yaqin navigatsiya radiotexnika tizimining, ko'chma obyekt bortida faqat azimuth to'g'risida axborot olinishini ta'minlaydigan radiomayog'i.

Яқин навигация радиотехника тизимининг, кўчма объект бортида фақат азимут тўғрисида ахборот олинисини таъминлайдиган радиомаёғи.

### **Аквадаг**

**uz** - akvadag  
аквадаг  
**en** - aquadag

Коллоидно-графитовый препарат для создания покрытий с высокой электрической проводимостью (до  $3 \cdot 10^{-3} \Omega^{-1} \text{cm}^{-1}$ ) на внутренних и внешних элементах электровакуумных приборов.

Elektrovakuum asboblarning ichki va tashqi elementlarida yuqori elektr o'tkazuvchanlikka



## А

( $3 \cdot 10^{-3} \Omega^{-1} \text{ cm}^{-1}$  gacha) ega bo'lgan qoplamlarni hosil qilish uchun mo'ljallangan kolloid-grafitli preparat.

Электрвакуум асбобларнинг ички ва ташқи элементларида юқори электр ўтказувчанликка ( $3 \cdot 10^{-3} \Omega^{-1} \text{ cm}^{-1}$  гача) эга бўлган қопламларни ҳосил қилиш учун мўлжалланган коллоид-графитли препарат.

**Активная бытовая акустическая система**  
**uz** - aktiv maishiy akustik tizim

актив маиший акустик  
ТИЗИМ  
**en** - active household acoustic system

Бытовой радиоэлектронный аппарат, функционально и конструктивно объединяющий громкоговоритель и усилитель мощности сигналов звуковой частоты.

Funksional va konstruktiv jihatdan, radiokarnay va tovush chastotasi signallari quvvatini kuchaytirgichdan iborat bo'lgan maishiy radioelektron apparat.

Функционал ва конструктив жиҳатдан, радиокарнай ва товуш частотаси сигналлари қувватини кучайтиргичдан иборат бўлган маиший радиоэлектрон аппарат.

**Активная бытовая антенна**  
**uz** - aktiv maishiy antenna  
актив маиший антенна  
**en** - active household antenna

Антенна с встроенным усилителем принимаемых сигналов, предназначенная для приема и усиления сигналов радио и телевизионного вещания.

Radio va televizion eshittirish signallarini qabul qilish hamda kuchaytirish uchun mo'ljallangan, qabul qilinadigan signallarni kuchaytirgich o'rnatilgan antenna.

Радио ва телевизион эшиттириш сигналларини қабул қилиш ҳамда кучайтириш учун мўлжалланган, қабул қилинадиган сигналларни кучайтиргич ўрнатилган антенна.

**Активная радиолокация**  
**uz** - aktiv radiolokatsiya  
актив радиолокация  
**en** - active radiolocation

Система обнаружения, основанная на сравнении опорных сигналов и радиосигналов, отражаемых с определенной позиции.

## A

Tayanch signallar va ma'lum obyektдан qaytadigan radiosignallarni taqqoslashga asoslangan aniqlash tizimi.

Таянч сигналлар ва маълум объектдан қайтадиган радиосигналларни таққослашга асосланган аниқлаш тизими.

### **Активная схема**

**uz** - aktiv sxema

актив схема

**en** - active circuit

Схема, включающая в себя источник электрической энергии.

Elektr energiya manbaini o'z ichiga oladigan sxema.

Электр энергия манбаини ўз ичига оладиган схема.

### **Активный излучатель**

**uz** - aktiv nurlatkich

актив нурлаткич

**en** - primary radiator

Элемент антенны, соединенный с радиопередатчиком питающей линией.

Radiouzatkich bilan ta'minlovchi liniya orqali birlashtirilgan antenna elementi.

Радиоузаткич билан таъминловчи линия орқали бирлаштирилган антенна элементи.

### **Активный резонатор сверхвысокой частоты**

**uz** - o'ta yuqori chastota aktiv rezonatori

ўта юқори частота актив резонатори

**en** - ultra high frequency active resonator

Резонатор сверхвысокой частоты, в котором сверхвысокочастотное поле взаимодействует с рабочим электронным потоком.

O'ta yuqori chastotali maydon ishchi elektron oqim bilan o'zaro ta'sirda bo'ladigan o'ta yuqori chastota rezonatori.

Ўта юқори частотали майдон ишчи электрон оқим билан ўзаро таъсирда бўладиган ўта юқори частота резонатори.

### **Активный силовой фильтр переменного тока**

**uz** - o'zgaruvchan tokning aktiv kuch filtri

ўзгарувчан токнинг актив куч фильтри

Фильтр, предназначенный для уменьшения уровня высших гармоник тока и реактивной составляющей основной гармоники тока в цепях переменного тока.

O'zgaruvchan tok zanjirlarida tok asosiy garmonikasining reaktiv tashkil etuvchisi va tokning yuqori

## A

**en** - active power alternating current filter

garmonikalari sathini kamaytirish uchun mo'ljallangan filtr.

Ўзгарувчан ток занжирларида ток асосий гармоникасининг реактив ташкил этувчиси ва токнинг юқори гармоникалари сатҳини камайтириш учун мўлжалланган филтър.

**Активный силовой фильтр постоянного тока**

**uz** - o'zgarmas tokning aktiv kuch filtri

ўзгармас токнинг актив куч филтри

**en** - active power direct current filter

Филтър, предназначенный для уменьшения пульсаций напряжения (тока) в цепях постоянного тока.

O'zgarmas tok zanjirlarida kuchlanish (tok) pulsatsiyalarini kamaytirish uchun mo'ljallangan filtr.

Ўзгармас ток занжирларида кучланиш (ток) пульсацияларини камайтириш учун мўлжалланган филтър.

**Акустические волны**

**uz** - akustik to'lqinlar

акустик тўлқинлар

**en** - acoustic wave

Упругие возмущения, распространяющиеся в твердой, жидкой и газообразной средах. Диапазон частот акустических волн: инфразвуковые (примерно до 16 Hz), звуковые (от 16 до  $2 \cdot 10^4$  Hz), ультразвуковые (от  $2 \cdot 10^4$  до  $10^9$  Hz) и гиперзвуковые (от  $10^9$  до  $10^{13}$  Hz) волны.

Qattiq, suyuq va gazsimon muhitlarda tarqaladigan elastik g'alayonlanishlar. Akustik to'lqinlarning chastotalar diapazoni: infratovush to'lqinlar (taxminan 16 Hz gacha), tovush to'lqinlari (16 Hz dan  $2 \cdot 10^4$  Hz gacha), ultratovush to'lqinlar ( $2 \cdot 10^4$  Hz dan  $10^9$  Hz gacha) va gipertovush to'lqinlar ( $10^9$  Hz dan  $10^{13}$  Hz gacha).

Қаттиқ, суюқ ва газсимон муҳитларда тарқаладиган эластик ғалаёнланишлар. Акустик тўлқинларнинг частоталар диапазони: инфратовуш тўлқинлар (тахминан 16 Hz гача), товуш тўлқинлари (16 Hz дан  $2 \cdot 10^4$  Hz гача), ультратовуш тўлқинлар ( $2 \cdot 10^4$  Hz дан  $10^9$  Hz гача) ва гипертовуш тўлқинлар ( $10^9$  Hz дан  $10^{13}$  Hz гача).

**Акустооптика**

Раздел акустоэлектроники, изучающий взаимо-

## A

**uz** - akustooptika  
акустооптика  
**en** - acoustooptics

действие электромагнитных волн (в основном оптического диапазона) с акустическими волнами в твердых телах и жидкостях.

Akustik elektronikaning, elektromagnit to‘lqinlarining (asosan, optik diapazondagi) qattiq jismlar va suyuqliklarda akustik to‘lqinlar bilan o‘zaro ta‘sirini o‘rganadigan bo‘limi.

Акустик электрониканинг, электромагнит тўлқинларнинг (асосан, оптик диапазондаги) қаттиқ жисмлар ва суюқликларда акустик тўлқинлар билан ўзаро таъсирини ўрганадиган бўлими.

### **Акустооптические устройства**

**uz** - akustooptik qurilmalar  
акустооптик қурилмалар  
**en** - acoustooptic devices

Устройства, основанные на взаимодействии электромагнитных волн оптического диапазона с акустическими волнами в твердых телах и жидкостях. Основной элемент акустооптического устройства – акустооптическая ячейка, состоящая из электроакустического преобразователя, возбуждающего акустическую волну и светозвукопровода, в объеме которого происходит дифракция света на этой волне.

Optik diapazondagi elektromagnit to‘lqinlarning qattiq jismlar va suyuqliklarda akustik to‘lqinlar bilan o‘zaro ta‘sirlashishiga asoslangan qurilmalar. Bunday qurilmalarning asosiy elementi akustik to‘lqin qo‘zg‘atadigan elektroakustik o‘zgartirgichdan va hajmida bu to‘lqin asosida yorug‘lik difraksiyasi yuz beradigan yorug‘lik-tovush o‘tkazgichdan iborat bo‘lgan yacheyka hisoblanadi.

Оптик диапазондаги электромагнит тўлқинларнинг қаттиқ жисмлар ва суюқликларда акустик тўлқинлар билан ўзаро таъсирлашишига асосланган қурилмалар. Бундай қурилмаларнинг асосий элементи акустик тўлқин қўзғатадиган электроакустик ўзгартиргичдан ва ҳажмида бу тўлқин асосида ёруғлик дифракцияси юз берадиган ёруғлик-товуш ўтказгичдан иборат бўлган ячейка ҳисобланади.

### **Акустооптический**

Оптический дефлектор, действие которого ос-

## А

### **дефлектор**

**uz** - akustooptik deflektor

акустооптик дефлектор

**en** - acousto-optic deflector

новано на использовании акустооптического эффекта.

Ishlashi akustooptik effektdan foydalanishga asoslangan optik deflektor.

Ишлаши акустооптик эффектдан фойдаланишга асосланган оптик дефлектор.

### **Акустооптический**

#### **лазерный затвор**

**uz** - akustooptik lazerli zatvor

акустооптик лазерли затвор

**en** - acousto-optic laser

shutter

Лазерный затвор, действие которого основано на использовании акустооптического эффекта.

Ishlashi akustooptik effektdan foydalanishga asoslangan lazerli zatvor.

Ишлаши акустооптик эффектдан фойдаланишга асосланган лазерли затвор.

### **Акустооптический**

#### **перестраиваемый фильтр**

**uz** - akustooptik qayta

sozlanadigan filtr

акустооптик қайта

созланадиган фильтр

**en** - acousto-optical

reconstructable filter

Перестраиваемый оптический фильтр, действие которого основано на использовании коллинеарного акустооптического взаимодействия в оптических анизотропных средах.

Ishlashi optik anizotrop muhitlarda kollinear akustooptik o'zaro ta'sirdan foydalanishga asoslangan, qayta sozlanadigan optik filtr.

Ишлаши оптик анизотроп мухитларда коллинеар акустооптик ўзаро таъсирдан фойдаланишга асосланган, қайта созланадиган оптик фильтр.

### **Акустооптический эффект**

**uz** - akustooptik effekt

акустооптик эффект

**en** - acousto-optical effect

Изменение некоторых оптических параметров вещества под действием акустических (ультразвуковых) колебаний.

Modda ba'zi optik parametrlarining akustik (ultravovush) tebranishlar ta'sirida o'zgarishi.

Модда баъзи оптик параметрларининг акустик (ультратовуш) тебранишлар таъсирида ўзгариши.

### **Акустоэлектроника**

**uz** - akustoelektronika

акустоэлектроника

Раздел электроники, связанный с исследованием взаимодействия акустических волн с электромагнитными полями и электронами проводимо-

## A

**en** - acoustoelectronics

сти в конденсированных средах и созданием устройств на основе эффектов этого взаимодействия.

Elektronikaning, akustik to'liqlarning elektromagnit maydonlar va kondensatsiyalangan muhitlarda o'tkazuvchanlik elektronlari bilan o'zaro ta'sirini o'rganish va bu o'zaro ta'sir effektlari asosida qurilmalar yaratish bilan bog'liq bo'limi.

Электрониканинг, акустик тўлқинларнинг электромагнит майдонлар ва конденсацияланган мухитларда ўтказувчанлик электронлари билан ўзаро таъсирини ўрганиш ва бу ўзаро таъсир эффектлари асосида қурилмалар яратиш билан боғлиқ бўлими.

**Акустоэлектронное взаимодействие**

**uz** - akustoelektron o'zaro ta'sir

акустоэлектрон ўзаро таъсир

**en** - acoustoelectronic interaction

Взаимодействие акустических волн с электронами проводимости в твердых телах, вызванное тем, что при распространении акустических волн в кристаллическом твердом теле происходит деформация его кристаллической решетки и изменение внутрискристаллических сил, действующих на электроны. При акустоэлектронном взаимодействии происходит обмен энергией и импульсом между волной и электронами.

Akustik to'liqlarning qattiq jismlarda o'tkazuvchanlik elektronlari bilan, akustik to'liqlar kristall qattiq jismda tarqalganda uning kristall panjarasi deformatsiyalanishi va elektronlarga ta'sir etuvchi ichki kristall kuchlarning o'zgarishi tufayli kelib chiqadigan o'zaro ta'siri. Akustoelektron o'zaro ta'sir chog'da to'liq va elektronlar o'rtasida energiya hamda impuls almashinuvi yuz beradi.

Акустик тўлқинларнинг қаттиқ жисмларда ўтказувчанлик электронлари билан, акустик тўлқинлар кристалл қаттиқ жисмда тарқалганда унинг кристалл панжараси деформацияланиши ва электронларга таъсир этувчи ички кристалл кучларнинг ўзгариши тўфайли келиб чиқадиган ўзаро таъсири. Акустоэлектрон ўзаро таъсир

## А

### **Акустоэлектронные устройства**

**uz** - akustoelektron  
qurilmalar

акустоэлектрон  
қурилмалар

**en** - acoustoelectronic devices

чоғида тўлқин ва электронлар ўртасида энергия ҳамда импульс алмашинуви юз беради.

Устройства для аналоговой обработки информации на основе акустоэлектронного взаимодействия. Акустоэлектронные устройства позволяют преобразовывать сигналы во времени (задержка, изменение длительности), по частоте и фазе, по амплитуде (усиление, модуляция) и выполнять более сложные функциональные преобразования (интегрирование, кодирование, декодирование).

Akustoelektron o‘zaro ta’sir asosida axborotni analog qayta ishlash uchun mo‘ljallangan qurilmalar. Akustoelektron qurilmalar signallarni vaqt (ushlab qolish, davomiyligini o‘zgartirish), chastota va faza, amplituda bo‘yicha (kuchaytirish, modulyatsiyalash) o‘zgartirish va murakkabroq funksional o‘zgarishlarni (integrallash, kodlash, dekodlash) bajarish imkonini beradi.

Акустоэлектрон ўзаро таъсир асосида ахборотни аналог қайта ишлаш учун мўлжалланган қурилмалар. Акустоэлектрон қурилмалар сигналларни вақт (ушлаб қолиш, давомийлигини ўзгартириш), частота ва фаза, амплитуда бўйича (кучайтириш, модуляциялаш) ўзгартириш ва мураккаброқ функционал ўзгаришларни (интеграллаш, кодлаш, декодлаш) бажариш имконини беради.

### **Акустоэлектронный усилитель**

**uz** - akustoelektron  
kuchaytirgich

акустоэлектрон  
қучайтиргич

**en** - acoustoelectronic  
amplifier

Акустоэлектронное устройство, предназначенное для усиления акустических волн. В этом устройстве к кристаллу пьезополупроводника приложено внешнее электрическое поле, создающее дрейф носителей заряда (электронов) в направлении распространения акустической волны.

Akustik to‘lqinlarni kuchaytirish uchun mo‘ljallangan akustik elektron qurilma. Bu qurilmada pyezoyarimo‘tkazgich kristaliga akustik to‘lqinning tarqalish yo‘nalishida zaryad (elektron-

## A

lar) tashuvchilarning dreyfini vujudga keltiradigan tashqi elektr maydon qo'yilgan.

Акустик тўлқинларни кучайтириш учун мўлжалланган акустик электрон қурилма. Бу қурилмада пьезояримўтказгич кристалига акустик тўлқиннинг тарқалиш йўналишида заряд (электронлар) ташувчиларнинг дрейфини вужудга келтирадиган ташқи электр майдон қўйилган.

### Акцептор

**uz** - akseptor  
акцептор  
**en** - acceptor

Атом примеси в полупроводнике, способный захватывать электрон из валентной зоны, т.е. вызывать появление в ней дырки, носителя положительного заряда.

Yarimo'tkazgichdagi aralashmaning valent zonasidan elektronni tortib oladigan, ya'ni unda musbat zaryad tashuvchi teshik hosil qiladigan atomi.

Яримўтказгичдаги аралашманинг валент зона-сидан электронни тортиб оладиган, яъни унда мусбат заряд ташувчи тешик ҳосил қиладиган атоми.

### Амбиполярная диффузия

**uz** - ambipolyar diffuziya  
амбиполяр диффузия  
**en** - ambipolar diffusion

Двухполярная диффузия, т.е. совместное перемещение заряженных частиц обоих знаков, происходящее в направлении падения их концентрации.

Ikki qutbli diffuziya, ya'ni ikkala ishorali zaryadlangan zarralarning ularning konsentratsiyasi kamayishi yo'nalishida yuz beradigan birgalikdagi siljishi.

Икки қутбли диффузия, яъни иккала ишорали зарядланган зарраларнинг уларнинг концентрацияси камайиши йўналишида юз берадиган бир-галикдаги силжиши.

### Аморфные полупроводники

**uz** - amorf yarimo'tkazgichlar  
аморф яримўтказгичлар  
**en** - amorphous semiconductors

Аморфные вещества, обладающие свойствами полупроводников. Они могут переходить из высокоомного состояния в низкоомное под воздействием электрического поля. Аморфные полупроводники применяют как фоточувстви-



## А

тельную среду для оптической записи информации.

Yarimo'tkazgich xossalriga ega bo'lgan amorf moddalar. Ular elektr maydon ta'sirida yuqori qarshilikli holatdan past qarshilikli holatga o'tishi mumkin. Amorf moddalardan axborotni optik yozishda fotosezuvchan muhit sifatida foydalaniladi.

Яримўтказгич хоссаларига эга бўлган аморф моддалар. Улар электр майдон таъсирида юқори қаршиликли ҳолатдан паст қаршиликли ҳолатга ўтиши мумкин. Аморф моддалардан ахборотни оптик ёзишда фотосезувчан муҳит сифатида фойдаланилади.

### **Амплитрон**

**uz** - amplitron

амплитрон

**en** - amplitron

Усилительный прибор М-типа обратной волны с замкнутым электронным потоком, разомкнутой замедляющей системой, согласованной с входным и выходным устройствами.

Berk elektron oqimli, kirish va chiqish qurilmalari bilan moslashtirilgan, ochiq sekinlashtiruvchi tizimga ega bo'lgan M-turidagi qaytgan to'liqin kuchaytirgich asbobi.

Берк электрон оқимли, кириш ва чиқиш қурилмалари билан мослаштирилган, очик секинлаштирувчи тизимга эга бўлган М-туридаги қайтган тўлқин кучайтиргич асбоби.

### **Амплитуда колебательной скорости механической записи**

**uz** - mexanik yozuv tebranish tezligining amplitudasi

механик ёзув тебраниш тезлигининг амплитудаси

**en** - amplitude of oscillatory speed of mechanical record

Произведение амплитуды смещения канавки записи на угловую частоту записанного сигнала, характеризующее амплитудное значение уровня механической записи сигнала.

Signalni mexanik yozib olish darajasining amplitudada qiymatini tavsiflaydigan, yozuv ariqchasi siljish amplitudasining yozilgan signalning burchak chastotasiga ko'paytmasi.

Сигнални механик ёзиб олиш даражасининг

## А

амплитуда қийматини тавсифлайдиган, ёзув ариқчаси силжиш амплитудасининг ёзилган сигналнинг бурчак частотасига кўпайтмаси.

**Амплитудная модуляция**  
**uz** - amplitudaviy modulyatsiya  
амплитудавий модуляция  
**en** - amplitude modulation

Способ управления, при котором изменяется амплитуда управляющего сигнала.

Boshqaruvchi signalning amplitudasi o'zgartiriladigan boshqarish usuli.

Бошқарувчи сигналнинг амплитудаси ўзгартириладиган бошқариш усули.

**Амплитудная характеристика оптического модулятора**  
**uz** - optik modulyatorning amplituda xarakteristikasi  
оптик модуляторнинг амплитуда характеристикаси  
**en** - amplitude feature of optical modulator

Зависимость глубины модуляции оптического излучения от амплитуды модулирующего сигнала заданной частоты.

Optik nurlanish modulyatsiya darajasining, ma'lum chastotadagi modulyatsiyalovchi signal amplitudasiga bog'liqligi.

Оптик нурланиш модуляция даражасининг, маълум частотадаги модуляцияловчи сигнал амплитудасига боғлиқлиги.

**Амплитудно-волновые искажения записи-воспроизведения**  
**uz** - yozish-qayta eshittirishning amplituda-to'lqin buzilishlari  
ёзиш-қайта эшиттиришнинг амплитуда-тўлқин бузилишлари  
**en** - amplitude-wave distortions of record

Искажения записываемых и/или воспроизводимых сигналов вследствие неравномерности амплитудно-волновых характеристик записи-воспроизведения.

Yozish-qayta eshittirish amplituda-to'lqin xarakteristikalarining notekisligi oqibatida, yozib olinadigan va/yoki qayta eshittiriladigan signallarning buzilishi.

Ёзиш-қайта эшиттириш амплитуда-тўлқин характеристикаларининг нотекислиги оқибатида, ёзиб олинadigan ва/ёки қайта эшиттириладиган сигналларнинг бузилиши.

**Амплитудно-импульсная модуляция**  
**uz** - amplituda-impulsi modulyatsiya  
амплитуда-импульсли

Вид импульсной модуляции, при которой осуществляется изменение амплитуды импульсов по определенному закону.

Impulslar amplitudalari ma'lum bir qonun bo'yicha

## А

модуляция

**en** - amplitude pulse modulation

o'zgaradigan impulsli modulyatsiya turi.

Импульслар амплитудалари маълум бир қонун бўйича ўзгарадиган импульсли модуляция тури.

**Амплитудно-частотная характеристика записи-воспроизведения**

**uz** - yozish-qayta eshittirishning amplituda-chastota xarakteristikasi

ёзиш-қайта эшиттиришнинг амплитуда-частота

характеристикаси

**en** - amplitude-frequency feature of record-reproduction

Зависимость электродвижущей силы головки воспроизведения от частоты сигнала, подводимого к головке записи.

Qayta eshittirish kallagi elektr yurituvchi kuchining, yozuv kallagiga beriladigan signal chastotasiga bog'liqligi.

Қайта эшиттириш каллагии электр юритувчи кучининг, ёзув каллагига бериладиган сигнал частотасига боғлиқлиги.

**Амплитудно-частотная характеристика**

**uz** - amplituda-chastota xarakteristikasi

амплитуда-частота характеристикаси

**en** - amplitude-frequency characteristic response

Зависимость амплитуды основной составляющей ответного сигнала от частоты периодического синусоидального сигнала с постоянной амплитудой на его входе.

Javob signali asosiy tashkil etuvchisi amplitudasi-ning, uning kirishidagi o'zgarimas amplitudali sinusoidal signal chastotasiga bog'liqligi.

Жавоб сигнали асосий ташкил этувчиси амплитудасининг, унинг киришидаги ўзгармас амплитудали синусоидал сигнал частотасига боғлиқлиги.

**Амплитудно-частотная характеристика канала воспроизведения**

**uz** - qayta eshittirish kanalining amplituda-chastota xarakteristikasi

қайта эшиттириш каналининг амплитуда-частота

характеристикаси

**en** - amplitude-frequency feature of reproduction channel

Зависимость напряжения на выходе канала воспроизведения от частоты сигнала, записанного с неизменным уровнем записи сигнала.

Qayta eshittirish kanali chiqishidagi kuchlanishning, signalni yozib olish darajasi o'zgarimagan holda yozib olingan signal chastotasiga bog'liqligi.

Қайта эшиттириш канали чиқишидаги кучланишнинг, сигнални ёзиб олиш даражаси ўзгармаган ҳолда ёзиб олинган сигнал частотасига боғлиқлиги.

## А

### **Амплитудно-частотная характеристика канала воспроизведения по измерительной сигналограмме**

**uz** - o'lchash signalogrammasi bo'yicha qayta eshittirish kanalining amplituda-chastota xarakteristikasi

Ўлчаш сигналограммаси бўйича қайта эшиттириш каналнинг амплитуда-частота хarakteristikasi

**en** - amplitude-frequency feature of reproduction channel on measuring signal

### **Амплитудно-частотная характеристика канала записи**

**uz** - yozuv kanalining amplituda-chastota xarakteristikasi

ёзув каналнинг амплитуда-частота хarakteristikasi

**en** - amplitude-frequency feature of recording channel

### **Амплитудно-частотная характеристика канала записи-воспроизведения**

**uz** - yozish-qayta eshittirish kanalining amplituda-chastota xarakteristikasi

ёзиш-қайта эшиттириш каналнинг амплитуда-частота хarakteristikasi

**en** - amplitude-frequency characteristic of reproduction recording channel

### **Амплитудно-частотная характеристика радиоприемного устройства**

**uz** - radioqabulqiluvchi qurilmaning amplituda-chastota

Зависимость напряжения на выходе канала воспроизведения от частоты при воспроизведении сигналов измерительной сигналограммы.

O'lchash signalogrammasi signallarini tiklashda qayta eshittirish kanali chiqishidagi kuchlanishning chastotaga bog'liqligi.

Ўлчаш сигналограммаси сигналларини тиклашда қайта эшиттириш канали чиқишидаги кучланишнинг частотага боғлиқлиги.

Зависимость уровня записи сигнала от частоты сигнала на выходе канала записи.

Преобразователь постоянного (переменного) тока, в котором периодический переход тока с одного вентиля на другой осуществляется под действием переменного напряжения внешнего источника.

Tokning bir ventildan boshqasiga davriy oʻtishi tashqi manbaning oʻzgaruvchan kuchlanishi taʼsirida amalga oshiriladigan, oʻzgarmas (oʻzgaruvchan) tok oʻzgartirgichi.

Токнинг бир вентилдан бошқасига даврий ўтиши ташқи манбанинг ўзгарувчан кучланиши таъсирида амалга ошириладиган ўзгармас (ўзгарувчан) ток ўзгартиргичи.

### Вентиль

**uz** - ventil  
вентиль  
**en** - ventil

Электронный прибор, обладающий высокой для токов прямого направления и низкой для токов обратного направления проводимостью.

Toʻgʻri yoʻnalishdagi toklar uchun yuqori oʻtkazuvchanlikka, teskari yoʻnalishdagi toklar uchun past oʻtkazuvchanlikka ega boʻlgan elektron asbob.

Тўғри йўналишдаги тоklar учун юқори ўтказувчанликка, тескари йўналишдаги тоklar учун паст ўтказувчанликка эга бўлган электрон асбоб.

### Вентиль полупроводниковый

**uz** - yarimoʻtkazgichli ventil  
яримўтказгичли вентиль  
**en** - semiconductor valve

Вентиль, в котором в качестве переключающих элементов используются полупроводниковые приборы.



## **В**

Almashlab ulovchi elementlar sifatida yarimoʻtkazgichli asboblardan foydalaniladigan ventil.

Алмашлаб уловчи элементлар сифатида яримўтказгичли асбоблардан фойдаланиладиган вентиль.

### **Вентильная матрица**

**uz** - ventilli matritsa

вентилли матрица

**en** - gate array

Кристалл полупроводника, на котором создан набор простейших активных и пассивных элементов (электронных ключей, логических элементов, диодных сборок и т.п.), условно называемых вентилями. Такую матрицу называют также базовым матричным кристаллом.

Shartli ravishda, ventillar deb ataladigan aktiv va passiv oddiy elementlar (elektron kalitlar, mantiqiy elementlar, diodli yigʻmalar va sh.k.lar) toʻplami hosil qilingan yarimoʻtkazgich kristali. Bunday matritsa bazaviy matritsaviy kristall deb ham ataladi.

Шартли равишда, вентиллар деб аталадиган актив ва пассив оддий элементлар (электрон калитлар, мантикий элементлар, диодли йиғмалар ва ш.к.лар) тўплами ҳосил қилинган яримўтказгич кристали. Бундай матрица базавий матрицавий кристалл деб ҳам аталади.

### **Вертикальный угол воспроизведения**

**uz** - vertikal qayta tiklash

burchagi

вертикал қайта тиклаш

бурчаги

**en** - vertical reproduction

angle

Острый угол при воспроизведении сигналов, записанных путем глубинной записи, расположенный в плоскости, перпендикулярной радиусу диска, и образованный проходящими в этой плоскости перпендикулярном к поверхности диска и касательной к траектории колебаний острия воспроизводящей иглы, пересекающимися в точке, где смещение канавки записи равно нулю.

Chuqur yozish yoʻli bilan yozilgan signallarni qayta tiklashda, disk radiusiga perpendikulyar tekislikda joylashgan hamda bu tekislikda oʻtadigan disk yuzasiga perpendikulyar va yozish ariqchasining siljishi nolga teng nuqtada kesishadigan

## В

trayektoriyaga urinma bo'lgan qayta tiklovchi igna uchining tebranishlari hosil qilgan o'tkir burchak.

Чуқур ёзиш йўли билан ёзилган сигналларни қайта тиклашда, диск радиусига перпендикуляр текисликда жойлашган ҳамда бу текисликда ўтадиган диск юзасига перпендикуляр ва ёзиш ариқчасининг силжиши нолга тенг нуқтада кесишадиган траекторияга уринма бўлган қайта тикловчи игна учининг тебранишлари ҳосил қилган ўткир бурчак.

### Вертикальный угол записи

**uz** - yozuvning vertikal burchagi

ёзувнинг вертикал бурчаги

**en** - vertical recording angle

Острый угол при глубинной записи в плоскости, перпендикулярной радиусу диска, образованный проходящими в этой плоскости диска и касательной к траектории колебаний острия записывающего резца, пересекающихся в точке, где смещение острия резца равно нулю.

Disk radiusiga perpendikulyar bo'lgan tekislikda chuqur yozish paytida, diskning bu tekisligidan o'tadigan va keskich uchining siljishi nolga teng bo'lgan nuqtada kesishadigan yozadigan keskich uchi tebranishlari hosil qilgan o'tkir burchak.

Диск радиусига перпендикуляр бўлган текисликда чуқур ёзиш пайтида, дискнинг бу текислигидан ўтадиган ва кескич учининг силжиши нолга тенг бўлган нуқтада кесишадиган ёзадиган кескич учи тебранишлари ҳосил қилган ўткир бурчак.

### Взаимодействие

**в скрещенных полях**

**uz** - tutashgan maydonlardagi o'zaro ta'sir

туташган майдонлардаги ўзаро таъсир

**en** - interaction in crossed fields

Взаимодействие электронного потока с электромагнитной волной при наличии в пространстве взаимодействия взаимно перпендикулярных постоянных электрического и магнитного полей.

O'zaro ta'sir fazosida perpendikulyar bo'lgan elektr va magnit maydonlar mavjudligida, elektron oqimning elektromagnit to'lqin bilan o'zaro ta'siri.

Ўзаро таъсир фазосида перпендикуляр бўлган электр ва магнит майдонлар мавжудлигида,

## В

### **Взаимодействие на обратной волне**

**uz** - qaytgan to'liqindagi o'zaro ta'sir

кайтган тўлкиндаги

ўзаро таъсир

**en** - interaction on inverse wave

электрон оқимнинг электромагнит тўлқин билан ўзаро таъсири.

Взаимодействие электронного потока с электромагнитной волной в условиях, когда направления распространения электронного потока и электромагнитной волны противоположны.

Elektron oqim va elektromagnit to'liqinning tarqalish yo'nalishlari qarama-qarshi bo'lgan sharoitda, elektron oqimning elektromagnit to'liqin bilan o'zaro ta'siri.

Электрон оқим ва электромагнит тўлқиннинг тарқалиш йўналишлари қарама-қарши бўлган шароитда, электрон оқимнинг электромагнит тўлқин билан ўзаро таъсири.

### **Взаимодействие на поперечной волне**

**uz** - ko'ndalang to'liqindagi o'zaro ta'sir

кўндаланг тўлкиндаги

ўзаро таъсир

**en** - interaction on transverse wave

Взаимодействие электронного потока с электромагнитной волной в условиях, когда направления распространения электронного потока и групповой скорости электромагнитной волны взаимно перпендикулярны.

Elektron oqim va elektromagnit to'liqin guruhiy tezligining tarqalish yo'nalishi o'zaro perpendikulyar bo'lgan sharoitda, elektron oqimning elektromagnit to'liqin bilan o'zaro ta'siri.

Электрон оқим ва электромагнит тўлқин гуруҳий тезлигининг тарқалиш йўналиши ўзаро перпендикуляр бўлган шароитда, электрон оқимнинг электромагнит тўлқин билан ўзаро таъсири.

### **Взаимодействие на прямой волне**

**uz** - to'g'ri to'liqindagi o'zaro ta'sir

тўғри тўлкиндаги

ўзаро таъсир

**en** - interaction on direct wave

Взаимодействие электронного потока с электромагнитной волной в условиях, когда направления распространения электронного потока и электромагнитной волны совпадают.

Elektron oqim va elektromagnit to'liqinning tarqalish yo'nalishlari bir xil bo'lgan sharoitda, elektron oqimning elektromagnit to'liqin bilan o'zaro ta'siri.

## В

Электрон оқим ва электромагнит тўлқиннинг тарқалиш йўналишлари бир хил бўлган шароитда, электрон оқимнинг электромагнит тўлқин билан ўзаро таъсири.

### **Взаимозаменяемость сигналограмм**

**uz** - signalogrammalarning  
o'zaro almashinuvchanligi  
сигналограммаларнинг  
ўзаро алмашинувчанлиги  
**en** - exchangeability of  
signal equipment

Возможность воспроизведения информации, содержащейся в сигналограмме с заданной достоверностью на различных устройствах воспроизведения, в которых предусмотрено использовать данный формат сигналограмм.

Signalogrammadagi axborotni, belgilangan ishonchlilik bilan, signalogrammalarning berilgan formatidan foydalanish ko'zda tutilgan turli qayta tiklash qurilmalarida qayta tiklashning mumkinligi.

Сигналограммадаги ахборотни, белгиланган ишончлилиқ билан, сигналограммаларнинг берилган форматидан фойдаланиш кўзда тутилган турли қайта тиклаш қурилмаларида қайта тиклашнинг мумкинлиги.

### **Вибратор**

**uz** - vibrator  
вибратор  
**en** - vibrator

Штир, состоящий из диэлектрика или токопроводящего материала (являющиеся источником колебания), создающего электромагнитные колебания, отрезок металлического провода. Вибратор применяется в качестве элемента простых или сложных антенн.

Elektromagnit tebranishlarni vujudga keltiradigan (tebranish manbai bo'lgan) tok o'tkazuvchi material yoki dielektrikdan iborat shtir, metall sim bo'lagi. Vibrator oddiy yoki murakkab antennalarning elementi sifatida ishlatiladi.

Электромагнит тебранишларни вужудга келтирадиган (тебраниш манбаи бўлган) ток ўтказувчи материал ёки диэлектрикдан иборат штир, металл сим бўлаги. Вибратор оддий ёки мураккаб антенналарнинг элементи сифатида ишлатилади.

## В

### **Вид колебаний прибора сверхвысокой частоты**

**uz** - o'ta yuqori chastota asbobi  
tebranishlar turi

ўта юқори частота асбоби  
тебранишлар тури

**en** - ultra high frequency vibration  
mode

Вид колебаний, характеризующийся определенным фазовым сдвигом электромагнитной волны на одну ячейку замедляющей системы.

Elektromagnit to'lqinning sekinlashtiruvchi tizimning bir yacheykasiga muayyan fazaviy siljishi orqali tavsiflanadigan tebranishlar turi.

Электромагнит тўлқиннинг секинлаштирувчи тизимнинг бир ячейкасига муайян фазавий силжиши орқали тавсифланадиган тебранишлар тури.

### **Видеоголовка**

**uz** - videokallak

видеокаллак

**en** - videohead

Магнитная головка, используемая в видеомагнитофоне для записи сигналов изображения и/или их воспроизведения и/или их стирания.

Videomagnitofonda tasvir signallarini yozib olish va/yoki ularni tiklash va/yoki o'chirish uchun foydalaniladigan magnit kallak.

Видеомагнитофонда тасвир сигналларини ёзиб олиш ва/ёки уларни тиклаш ва/ёки ўчириш учун фойдаланиладиган магнит каллак.

### **Видеодиск**

**uz** - videodisk

видеодиск

**en** - videodisk

Видеограмма или видеофонограмма, имеющая форму диска.

Disk shakliga ega bo'lgan videogramma yoki videofonogramma.

Диск шаклига эга бўлган видеограмма ёки видеофонограмма.

### **Видеодиск с кратной синхронностью**

**uz** - karrali sinxronlikka ega  
videodisk

каррали синхронликка эга  
видеодиск

**en** - videodisk with multiple  
synchronism

Видеодиск, один оборот которого соответствует целому числу кадров телевизионного изображения.

Bitta aylanishi televizion tasvir kadrlarining butun soniga teng bo'lgan videodisk.

Битта айланиши телевизион тасвир кадрларининг бутун сонига тенг бўлган видеодиск.

## В

### **Видеозапись**

**uz** - videoyozuv

видеоёзув

**en** - videorecording

Запись сигналов изображения.

Tasvir signallarini yozib olish.

Тасвир сигналларини ёзиб олиш.

### **Видеозвукзапись**

**uz** - videotovushni yozib olish

видеотовушни ёзиб олиш

**en** - videosound recording

Одновременная запись сигналов изображения и звуковых сигналов.

Tasvir va tovush signallarini bir vaqtda yozib olish.

Тасвир ва товуш сигналларини бир вақтда ёзиб олиш.

### **Видеоигровое устройство**

**uz** - videoo'yin qurilmasi

видеоўйин қурилмаси

**en** - videogame device

Бытовой радиоэлектронный аппарат, предназначенный для отображения игровой информации на экране телевизионного приемника или бытового видеомонитора.

O'yin axborotini televizion qabulqilgich yoki maishiy videomonitor ekranida aks ettirish uchun mo'ljallangan maishiy radioelektron apparat.

Ўйин ахборотини телевизион қабулқилгич ёки маиший видеомонитор экранида акс эттириш учун мўлжалланган маиший радиоэлектрон аппарат.

### **Видеокамера**

**uz** - videokamera

видеокамера

**en** - video camera

Конструктивное объединение малогабаритной телевизионной камеры и кассетного видеоманитофона.

O'lchamlari kichik bo'lgan televizion kamera va kassetali videomagnitofonning konstruktiv birikmasi.

Ўлчамлари кичик бўлган телевизион камера ва кассетали видеоманитоннинг конструктив бирикмаси.

### **Видеола**

**uz** - videola

видеола

**en** - videola

Конструктивное объединение бытового видеоманитофона и телевизора.

Maishiy videomagnitofon va televizorning konstruktiv birikmasi.

## В

### **Видеомагнитофон**

**uz** - videomagnitofon

видеомагнитофон

**en** - video recorder

Маиший видеомагнитофон ва телевизорнинг конструктив бирикмаси.

Устройство, предназначенное для магнитной видеозвукозаписи и/или воспроизведения сигналов видеофонограммы.

Videofonogramma signallarini qayta eshittirish va/yoki magnit videotovush yozib olish uchun mo'ljallangan qurilma.

Видеофонограмма сигналларини қайта эшиттириш ва/ёки магнит видеотовуш ёзиб олиш учун мўлжалланган қурилма.

### **Видеомагнитофонная камера**

**uz** - videomagnitofonli

kamera

видеомагнитофонли

камера

**en** - video recorder camera

Бытовой радиоэлектронный аппарат, конструктивно объединяющий бытовую видеокамеру и видеомагнитофон.

Konstruktiv jihatdan maishiy videokamera va videomagnitofonni birlashtiradigan maishiy radioelektron apparat.

Конструктив жиҳатдан маиший видеокамера ва видеомагнитофонни бирлаштирадиган маиший радиоэлектрон аппарат.

### **Видеомонитор**

**uz** - videomonitor

видеомонитор

**en** - videomonitor

Воспроизводящее устройство, на вход которого подается полный видеосигнал или полный цветовой видеосигнал или сигналы основных цветов, предназначенное для наблюдения и/или контроля телевизионного изображения.

Kirishiga to'liq videosignal yoki to'liq rangli videosignal yoki asosiy ranglar signallari uzatiladigan, televizion tasvirni kuzatish va/yoki nazorat qilish uchun mo'ljallangan qayta tiklovchi qurilma.

Киришига тўлиқ видеосигнал ёки тўлиқ рангли видеосигнал ёки асосий ранглар сигналлари узатиладиган, телевизион тасвири кузатиш ва/ёки назорат қилиш учун мўлжалланган қайта тикловчи қурилма.

## В

### **Видеобучающее устройство**

**uz** - video o'qitish qurilmasi

видеоўқитиш қурилмаси

**en** - video training device

Бытовой радиоэлектронный аппарат, предназначенный для формирования учебной и/или обучающей информации, заложенной в запоминающее устройство на экране телевизионного приемника или бытового видеомонитора.

Televizion qabulqilgich yoki maishiy videomonitor ekranida хотира қурилмасига кiritilgan o'quv va/yoki ta'lim beruvchi axborotni shakllantirish uchun mo'ljallangan maishiy radioelektron apparat.

Телевизион қабулқилгич ёки маиший видео-монитор экранида хотира қурилмасига кири-тилган ўқув ва/ёки таълим берувчи ахборотни шакллантириш учун мўлжалланган маиший ра-диоэлектрон аппарат.

### **Видеопроигрыватель**

**uz** - video proigrivatel

видеопроигрыватель

**en** - video player

Устройство воспроизведения сигналов ви-деодиска, являющееся приставкой к телевизору.

Televizorga qo'shimcha moslama bo'lgan, videodisk signallarini qayta eshittirish qurilmasi.

Телевизорга қўшимча мослама бўлган, видеодиск сигналларини қайта эшиттириш қурилмаси.

### **Видеоскоп**

**uz** - videoskop

видеоскоп

**en** - videoscope

Бытовой радиоэлектронный аппарат, предна-значенный для отображения слайдов на экране телевизионного приемника или бытового ви-деомонитора.

Televizion qabulqilgich yoki maishiy videomonitor ekranida slaydlarni aks ettirish uchun mo'ljallangan maishiy radioelektron apparat.

Телевизион қабулқилгич ёки маиший видео-монитор экранида слайдларни акс эттириш учун мўлжалланган маиший радиоэлектрон аппарат.

### **Видеосниматель**

**uz** - video o'lgich

видеоолгич

**en** - video remover

Устройство, содержащее головку видеоснима-теля и ее держатель и входящее в состав видео-проигрывателя.



## В

Videoolgich kallagi hamda uning dastagini o'z ichiga oladigan, videoproigrivatel tarkibiga kiradigan qurilma.

Видеоолгич каллаги ҳамда унинг дастагини ўз ичига оладиган, видеопроигриватель таркибига кирадиган қурилма.

### **Видеофонограмма**

**uz** - videofonogramma

видеофонограмма

**en** - videosoundtrack

Сигналограмма, получаемая в результате видеозаписи.

Videotovushni yozib olish natijasida olinadigan signalogramma.

Видеотовушни ёзиб олиш натижасида олинadigan сигналограмма.

### **Видикон**

**uz** - vidikon

видикон

**en** - vidicon

Передающая телевизионная электронно-лучевая трубка с фотопроводящей мишенью, в которой электронное изображение накапливается на поверхности мишени и считывается обычно пучком медленных электронов.

Elektron tasvir nishon yuzasida to'planadigan va odatda, sekin elektronlar dastasi orqali solishtirib tekshiriladigan, fotoo'tkazuvchi nishonli uzatuvchi televizion elektron-nurli trubka.

Электрон тасвир нишон юзасида тўпланадиган ва одатда, секин электронлар дастаси орқали солиштириб текшириладиган, фотоўтказувчи нишонли узатувчи телевизион электрон-нурли трубка.

### **Виртуальный катод**

**uz** - virtual katod

виртуал катод

**en** - virtual cathode

Условная эквипотенциальная поверхность в межэлектродном пространстве электровакуумного прибора, характеризующаяся математически минимальным отрицательным по отношению к катоду потенциалом.

Elektrovakuum asbobning elektrodlararo bo'shlig'idagi, katodga nisbatan matematik minimal manfiy potensial bilan tavsiflanadigan shartli ekvipotensial yuza.

## В

Электрвакуум асбобнинг электродлараро бўшлиғидаги, катодга нисбатан математик минимал манфий потенциал билан тавсифланадиган шартли эквипотенциал юза.

### **Внеполосное радиоизлучение**

**uz** - polosadan tashqari  
radionurlanish

полосадан ташқари  
радионурланиш  
**en** - outside cavity  
radio emission

Нежелательное радиоизлучение через антенну радиопередающего устройства в полосе частот, примыкающей к необходимой полосе частот, являющееся результатом модуляции радиосигнала.

Chastotalarning zarur polosasiga tutashadigan chastotalar polosasida radiouzatuvchi qurilma antennasi orqali yuz beradigan, radiosignalni modulyatsiyalash natijasi bo'lgan nomaqbul radionurlanish.

Частоталарнинг зарур полосасига туташадиган частоталар полосасида радиоузатувчи қурилма антеннаси орқали юз берадиган, радиосигнални модуляциялаш натижаси бўлган номақбул радионурланиш.

### **Внешняя модуляция**

**uz** - tashqi modulyatsiya  
ташқи модуляция

**en** - external modulation

Модуляция лазерного излучения вне излучателя лазера.

Lazer nurlanishni lazer nurlatkichidan tashqarida modulyatsiyalash.

Лазер нурланишни лазер нурлаткичидан ташқарида модуляциялаш.

### **Внешняя характеристика преобразователя**

**uz** - o'zgartirgichning tashqi  
xarakteristikasi

ўзгартиргичнинг ташқи  
характеристикаси

**en** - external characteristic of the  
converter

Зависимость выходного напряжения преобразователя от тока нагрузки.

O'zgartirgich chiqish kuchlanishining nagruzka tokiga bog'liqligi.

Ўзгартиргич чиқиш кучланишининг нагрузка токига боғлиқлиги.

### **Внутреннее падение**

**постоянного напряжения**  
**uz** - o'zgarmas kuchlanishning  
ichki tushishi

Падение напряжения на стороне постоянного тока, исключая влияние полного сопротивления системы переменного тока, характеризующее жесткость естественной внешней (нагрузочной)

## В

Ўзгармас кучланишнинг  
ички тушиши  
**en** - inherent direct voltage  
regulation

характеристики выпрямителя или входной характеристики ведомого инвертора.

Ўзгарувчан ток тизими то'лиқ қаршилигининг та'сирини истисно қилган ҳолда, о'згарувчан ток томонда кучланишнинг, yetaklanadigan inverter kirish xarakteristikasining yoki to'g'rilagichning tabiiy tashqi (nagruzka) xarakteristikasining qattiqligini tavsiflaydigan tushishi.

Ўзгарувчан ток тизими тўлиқ қаршилигининг таъсирини истисно қилган ҳолда, ўзгарувчан ток томонда кучланишнинг, etaklanadigan inverter kirish xarakteristikasining ёки тўғрилагичнинг табиий ташқи (нагрузка) характеристикасининг қаттиқлигини тавсифлайдиган тушиши.

**Внутренний оптический резонатор лазера**

**uz** - lazerning ichki optik rezonatori

лазернинг ички оптик резонатори

**en** - internal optical resonator of laser

Оптический резонатор с отражателями, помещенными внутри лазерного активного элемента.

Aktiv lazer elementi ichiga joylashtirilgan qaytargichlari bo'lgan optik rezonator.

Актив лазер элементи ичига жойлаштирилган қайтаргичлари бўлган оптик резонатор.

**Внутренний угол задержки**

**uz** - ichki kechikish burchagi

ички кечикиш бурчаги  
**en** - inherent delay angle

Угол задержки включения, возникающий даже при отсутствии фазового управления, за счет многократного коммутационного перекрытия.

Ко'п марта kommutatsion qoplash hisobiga, hatto fazaviy boshqarish bo'lmaganda ham yuzaga keladigan, ulanishning kechikish burchagi.

Кўп марта коммутацион қоплаш ҳисобига, ҳатто фазавий бошқариш бўлмаганда ҳам юзага келадиган, уланишнинг кечикиш бурчаги.

**Внутренняя коммутация**

**uz** - ichki kommutatsiya

ички коммутация  
**en** - self-commutation

Коммутация, при которой коммутирующее напряжение создается компонентами внутри преобразователя или электронным ключом.

## **В**

Kommutatsiyalovchi kuchlanish elektron kalit yoki o'zgartirgich ichidagi komponentlar bilan yuzaga keltiriladigan kommutatsiya.

Коммутацияловчи кучланиш электрон калит ёки ўзгартиргич ичидаги компонентлар билан юзага келтириладиган коммутация.

### **Внутренняя модуляция**

**uz** - ichki modulyatsiya

ички модуляция

**en** - internal modulation

Модуляция лазерного излучения, осуществляемая путем изменения параметров лазерного активного элемента или оптического резонатора.

Aktiv lazer element yoki optik rezonator parametrlarini o'zgartirish orqali amalga oshiriladigan lazer nurlanish modulyatsiyasi.

Актив лазер элемент ёки оптик резонатор параметрларини ўзгартириш орқали амалга ошириладиган лазер нурланиш модуляцияси.

### **Внутрикристаллическое поле**

**uz** - kristall ichki maydoni

кристалл ички майдони

**en** - crystal field

Электрическое поле, создаваемое внутри кристаллов ионами, атомами или молекулами, расположенными в узлах либо между узлами кристаллической решетки.

Kristallar ichida kristall panjaraning uzellarida yoki uzellari orasida joylashgan ionlar, atomlar yoki molekulalar vujudga keltiradigan elektr maydon.

Кристаллар ичида кристалл панжаранинг узелларида ёки узеллари орасида жойлашган ионлар, атомлар ёки молекулалар вужудга келтирадиган электр майдон.

### **Внутрисистемная радиопомеха**

**uz** - tizim ichidagi radioxalaqit

тизим ичидаги радио-

халақит

**en** - intrasystem interference

Непреднамеренная радиопомеха, возникающая между радиоэлектронными средствами одной радиосистемы.

Bitta radiotizimning radioelektron vositalari o'rtasida vujudga keladigan ataylab qilinmagan radioxalaqit.

Битта радиотизимнинг радиоэлектрон воситалари ўртасида вужудга келадиган атайлаб қилинмаган радиохалақит.

## В

### **Волноводное защитное устройство**

**uz** - to'liqin o'tkazgichli  
himoya qurilmasi

тўлқин ўтказгичли  
химоя қурилмаси

**en** - waveguide protection  
device

### **Волноводный оптический дефлектор**

**uz** - to'liqin o'tkazgichli  
optik deflektor

тўлқин ўтказгичли  
оптик дефлектор

**en** - wave-aquatic optical  
deflector

### **Волноводный оптический модулятор**

**uz** - to'liqin o'tkazgichli  
optik modulyator

тўлқин ўтказгичли  
оптик модулятор

**en** - wave-aquatic optical  
modulator

### **Волновое число**

**uz** - to'liqin soni

тўлқин сони

**en** - wave parameter

### **Волновой вектор**

**uz** - to'liqin vektor

тўлқин вектор

**en** - wavevector

Сверхвысокочастотное защитное устройство, в конструкции которого используется волновод.

Konstruksiyasida to'liqin o'tkazgichdan foydalaniladigan o'ta yuqori chastotali himoya qurilmasi.

Конструкциясида тўлқин ўтказгичдан фойдаланиладиган ўта юқори частотали химоя қурилмаси.

Оптический дефлектор, в котором происходит отклонение пучка лазерного излучения, распространяющегося в оптическом волноводе.

Optik to'liqin o'tkazgichda tarqaladigan lazer nurlanish dastasining og'ishi yuz beradigan optik deflektor.

Оптик тўлқин ўтказгичда тарқаладиган лазер нурланиш дастасининг оғиши юз берадиган оптик дефлектор.

Оптический модулятор, в котором модулируемое лазерное излучение распространяется в оптическом волноводе.

Modulyatsiyalanadigan lazer nurlanish optik to'liqin o'tkazgichda tarqaladigan optik modulyator.

Модуляцияланадиган лазер нурланиш оптик тўлқин ўтказгичда тарқаладиган оптик модулятор.

Число длин волн, укладываемых вдоль расстояния в  $2\pi$  единиц длины.

$2\pi$  birlikka teng uzunlik masofasi bo'ylab joylashadigan to'liqin uzunliklarining soni.

$2\pi$  birlikka teng uzunlik masofasi b'ylab joylashadigan t'liqin uzunliklarining soni.

Вектор, указывающий направление распространения волны, по модулю равный волновому числу.

## **В**

Modul bo'yicha to'lqin soniga teng bo'lgan, to'lqinning tarqalish yo'nalishini ko'rsatuvchi vektor.

Модуль бўйича тўлқин сонига тенг бўлган, тўлқиннинг тарқалиш йўналишини кўрсатувчи вектор.

### **Волновые потери воспроизведения**

**uz** - qayta tiklashning to'lqin yo'qotishlari

кайта тиклашнинг тўлқин йўқотишлари

**en** - wave losses of the reproduction

Уменьшение уровня воспроизводимого сигнала, вызванное уменьшением длины волны записи.

Qayta tiklanadigan signal darajasining, yozib olish to'lqin uzunligining kamayishi keltirib chiqargan pasayishi.

Қайта тикланадиган сигнал даражасининг, ёзиб олиш тўлқин узунлигининг камайиши келтириб чиқарган пасайиши.

### **Волновые потери записи**

**uz** - yozib olishning to'lqin yo'qotishlari

ёзиб олишнинг тўлқин йўқотишлари

**en** - wave losses of recording

Уменьшение уровня записи сигнала, вызванное уменьшением длины волны записи.

Signalni yozib olish darajasining, yozib olish to'lqin uzunligining kamayishi keltirib chiqargan pasayishi.

Сигнални ёзиб олиш даражасининг, ёзиб олиш тўлқин узунлигининг камайиши келтириб чиқарган пасайиши.

### **Волоконная оптика**

**uz** - tola optikasi

тола оптикиси

**en** - fibre optic

Раздел оптоэлектроники, связанный с исследованием явлений, возникающих в волоконных световодах при распространении в них оптического излучения.

Optoelektronikaning, tolali yorug'lik o'tkazgichlarda optik nurlanish tarqalishi natijasida yuzaga keladigan hodisalarni o'rganadigan bo'limi.

Оптоэлектрониканинг, толали ёруғлик ўтказгичларда оптик нурланиш тарқалиши натижасида юзага келадиган ҳодисаларни ўрганадиган бўлими.

## В

### **Волоконно-оптическая линия связи**

**uz** - optik tolali aloqa liniyasi

оптик толали алоқа линияси

**en** - fiber optic communication line

Линия оптической связи, в которой передача информации осуществляется с помощью волоконно-оптических элементов. Волоконно-оптическая линия связи состоит из приемного и передающего оптических соединений и волоконно-оптических кабелей, волоконно-оптических соединений и волоконно-оптических ответвителей.

Axborotning uzatilishi optik tolali elementlar yordamida amalga oshiriladigan optik aloqa liniyasi. Optik tolali aloqa liniyasi qabulqiluvchi va uzatuvchi optik birikmalardan, optik tolali kablardan, optik tolali birikmalar va optik tolali tarmoqlagichlardan iborat.

Axborotning uzatilishi optik tolali elementlar yordamida amalga oshiriladigan optik aloqa liniyasi. Optik tolali aloqa liniyasi qabulqiluvchi va uzatuvchi optik birikmalardan, optik tolali kablardan, optik tolali birikmalar va optik tolali tarmoqlagichlardan iborat.

### **Волстрон**

**uz** - volstron

волстрон

**en** - volstron

Оптоэлектронный полупроводниковый прибор, в котором оптическая связь между излучателем и приемником излучения осуществляется по протяженному оптическому каналу.

Nurlatkich bilan nurlanishni qabulqilgich orasidagi optik aloqa uzun optik kanal orqali amalga oshiriladigan optoelektron yarimoʻtkazgichli asbob.

Nurlatkich bilan nurlanishni qabulqilgich orasidagi optik aloqa uzun optik kanal orqali amalga oshiriladigan optoelektron yarimoʻtkazgichli asbob.

### **Вольтодобавочный трансформатор питания**

**uz** - qoʻshimcha voltli taʼminot transformatori

қўшимча вольтли таъминот трансформатори

Трансформатор питания электронной аппаратуры, вторичная обмотка которого включается последовательно в цепь, в которой он изменяет напряжение.

## B

**en** - booster transformer power

Elektron apparaturaning, ikkilamchi o‘rami transformator kuchlanishni o‘zgartiradigan zanjirga ketma-ket ulanadigan ta‘minot transformatori.

Электрон аппаратуранинг, иккиламчи ўрами трансформатор кучланишни ўзгартирадиган занжирга кетма-кет уланадиган таъминот трансформатори.

### **Волюметр**

**uz** - volyometr

волюметр

**en** - volometer

Устройство для измерения уровня модуляции звуковой программы, имеющей стандартные постоянные времени, достаточно равные и сравнительно продолжительные в нарастании и падении.

O‘shida hamda takrorlanishda yetarlicha teng va nisbatan davomli standart vaqt doimiysiga ega bo‘lgan, tovushli dasturning modulyatsiya darajasini o‘lchash qurilmasi.

Ўсишда ҳамда такрорланишда етарлича тенг ва нисбатан давомли стандарт вақт доимийсига эга бўлган, товушли дастурнинг модуляция даражасини ўлчаш қурилмаси.

### **Восприимчивость**

**радиоэлектронного средства**

**uz** - radioelektron vositaning

ta‘sirланувчанлиги

радиоэлектрон воситанинг

таъсирланувчанлиги

**en** - susceptibility of

radioelectronic means

Свойство радиоэлектронного средства и его составных частей реагировать на радиопомехи в виде электромагнитного, электрического, магнитного полей через антенну или помимо нее, или в виде напряжений, или токов в фидере, в цепях питания, управления, передачи информации, коммутации и заземления.

Radioelektron vosita va uning tarkibiy qismlarining, antenna orqali yoki antennadan tashqarida bo‘ladigan elektromagnit, elektr, magnit maydonlar ko‘rinishidagi yoki fiderdagi, ta‘minot, boshqaruv, axborotni uzatish, kommutatsiyalash va yerga ulash zanjirlaridagi kuchlanishlar yoki toklar ko‘rinishidagi radioxalqitlarga javob qaytarish xususiyati.

Радиоэлектрон восита ва унинг таркибий қисмларининг, антенна орқали ёки антеннадан



## В

ташқарида бўладиган электромагнит, электр, магнит майдонлар кўринишидаги ёки фидердаги, таъминот, бошқарув, ахборотни узатиш, коммутациялаш ва ерга улаш занжирларидаги кучланишлар ёки тоқлар кўринишидаги радиохалақитларга жавоб қайтариш хусусияти.

### **Воспроизводящая игла**

**uz** - qayta tiklovchi igna  
қайта тикловчи игна  
**en** - reproducing needle

Игла, следующая по дорожке записи механической сигналограммы с целью воспроизведения информации.

Axborotni tiklash maqsadida mexanik signalogrammaning yozuv yo'lkasi bo'ylab yuradigan igna.

Ахборотни тиклаш мақсадида механик сигналограмминг ёзув йўлкаси бўйлаб юрадиган игна.

### **Воспроизводящий**

#### **электронный луч**

**uz** - tasvirlovchi elektron nur  
тасвирловчи электрон нур  
**en** - viewing beam

Электронный луч, используемый для воспроизведения на экране видимого изображения.

Ko'rinadigan tasvirni ekranda aks ettirish uchun foydalaniladigan elektron nur.

Кўринадиган тасвирни экранда акс эттириш учун фойдаланиладиган электрон нур.

### **Временные искажения воспроизведения**

**uz** - qayta tiklashning vaqt  
bo'yicha buzilishlari  
қайта тиклашнинг вақт  
бўйича бузилишлари  
**en** - time base error

Различие временных масштабов сигналов при записи и воспроизведении вследствие неравенства скоростей записи и воспроизведения и деформации сигналограммы.

Yozib olish va qayta eshittirishda yozib olish hamda qayta eshittirish tezliklarining teng emasligi hamda signalogrammaning deformatsiyasi oqibatida signallar vaqt ko'lamlarining farq qilishi.

Ёзиб олиш ва қайта эшиттиришда ёзиб олиш ҳамда қайта эшиттириш тезликларининг тенг эмаслиги ҳамда сигналограмминг деформацияси оқибатида сигналлар вақт кўламларининг фарқ қилиши.

## В

### **Время включения полупроводникового прибора**

**uz** - yarimo'tkazgichli asbobni ulash vaqti

яримўтказгичли асбобни улаш вақти

**en** - turn-on time semiconductor device

Интервал времени от момента подачи включающего импульса до момента, когда ток коллектора, или ток анода достигает 90 % максимального значения.

Ulash impulsini uzatish momentidan kollektor toki, yoki anod toki maksimal qiymatining 90 % ga yetadigan momentgacha bo'lgan vaqt intervali.

Улаш импульсини узатиш моментидан коллектор токи, ёки анод токи максимал қийматининг 90 % га етадиган моментгача бўлган вақт интервали.

### **Время воспроизведения изображения запоминающей электронно-лучевой трубки**

**uz** - хотирlovchi elektron-nurli trubkaning tasvirni qayta tiklash vaqti

хотирловчи электрон-нурли трубканинг тасвири қайта тиклаш вақти

**en** - image reproducing time of remembering electron beam tube

Максимальное время, в течение которого на экране запоминающей электронно-лучевой трубки можно наблюдать изображение однократно записанного сигнала.

Xotirlovchi elektron-nurli trubka ekranida bir marta yozilgan signal tasvirini kuzatish mumkin bo'lgan maksimal vaqt.

Хотирловчи электрон-нурли трубка экраниди бир марта ёзилган сигнал тасвирини кузатиш мумкин бўлган максимал вақт.

### **Время восстановления интегральной микросхемы**

**uz** - integral mikrosxemaning tiklanish vaqti

интеграл микросхеманинг тикланиш вақти

**en** - restoration time of integral microcircuit

Интервал времени между окончанием заданного сигнала на выходе интегральной микросхемы и началом заданного сигнала следующего цикла.

Integral mikrosxema chiqishida kirishiga berilgan signalning tugashi va navbatdagi siklning berilgan signali boshlanishi orasidagi vaqt intervali.

Интеграл микросхема чиқишида киришига берилган сигналнинг тугаши ва навбатдаги циклнинг берилган сигнали бошланиши орасидаги вақт интервали.

### **Время выбора интегральной микросхемы**

**uz** - integral mikrosxemani tanlash vaqti

Интервал времени между подачей на вход сигнала выбора интегральной микросхемы и получением на выходе сигналов информации.

## В

интеграл микросхемани  
танлаш вақти  
**en** - time of choice of integral  
microcircuit

### **Время выключения тиристора**

**uz** - tiristorni uzib qo'yish vaqti  
тиристорни узиб қўйиш  
вақти  
**en** - time off thyristor

### **Время готовности лазера**

**uz** - lazerning tayyorlik vaqti  
лазернинг тайёрлик вақти  
**en** - laser availability time

### **Время задержки включения**

**uz** - ulashning kechikish vaqti  
улашнинг кечикиш вақти  
**en** - turn-on delay time

Integral mikrosxemaning kirishiga tanlash signalini berish va chiqishda axborot signallarini olish orasidagi vaqt intervali.

Интеграл микросхеманинг киришига танлаш сигналини бериш ва чиқишда ахборот сигналларини олиш орасидаги вақт интервали.

Наименьший интервал времени между моментом, когда основной ток тиристора после внешнего переключения основных цепей понизился до нуля, и моментом, в который определенное основное напряжение тиристора проходит через нулевое значение без переключения тиристора.

Tiristorning asosiy toki asosiy zanjirlar tashqi almashlab ulangandan keyin nolgacha pasaygan moment bilan tiristorning muayyan asosiy kuchlanishi tiristor almashlab ulanmasdan nolga teng qiymat orqali o'tadigan moment o'rtasidagi eng kichik vaqt intervali.

Тиристорнинг асосий токи асосий занжирлар ташқи алмашлаб улангандан кейин нолгача пасайган момент билан тиристорнинг муайян асосий кучланиши тиристор алмашлаб уланмасдан нолга тенг қиймат орқали ўтадиган момент ўртасидаги энг кичик вақт интервали.

Время, необходимое для достижения лазером номинальных значений параметров с момента его включения.

Lazer ulangan vaqtdan boshlab parametrlarining nominal qiymatlariga erishish uchun zarur bo'ladigan vaqt.

Лазер уланган вақтдан бошлаб параметрларининг номинал қийматларига эришиш учун зарур бўладиган вақт.

Интервал времени между 10 % значением амплитуды переднего фронта входного импульса и 10 % значением тока коллектора, либо тока стока, либо тока анода.

## В

Kirish impulsi old fronti amplitudasining 10 % qiymati va kollektor toki yoki kirish toki yoki anod tokining 10 % qiymati oʻrtasidagi vaqt intervali.

Кириш импульси олд fronti амплитудасининг 10 % қиймати ва коллектор токи ёки кириш токи ёки анод токининг 10% қиймати ўртасидаги вақт интервали.

**Время задержки выключения**  
**uz** - uzib qoʻyishning kechikish vaqti

узиб қўйишнинг кечикиш вақти

**en** - turn-off delay time

Интервал времени между 90 % значением амплитуды напряжения на затворе, вызвавшего выключение полевого транзистора, и 90 % значением амплитудного значения выходного импульса (тока стока полевого либо тока коллектора биполярного транзистора с изолированным затвором).

Maydon tranzistori uzilishiga sababchi boʻladigan, zatvordagi kuchlanish amplitudasining 90 % qiymati va chiqish impulsi (izolyatsiyalangan zatvorli bipolyar tranzistorning toki yoki maydon tranzistorning kirish toki) amplitudaviy qiymatining 90 % qiymati oʻrtasidagi vaqt intervali.

Майдон транзистори узилишига сабабчи бўладиган, затвордаги кучланиш амплитудасининг 90 % қиймати ва чиқиш импульси (изоляцияланган затворли биполяр транзисторнинг токи ёки майдон транзисторининг кириш токи) амплитудавий қийматининг 90 % қиймати ўртасидаги вақт интервали.

**Время задержки оптопары (оптоэлектронного коммутатора)**

**uz** - optopara (optoelektron kommutator)ning kechikish vaqti

оптопара (оптоэлектрон коммутатор) нинг кечикиш вақти

**en** - delay time (of optic electron switchboard)

Интервал времени между 10 % значений входного сигнала и 10 % значений выходного сигнала оптопары (оптоэлектронного коммутатора), измеренными по фронту импульсов.

Impulslar fronti boʻylab oʻlchangan, optopara (optoelektron kommutator) kirish signali qiymatlarining 10 % va chiqish signali qiymatlarining 10 % orasidagi vaqt intervali.

## В

### **Время затухания запоминающей электронно-лучевой трубки**

**uz** - хотирловчи электрон-нурли trubkaning soʻninish vaqti

хотирловчи электрон-нурли трубканинг сўниш вақти

**en** - decay time of storage tube

### **Время нарастания**

**uz** - oʻsish vaqti

ўсиш вақти

**en** - rise time

### **Время обратного восстановления**

**uz** - teskari tiklanish vaqti

тескари тикланиш вақти

**en** - reverse recovery time

Импульслар fronti бўйлаб ўлчанган, оптопара (оптоэлектрон коммутатор) кириш сигнали қийматларининг 10 % ва чиқиш сигнали қийматларининг 10 % орасидаги вақт интервали.

Время, за которое накопленная информация запоминающей электронно-лучевой трубки затухает до определенного уровня.

Xotirlovchi elektron-nurli trubkada toʻplangan axborot maʼlum bir darajaga tushgungacha oʻtadigan vaqt.

Хотирловчи электрон-нурли трубкада тўпланган ахборот маълум бир даражага тушгунгача ўтадиган вақт.

Интервал времени между 10 % и 90 % значениями амплитуды тока коллектора биполярных транзисторов, либо тока стока полевых транзисторов, либо тока анода тиристора при их включении.

Bipolyar tranzistorlarning kollektor toki yoki maydon tranzistorlarining kirish toki yoki tiristor anodi toki amplitudasining? ularni ulash paytida, 10 % va 90 % qiymatlari oʻrtasidagi vaqt intervali.

Биполяр транзисторларнинг коллектор токи ёки майдон транзисторларининг кириш токи ёки тиристор аноди токи амплитудасининг, уларни улаш пайтида, 10 % ва 90 % қийматлари ўртасидаги вақт интервали.

Время, в течение которого при выключении диодов (тиристоров) они восстанавливают способность блокировать протекание обратного тока. Определяется как интервал времени от момента, когда ток проходит через нулевое значение, изменяя направление с прямого на обратное, и до момента, когда обратный ток уменьшается от амплитудного значения до заданного или когда экстраполированный обратный ток

## **В**

достигает нулевого значения.

Diodlar (tiristorlar) uzib qo'yilganda, teskari tokning oqib o'tishini to'sib qo'yish qobiliyati tiklanadigan vaqt. Tok yo'nalishini to'g'ridan teskari yo'nalishga o'zgartirib, nolga teng qiymatdan o'tadigan momentdan to teskari tok amplitudaviy qiymatdan berilgan qiymatgacha kamayadigan yoki ekstrapolyatsiya qilingan teskari tok nolga teng qiymatga yetadigan momentgacha bo'lgan vaqt intervali sifatida belgilanadi.

Диодлар (тиристорлар) узиб қўйилганда, тескари токнинг оқиб ўтишини тўсиб қўйиш қобилияти тикланадиган вақт. Ток йўналишини тўғридан тескари йўналишга ўзгартириб, нолга тенг қийматдан ўтадиган моментдан то тескари ток амплитудавий қийматдан берилган қийматгача камаядиган ёки экstrapоляция қилинган тескари ток нолга тенг қийматга етадиган моментгача бўлган вақт интервали сифатида белгиланади.

### **Время рассасывания**

**uz** - tarqalish vaqti

тарқалиш вақти

**en** - storage time

Интервал времени между моментом подачи на базу биполярного транзистора запирающего импульса и моментом, когда ток коллектора транзистора достигает заданного нормируемого уровня (обычно 90 % амплитудного значения).

Bipolyar tranzistor bazasiga berkituvchi impuls uzatish momenti va tranzistor kollektorining toki berilgan normalanadigan darajaga (odatda, amplitudaviy qiymatning 90 %) yetadigan moment o'rtasidagi vaqt intervali.

Биполяр транзистор базасига беркитувчи импульс узатиш momenti ва транзистор коллекторининг токи берилган нормаланадиган даражага (одатда, амплитудавий қийматнинг 90 %) етадиган момент ўртасидаги вақт интервали.

### **Время регулирования**

**uz** - rostlash vaqti

ростлаш вақти

**en** - time of regulation

Интервал времени, начиная от воздействия на систему возмущающего фактора, до момента, когда отклонение регулируемого параметра станет меньше, чем его статическая погреш-

## В

НОСТЬ.

Tizinga qo'zg'otuvchi faktor ta'sir ko'rsatishidan boshlab to rostlanadigan parametrning chetga chiqishi uning statik xatoligiga qaraganda kam bo'ladigan momentgacha o'tadigan vaqt intervali.

Тизимга қўзғотувчи фактор таъсир кўрсатишидан бошлаб то ростланадиган параметрнинг четга чиқиши унинг статик хатолигига қараганда кам бўладиган моментгача ўтадиган вақт интервали.

### **Время релаксации**

**uz** - relaksatsiya vaqti  
релаксация вақти  
**en** - time to relaxations

Время, в течение которого первоначальное отклонение значения какого-либо параметра квантовой системы от равновесного уменьшается в «e» раз.

Kvant tizimi biror parametri qiymatining muvozanat qiymatidan boshlang'ich og'ishi «e» marta kamayadigan vaqt.

Квант тизими бирор параметри қийматининг мувозанат қийматидан бошланғич оғиши «e» марта камаядиган вақт.

### **Время сохранения сигнала интегральной микросхемы**

**uz** - integral mikrosxema signalining saqlanish vaqti  
интеграл микросхема сигналининг сақланиш вақти  
**en** - time to conservation of the signal of integral microcircuit

Интервал времени между окончанием двух заданных входных сигналов интегральной микросхемы на разных входах.

Integral mikrosxemaning turli kirishlariga berilgan ikkita kirish signalining tugashi orasidagi vaqt intervali.

Интеграл микросхеманинг турли киришларига берилган иккита кириш сигналининг тугаши орасидаги вақт интервали.

### **Время спада**

**uz** - pasayish vaqti  
пасайиш вақти  
**en** - fall time

Интервал времени между моментами спада выходного импульса от значения, соответствующего 90 % его амплитуды, до значения, соответствующего 10 % его амплитуды.

Chiqish impulsining, o'z amplitudasining 90 % ga

## В

to'g'ri keladigan qiymatdan o'z amplitudasining 10 % ga to'g'ri keladigan qiymatgacha pasayish momentlari o'rtasidagi vaqt intervali.

Чиқиш импульсининг, ўз амплитудасининг 90 % га тўғри келадиган қийматдан ўз амплитудасининг 10 % га тўғри келадиган қийматгача пасайиш моментлари ўртасидаги вақт интервали.

### **Время установления сигнала интегральной микросхемы**

**uz** - integral mikroshema signalini o'rnatish vaqti

интеграл микросхема сигналининг ўрнатиш вақти  
**en** - time of the determination of the signal of the integral microcircuit

Интервал времени между началами двух заданных входных сигналов интегральной микросхемы на разных входах.

Integral mikroshemaning turli kirishlariga berilgan ikkita kirish signalining boshlanishlari orasidagi vaqt intervali.

Интеграл микросхеманинг турли киришларига берилган иккита кириш сигналининг бошланишлари орасидаги вақт интервали.

### **Время хранения информации интегральной микросхемы**

**uz** - integral mikroshemaning axborotini saqlash vaqti

интеграл микросхеманинг ахборотини сақлаш вақти  
**en** - time of keeping information of the integral microcircuit

Интервал времени, в течение которого интегральная микросхема в заданном режиме эксплуатации сохраняет информацию.

Integral mikroshema ekspluatatsiya qilishning berilgan rejimida axborotni saqlaydigan vaqt intervali.

Интеграл микросхема эксплуатация қилишнинг берилган режимида ахборотни сақлайдиган вақт интервали.

### **Время цикла интегральной микросхемы**

**uz** - integral mikroshemaning sikl vaqti

интеграл микросхеманинг цикл вақти  
**en** - time of the cycle of integral microcircuit

Длительность периода сигналов на одном из управляющих входов, в течение которого интегральная микросхема выполняет одну из функций.

Boshqaruvchi kirishlardan biridagi signallar davrining davomiyligi bo'lib, uning mobaynida integral mikroshema funksiyalardan birini bajaradi.

Бошқарувчи киришлардан биридаги сигналлар



## В

даврининг давомийлиги бўлиб, унинг мобайнида интеграл микросхема функциялардан бирини бажаради.

Съемная подвижная система звукоснимателя.

### **Вставка головки**

#### **звукоснимателя**

**uz** - tovush olgich kallagining oʻrnatgichi

товуш олгич каллагининг ўрнатгичи

**en** - insertion of the head of sound pick up

Tovush olgichning olinadigan koʻchma tizimi.

Товуш олгичнинг олинадиган кўчма тизими.

### **Вставка записываемой информации**

**uz** - yoziladigan axborot qoʻshimchasi

ёзиладиган ахборот қўшимчаси

**en** - insert of recording information

Вид электронного монтажа сигналаграммы, при котором любая часть информации, содержащейся в сигналаграмме, не являющаяся ее окончанием, заменяется другой информацией с той же длительностью воспроизведения и сохранением непрерывности записанного сигнала.

Signalogrammani elektron montaj qilish turi boʻlib, bunda signalogrammadagi axborotning uning oxiri boʻlmagan istalgan qismi qayta eshittirishning oʻshanday davomiyligiga ega boʻlgan va yozilgan signalning uzluksizligi saqlangan boshqa axborot bilan almashtiriladi.

Сигналаграммани электрон монтаж қилиш тури бўлиб, бунда сигналаграммадаги ахборотнинг унинг охири бўлмаган исталган қисми қайта эшиттиришнинг ўшандай давомийлигига эга бўлган ва ёзилган сигналнинг узлуksизлиги сақланган бошқа ахборот билан алмаштирилади.

### **Вставка постоянного тока**

**uz** - oʻzgarmas tok qoʻshimchasi

ўзгармас ток қўшимчаси

**en** - direct current link

Преобразовательное устройство, предназначенное для согласования работы энергосистем с различными частотами, контролируемой передачи электроэнергии, повышения надежности работы энергосистем, а также для обеспечения высокого качества передаваемой электроэнергии.

Chastotalari turli xil boʻlgan energotizimlar ishini

## В

muvofiglashtirish, elektr energiyasini nazorat qilinadigan tarzda uzatish, shuningdek, uzatiladigan elektr energiyasining yuqori sifatini ta'minlash uchun mo'ljallangan o'zgartirgich qurilma.

Частоталари турли хил бўлган энерготизимлар ишини мувофиқлаштириш, электр энергиясини назорат қилинадиган тарзда узатиш, шунингдек, узатиладиган электр энергиясининг юқори сифатини таъминлаш учун мўлжалланган ўзгартиргич қурилма.

### **Вставка разрешения записи**

**uz** - yozuvni ajratish  
qo'shimchasi

ёзувни ажратиш

қўшимчаси

**en** - insertion of permit  
recording

Съемная или сдвигаемая деталь кассеты, выполняющая функцию защиты записанной информации.

Kassetaning, yozilgan axborotni muhofaza qilish funksiyasini bajaradigan, olinadigan yoki suriladigan detali.

Кассетанинг, ёзилган ахборотни муҳофаза қилиш функциясини бажарадиган, олинадиган ёки суриладиган деталі.

### **Вставной разрядник**

**uz** - o'rnatiladigan razryadlagich  
ўрнатиладиган разрядлагич

**en** - inserted detentor

Газоразрядный прибор, являющийся частью каскада защиты или устройства блокировки передатчика.

Himoya kaskadining yoki uzatkichni blokirovkalash qurilmasining bir qismi bo'lgan gaz-razryadli asbob.

Ҳимоя каскадининг ёки узаткични блокировка-лаш қурилмасининг бир қисми бўлган газ-разрядли асбоб.

### **Вторичная электронная эмиссия**

**uz** - ikkilamchi elektron  
emissiya

иккиламчи электрон

эмиссия

**en** - secondary electron emission

Испускание электронов твердыми и жидкими телами (эмиттерами) при их бомбардировке электронами.

Qattiq va suyuq jismlar (emitterlar) elektronlar bilan bombardimon qilinganda, ularning elektronlar chiqarishi.

## В

### **Вторично-электронный умножитель**

**uz** - ikkilamchi elektron ko'paytirgich

иккиламчи электрон кўпайтиргич

**en** - secondary-electronic multiplier

### **Вторичный излучатель антенны**

**uz** - antennaning ikkilamchi nurlatkichi

антеннанинг иккиламчи нурлаткичи

**en** - secondary radiator of antenna

### **Вторичный источник питания**

**uz** - ikkilamchi ta'minot manbai

иккиламчи таъминот манбаи

**en** - auxiliary power supply

Қаттиқ ва суюқ жисмлар (эмиттерлар) электронлар билан бомбардимон қилинганда, уларнинг электронлар чиқариши.

Электровакуумный прибор, в котором поток электронов умножается посредством вторичной электронной эмиссии.

Elektronlar oqimi ikkilamchi elektron emissiya vositasida ko'paytiriladigan elektrovakuum asbob.

Электронлар оқими иккиламчи электрон эмиссия воситасида кўпайтириладиган электровакуум асбоб.

Излучающий элемент антенны, не связанный с фидером и возбуждаемый электромагнитным полем первичного излучателя.

Antennaning fider bilan bog'lanmagan va birlamchi nurlatkichning elektromagnit maydon qo'zg'atadigan nurlantiruvchi elementi.

Антеннанинг фидер билан боғланмаган ва бирламчи нурлаткичнинг электромагнит майдони кўзғатадиган нурлантирувчи элементи.

Устройство, которое преобразует параметры электроэнергии основного источника электропитания, в электроэнергию с параметрами, необходимыми для функционирования вспомогательных устройств. Различают нестабилизированные вторичные источники питания и стабилизированные вторичные источники питания.

Asosiy elektr ta'minot manbai elektr energiyasi parametrlarini yordamchi qurilmalarning ishlashi uchun zarur bo'lgan parametrlarga ega elektr energiyasiga aylantiradigan qurilma. Stabilashtirilgan va stabillashtirilmagan ikkilamchi ta'minot manbalari ajratiladi.

Асосий электр таъминот манбаи электр энерги-

## В

яси параметрларини ёрдамчи қурилмаларнинг ишлаши учун зарур бўлган параметрларга эга электр энергиясига айлантирадиган қурилма. Стабиллаштирилган ва стабиллаштирилмаган иккиламчи таъминот манбалари ажратилади.

### Вторичный пробой

**uz** - ikkilamchi teshilish

**uz** - xalaqitlardan himoyalash

халақитлардан ҳимоялаш

**en** - anti-jamming

**Защитная полоса частот**

**uz** - chastotalarning himoya polosasi

частоталарнинг ҳимоя полосаси

**en** - guard band

**Защитный высоковольтный кенотрон**

**uz** - saqlagich yuqori voltli kenotron

сақлагич юқори

файли юзага келадиган нуқсонни.

Комплекс технических средств и мероприятий для предохранения сигналограммы от непреднамеренного стирания или записи.

Signalogrammani qasddan qilinmagan o'chirish yoki yozishdan saqlashga qaratilgan texnik vositalar va tadbirlar kompleksi.

Сигналограммани қасддан қилинмаган ўчириш ёки ёзишдан сақлашга қаратилган техник воситалар ва тадбирлар комплекси.

Снижение уровня преднамеренных помех, получаемое при помощи специальных методов или устройств.

Maxsus metodlar yoki qurilmalar yordamida ataylab qilingan xalaqitlar darajasini pasaytirish.

Махсус методлар ёки қурилмалар ёрдамида атайлаб қилинган халақитлар даражасини пасайтириш.

Узкая полоса частот, разделяющая два смежных канала частот и предназначенная для обеспечения защитного поля от взаимных помех.

Chastotalarning, chastotalarning ikkita qo'shni kanalini ajratadigan va o'zaro xalaqitlardan himoya maydonini ta'minlash uchun mo'ljallangan tor polosasi.

Частоталарнинг, частоталарнинг иккита қўшни каналини ажратадиган ва ўзаро халақитлардан ҳимоя майдонини таъминлаш учун мўлжалланган тор полосаси.

Импульсный высоковольтный кенотрон, служащий для защиты элементов модулятора от перенапряжений.

Modulyator elementlarini o'ta kuchlanishlardan

ВОЛЬТЛИ КЕНОТРОН  
**en** - high-voltage protector  
 kenetron

**Защитный показатель**  
**uz** - himoya ko'rsatkichi  
 химоя кўрсаткичи  
**en** - safety factor

**Звуковой канал**  
**видеомагнитофона**  
**uz** - videomagnitofonning  
 tovush kanali  
 видеомагнитофоннинг  
 товуш канали  
**en** - sound channel

**Звуковой процессор**  
**uz** - tovush protsessori  
 товуш процессори  
**en** - sound processor

saqlash uchun xizmat qiladigan impulsli yuqori voltli kenotron.

Модулятор элементларини ўта кучланишлардан сақлаш учун хизмат қиладиган импульс-ли юқори вольтли кенотрон.

Значение интеграла от квадрата ударного неповторяющегося тока в открытом состоянии диода или тиристора за время протекания, характеризующее способность прибора выдерживать кратковременные разовые перегрузки по току.

Oqib o'tish vaqti ichida diod yoki tiristorning ochiq holatida takrorlanmaydigan zarbiy tok kvadrati integralining, asbobning tok bo'yicha qisqa muddatli bir martali o'ta yuklanishga chidamliligini tavsiflaydigan qiymati.

Оқиб ўтиш вақти ичида диод ёки тиристорнинг очик ҳолатида такрорланмайдиган зарбий ток квадрати интегралининг, асбобнинг ток бўйича қисқа муддатли бир мартали ўта юкланишга чидамлилигини тавсифлайдиган қиймати.

Канал записи-воспроизведения или сквозной канал записи-воспроизведения сигналов звукового сопровождения в видеомагнитофоне.

Videomagnitofondagi yozish-qayta eshittirish kanali yoki tovush jo'rligidagi signallarni yozish-qayta eshittirish shaffof kanali.

Видеомагнитофондаги ёзиш-қайта эшиттириш канали ёки товуш жўрлигидаги сигналларни ёзиш-қайта эшиттириш шаффоф канали.

Бытовой радиоэлектронный аппарат, предназначенный для создания звуковых эффектов и повышения объемности и выразительности звучания.

Tovush effektlarini vujudga keltirish hamda sadol-

anish ko‘lamliligini va ifodaliligini oshirish uchun mo‘ljallangan maishiy radioelektron apparat.

Товуш эффектларини вужудга келтириш ҳамда садоланиш кўламлилигини ва ифодалилигини ошириш учун мўлжалланган маиший радиоэлектрон аппарат.

**Звукозапись  
(в радиовещании)**

**uz** - ovoz yozish  
(radioeshittirishda)

овоз ёзиш

(радиоэшиттиришда)

**en** - studio operation

Совокупность операций, позволяющих преобразовать электрические сигналы в сигналы звуковые, предназначенные для их включения в программу радиовещания; операции технического и акустического контроля часто рассматриваются как часть операций по звукозаписи.

Elektr signallarni tovush signallariga o‘zgartirish imkonini beruvchi, ularni radioeshittirish dasturiga kiritishga mo‘ljallangan operatsiyalar jami; texnik va akustik nazorat operatsiyalari ko‘pincha ovoz yozish bo‘yicha operatsiyalarning bir qismi sifatida qaraladi.

Электр сигналларни товуш сигналларига ўзгартириш имконини берувчи, уларни радиоэшиттириш дастурига киритишга мўлжалланган операциялар жами; техник ва акустик назорат операциялари кўпинча овоз ёзиш бўйича операцияларнинг бир қисми сифатида қаралади.

**Звукосниматель**

**uz** - tovush olgich  
товуш олгич

**en** - pickup

Устройство, содержащее головку звукоснимателя и тонарм.

Tovush olgich kallagi va tonarmni o‘z ichiga oladigan qurilma.

Товуш олгич каллаги ва тонармни ўз ичига оладиган қурилма.

**Зеебека эффект**

**uz** - Zeebek effekti

Зеебек эффекти

**en** - Seebeck effect

Возникновение электродвижущей силы (термо электродвижущей силы) в электрической цепи, состоящей из последовательно соединенных разнородных проводников, контакты которых находятся при разных температурах.

Kontaktlari turli temperaturalar ostida bo‘lgan,



ketma-ket ulangan har xil o'tkazgichlardan iborat elektr zanjirda elektr yurituvchi kuch (termo elektr yurituvchi kuch)ning vujudga kelishi.

Контактлари турли температуралар остида бўлган, кетма-кет уланган ҳар хил ўтказгичлардан иборат электр занжирда электр юритувчи куч (термо электр юритувчи куч)нинг вужудга келиши.

### **Зеемана эффект**

**uz** - Zeeman effekti

Зееман эффекти

**en** - Zeeman effect

Изменение значений энергий квантовой системы под действием постоянного магнитного поля.

Doimiy magnit maydon ta'sirida kvant tizim energiyasi qiymatlarining o'zgarishi.

Доимий магнит майдон таъсирида квант тизим энергияси қийматларининг ўзгариши.

### **Зеркало оптического резонатора**

**uz** - optik rezonator ko'zgusi

оптик резонатор кўзгуси

**en** - mirror of optical resonator

Отражатель оптического резонатора, исполненный в виде подложки заданной формы, чаще всего с отражающим покрытием.

Optik rezonatorning belgilangan shakldagi, aksariyat holda qaytaruvchi qatlamli, to'shama ko'rinishida qilingan qaytargichi.

Оптик резонаторнинг белгиланган шаклдаги, аксарият ҳолда қайтарувчи қатламли, тўшама кўринишида қилинган қайтаргичи.

### **Зеркальная антенна**

**uz** - ko'zguli antenna

кўзгули антенна

**en** - mirror antenna

Направленная антенна, содержащая первичный излучатель и отражатель антенны, в виде металлической поверхности.

Birlamchi nurlatkich va metall yuza ko'rinishidagi antenna qaytargichini o'z ichiga oladigan yo'naltirilgan antenna.

Бирламчи нурлаткич ва металл юза кўринишидаги антенна қайтаргичини ўз ичига оладиган йўналтирилган антенна.

### **Зеркальный электронный микроскоп**

Электронный микроскоп, формирующий изображение объекта, являющегося катодом элект-

**uz** - ko‘zguли электрон  
mikroskop

кўзгули электрон  
микроскоп

**en** - mirror electron  
microscope

**Знакопечатающая  
электронно-лучевая трубка**

**uz** - belgi bosuvchi elektron-  
nurli trubka

белги босувчи электрон-  
нурли трубка

**en** - character display tube

**Зона влияния радио-  
электронного средства**

**uz** - radioelektron vosita-  
ning ta’sir etish zonasi

радиоэлектрон восита-  
нинг таъсир этиш зонаси

**en** - zone of influence  
radioelectronic facility

**Зона действия  
радиопеленгатора**

**uz** - radiopelengatorning  
ta’sir zonasi

радиопеленгаторнинг  
таъсир зонаси

**en** - zone action of the

тронного зеркала.

Elektron ko‘zguning katodi hisoblanadigan ob-  
yekt tasvirini shakllantiradigan elektron mikros-  
kop.

Электрон кўзгунинг катоди ҳисобланадиган  
объект тасвирини шакллантирадиган электрон  
микроскоп.

Приемная электронно-лучевая трубка, в кото-  
рой отображаемая на экране информация форм-  
мируется при помощи матрицы знаков.

Ekranda aks ettiriladigan axborot belgilar matrit-  
sasi yordamida shakllantiriladigan qabul qiluvchi  
elektron-nurli trubka.

Экранда акс эттириладиган ахборот белгилар  
матрицаси ёрдамида шакллантириладиган  
кабул қилувчи электрон-нурли трубка.

Область пространства, за пределами которого  
данное радиоэлектронное средство создает до-  
пустимые радиопомехи другому радиоэлек-  
тронному средству.

Fazo sohasi bo‘lib, uning chegarasidan tashqarida  
berilgan radioelektron vosita boshqa radioelektron  
vositaga yo‘l qo‘yiladigan radioxalaitlarni  
vujudga keltiradi.

Фазо соҳаси бўлиб, унинг чегарасидан ташқа-  
рида берилган радиоэлектрон восита бошқа  
радиоэлектрон воситага йўл қўйиладиган ра-  
диохлақитларни вужудга келтиради.

Область пространства, в пределах которой ра-  
диопеленгатор обеспечивает пеленгование  
объектов с заданной точностью.

Radiopelengator belgilangan aniqlikda obyekt-  
larning pelenglanishini ta’minlaydigan fazo  
sohasi.

radio direction finder

Радиопеленгатор белгиланган аниқликда объектларнинг пеленгганини таъминлайдиган фазо соҳаси.

**Зона действия (радиовещательного передатчика)**

**uz** - ta'sir zonasi (radioeshittirish uzatkichining)

Территория, в которой передача радиовещательного передатчика проходит нормально в удовлетворительных условиях.

таъсир зонаси (радиоэшиттириш узаткичининг)

Radioeshittirish uzatkichining uzatilishi qoniqarli sharoitlarda normal o'tadigan hudud.

**en** - zone of action

(broadcast transmitter)

Радиоэшиттириш узаткичининг узатилиши қониқарли шароитларда нормал ўтадиган ҳудуд.

**Зона записи**

**uz** - yozib olish zonasi

ёзиб олиш зонаси

Участок сигналограммы, содержащий записанные сигналы, объединенные по единому признаку.

**en** - recording zone

Signalogrammaning, yagona belgi bo'yicha birlashtirilgan yozilgan signallarni o'z ichiga oladigan qismi.

Сигналограмманинг, ягона белги бўйича бirlashtirilgan ёзилган сигналларни ўз ичига оладиган қисми.

**Зона излучения**

**uz** - nurlanish zonasi

нурланиш зонаси

Пространственная зона, достаточно удаленная от передающей антенны для того, чтобы практически можно было рассматривать излучаемые этой антенной волны как бегущие.

**en** - radiation zone

Uzatuvchi antennadan, bu antenna tarqatadigan to'lqinlarni amalda yuguruvchi to'lqinlar sifatida qarash mumkin bo'lishi uchun yetarli darajada uzoqlashgan fazoviy zona.

Узатувчи антеннадан, бу антенна тарқатадиган тўлқинларни амалда югурувчи тўлқинлар сифатида қараш мумкин бўлиши учун етарли даражада узоклашган фазовий зона.

**Зона индукции**

**uz** - induksiya zonasi

индукция зонаси

Пространственная зона в непосредственной близости от передающей антенны, в которой волны не могут рассматриваться как бегущие.

**en** - induction zone; near zone

Примечание – В этой зоне произведение величины

### 3

магнитного поля и величины характеристического сопротивления пространства не равно величине электрического поля, и на расстоянии меньшей десятой части длины волны, измеряется в любом постоянном направлении как обратная величина квадрату или кубу расстояния.

Uzatuvchi antennadan bevosita yaqin masofadagi, to'liqlar yuguruvchi to'liqlar sifatida qarab chiqilmaydigan fazoviy zona.

Izoh – Bu zonada magnit maydon kattaligi va fazo xarakteristik qarshiligi kattaligining ko'paytmasi elektr maydon kattaligiga teng emas va to'liq uzunligining o'ndan bir qismidan kichik bo'lgan masofada istalgan o'zgarish yo'nalishda masofaning kvadrati yoki kubiga teskari kattalik sifatida o'lchanadi.

Узатувчи антеннадан бевосита яқин масофадаги, тўлқинлар югурувчи тўлқинлар сифатида қараб чиқилмайдиган фазовий зона.

Изоҳ – Бу зонада магнит майдон катталиги ва фазо хarakteristik қаршилиги катталигининг кўпайтмаси электр майдон катталигига тенг эмас ва тўлқин узунлигининг ўндан бир қисмидан кичик бўлган масофада исталган ўзгармас йўналишда масофанинг квадрати ёки кубига тескари катталик сифатида ўлчанadi.

#### **Зона отсутствия приема**

**uz** - qabul bo'lmaydigan zona  
қабул бўлмайдиган зона

**en** - skip area

Зона, очерчиваемая векторным лучом от радиопередатчика, длина которой является линейной величиной скачка.

Radiouzatkichdan chiquvchi vektor nur chizadigan, uzunligi keskin o'zgarishning chiziqli kattaligi hisoblanadigan zona.

Радиоузаткичдан чиқувчи вектор нур чизадиган, узунлиги кескин ўзгаришнинг чизикли катталиги ҳисобланадиган зона.

#### **Зона проводимости**

**uz** - o'tkazuvchanlik zonasi  
ўтказувчанлик зонаси

**en** - carrier band

Верхняя зона энергетических уровней в зонной теории твердого тела, пустая или частично заполненная электронами при  $T=0$  К.

Qattiq jismlarning zona nazariyasida energetik sathlarning bo'sh yoki  $T=0$  K da elektronlar bilan qisman to'ldirilgan yuqori zonasi.

Қаттиқ жисмларнинг зона назариясида энер-

**Зона уверенного приема радиовещательного передатчика**

**uz** - radioeshittirish uzatkichining ishonchli

qabul qilish zonasi

радиоэшиттириш

узаткичининг ишончли

қабул қилиш зонаси

**en** - primary service area

гетик сатҳларнинг бўш ёки  $T=0$  К да электронлар билан қисман тўлдирилган юқори зонаси.

Часть обслуживаемой зоны радиовещательного передатчика, в которой поле земной волны передатчика достаточно велико по сравнению с полями пространственной волны и шумов, так что прием остается удовлетворительный в любое время суток.

Radioeshittirish uzatkichi xizmat ko'rsatadigan zonaning bir qismi, unda uzatkich yer to'liqining maydoni fazoviy to'liqlar va shovqinlarning maydonlariga qaraganda yetarlicha katta, shuning uchun kunning istalgan paytida qabul qilish qoniqarli darajada qoladi.

Радиоэшиттириш узаткичи хизмат кўрсатадиган зонанинг бир қисми, унда узаткич ер тўлқинининг майдони фазовий тўлқинлар ва шовқинларнинг майдонларига қараганда етарлича катта, шунинг учун куннинг исталган пайтида қабул қилиш қониқарли даражада қолади.

**Зонная плавка**

**uz** - zonali eritish

зонали эритиш

**en** - zonal melting

Метод перекристаллизации материалов посредством создания в образце из обрабатываемого материала небольшого расплавленного участка (зоны) и его перемещения по образцу. Скорость перемещения расплавленных зон по образцу обычно от 0,1 до 10 mm/min.

Ishlov beriladigan materialda uncha katta bo'lmagan eritilgan uchastkani (zonani) vujudga keltirish orqali materiallarni qayta kristallash metodi va uning namuna bo'ylab ko'chishi. Eritilgan zonalarning namuna bo'ylab ko'chish tezligi odatda, *0,1 dan 10 mm/min gacha.*

Ишлов бериладиган материалда унча катта бўлмаган эритилган участкани (зонани) вужудга келтириш орқали материалларни қайта кристаллаш методи ва унинг намуна бўйлаб

### 3

кўчиши. Эритилган зоналарнинг намуна бўйлаб кўчиш тезлиги одатда, 0,1дан 10 mm/min гача.

#### **Зубчиковые искажения изображения**

**uz** - tasvirning tishchasimon buzilishi

тасвирнинг тишчасимон бузилиши

**en** - venetian blind

Геометрические искажения в четырехголовочном видеоманитофоне, возникающие, когда эксцентриситет диска видеоголовок относительно вакуумной направляющей в направлении оси симметрии вакуумной направляющей неодинаков при записи и воспроизведении.

To‘rt kallakli videomagnitofonda videokallaklar diskining eksentrisiteti yozib olish va qayta eshitirishda (qayta ko‘rsatishda) vakuum yo‘naltiruvchiga nisbatan vakuum yo‘naltiruvchi simmetriya o‘qi yo‘nalishida bir xil bo‘lmaganda vujudga keladigan geometrik buzilishlar.

Tўrt kallakli videomagnitofonda videoqallaklar diskining eksentrisiteti ёзиб олиш ва қайта эшиттиришда (қайта кўрсатишда) вакуум йўналтирувчига нисбатан вакуум йўналтирувчи симметрия ўқи йўналишида бир хил бўлмаганда вужудга келадиган геометрик бузилишлар.

### И

#### **Игнайтер**

**uz** - ignayter

игнайтер

**en** - igniter

Пусковой электрод электровакуумного прибора, контактирующий с жидкометаллическим катодом.

Elektrovakuum asbobning, suyuq metalli katod bilan kontaktlanuvchi ishga tushiradigan elektrodi.

Электровакуум асбобнинг, суюқ металл катод билан контактланувчи ишга туширадиган электроди.

#### **Игнитронный разрядник**

**uz** - ignitron razryadlagich

игнитрон разрядлагич

**en** - ignitron cell-type tube

Нерезонансный разрядник с ртутным катодом и с управлением моментом возникновения разряда с помощью игнайтера.

Примечание – Игнитронный разрядник предназна-

## И

ется для коммутаций электрических цепей с большими токами или защиты мощности радиоэлектронной аппаратуры.

Simob katodli va razryad paydo bo‘lish vaqti ignayter yordamida boshqariladigan norezonans razryadlagich.

Izoh – Ignitron razryadlagich katta tokli elektr zanjirlarini kommutatsiyalash yoki radioelektron apparatura quvvatini saqlash uchun mo‘ljallanadi.

Симоб катодли ва разряд пайдо бўлиш вақти игнайтер ёрдамида бошқариладиган норезонанс разрядлагич.

Изоҳ – Игнитрон разрядлагич катта токли электр занжирларини коммутациялаш ёки радиоэлектрон аппаратура қувватини сақлаш учун мўлжалланади.

**Идеальное ослабление в свободном пространстве**

**uz** - erkin fazodagi ideal susayish

эркин фазодаги идеал сусайиш

**en** - free-space attenuation

Ослабление в свободном пространстве, где существуют только две антенны: передающая и принимающая.

Faqat ikkita: uzatuvchi va qabulqiluvchi antenna mavjud bo‘lgan erkin fazodagi susayish.

Фақат иккита: узатувчи ва қабулқилувчи антенна мавжуд бўлган эркин фазодаги сусайиш.

**Идеальное ослабление при распространении**

**uz** - tarqalishdagi ideal susayish

тарқалишдаги идеал сусайиш

**en** - basic path attenuation

Ослабление при распространении в случае, когда эталонными антеннами являются изотропные антенны.

Izotrop antennalar etalon antennalar bo‘lgan tarqalish paytidagi susayish.

Изотроп антенналар эталон антенналар бўлган тарқалиш пайтидаги сусайиш.

**Избирательность**

**uz** - tanlovchanlik

танловчанлик

**en** - selectivity

Способность приемника отделять полезный сигнал от сигнала помехи, используя смещение или различное распределение их спектральных составляющих по шкале частот.

Qabulqilgichning, signallar spektral tashkil etuvchilarining chastotalar shkalasi bo‘yicha siljishi yoki turlicha taqsimlanishidan foydalangan hol-

## И

da, foydali signalni xalaqit signalidan ajrata olish qobiliyati.

Қабулқилгичнинг, сигналлар спектрал ташкил этувчиларининг частоталар шкаласи бўйича силжиши ёки турлича тақсимланишидан фойдаланган ҳолда, фойдали сигнални халақит сигналидан ажрата олиш қобилияти.

### **Избирательный мультиплексор**

**uz** - tanlovchi multipleksor

танловчи мультиплексор

**en** - multiplexer using

Мультиплексор, обеспечивающий независимость двух передатчиков за счет селекторных элементов.

Selektorli elementlar hisobiga ikkita uzatkichning mustaqilligini ta'minlaydigan multipleksor.

Селекторли элементлар ҳисобига иккита узаткичнинг мустақиллигини таъминлайдиган мультиплексор.

### **Избирательный вызов**

**uz** - tanlab chaqirish

танлаб чақириш

**en** - selective calling

Метод, при помощи которого радиостанция может вызвать только нужную радиостанцию в сети радиосвязи или группу станций посредством кодированного сигнала.

Radiostansiya kodlangan signal vositasida radioaloqa tarmog'idagi faqat kerak bo'lgan radiostansiyaning yoki stansiyalar guruhini chaqirishi mumkin bo'lgan metod.

Радиостанция кодланган сигнал воситасида радиоалоқа тармоғидаги фақат керак бўлган радиостанцияни ёки станциялар гуруҳини чақириши мумкин бўлган метод.

### **Излучаемая радиопомеха**

**uz** - tarqaladigan radioxalaqit

тарқаладиган радиохалақит

**en** - radiated radiobarrier

Радиопомеха, распространяющаяся в пространстве.

Fazoda tarqaladigan radioxalaqit.

Фазода тарқаладиган радиохалақит.

### **Излучатель лазера**

**uz** - lazer nurlatkichi

Основная функциональная часть лазера, предназначенная для преобразования энергии



## И

лазер нурлаткичи  
**en** - laser radiator

накачки в лазерное излучение и содержащая один или несколько лазерных активных элементов.

Lazerning, to'ldirish energiyasini lazer nurlanishga aylantirish uchun mo'ljallangan va bitta yoki bir nechta lazer aktiv elementidan iborat bo'lgan asosiy funksional qismi.

Лазернинг, тўлдириш энергиясини лазер нурланишга айлантириш учун мўлжалланган ва битта ёки бир нечта лазер актив элементидан иборат бўлган асосий функционал қисми.

**Излучающие полупроводниковые приборы**

**uz** - nurlantiruvchi yarimo'tkazgichli asboblar

нурлантирувчи ярим-ўтказгичли асбоблар

**en** - radiating semiconductor devices

Полупроводниковые приборы, преобразующие электрическую энергию в энергию оптического излучения.

Elektr energiyani optik nurlanish energiyasiga aylantiradigan yarimo'tkazgichli asboblar.

Электр энергияни оптик нурланиш энергиясига айлантирадиган яримўтказгичли асбоблар.

**Излучающий диод**

**uz** - nurlantiruvchi diod

нурлантирувчи диод

**en** - radiation diode

Полупроводниковый диод, содержащий переход (электронно-дырочный или контакт металл-полупроводник), в котором прохождение тока сопровождается образованием оптического излучения в инфракрасной, видимой или ультрафиолетовой области спектра.

Tokning o'tishi, spektrning infraqizil, ko'rinadigan yoki ultrabinafsha sohalarida optik nurlanishning vujudga kelishi ostida yuz beradigan (elektron-teshikli o'tish yoki metall-o'tkazgich kontakt) yarimo'tkazgichli diod.

Токнинг ўтиши, спектрнинг инфрақизил, кўринадиган ёки ультрабинафша соҳаларида оптик нурланишнинг вужудга келиши остида юз берадиган (электрон-тешикли ўтиш ёки металл-ўтказгич контакт) яримўтказгичли диод.

## И

### Излучение радиоприемника

**uz** - radioqabulqilgichning nurlatishi

радиоқабулқилгичнинг нурлатиши

**en** - receiver radiation

1 Направленность радиоприемника, излучающего электромагнитную энергию, прямо или косвенно, посредством антенны, цепи питания или каким-либо другим способом.

2 Электромагнитная волна, излучаемая радиоприемником.

1 Bevosita yoki bilvosita, antenna, ta'minot zanjiri orqali yoki boshqa qandaydir yo'llar bilan elektromagnit energiya tarqatgan radioqabulqilgichning yo'nalganligi.

2 Radioqabulqilgich tarqatadigan elektromagnit to'lqin.

1 Бевосита ёки билвосита, антенна, таъминот занжири орқали ёки бошқа қандайдир йўллар билан электромагнит энергия тарқатган радиоқабулқилгичнинг йўналганлиги.

2 Радиоқабулқилгич тарқатадиган электромагнит тўлқин.

### Измерительная сигналограмма

**uz** - o'lchash signalogrammasi  
ўлчаш сигналограммаси

**en** - measuring signal equipment

Сигналограмма с нормированными измерительными сигналами, используемая для проведения измерений и/или настройки устройства воспроизведения.

Normalangan o'lchash signallari bo'lgan, o'lchashlarni o'tkazish va/yoki qayta eshittirish qurilmasini sozlash uchun foydalaniladigan signalogramma.

Нормаланган ўлчаш сигналлари бўлган, ўлчашларни ўтказиш ва/ёки қайта эшиттириш қурилмасини созлаш учун фойдаланиладиган сигналограмма.

### Изоляция р-п-переходом

**uz** - p-n-o'tish orqali izolyatsiyalash

р-п-ўтиш орқали изоляциялаш

**en** - p-n junction isolation

Метод электрической развязки элементов в полупроводниковых интегральных схемах, при котором для каждого элемента формируется своя область, окружённая р-п-переходом, на который при работе интегральной схемы подаётся обратное напряжение.

Yarimo'tkazgichli integral sxemalarda element-

## И

larni elektr ajratish metodi. Bunda har bir element uchun *p-n*-o'tishdan chegaralangan soha shakllanadi. Bu sohaga integral sxema ishlayotgan paytda teskari kuchlanish uzatiladi.

Яримўтказгичли интеграл схемаларда элементларни электр ажратиш методи. Бунда ҳар бир элемент учун *p-n*-ўтишдан chegarаланган соҳа шаклланади. Бу соҳага интеграл схема ишлаётган пайтда тескари кучланиш узатилади.

### Изоляция диэлектриком

**uz** - dielektrik bilan izolyatsiyalash

диэлектрик билан изоляциялаш

**en** - dielectric isolation

Метод электрической развязки элементов в полупроводниковых интегральных схемах, при котором для каждого элемента схемы формируется своя область полупроводника, окружённая диэлектриком – тонкой плёнкой диоксида кремния ( $\text{SiO}_2$ ) или монокристаллическим сапфиром.

Yarimo'tkazgichli integral sxemalarda elementlarni elektr ajratish metodi. Bunda sxemaning har bir elementi uchun, dielektrik – kremniy dioksid ( $\text{SiO}_2$ )ning yupqa qatlami yoki monolit sapfir bilan o'ralgan, ozining yarimo'tkazgich sohasi shakllantiriladi.

Яримўтказгичли интеграл схемаларда элементларни электр ажратиш методи. Бунда схеманинг ҳар бир elementi учун, диэлектрик – кремний диоксид ( $\text{SiO}_2$ )нинг юпка қатлами ёки монокристаллический сапфир билан ўралган, ўзининг яримўтказгич соҳаси шакллантирилади.

### Изотипный переход

**uz** - izotip o'tish

изотип ўтиш  
**en** - isotype junction

Электрический переход между двумя полупроводниками с одинаковым типом проводимости – электронным (*n*) или дырочным (*p*). Соответственно различают электронно-электронный ( $n^+ - n$ ) и дырочно-дырочный ( $p^+ - p$ ).

Bir xil – elektron (*n*) yoki teshikli (*p*) o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan ikkita yarimo'tkazgich o'rtasidagi elektr o'tish. Tegishli ravishda, elektron-elektron ( $n^+ - n$ ) va teshikli-teshikli ( $p^+ - p$ )

## И

o‘tish farqlanadi.

Бир хил – электрон (n) ёки тешикли (p) ўтказувчанликка эга бўлган иккита яримўтказгич ўртасидаги электр ўтиш. Тегишли равишда, электрон-электрон ( $n^+ - n$ ) ва тешикли-тешикли ( $p^+ - p$ ) изотип ўтиш фарқланади.

### Изотропная антенна

**uz** - izotrop antenna

изотроп антенна

**en** - isotropic radiator

1 Идеальная антенна, у которой волновая сила одинакова во всех направлениях.

2 Воображаемая антенна без потерь, излучающая равномерно во все стороны.

1 То‘lqin kuchi barcha yo‘nalishlarda bir xil bo‘lgan ideal antenna.

2 Barcha tomonga bir tekis yo‘qotishlarsiz radio-to‘lqin tarqatadi deb tasavvur qilinadigan antenna.

1 Тўлқин кучи барча йўналишларда бир хил бўлган идеал антенна.

2 Барча томонга бир текис йўқотишларсиз радиотўлқин тарқатади деб тасаввур қилинадиган антенна.

### Изотропное

**усиление антенны**

**uz** - antennani izotrop

kuchaytirish

антеннани изотроп

кучайтириш

**en** - power gain referred

to an isotropic radiator

Усиление мощности антенны в определенном направлении, когда опорной антенной является изотропная антенна, несимметричная в пространстве.

Fazoda nosimmetrik izotrop antenna asosiy antenna bo‘lganda, antenna quvvatini belgilangan yo‘nalishda kuchaytirish.

Фазода носимметрик изотроп антенна асосий антенна бўлганда, антенна қувватини белгиланган йўналишда кучайтириш.

### Изофазная лампа

**бегущей волны**

**uz** - izofazali yuguruvchi

to‘lqin lampasi

изофазали югурувчи тўлқин

лампаси

**en** - isophase traveling-wave tube

Лампа бегущей волны, в которой поддерживается оптимальный фазовый сдвиг между первой гармоникой тока сгруппированных электронов и электромагнитной волной за счет изменения ее фазовой скорости.

Fazaviy tezligining o‘zgarishi hisobiga, guruhlashtirilgan elektronlar tokining birinchi garmo-

## И

nikasi va elektromagnit to'liqin orasida optimal fazaviy siljish saqlab turiladigan yuguruvchi to'liqin lampasi.

Фазавий тезлигининг ўзгариши ҳисобига, гурухлаштирилган электронлар токининг биринчи гармоникаси ва электромагнит тўлқин орасида оптимал фазавий силжиш сақлаб туриладиган югурувчи тўлқин лампаси.

### **Изохронная лампа бегущей волны**

**uz** - izoxron yuguruvchi  
to'liqin lampasi

изохрон югурувчи  
тўлқин лампаси

**en** - tapering traveling-wave tube

Лампа бегущей волны, в которой поддерживается оптимальное соотношение между фазовой скоростью электромагнитной волны и скоростью электронов в потоке за счет увеличения замедления к концу замедляющей системы.

Sekinlashtiruvchi tizim oxiriga tomon sekinlashtirishni oshirish hisobiga, elektromagnit to'liqinning fazaviy tezligi va oqimdagi elektronlar tezligi orasidagi optimal nisbat saqlab turiladigan yuguruvchi to'liqin lampasi.

Секинлаштирувчи тизим охирига томон секинлаштиришни ошириш ҳисобига, электромагнит тўлқиннинг фазавий тезлиги ва оқимдаги электронлар тезлиги орасидаги оптимал нисбат сақлаб туриладиган югурувчи тўлқин лампаси.

### **Изохронная лампа обратной волны**

**uz** - izoxron qaytgan to'liqin  
lampasi

изохрон қайтган тўлқин  
лампаси

**en** - isochrone backward  
wave tube

Лампа обратной волны, в которой поддерживается оптимальное отношение между скоростями обратной пространственной гармоникой электромагнитной волны и электронами в потоке вдоль замедляющей системы.

Elektromagnit to'liqinning teskari fazoviy harmonika tezliklari va sekinlashtiruvchi tizim bo'ylab o'tadigan oqimdagi elektronlar orasida optimal nisbat saqlab turiladigan qaytgan to'liqin lampasi.

Электромагнит тўлқиннинг тескари фазовий гармоника тезликлари ва секинлаштирувчи ти-

## И

зим бўйлаб ўтадиган оқимдаги электронлар орасида оптимал нисбат сақлаб туриладиган қайтган тўлқин лампаси.

Способ управления за счет изменения параметров (длительности, амплитуды, частоты) импульсов.

Impulslarning parametrlarini (davomiyligini, amplitudasini, chastotasini) o'zgartirish hisobiga boshqarish usuli.

Импульсларнинг параметрларини (давомийлигини, амплитудасини, частотасини) ўзгартириш ҳисобига бошқариш усули.

Область техники, охватывающая исследование, разработку и использование методов и технических средств генерирования, преобразования, усиления и измерения параметров электрических импульсов, а также исследование импульсных процессов в электрических цепях.

Texnikaning, elektr impulslar parametrlarini o'lash, kuchaytirish, o'zgartirish va generatsiyalash texnik vositalari hamda metodlaridan foydalanish, ishlab chiqish, tadqiq qilinishini, shuningdek, elektr zanjirlardagi impulslar jarayonlar tadqiq qilinishini qamrab oladigan sohasi.

Техниканинг, электр импульслар параметрларини ўлчаш, кучайтириш, ўзгартириш ва генерациялаш техник воситалари ҳамда методларидан фойдаланиш, ишлаб чиқиш, тадқиқ қилинишини, шунингдек, электр занжирлардаги импульсли жараёнлар тадқиқ қилинишини қамраб оладиган соҳаси.

Характеристика реакции фильтра на единичный импульс, поданный на его вход.

Filtr kirishiga uzatilgan ayrim impulsga bo'ladigan filtr reaksiyasining xarakteristikasi.

### **Импульсная модуляция**

**uz** - impulsli modulyatsiya  
импульсли модуляция  
**en** - pulse modulation

### **Импульсная техника**

**uz** - impuls texnikasi  
импульс техникаси  
**en** - pulse engineering

### **Импульсная характеристика**

**uz** - impuls xarakteristika  
импульс характеристика  
**en** - pulse characteristic

## И

Фильтр киришига узатилган айрим импульсга бўладиган фильтр реакциясининг характеристикаси.

### **Импульсное неповторяющееся напряжение**

**uz** - impulsli takrorlanmaydigan kuchlanish

импульсли такрорланмайдиган кучланиш

**en** - impulse voltage non-repeating

Наибольшее значение любого неповторяющегося обратного или прямого (параметр прямого напряжения существует только для тиристоров, а обратного – для тиристоров и диодов) напряжения, прикладываемого к закрытому диоду или тиристоры.

Yopiq diod yoki tiristorga qo'yiladigan har qanday takrorlanmaydigan teskari yoki to'g'ri kuchlanishning eng katta qiymati (to'g'ri kuchlanish parametri faqat tiristorlar uchun, teskari kuchlanish parametri esa, tiristorlar va diodlar uchun mavjud).

Ёпик диод ёки тиристорга қўйиладиган ҳар қандай такрорланмайдиган тескари ёки тўғри кучланишнинг энг катта қиймати (тўғри кучланиш параметри фақат тиристорлар учун, тескари кучланиш параметри эса, тиристорлар ва диодлар учун мавжуд).

### **Импульсное повторяющееся напряжение**

**uz** - impulsli takrorlanadigan kuchlanish

импульсли такрорланадиган кучланиш

**en** - repetitive impulse voltage

Наибольшее значение повторяющегося обратного или прямого (параметр прямого напряжения существует только для тиристоров, а обратного – для тиристоров и диодов) напряжения, прикладываемого к диоду или тиристоры.

Diod yoki tiristorga qo'yiladigan, takrorlanadigan teskari yoki to'g'ri kuchlanishning eng katta qiymati (to'g'ri kuchlanish parametri faqat tiristorlar uchun, teskari kuchlanish parametri esa, tiristorlar va diodlar uchun mavjud).

Диод ёки тиристорга қўйиладиган, такрорланадиган тескари ёки тўғри кучланишнинг энг катта қиймати (тўғри кучланиш параметри фақат тиристорлар учун, тескари кучланиш параметри эса, тиристорлар ва диодлар учун мавжуд).

### **Импульсное прямое**

Мгновенное значение прямого напряжения

## И

### напряжение

**uz** - impulsli to'g'ri kuchlanish

импульсли тўғри кучланиш

**en** - peak forward recovery voltage

### Импульсное управление

**uz** - impulsli boshqarish

импульсли бошқариш

**en** - pulse control

### Импульсный входной ток оптопары (оптоэлектронного коммутатора, оптоэлектронного переключателя)

**uz** - optopara (optoelektron kommutator, optoelektron almashlab ulagich)ning impulsli kirish toki

оптопара (оптоэлектрон коммутатор, оптоэлектрон алмашлаб улагич) нинг импульсли кириш токи

**en** - input maximum current

### Импульсный высоко- вольтный кенотрон

**uz** - impulsli yuqori

voltli kenotron

импульсли юқори

дио́да, вызванного протеканием прямого тока.

To'g'ri tok oqib o'tishi keltirib chiqaradigan diod to'g'ri kuchlanishining oniy qiymati.

Тўғри ток оқиб ўтиши келтириб чиқарадиган диод тўғри кучланишининг оний қиймати.

Управление, обеспечивающее изменение моментов начала, окончания или обоих моментов, повторяющихся интервалов открытого состояния основных вентиля преобразователя.

O'zgartirgich asosiy ventillari ochiq holati takrorlanuvchi intervallarining boshlanish, tugallanish momentlarining yoki har ikkala momentlarining o'zgarishi ta'minlanadigan boshqarish.

Ўзгартиргич асосий венти́ллари очик ҳолати такрорланувчи интервалларининг бошланиш, тугалланиш моментларининг ёки ҳар иккала моментларининг ўзгариши таъминланадиган бошқариш.

Наибольшее мгновенное значение тока, протекающего во входной цепи оптопары (оптоэлектронного коммутатора, оптоэлектронного переключателя), при котором обеспечиваются заданные параметры.

Optopara (optoelektron kommutator, optoelektron qayta ulagich) kirish zanjiridan o'tadigan tokning, belgilangan parametrlar ta'minlanadigan eng katta oniy qiymati.

Оптопара (оптоэлектрон коммутатор, оптоэлектрон қайта улагич) кириш занжиридан ўтадиган токнинг, белгиланган параметрлар таъминланадиган энг катта оний қиймати.

Высоковольтный кенотрон, предназначенный для работы в импульсном режиме.

Impulsli rejimda ishlash uchun mo'ljallangan yuqori voltli kenotron.



## И

вольтлы кенотрон

**en** - heig-voltage pulse kenotron

**Импульсный выходной ток оптопары**

**uz** - optoparaning impulsli chiqish toki

оптопаранинг импульсли  
чиқиш токи

**en** - outputmaximum peak current

**Импульсный газоразрядный источник высокоинтенсивного оптического излучения**

**uz** - yuqori intensiv optik nurlanishning impulsli gaz-razryadli manbai

юқори интенсив оптик  
нурланишинг импульсли  
газ-разрядли манбаи

**en** - pulsed discharge source of high-intensive optical radiation

**Импульсный газотрон**

**uz** - impulsli gazotron

импульсли газотрон  
**en** - pulse gas filled rectifier

**Импульсный полупроводниковый диод**

**uz** - impulsli yarimo'tkazgichli diod

импульсли ярим-  
ўтказгичли диод

**en** - signal diode

Импульсли режимда ишлаш учун мўлжалланган юқори вольтлы кенотрон.

Наибольшее мгновенное значение выходного тока оптопары.

Оптопара chiqish tokining eng katta oniy qiymati.

Оптопара чиқиш токининг энг катта оний қиймати.

Газоразрядный источник высокоинтенсивного оптического излучения, работающий в импульсном режиме.

Yuqori intensiv optik nurlanishning impulsli rejimda ishlaydigan gaz-razryadli manbai.

Юқори интенсив оптик нурланишинг импульсли режимда ишлайдиган газ-разрядли манбаи.

Газотрон, предназначенный для применения в импульсном режиме.

Impulsli rejimda qo'llash uchun mo'ljallangan gazotron.

Импульсли режимда қўллаш учун мўлжалланган газотрон.

Полупроводниковый диод, имеющий малую длительность переходных процессов и предназначенный для применения в импульсных режимах работы.

O'tish jarayonlarining davomiyligi kichik bo'lgan va impulsli ish rejimida qo'llash uchun mo'ljallangan yarimo'tkazgichli diod.

Ўтиш жараёнларининг давомийлиги кичик бўлган ва импульсли иш режимида қўллаш учун мўлжалланган яримўтказгичли диод.

## И

### **Импульсный тиратрон**

**uz** - impulsli tiratron

импульсли тиратрон

**en** - pulse thyatron

Тиратрон, предназначенный для применения в импульсном режиме.

Impulsli rejimda qo'llash uchun mo'ljallangan tiratron.

Импульсли режимда қўллаш учун мўлжалланган тиратрон.

### **Импульсный тиристор**

**uz** - impulsli tiristor

импульсли тиристор

**en** - pulse thiristor

Тиристор, имеющий малую длительность переходных процессов и предназначенный для применения в импульсных режимах работы.

O'tish jarayonlarining davomiyligi kichik bo'lgan va impulsli ish rejimida qo'llash uchun mo'ljallangan tiristor.

Ўтиш жараёнларининг давомийлиги кичик бўлган ва импульсли иш режимида қўллаш учун мўлжалланган тиристор.

### **Импульсный электронно-оптический преобразователь**

**uz** - impulsli elektron-optik

o'zgartirgich

импульсли электрон-оптик

ўзгартиргич

**en** - light shutter image tube

Электронно-оптический преобразователь, в котором предусмотрено импульсное управление электронным изображением.

Elektron tasvirni impulsli boshqarishga asoslangan elektron-optik o'zgartirgich.

Электрон тасвири импульсли бошқаришга асосланган электрон-оптик ўзгартиргич.

### **Инверсия населённости**

**uz** - to'planib joylashish

inversiyasi

тўпланиб жойлашиш

инверсияси

**en** - population inversion

Неравновесное состояние среды, при котором населённость уровня, соответствующего более высокому значению энергии, оказывается больше чем у уровня с меньшей энергией.

Muhitning muvozanatsiz holati. Bunda sathning energiyaning yuqoriroq qiymatiga mos keluvchi to'planib joylashishi kam energiyali sathga nisbatan ko'proq bo'ladi.

Мухитнинг мувозанатсиз ҳолати. Бунда сатҳнинг энергиянинг юқориқ қийматига мос келувчи тўпланиб жойлашиши кам энергияли сатҳга нисбатан кўпроқ бўлади.

## И

### **Инверсный выключатель сверхвысокой частоты**

**uz** - o'ta yuqori chastota  
inversli uzgichi

ўта юқори частота инверсли  
узгичи

**en** - inverted switch ultrahigh  
frequency

Выключатель сверхвысокой частоты, у которого режим пропускания обеспечивается при подаче управляющих импульсов.

O'tkazish rejimi boshqaruvchi impulslar uzatilganda ta'minlanadigan o'ta yuqori chastota uzgichi.

Ўтказиш режими бошқарувчи импульслар узатилганда таъминланадиган ўта юқори частота узгичи.

### **Инвертирование**

**uz** - invertirlash

инвертирлаш

**en** - inversion

Преобразование энергии постоянного тока в энергию переменного тока.

O'zgarmas tok energiyasini o'zgaruvchan tok energiyasiga aylashtirish.

Ўзгармас ток энергиясини ўзгарувчан ток энергиясига айлаштириш.

### **Инвертор напряжения**

**uz** - kuchlanish invertori

кучланиш инвертори

**en** - voltage inverter

Инвертор, питаемый от цепи постоянного тока с преобладающими свойствами источника напряжения.

Kuchlanish manbaining ustuvor xossalariга eга o'zgarmas tok zanjiridan ta'minlanadigan invertor.

Кучланиш манбаининг устувор хоссаларига эга ўзгармас ток занжирдан таъминланадиган инвертор.

### **Инвертор тока**

**uz** - tok invertori

ток инвертори

**en** - current inverter

Инвертор, питаемый от цепи постоянного тока с преобладающими свойствами источника тока.

Tok manbaining ustuvor xossalariга eга o'zgarmas tok zanjiridan ta'minlanadigan invertor.

Ток манбаининг устувор хоссаларига эга ўзгармас ток занжирдан таъминланадиган инвертор.

## И

### **Индикатор тлеющего разряда**

**uz** - miltillama razryad indikatori

милтиллама разряд индикатори

**en** - indicator of smoulderring category

Прибор тлеющего разряда, в котором свечение газоразрядного промежутка используется для визуальной индикации.

Gaz-razryadli oraliqning yorug‘lanishidan vizual indikatsiya uchun foydalaniladigan miltillama razryad asbobi.

Газ-разрядли оралиқнинг ёруғланишидан визуал индикация учун фойдаланиладиган милтиллама разряд асбоби.

### **Индикатор электронного излучения**

**uz** - elektron nurlanish indikatori

электрон нурланиш индикатори

**en** - indicator electronic radiation

Электронно-лучевой индикатор, обеспечивающий получение сигнала на радиочастотах, излучаемого импульсным радиолокатором.

Impulsli radiolokator nurlantiradigan radiochastotalarda signal olinishini ta‘minlaydigan elektron-nurli indikator.

Импульсли радиолокатор нурлантирадиган радиочастоталарда сигнал олинисини таъминлайдиган электрон-нурли индикатор.

### **Индикаторная электронно-лучевая трубка**

**uz** - indikatorli elektron-nurli trubka

индикаторли электрон-нурли трубка

**en** - display tube

Приемная электронно-лучевая трубка, предназначенная для воспроизведения информации от электрических сигналов, управляющих интенсивностью отклоняемых по определенному закону электронных лучей.

Ma‘lum bir qonun bo‘yicha og‘adigan elektron nurlarning intensivligini boshqaradigan elektr signallardan keladigan axborotni aks ettirish uchun mo‘ljallangan qabul qiluvchi elektron-nurli trubka.

Маълум бир қонун бўйича оғадиган электрон нурларнинг интенсивлигини бошқарадиган электр сигналлардан келадиган ахборотни акс эттириш учун мўлжалланган қабул қилувчи электрон-нурли трубка.

### **Индикация в радиолокации**

Представление информационных данных, предназначенных для опознавания и обозначения

## И

**uz** - radiolokatsiyadagi  
indikatsiya

радиолокациядаги  
индикация  
**en** - display

### **Индуктивная составляющая внутреннего падения напряжения**

**uz** - kuchlanish ichki tushishining  
induktiv tashkil etuvchisi

кучланиш ички тушишининг  
индуктив ташкил этувчиси  
**en** - inductive direct voltage  
regulation

### **Индукционная магнитная головка**

**uz** - induksion magnit  
kallak

индукцион магнит  
каллак  
**en** - inductive magnetic head

### **Индукционный ток**

**uz** - induksion tok

индукцион ток  
**en** - induction current

ния местоположения объектов при помощи радиолокатора.

Radiolokator yordamida obyektlarni aniqlash va joylashgan oʻrnini belgilash uchun moʻljallangan axborot maʼlumotlarini taqdim etish.

Радиолокатор ёрдамида объектларни аниқлаш ва жойлашган ўрнини белгилаш учун мўлжалланган ахборот маълумотларини тақдим этиш.

Изменение постоянного напряжения, вызванное индуктивностью контуров коммутации.

Oʻzgarmas kuchlanishning, kommutatsiya konturlarining induktivligi keltirib chiqaradigan oʻzgarishi.

Ўзгармас кучланишнинг, коммутация контурларининг индуктивлиги келтириб чиқарадиган ўзгариши.

Магнитная головка воспроизведения, полезный сигнал которой возникает в результате электромагнитной индукции, обусловленной перемещением дорожки записи относительно головки.

Foydali signali yozib olish yoʻlkasining kallakka nisbatan siljishi bilan bogʻliq boʻlgan elektromagnit induksiya natijasida yuzaga keladigan qayta tiklash magnit kallagi.

Фойдали сигнали ёзиб олиш йўлкасининг каллакка нисбатан силжиши билан боғлиқ бўлган электромагнит индукция натижасида юзага келадиган қайта тиклаш магнит каллаги.

Электрический ток, создаваемый явлением электромагнитной индукции, происходящего в контуре проводника, расположенного в переменном магнитном поле или движущегося в магнитном поле.

Oʻzgaruvchan magnit maydonida joylashgan yoki magnit maydonida harakatlanayotgan oʻtkazgich

## И

konturida elektromagnit induksiya hodisasi tufayli hosil boʻladigan elektr toki.

Ўзгарувчан магнит майдонида жойлашган ёки магнит майдонида ҳаракатланаётган ўтказгич контурида электромагнит индукция ҳодисаси тўфайли ҳосил бўладиган электр токи.

### **Индустриальные радиопомехи**

**uz** - industrial radioxalaqitlar  
индустриал радиохалақитлар

**en** - man-made noise

Радиопомехи, которые создаются электрическими или электронными устройствами.

Примечания

1 Под радиопомехой понимается электромагнитная помеха в диапазоне радиочастот.

2 К промышленным радиопомехам не относятся излучения, создаваемые высокочастотными трактами радиопередатчиков.

Elektr yoki elektron qurilmalar vujudga keltiradigan radioxalaqitlar.

Izohlar

1 Radioxalaqit deganda radiochastotalar diapazonidagi elektromagnit xalaqit tushuniladi.

2 Industrial radioxalaqitlarga radiouzatkichlarning yuqori chastotali traktlari vujudga keltiradigan nurlanishlar tegishli emas.

Электр ёки электрон қурилмалар вужудга келтирадиган радиохалақитлар.

Изоҳлар

1 Радиохалақит деганда радиочастоталар диапазонидаги электромагнит халақит тушунилади.

2 Индустриал радиохалақитларга радиоузаткичларнинг юқори частотали трактлари вужудга келтирадиган нурланишлар тегишли эмас.

### **Инжектирующий контакт**

**uz** - injeksiyalovchi kontakt  
инжекцияловчи контакт

**en** - injection contact

Электрический контакт между двумя полупроводниками с разными типами проводимости (*n*- и *p*-типа) или металлом и полупроводником, металлом и диэлектриком, характеризующийся тем, что через него возможна инжекция носителей заряда.

Turli (*n*- yoki *p*-turidagi) oʻtkazuvchanlikka ega boʻlgan ikkita yarimoʻtkazgich yoki metall va yarimoʻtkazgich, metall va dielektrik oʻrtasidagi, bu kontakt orqali zaryad tashuvchilar injeksiyasi yuz berishi mumkin bolgan elektr kontakt.

## И

Турли (n- ёки p-туридаги) ўтказувчанликка эга бўлган иккита яримўтказгич ёки металл ва яримўтказгич, металл ва диэлектрик ўртасидаги, бу контакт орқали заряд ташувчилар инъекцияси юз бериши мумкин бўлган электр контакт.

### **Инжектрон**

**uz** - injektron

инжектрон

**en** - injectron

Трехэлектродная импульсная модуляторная или регулирующая лампа со скрещенными электрическим и магнитным полями в промежутке между катодом и управляющим электродом.

Katod va boshqaruvchi elektrod oralig'ida kesishgan elektr va magnit maydonlari bo'lgan uch elektrodli impulsli modulyator yoki boshqaruvchi lamp.

Катод ва бошқарувчи электрод оралиғида кесилган электр ва магнит майдонлари бўлган уч электродли импульсли модулятор ёки бошқарувчи лампа.

### **Инжекционно-пролетный диод**

**uz** - injeksion-oraliqli diod

инжекцион-оралиқли

диод

**en** - injection-(and-)

transit time diode

Полупроводниковый диод, работающий в режиме инъекции носителей заряда в области запирающего слоя и предназначенный для генерации сверхвысокочастотных колебаний.

Zaryad tashuvchilarni berk qatlam qismiga injeksiyalash rejimida ishlaydigan va o'ta yuqori chastotali tebranishlarni generatsiyalash uchun mo'ljallangan yarimo'tkazgichli diod.

Заряд ташувчиларни берк қатлам қисмига инъекциялаш режимида ишлайдиган ва ўта юқори частотали тебранишларни генерациялаш учун мўлжалланган яримўтказгичли диод.

### **Инжекционный лазер**

**uz** - injeksion lazer

инжекцион лазер

**en** - injection laser diode

Полупроводниковый лазер с электрической накачкой, в котором инверсия населенности создается в результате инъекции свободных носителей заряда в область электронно-дырочного перехода приложением электрическо-

## И

го поля к переходу в прямом направлении.

Elektr to'ldirishli yarimo'tkazgichli diod, unda joylashtirish inversiyasi to'g'ri yo'nalishda elektr maydonni o'tishga qo'shish bilan erkin zaryad tashuvchilarini elektron-teshikli o'tish doirasiga injeksiyalash natijasida vujudga keltiriladi.

Электр тўлдиришли яримўтказгичли диод, унда жойлаштириш инверсияси тўғри йўналишда электр майдонни ўтишга қўшиш билан эркин заряд ташувчиларини электрон-тешикли ўтиш доирасига инъекциялаш натижасида вужудга келтирилади.

### **Инжекция носителей заряда**

**uz** - zaryad tashuvchilar  
injeksiyasi

заряд ташувчилар

инжекцияси

**en** - charge carrier injection

Введение неравновесных носителей заряда в полупроводниковую или диэлектрическую область при внешнем воздействии. Инжекция носителей заряда – один из основных процессов в электронно-дырочных переходах и контактах металл-полупроводник.

Tashqi ta'sir ostida yarimo'tkazgichli yoki dielektrik sohaga muvozanatsiz zaryad tashuvchilarni kiritish. Zaryad tashuvchilar injeksiyasi elektron-teshikli o'tishlar va metall-yarimo'tkazgich kontaktlaridagi asosiy jarayonlardan hisoblanadi.

Ташқи таъсир остида яримўтказгичли ёки диэлектрик соҳага мувозанатсиз заряд ташувчиларни киритиш. Заряд ташувчилар инъекцияси электрон-тешикли ўтишлар ва металл-яримўтказгич контактларидаги асосий жараёнлардан ҳисобланади.

### **Инпладрон**

**uz** - inpladron

инпладрон

**en** - inpladrone

Электривакуумный прибор, в котором для управления потоком электронов или ионов используется их механическая инерционность.

Примечание – Инпладрон служит для преобразования механических величин, например, ускорений, углов поворотов и т. п., в электрические величины.



## И

Elektronlar yoki ionlar oqimini boshqarish uchun, ularning mexanik inersionligidan foydalaniladigan elektrovakuum asbob.

Izoh – Inpladron mexanik kattaliklarni, masalan, tezlanishlarni, burilish burchaklarini va sh.k. larni elektr kattaliklarga aylantirish uchun xizmat qiladi.

Электронлар ёки ионлар оқимини бошқариш учун, уларнинг механик инерционлигидан фойдаланиладиган электровакуум асбоб.

Изоҳ – Инпладрон механик катталикларни, масалан, тезланишларни, бурилиш бурчакларини ва ш.к. ларни электр катталикларга айлантириш учун хизмат қилади.

### **Интегральная инжекционная логика**

**uz** - integral-injeksiyon mantiq  
интеграл-инжекцион

мантик

**en** - integrated injection logic

Класс схем для построения логических элементов на основе функционально-интегрированных инверторов.

Funksional jamlangan invertorlar asosida mantiqiy elementlarni tuzish sxemalarining turkumi.

Функционал жамланган инверторлар асосида мантикий элементларни тузиш схемаларининг туркуми.

### **Интегральная криоэлектроника для вычислительной техники**

**uz** - hisoblash texnikasi  
uchun integral krioelektronika  
ҳисоблаш техникаси

учун интеграл криоэлектроника

**en** - integrated microwave  
cryoelectrics for computing  
technique

Раздел криоэлектроники по созданию криоэлектронных интегральных микросхем, устройств и систем вычислительной техники на основе использовании сверхпроводимости, эффектов Джозефсона и других явлений в пленочных структурах.

Krioelektronikaning, o'ta o'tkazuvchanlikdan, Jozefson effektidan va plyonkali strukturalardagi boshqa hodisalardan foydalanish asosida krioelektron integral mikrosxemalar, hisoblash texnikasi qurilmalari va tizimlarini yaratish bo'yicha bo'limi.

Криоэлектрониканинг, ўта ўтказувчанликдан, Жозефсон эффектидан ва плёнкали структуралардаги бошқа ҳодисалардан фойдаланиш асосида криоэлектрон интеграл микросхемалар, ҳисоблаш техникаси қурилмалари ва тизимларини яратиш бўйича бўлими.

## И

**Интегральная криоэлектроника сверхвысокой частоты**  
**uz** - o'ta yuqori chastota integral krioelektronikasi

ўта юқори частота интеграл криоэлектроникаси  
**en** - integrated microwave cryoelectrics

**Интегральная оптика**

**uz** - integral optika  
интеграл оптика  
**en** - integrated optics

**Интегральная схема**

**uz** - integral sxema  
интеграл схема  
**en** - integrated circuit

Раздел криотехники по созданию криоэлектронных приборов, блоков и систем сверхвысокой частоты на основе криоэлектронных интегральных микросхем.

Kriotexnikaning, krioelektron integral mikrosxemalar asosida o'ta yuqori chastota krioelektron asboblari, bloklari va tizimlarini yaratish bo'yicha bo'limi.

Криотехниканинг, криоэлектрон интеграл микросхемалар асосида ўта юқори частота криоэлектрон асбоблари, блоклари ва тизимларини яратиш бўйича бўлими.

Раздел оптоэлектроники, охватывающий изучение оптических явлений в тонких слоях прозрачных материалов и разработку методов создания интегрально-оптических элементов и устройств.

Optoelektronikaning, shaffof materiallarning yupqa qatlamlarida optik hodisalarni o'rganadigan va integral-optik elementlar hamda qurilmalar yaratish metodlari ishlab chiqilishini qamrab oladigan bo'limi.

Оптоэлектрониканинг, шаффоф материалларнинг юпқа қатламларида оптик ҳодисаларни ўрганадиган ва интеграл-оптик элементлар ҳамда қурилмалар яратиш методлари ишлаб чиқирилишини қамраб оладиган бўлими.

Конструктивно законченное изделие электронной техники, содержащее совокупность электрически связанных между собой транзисторов, полупроводниковых диодов, конденсаторов, резисторов и др. элементов, изготовленных в едином технологическом цикле.

Elektron texnikaning konstruktiv jihatdan tugallangan mahsuloti. Ichiga o'zaro elektr bog'langan tranzistorlar, yarimo'tkazgichli diodlar, kondensatorlar, rezistorlar va yagona texnologik

## И

siklda tayyorlangan boshqa elementlarni oladi.

Электрон техниканинг конструктив жиҳатдан тугалланган маҳсулоти. Ичига ўзаро электр боғланган транзисторлар, яримўтказгичли диодлар, конденсаторлар, резисторлар ва ягона технологик циклда тайёрланган бошқа элементларни олади.

### **Интегрально-оптическая схема**

**uz** - integral-optik sxema

интеграл-оптик схема

**en** - integrated-optical scheme

Интегральная схема, в которой связь между элементами осуществляется с помощью световых сигналов.

Elementlar o'rtasidagi bog'lanish yorug'lik signallari orqali amalga oshiriladigan integral sxema.

Элементлар ўртасидаги боғланиш ёруғлик сигналлари орқали амалга ошириладиган интеграл схема.

### **Интегрально-оптические элементы**

**uz** - integral-optik elementlar

интеграл-оптик

элементлар

**en** - optical integrated elements

Миниатюрные оптические и оптоэлектронные устройства, выполненные с применением интегральной технологии и предназначенные для передачи и обработки световых сигналов.

Integral texnologiyalar qo'llangan holda yasalgan va yorug'lik signallarini uzatish hamda qayta ishlash uchun mo'ljallangan, juda kichik optik va optoelektron qurilmalar.

Интеграл технологиялар қўлланган ҳолда ясалган ва ёруғлик сигналларини узатиш ҳамда қайта ишлаш учун мўлжалланган, жуда кичик оптик ва оптоэлектрон қурилмалар.

### **Интегратор**

**uz** - integrator

интегратор

**en** - integrating circuit

Устройство, в котором характеристическая величина выходного сигнала, силы тока или напряжения, как правило, достаточно пропорциональна интегралу по времени от величины сигнала на входе.

Chiqish signalining, tok kuchi yoki kuchlanishning xarakteristik kattaligi, odatda, kirishdagi signal kattaligining vaqt bo'yicha integraliga yetarlicha proporsional bo'lgan qurilma.

## И

Чиқиш сигналининг, ток кучи ёки кучланишнинг характеристик катталиги, одатда, киришдаги сигнал катталигининг вақт бўйича интегралига етарлича пропорционал бўлган курилма.

### **Интеграцияи степень**

**uz** - integrallanganlik darajasi

интегралланганлик даражаси

**en** - integration degree

Показатель ( $k$ ), характеризующий сложность интегральной схемы; численно определяется выражением:  $k = \lg N$ , где  $N$ —число элементов, входящих в интегральную схему.

Integral sxemaning murakkabligini tavsiflovchi ( $k$ ) ko'rsatkich. Miqdor jihatdan quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:  $k = \lg N$ , bu yerda  $N$ —integral sxemaga kiradigan elementlar soni.

Интеграл схеманинг мураккаблигини тавсифловчи ( $k$ ) кўрсаткич. Миқдор жиҳатдан қуйидаги ифода билан аниқланади:  $k = \lg N$ , бу ерда  $N$ —интеграл схемага кирадиган элементлар сони.

### **Интеллектуальная силовая интегральная схема**

**uz** - intellektual kuch integral sxemasi

интеллектуал куч интеграл схемаси

**en** - intelligent power integrated circuit

Силовая интегральная схема, содержащая силовые полупроводниковые приборы, обеспечивающие переключение электрических цепей, и устройства, выполняющие логические операции и обеспечивающие определенные режимы работы нагрузок.

Elektr zanjirlarining almashlab ulanishi ta'minlanadigan kuch yarimo'tkazgichli asboblar va mantiqiy operatsiyalarni bajaradigan hamda nagruzkalarning muayyan ish rejimlari ta'minlanadigan kuch integral sxemasi.

Электр занжирларининг алмашлаб уланиши таъминланадиган куч яримўтказгичли асбоблар ва мантикий операцияларни бажарадиган ҳамда нагрукаларнинг муайян иш режимлари таъминланадиган куч интеграл схемаси.

### **Интервал бита**

Отрезок дорожки записи, соответствующий

## И

### **сигналограммы**

**uz** - signalogrammaning

bit intervali

сигналограмманинг

бит интервали

**en** - interval of the bit signal

equipment

### **Интервал выключенного состояния**

**uz** - uzib qo‘yilgan holat intervali

узиб қўйилган ҳолат

интервали

**en** - circuit off state interval

### **Интервал коммутации**

**uz** - kommutatsiya intervali

коммутация интервали

**en** - commutation interval

### **Интервал проводимости**

**uz** - o‘tkazuvchanlik intervali

ўтказувчанлик интервали

**en** - conduction interval

### **Интермодуляционное радиоизлучение**

**uz** - intermodulyatsion

radionurlanish

интермодуляцион

радионурланиш

одному биту записанной информации.

Yozib olish yo‘lkasining yozilgan axborotning bitta bitiga mos keladigan qismi.

Ёзиб олиш йўлкасининг ёзилган ахборотнинг битта битига мос келадиган қисми.

Интервал, в течение которого управляемый вентиляльный электрический прибор находится в выключенном состоянии.

Boshqariladigan ventilli elektr asbob uzib qo‘yilgan holatda bo‘ladigan interval.

Бошқариладиган вентилли электр асбоб узиб қўйилган ҳолатда бўладиган интервал.

Интервал времени, в течение которого коммутирующие электрические вентили проводят одновременно основной ток.

Kommutatsiyalovchi elektr ventillar bir vaqtda asosiy tokni o‘tkazadigan vaqt intervali.

Коммутацияловчи электр вентиллар бир вақтда асосий токни ўтказадиган вақт интервали.

Часть периода повторяемости, в течение которой цепь, содержащая вентиль, проводит ток.

Takrorlanuvchanlik davrining, ventilni ichiga oladigan zanjir tok o‘tkazadigan qismi.

Такрорланувчанлик даврининг, вентилни ичига оладиган занжир ток ўтказадиган қисми.

Побочное радиоизлучение, возникающее в результате воздействия на нелинейные элементы радиопередающего устройства генерируемых радиоколесаний и внешнего электромагнитного поля или радиоколесания.

## И

**en** - intermodulation emission

Radiouzatuvchi qurilmaning nochiziqli elementlariga generatsiyalangan radiotebranishlarning va tashqi elektromagnit maydon yoki radiotebranishning ta'siri natijasida yuzaga keladigan qo'shimcha radionurlanish.

Радиоузатувчи қурилманинг nochизикли элементларига генерацияланган радиотебранишларнинг ва ташқи электромагнит майдон ёки радиотебранишнинг таъсири натижасида юзага келадиган қўшимча радионурланиш.

**Интермодуляция в радиоприемном устройстве**

**uz** - radioqabulqiluvchi qurilmadagi intermodulyatsiya

радиоқабулқилувчи

қурилмадаги интермодуляция

**en** - intermodulation in

radioreception device

Возникновение отклика на выходе радиоприемного устройства в результате взаимодействия на его нелинейных элементах двух или более радиопомех.

Radioqabulqiluvchi qurilmaning chiqishida, uning nochiziqli elementlaridagi ikki yoki undan ortiq radioxalaqitning o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'ladigan past chastotali xalaqit.

Радиоқабулқилувчи қурилманинг чиқишида, унинг nochизикли элементларидаги икки ёки undan ortiq radioxalaqitning ўзаро таъсири натижасида пайдо бўладиган паст частотали халақит.

**Интерференционно-поляризационный перестраиваемый фильтр**

**uz** - interferension-qutblanuvchi qayta to'g'rilanadigan filtr

интерференцион-

қутбланувчи қайта

тўғриланадиган фильтр

**en** - interferential-polarizing

reconfigurable filter

Перестраиваемый оптический фильтр, действие которого основано на использовании оптических элементов с управляемым двулучепреломлением и поляризаторов.

Ishlashi boshqariladigan ikkilanma nur sinish optik elementlaridan va qutblagichlardan foydalanishga asoslangan, qayta sozlanadigan optik filtr.

Ишлаши бошқариладиган иккиланма нур синиш оптик элементларидан ва қутблагичлардан фойдаланишга асосланган, қайта созланадиган оптик фильтр.

**Информационная объемная**

Количество информации, приходящейся на

## И

### **плотность записи**

**uz** - yozishning axborot hajmiy zichligi

ёзишнинг ахборот ҳажмий зичлиги

**en** - information-volumetric density of record

### **Информационная поверхностная плотность записи**

**uz** - yozishning axborot yuza zichligi

ёзишнинг ахборот юза зичлиги

**en** - areal data density

### **Информационная продольная плотность записи**

**uz** - yozishning axborot bo‘ylama zichligi

ёзишнинг ахборот бўйлама зичлиги

**en** - lineary data density

### **Информационная скорость воспроизведения**

**uz** - qayta tiklashning axborot tezligi

қайта тиклашнинг ахборот тезлиги

**en** - information rate of the reproduction

единицу объема сигналаграммы.

Signalogrammaning hajm birligiga to‘g‘ri keladigan axborot miqdori.

Сигналограмманинг ҳажм бирлигига тўғри келадиган ахборот миқдори.

Количество информации, приходящейся на единицу площади поверхности рабочего слоя сигналаграммы.

Signalogrammaning ishchi qatlami yuzasining maydoni birligiga to‘g‘ri keladigan axborot miqdori.

Сигналограмманинг ишчи қатлами юзасининг майдони бирлигига тўғри келадиган ахборот миқдори.

Количество информации, приходящейся на единицу длины дорожки записи.

Yozib olish yo‘lkasining uzunlik birligiga to‘g‘ri keladigan axborot miqdori.

Ёзиб олиш йўлкасининг узунлик бирлигига тўғри келадиган ахборот миқдори.

Отношение количества информации к интервалу времени воспроизведения.

Axborot miqdorining qayta tiklash vaqt intervaliga nisbati.

Ахборот миқдорининг қайта тиклаш вақт интервалига нисбати.

## И

### **Информационная скорость записи**

**uz** - yozishning axborot tezligi  
ёзишнинг ахборот тезлиги  
**en** - information recording rate

### **Инфракрасная криоэлектроника**

**uz** - infraqizil krioelektronika  
инфрақизил  
криоэлектроника  
**en** - infrared cryoelectrics

### **Ионизация**

**uz** - ionlanish  
ионланиш  
**en** - ionization

### **Ионная бомбардировка**

**uz** - ion bilan bombardimon qilish  
ион билан бомбардимон  
қилиш  
**en** - ion impact

Отношение количества информации к интервалу времени записи.

Axborot miqdorining yozib olish vaqt intervaliga nisbati.

Axborot miqdorining ёзиб олиш вақт интервалига нисбати.

Раздел криотехники по созданию криоэлектронных приборов, блоков и систем в инфракрасном диапазоне частот.

Kriotexnikaning, chastotalarning infraqizil diapazonida krioelektron asboblari, bloklar va tizimlar yaratish bo'yicha bo'limi.

Криотехниканинг, частоталарнинг инфрақизил диапазонда криоэлектрон асбоблар, блоklar ва тизимлар яратиш бўйича бўлими.

Образование положительных или отрицательных ионов из электрически нейтральных атомов молекул, радикалов и других частиц. Энергия, необходимая для образования иона называется энергией ионизации.

Molekulalar, radikallar va boshqa zarralarning elektr neytral atomlaridan musbat yoki manfiy ionlarning hosil bo'lishi. Ion hosil bo'lishi uchun zarur bo'lgan energiya ionlanish energiyasi deyiladi.

Молекулалар, радикаллар ва бошқа зарраларнинг электр нейтрал атомларидан мусбат ёки манфий ионларнинг ҳосил бўлиши. Ион ҳосил бўлиши учун зарур бўлган энергия ионланиш энергияси дейилади.

Облучение поверхности твёрдого тела направленным потоком ионов. Используется для ионной очистки, травления и ионного легирования.

Qattiq jism yuzasini ionlarning yo'naltirilgan oqimi orqali nurlantirish. Ion bilan tozalash, yedirish va ionli legirlashda foydalaniladi.



## И

### **Ионное легирование**

**uz** - ionli legirlash

ионли легирлаш

**en** - ion-implant doping

Қаттиқ жисм юзасини ионларнинг йўналтирилган оқими орқали нурлантириш. Ион билан тозалаш, едириш ва ионли легирлашда фойдаланилади.

Введение легирующих примесей в твёрдое тело путём бомбардировки его в вакууме ионами примесного вещества.

Qattiq jismga, uni vakuumda aralashma moddaning ionlari bilan bombardimon qilish orqali legirlovchi aralashmalarni kiritish.

Қаттиқ жисмга, уни вакуумда аралашма модданинг ионлари билан бомбардимон қилиш орқали легирловчи аралашмаларни киритиш.

### **Ионно-лучевое насаждение**

**uz** - ion-nurli choʻktirish

ион-нурли чўктириш

**en** - ion-beam deposition

Способ нанесения на подложку тонких плёнок металла, полупроводников или диэлектриков с помощью сфокусированных пучков ионов низких энергий.

Toʻshamaga past energiyalar ionlarining fokuslangan dastasi orqali metall, yarimoʻtkazgichlar yoki dielektrlarning yuqqa qatlamini tushirish usuli.

Тўшамага паст энергиялар ионларининг фокусланган дастаси орқали металл, яримўтказгичлар ёки диэлектрикларнинг юпқа қатлами-ни тушириш усули.

### **Ионно-плазменное травление**

**uz** - ion-plazma bilan tozalash

ион-плазма билан

тозалаш

**en** - ion-plazma etching

Способ удаления вещества с поверхности подложки с использованием компонентов низкотемпературной газоразрядной плазмы – ионов, электронов, возбужденных атомов и свободных радикалов.

Past temperaturali gaz-razryad plazmasi komponentlaridan – ionlar, elektronlar, qoʻzgʻalgan atomlar va erkin radikallardan foydalangan holda, toʻshama yuzasidan moddalarni yoʻqotish usuli.

## И

Паст температурали газ-разряд плазмаси компонентларидан – ионлар, электронлар, қўзғалган атомлар ва эркин радикаллардан фойдаланган ҳолда, тўшама юзасидан моддаларни йўқотиш усули.

### **Ионный лазер**

**uz** - ionli lazer

ионли лазер

**en** - ion laser

Газовый лазер, в котором лазерные переходы происходят между уровнями энергии ионов.

Lazer o‘tishlar ionlar energiyasi darajalari ora-sida yuz beradigan gazli lazer.

Лазер ўтишлар ионлар энергияси даражалари орасида юз берадиган газли лазер.

### **Ионосферная радиосвязь**

**uz** - ionosfera radioaloqasi

ионосфера радиоалоқаси

**en** - ionosphere

radiocommunication

Радиосвязь, использующая отражение радиоволн от ионосферы или их рассеяние на неоднородностях ионосферы.

Radioto‘lqinlarning ionosferadan qaytishidan yoki ularning ionosferaning turli qismlarida sochilishidan foydalaniladigan radioaloqa.

Радиотўлқинларнинг ионосферадан қайтишидан ёки уларнинг ионосферанинг турли қисмларида сочилишидан фойдаланиладиган радиоалоқа.

### **Искровой разрядник**

**uz** - uchqun razryadlagich

учқун разрядлагич

**en** - spark arrester

Безнакальный газоразрядный прибор, резко изменяющий свою электропроводность при возникновении разряда между электродами под действием приложенного электрического напряжения.

Elektrodlar o‘rtasida qo‘yilgan elektr kuchlanish ta’sirida razryad paydo bo‘lganda, o‘zining elektr o‘tkazuvchanligini keskin o‘zgartiradigan cho‘g‘lanmas gaz-razryadli asbob.

Электродлар ўртасида қўйилган электр кучланиш таъсирида разряд пайдо бўлганда, ўзининг электр ўтказувчанлигини кескин ўзгартирадиган чўғланмас газ-разрядли асбоб.

## И

### **Испытательная сигналограмма**

**uz** - sinov signalogrammasi  
синов сигналограммаси

**en** - probationary signal  
equipment

### **Испытательное напряжение электронно-оптического преобразователя**

**uz** - elektron-optik o'zgartir-  
gichning sinov kuchlanishi  
электрон-оптик ўзгартир-  
гичнинг синов кучланиши

**en** - testing voltage electron-  
optical converter

### **Испытательный радиосигнал**

**uz** - sinov radiosignali  
синов радиосигнали

**en** - testing radio signal

### **Испытательный режим элект- ровакуумного прибора**

**uz** - elektrovakuum asbobning  
sinov rejimi

Сигналограмма с нормированными сигналами, используемая для качественной проверки и наладки устройства воспроизведения.

Qayta tiklash qurilmasini sifatli tekshirish va sozlash uchun foydalaniladigan, normalangan signalli signalogramma.

Қайта тиклаш қурилмасини сифатли текшириш ва созлаш учун фойдаланиладиган, нормаланган сигналли сигналограмма.

Наибольшее напряжение, при котором электронно-оптический преобразователь в заданном интервале времени должен стабильно работать.

Elektron-optik o'zgartirgich berilgan vaqt intervalida barqaror ishlashi kerak bo'lgan eng yuqori kuchlanish.

Электрон-оптик ўзгартиргич берилган вақт интервалида барқарор ишлаши керак бўлган энг юқори кучланиш.

Радиосигнал с заданными частотой, уровнем, видом и параметрами модуляции, применяемый для испытания радиоэлектронного средства.

Radioelektron vositani sinash uchun qo'llaniladigan, berilgan modulyatsiya chastotasiga, darajasi, turi va parametrlariga ega bo'lgan radiosignal.

Радиоэлектрон воситани синаш учун қўлланадиган, берилган модуляция частотасига, даражаси, тури ва параметрларига эга бўлган радиосигнал.

Режим электровакуумного прибора, определяющий условия работы при его испытаниях или измерениях параметров.

## И

электрвакуум асбобнинг  
синов режими

**en** - testing conditions of  
electron discharge device

Elektrovakuum asbobning, asbobni sinovdan o'tkazish yoki parametrlarini o'lchash paytidagi ishlash sharoitlarini belgilaydigan rejimi.

Электрвакуум асбобнинг, асбобни синовдан ўтказиш ёки параметрларини ўлчаш пайтидаги ишлаш шароитларини белгилайдиган режими.

**Истинный пеленг**

**uz** - haqiqiy peleng  
ҳақиқий пеленг

**en** - true bearing

Пеленг, отсчитываемый от истинного меридиана.

Haqiqiy meridiandan boshlab hisoblanadigan peleng.

Ҳақиқий меридиандан бошлаб ҳисобланадиган пеленг.

**Исток**

**uz** - chiqish  
чиқиш

**en** - source

Электрод полевого транзистора, через который в проводящий канал поступают носители заряда.

Maydon tranzistorining, o'tkazuvchi kanalga zaryad tashuvchilar keladigan elektrodi.

Майдон транзисторининг, ўтказувчи каналга заряд ташувчилар келадиган электроди.

**Источник бесперебойного питания**

**uz** - uzluksiz ta'minot manbai  
узлуксиз таъминот манбаи

**en** - uninterruptible power supply

Устройство, имеющее в своём составе аккумуляторы и обеспечивающее питание, защиту компьютера и периферии при бросках или падении напряжения основного электропитания, а также возможность надёжного автоматического сохранения данных при его исчезновении.

O'z tarkibida akkumulyatorga ega bo'lgan va asosiy elektr ta'minot kuchlanishining tushishida kompyuter va periferiyaning ta'minoti va himoyasini ta'minlovchi, shuningdek, u yo'qolgan ma'lumotlarni avtomatik ravishda saqlash imkoniyatiga ega qurilma.

Ўз таркибида аккумуляторга эга бўлган ва асосий электр таъминот кучланишининг тушишида компьютер ва перифериянинг таъ-

## И

миноти ва ҳимоясини таъминловчи, шунингдек, у йўқолган маълумотларни автоматик равишда сақлаш имкониятига эга қурилма.

### **Источник питания лазера**

**uz** - lazerning ta'minot manbai

лазернинг таъминот манбаи

**en** - power source of laser

Часть лазера, предназначенная для преобразования подводимой к ней электрической энергии к виду, необходимому для функционирования излучателя лазера.

Lazerning, unga keltiriladigan elektr energiyani lazer nurlatkichi ishlashi uchun zarur bo'lgan ko'rinishga o'zgartirish uchun mo'ljallangan qismi.

Лазернинг, унга келтириладиган электр энергияни лазер нурлаткичи ишлаши учун зарур бўлган кўринишга ўзгартириш учун мўлжалланган қисми.

## К

### **Кадровая развертка**

**uz** - kadrli yoyilma

кадрли ёйилма

**en** - field sweep

Вертикальное движение туда и обратно пятна, развертки или воспроизведения с частотой развертки полей, которое со строчной разверткой заставляет это пятно описывать строки поля.

Dog', yoyilma qayta tiklashning, maydonlarning yoyilish chastotasi bilan, bu dog'ni satr yoyilish bilan maydon satrlarini chizishga majbur qiladigan vertikal harakati.

Доғ, ёйилма қайта тиклашнинг, майдонларнинг ёйилиш частотаси билан, бу доғни сатр ёйилиш билан майдон сатрларини чизишга мажбур қиладиган вертикал ҳаракати.

### **Канал воспроизведения**

**uz** - qayta tiklash kanali

қайта тиклаш канали

**en** - reproducing chain

Устройство или совокупность устройств, обеспечивающих при воспроизведении передачу записанной информации от сигналограммы к приемнику информации.

Qayta tiklash paytida yozilgan axborotning signalogrammadan axborot qabul qilgichga uzatilishini ta'minlaydigan qurilma yoki qurilmalar jami.

## К

Қайта тиклаш пайтида ёзилган ахборотнинг сигналграммадан ахборот қабулқилгичга узатилишини таъминлайдиган қурилма ёки қурилмалар жами.

### **Канал записи**

**uz** - yozib olish kanali

ёзиб олиш канали

**en** - recording chain

Устройство или совокупность устройств, обеспечивающих при записи передачу информации носителю записи.

Yozib olish paytida axborotning yozuv tashuvchiga uzatilishini ta'minlaydigan qurilma yoki qurilmalar jami.

Ёзиб олиш пайтида ахборотнинг ёзув ташувчига узатилишини таъминлайдиган қурилма ёки қурилмалар жами.

### **Канал записи- воспроизведения**

**uz** - yozish-qayta eshittirish kanali

ёзиш-қайта эшиттириш  
каналли

**en** - reproduction recording  
channel

Устройство или совокупность устройств, обеспечивающих по выбору образование каналов записи и воспроизведения.

Tanlash asosida yozib olish va qayta eshittirish kanallari tashkil qilinishini ta'minlaydigan qurilma yoki qurilmalar jami.

Танлаш асосида ёзиб олиш ва қайта эшиттириш каналлари ташкил қилинишини таъминлайдиган қурилма ёки қурилмалар жами.

### **Канал изготовления сигналограммы**

**uz** - signalogrammani

shakllantirish kanali

сигналограммани

шакллантириш канали

**en** - recording-duplicating  
channel

Совокупность нескольких каналов записи и воспроизведения, последовательно используемых при изготовлении сигналограммы.

Signalogrammani shakllantirishda ketma-ket foydalaniladigan yozib olish va qayta eshittirish kanallarining jami.

Сигналограммани шакллантиришда кетма-кет фойдаланиладиган ёзиб олиш ва қайта эшиттириш каналларининг жами.

### **Канал перезаписи**

**uz** - qayta yozish kanali

қайта ёзиш канали

**en** - channel of rerecording

Совокупность каналов воспроизведения и записи, используемых для перезаписи.

## К

Qayta yozish uchun foydalaniladigan yozib olish va qayta eshittirish kanallarining jami.

Қайта ёзиш учун фойдаланиладиган ёзиб олиш ва қайта эшиттириш каналларининг жами.

### **Канал проводящий**

**uz** - oʻtkazuvchi kanal

ўтказувчи канал

**en** - conductive channel

Область полевого транзистора, в которой регулируется поток носителей заряда.

Maydon tranzistorining, zaryad tashuvchilarning oqimi rostlanadigan sohasi.

Майдон транзисторининг, заряд ташувчиларининг оқими ростланадиган соҳаси.

### **Канал радиосвязи**

**uz** - radioaloqa kanali

радиоалоқа канали

**en** - radio intercommunication channel

Участок канала двусторонней связи.

Ikki tomonlama aloqa kanalining qismi.

Икки томонлама алоқа каналининг қисми.

### **Канал управления видеомagnитофона**

**uz** - videomagnitofonning

boshqarish kanali

видеомagnитофоннинг

бошқариш канали

**en** - control channel

Канал записи-воспроизведения сигналов управления скоростью магнитной ленты и/или монтажных сигналов в видеомagnитофоне.

Videomagnitofondagi, magnit tasma tezligini boshqarish signallarini va/yoki montaj signallarini yozish-qayta eshittirish kanali.

Видеомagnитофондаги, магнит тасма тезлигини бошқариш сигналларини ва/ёки монтаж сигналларини ёзиш-қайта эшиттириш канали.

### **Каналовый электронный умножитель**

**uz** - kanalli elektron

koʻpaytirgich

каналли электрон

кўпайтиргич

**en** - channel-electronic multiplier

Электростатический вторично-электронный умножитель с непрерывным динодом, выполненным в виде канала, к концам которого приложено напряжение.

Uchlariga kuchlanish ulangan kanal koʻrinishida yasalgan uzluksiz dinodli elektrostatik ikkilamchi-elektron koʻpaytirgich.

Учларига кучланиш уланган канал кўринишида ясалган узлуксиз динодли электростатик иккиламчи-электрон кўпайтиргич.

## К

### Капиллярный разрядник

**uz** - kapillary razryadlagich

капилляр разрядлагич

**en** - capillary discharger

Диффузионный разрядник, в котором сверхвысокочастотным разрядным промежутком является капиллярный канал.

Kapillary kanal o'ta yuqori chastotali razryad oralig'i bo'lgan diffuzion razryadlagich.

Капилляр канал ўта юқори частотали разряд оралиғи бўлган диффузион разрядлагич.

### Карматрон

**uz** - karmatron

карматрон

**en** - carmatron

Лампа обратной волны М-типа с замкнутым электронным потоком.

Berk elektron oqimli M-turidagi qaytgan to'liqin lampasi.

Берк электрон оқимли М-туридаги қайтган тўлқин лампаси.

### Каскад защиты

**uz** - himoya kaskadi

ҳимоя каскади

**en** - protection cascade

Часть сверхвысокочастотного защитного устройства, состоящая из линейных и нелинейных элементов, сохраняющая способность ограничивать сверхвысокочастотную мощность в режиме высокого уровня мощности.

O'ta yuqori chastotali himoya qurilmasining, chizikli va nochizikli elementlardan iborat bo'lgan, quvvatning yuqori darajasi rejimida o'ta yuqori chastotali quvvatni chegaralash xususiyatini saqlab qoladigan qismi.

Ўта юқори частотали ҳимоя қурилмасининг, чизикли ва nochизикли элементлардан иборат бўлган, қувватнинг юқори даражаси режимида ўта юқори частотали қувватни чегаралаш хусусиятини сақлаб қоладиган қисми.

### Каскад окончательной защиты

**uz** - eng so'nggi himoya kaskadi

энг сўнги ҳимоя каскади

**en** - cascade receiver

protector tube

Последний каскад защиты в многокаскадном сверхвысокочастотном защитном устройстве, предназначенный для ограничения проходящей сверхвысокочастотной мощности до уровня, допустимого для входных цепей приемного устройства.



## К

Ко'п каскадли о'та уқори chastotali himoya qurilmasidagi, o'tayotgan o'ta уқори chastotali quvvatni qabul qiluvchi qurilmaning kirish zanjirlari uchun yo'l qo'yiladigan darajagacha cheklash uchun mo'ljallangan oxirgi himoya kaskadi.

Кўп каскадли ўта юқори частотали ҳимоя қурилмасидаги, ўтаётган ўта юқори частотали қувватни қабул қилувчи қурилманинг кириш занжирлари учун йўл қўйиладиган даражагача чеклаш учун мўлжалланган охириги ҳимоя каскади.

### **Каскад предварительной защиты**

**uz** - dastlabki himoya kaskadi

дастлабки ҳимоя каскади

**en** - cascade previous

transmit receive

Первый каскад защиты в многокаскадном сверхвысокочастотном защитном устройстве, предназначенный для ограничения подводимой сверхвысокочастотной мощности до значений, допустимых для последующих каскадов защиты.

Ко'п каскадли о'та уқори chastotali himoya qurilmasidagi, keladigan o'ta уқори chastotali quvvatni keyingi himoya kaskadlari uchun yo'l qo'yiladigan qiymatlargacha cheklash uchun mo'ljallangan birinchi himoya kaskadi.

Кўп каскадли ўта юқори частотали ҳимоя қурилмасидаги, келадиган ўта юқори частотали қувватни кейинги ҳимоя каскадлари учун йўл қўйиладиган қийматларгача чеклаш учун мўлжалланган биринчи ҳимоя каскади.

### **Каскадное включение**

**uz** - kaskadli ulash

каскадли улаш

**en** - cascade connected

Последовательное соединение двух управляемых полупроводниковых приборов: силового (высоковольтного биполярного транзистора) и управляющего (низковольтного полевого транзистора).

Boshqariladigan ikkita yarimo'tkazgichli asbob: kuch (odatda, уқори voltli bipolyar tranzistor) va boshqaruvchi (past voltli maydon tranzistori) asboblarni ketma-ket ulash.

## К

Бошқариладиган иккита яримўтказгичли асбоб: куч (одатда, юқори вольтли биполяр транзистор) ва бошқарувчи (паст вольтли майдон транзистори) асбобларни кетма-кет улаш.

### Катод

**uz** - katod

катод

**en** - cathode

Электрод различных электрических и электронных приборов и устройств (вакуумных, газоразрядных, полупроводниковых, гальванических элементов). В электронных приборах катод служит источником электронов.

Turli elektr, elektron asboblar va qurilmalar (vakuumli, gaz-razryadli, yarimo'tkazgichli, galvanik elementlar) elektrodi. Elektron asboblarda katod elektronlar manbai bo'lib xizmat qiladi.

Турли электр, электрон асбоблар ва қурилмалар (вакуумли, газ-разрядли, яримўтказгичли, гальваник элементлар) электроди. Электрон асбобларда катод электронлар манбаи бўлиб хизмат қилади.

### Катод электровакуумного прибора

**uz** - elektrovakuum asbob katodi

электровакуум асбоб катоди

**en** - cathode of electron discharge device

Электрод электровакуумного прибора, являющийся источником требуемой электронной эмиссии.

Elektrovakuum asbobning, talab qilinadigan elektron emissiya manbai bo'lgan elektrodi.

Электровакуум асбобнинг, талаб қилинадиган электрон эмиссия манбаи бўлган электроди.

### Катодная характеристика электровакуумного прибора

**uz** - elektrovakuum asbobning

katod xarakterustikasi

электровакуум асбобнинг

катод характеристикаси

**en** - cathode feature of electro discharge device

Зависимость тока катода от напряжения, приложенного к одному из электродов, обычно к ближайшей к катоду сетке.

Katod tokining, elektrodlardan biriga, odatda, katodga yaqin joylashgan to'rga ulangan kuchlanishga bog'liqligi.

Катод токининг, электродлардан бирига, одатда, катодга яқин жойлашган тўрга уланган кучланишга боғлиқлиги.

## К

### **Катодное пятно**

**uz** - katod dog'i

катод доғи

**en** - cathode spot

Ярко светящаяся область на поверхности катода при дуговом разряде.

Yoyli razryad paytida katod yuzasida yoritiladigan soha.

Ёйли разряд пайтида катод юзасида ёритиладиган соҳа.

### **Катодное распыление**

**uz** - katod changlanish

катод чангланшиш

**en** - cathode spraying

Выбивание частиц из твёрдых тел при бомбардировке их поверхности атомами, ионами, нейтронами, электронами, фотонами.

Qattiq jismlardan, ularning yuzasini atomlar, ionlar, neytronlar, elektronlar, fotonlar bilan bombardimon qilishda zarralarning urib chiqarilishi.

Қаттиқ жисмлардан, уларнинг юзасини атомлар, ионлар, нейтронлар, электронлар, фотонлар билан бомбардимон қилишда зарраларнинг уриб чиқарилиши.

### **Катодное смещение**

**uz** - katod siljish

катод силжиш

**en** - cathode bias

Автоматическое сеточное смещение, обеспечиваемое сопротивлением, включенным в катодную цепь электронной лампы.

Elektron lampaning katod zanjiriga ulangan qarshilik bilan ta'minlanadigan avtomatik to'rt siljish.

Электрон лампанинг катод занжирига уланган қаршилиқ билан таъминланадиган автоматик тўр силжиш.

### **Катодный вывод полупроводникового прибора**

**uz** - yarimo'tkazgichli asbobning

katod chiqish uchi

яримўтказгичли асбобнинг

катод чиқиш учи

**en** - cathode terminal of

semiconductor device

Вывод полупроводникового прибора, от которого прямой ток течет во внешнюю электрическую цепь.

Yarimo'tkazgichli asbobning, to'g'ri tok tashqi elektr zanjiriga oqadigan chiqish uchi.

Яримўтказгичли асбобнинг, тўғри ток ташқи электр занжирга оқадиган чиқиш учи.

## К

### **Катодолуминесцентный индикатор**

**uz** - katod-lyuminessent indikator

катод-люминесцент

индикатор

**en** - cathodoluminescent indicator

Прибор отображения информации, действие которого основано на люминесценции, возбуждаемой в веществе при бомбардировке его электронами.

Ishlashi moddada, moddani elektronlar bilan bombardimon qilish natijasida yuzaga keladigan lyuminessensiyaga asoslangan, axborotni aks ettiruvchi asbob.

Ишлаши моддада, моддани электронлар билан бомбардимон қилиш натижасида юзага келадиган люминесценцияга асосланган, ахборотни акс эттирувчи асбоб.

### **Квадратичный детектор**

**uz** - kvadratik detektor

квадратик детектор

**en** - square law detector

Детектор, выходное напряжение которого пропорционально квадрату амплитуды модулированной несущей, поступающей на его вход.

Chiqish kuchlanishi kirishiga berilgan moduliyatsiyalanmagan eltuvchi amplitudasining kvadratiga proporsional bo'lgan detektor.

Чикиш кучланиши киришига берилган модуляцияланмаган элтувчи амплитудасининг квадратига пропорционал бўлган детектор.

### **Квадрафоническая запись**

**uz** - kvadrafonik yozish

квадрафоник ёзиш

**en** - quadraphonic recording

Четырехканальная стереофоническая запись, предназначенная для воспроизведения звука в помещениях, объем которых значительно меньше объема помещения, где находились источники звука при записи.

Hajmi, yozish paytida tovush manbalari joylashgan xona hajmidan ancha kichik bo'lgan xonalarda ovozni qayta eshittirish uchun mo'ljallangan, to'rt kanalli stereofonik yozish.

Ҳажми, ёзиш пайтида товуш манбалари жойлашган хона ҳажмидан анча кичик бўлган хоналарда овозни қайта эшиттириш учун мўлжалланган, тўрт каналли стереофоник ёзиш.

## К

### **Квазипиковый детектор**

**uz** - kvazicho‘qqi detektor

квазичўққи детектор

**en** - quasi-peak detector

Устройство, образованное детектором и измерительным устройством, главным образом, для измерения шумов.

Detektor va o‘lchash qurilmasidan tashkil topgan, asosan, shovqinlarni o‘lchash uchun mo‘ljallangan qurilma.

Детектор ва ўлчаш қурилмасидан ташкил топган, асосан, шовқинларни ўлчаш учун мўлжалланган қурилма.

### **Квазирезонансный преобразователь**

**uz** - kvazirezonans o‘zgartirgich

квазирезонанс ўзгартиргич

**en** - soft switching converter

Электронный преобразователь, содержащий квазирезонансные ключи.

Kvazirezonans kalitlarni ichiga oladigan elektron o‘zgartirgich.

Квазирезонанс калитларни ичига оладиган электрон ўзгартиргич.

### **Квазирезонансный ключ**

**uz** - kvazirezonans kalit

квазирезонанс калит

**en** - soft switch

Электронный ключ, обладающий резонансной цепью для мягкой коммутации только при включении (коммутация в нуле напряжения) или выключении (коммутация в нуле тока).

Faqat ulashda (kuchlanish nolida kommutatsiyalash) yoki uzib qo‘yishda (tok nolida kommutatsiyalash) ohista kommutatsiyalash uchun rezonans zanjirga ega elektron kalit.

Фақат улашда (кучланиш нолида коммутациялаш) ёки узиб қўйишда (ток нолида коммутациялаш) оҳиста коммутациялаш учун резонанс занжирга эга электрон калит.

### **Квазистационарный ток**

**uz** - kvazistatsionar tok

квазистационар ток

**en** - quasi-stationary stream

Относительно медленно изменяющийся (переменный) ток.

Nisbatan sekin o‘zgaradigan (o‘zgaruvchan) tok.

Нисбатан секин ўзгарадиган (ўзгарувчан) ток.

### **Квазичастицы**

**uz** - kvazizarralar

квазизарралар

**en** - quasiparticles

Элементарные возбуждения конденсированной среды. Подобно обычным частицам квазичастицы могут быть охарактеризованы энергией, импульсом, спином и т.д.

## К

Kondensatsiyalangan muhitning elementar qoʻzgʻalishlari. Kvazizarralar oddiy zarralarga oʻxshab, energiya, impuls, spin va shu kabilar orqali tavsiflanishi mumkin.

Конденсацияланган муҳитнинг элементар кўзғалишлари. Квазизарралар оддий зарраларга ўхшаб, энергия, импульс, спин ва шу кабилар орқали тавсифланиши мумкин.

### **Квантовая система**

**uz** - kvant tizimi

квант тизими

**en** - quantum system

Отдельные частицы (атом, молекула, ион и др.) или совокупность частиц (конденсированные среды), процессы в которых подчиняются законам квантовой механики.

Kechadigan jarayonlar kvant mexanika qonunlariga boʻysunadigan ayrim zarralar (atom, molekula, ion va b.lar) yoki zarralar yigʻindisi (kondensatsiyalangan muhitlar).

Кечадиган жараёнлар квант механика қонунларига бўйсунадиган айрим зарралар (атом, молекула, ион ва б.лар) ёки зарралар йиғиндиси (конденсацияланган муҳитлар).

### **Квантовая электроника**

**uz** - kvant elektronika

квант электроника

**en** - quantum electronics

Область электроники, охватывающая изучение и разработку методов и средств усиления и генерации электромагнитных колебаний на основе вынужденного излучения атомов, молекул и твёрдых тел.

Elektronikaning, atomlar, molekulalar va qattiq jismlarning majburiy nurlanishi asosida elektromagnit tebranishlarni oʻrganadigan hamda ularni kuchaytirish va generatsiyalash metodlari, vositalari ishlab chiqilishini qamrab oladigan sohasi.

Электрониканинг, атомлар, молекулалар ва қаттиқ жисмларнинг мажбурий нурланиши асосида электромагнит тебранишларни ўрганадиган ҳамда уларни кучайтириш ва генерациялаш методлари, воситалари ишлаб чиқилишини қамраб оладиган соҳаси.

## К

### **Квантово-электронный модуль**

**uz** - kvant-elektron modul

квант-электрон модуль

**en** - quanto-electronic module

Устройство для преобразования электрических сигналов в оптические (квантовые) и наоборот, в волоконно-оптических линиях связи.

Примечание – В зависимости от направления преобразования различают приёмные (оптический сигнал в электрический) и передающие (электрический сигнал в оптический) квантово-электронные модули.

Optik tolali aloqa liniyalarida elektr signallarni optik (kvant) signallarga va aksincha, aylantirish uchun mo'ljallangan qurilma.

Izoh – O'zgartirish yo'nalishiga bog'liq holda, qabulqiluvchi (optik signalni elektr signalga) va uzatuvchi (elektr signalni optik signalga) kvant-elektron modullar farqlanadi.

Оптик толали алоқа линияларида электр сигналларни оптик (квант) сигналларга ва аксинча, айлангириш учун мўлжалланган қурилма.

Изоҳ – Ўзгартириш йўналишига боғлиқ ҳолда, қабулқилувчи (оптик сигнални электр сигналга) ва узатувчи (электр сигнални оптик сигналга) квант-электрон модулар фарқланади.

### **Квантовый выход**

**uz** - kvant chiqishi

квант чиқиши

**en** - quantum yield

Коэффициент, равный отношению числа появившихся фотонов к числу вызвавших их носителей заряда.

Paydo bo'lgan fotonlar sonining, ularni keltirib chiqargan zaryad tashuvchilar soni nisbatiga teng koeffitsiyent.

Пайдо бўлган фотонлар сонининг, уларни келтириб чиқарган заряд ташувчилар сони нисбатига тенг коэффициент.

### **Квантовый генератор**

**uz** - kvant generator

квант генератор

**en** - quantum oscillator

Источник электромагнитного излучения, основанный на вынужденных переходах в атомах и молекулах.

Atom va molekulalardagi majburiy o'tishlarga asoslangan elektromagnit nurlanish manbai.

Атом ва молекулалардаги мажбурий ўтишларга асосланган электромагнит нурланиш манбаи.

## К

### **Квантовый переход**

**uz** - kvant o'tish

квант ўтиш

**en** - quantum transition

Скачкообразный переход квантовой системы из одного состояния в другое, связанный с изменением ее энергии.

Kvant tizimining, bir holatdan boshqasiga, tizim energiyasi o'zgarishiga bog'liq holda sakrab o'tishi.

Квант тизимининг, бир ҳолатдан бошқасига, тизим энергияси ўзгаришига боғлиқ ҳолда сакраб ўтиши.

### **Квантовый стандарт частоты**

**uz** - kvant chastota standarti

квант частота стандарти

**en** - quantum frequency standard

Устройство для получения сверхвысоко-частотных колебаний с весьма стабильной частотой, равной частоте определённого квантового перехода атомов, молекул и ионов.

Atomlar, molekulalar, ionlarning muayyan kvant o'tish chastotasiga teng bo'lgan juda barqaror chastotali o'ta yuqori chastotali tebranihlarni olish uchun mo'ljallangan qurilma.

Атомлар, молекулалар, ионларнинг муайян квант ўтиш частотасига тенг бўлган жуда барқарор частотали ўта юқори частотали тебранишларни олиш учун мўлжалланган қурилма.

### **Квантовый счётчик**

**uz** - kvant hisoblagich

квант ҳисоблагич

**en** - quantum counter

Устройство для преобразования слабого излучения субмиллиметрового и инфракрасного диапазонов в кванты света с более высокой энергией.

Submillimetrli va infraqizil diapazonlardagi kuchsiz nurlanishni energiyasi yuqoriroq bo'lgan yorug'lik kvantlariga o'zgartiradigan qurilma.

Субмиллиметрли ва инфрақизил диапазонлардаги кучсиз нурланишни энергияси юқорироқ бўлган ёруғлик квантларига ўзгарирадиган қурилма.

### **Квантовый усилитель**

**uz** - kvant kuchaytirgich

квант кучайтиргич

Устройство для усиления электромагнитных волн сверхвысокочастотного и оптического диапазона.



## К

**en** - quantum-mechanical amplifier

O‘ta yuqori chastotali va optik diapazondagi elektromagnit to‘lqinlarni kuchaytiradigan asbob.

Ўта юқори частотали ва оптик диапазондаги электромагнит тўлқинларни кучайтирадиган асбоб.

**Квантовый шум**

**uz** - kvant shovqin

квант шовқин

**en** - quantum noise

Шум, обусловленный хаотическим спонтанным испусканием фотонов.

Fotonlarning хаотик spontan chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan shovqin.

Фотонларнинг хаотик spontan чиқиши билан боғлиқ бўлган шовқин.

**Квантоскоп**

**uz** - kvantoskop

квантоскоп

**en** - quantoscope

Приемная электронно-лучевая трубка, в которой изображение получается при помощи полупроводникового квантового генератора.

Tasvir yarimo‘tkazgichli kvant generatori yordamida olinadigan qabulqiluvchi elektron-nurli trubka.

Тасвир яримўтказгичли квант генератори ёрдамида олинадиган қабулқилувчи электрон-нурли трубка.

**Квантрон**

**uz** - kvantron

квантрон

**en** - quantron

Основная функциональная часть излучателя лазера или лазерного усилителя, состоящая из активного элемента (элементов), лампы (ламп) накачки и отражателя, заключенных в общий корпус.

Lazer nurlatkichning yoki lazerli kuchaytirgichning umumiy korpusga joylashtirilgan aktiv elementdan (elementlardan), to‘ldirish lampasidan (lampalaridan) va qaytargichdan iborat bo‘lgan asosiy funksional qismi.

Лазер нурлаткичнинг ёки лазерли кучайтиргичнинг умумий корпусга жойлаштирилган актив элементдан (элементлардан), тўлдириш лампасидан (лампаридан) ва қайтаргичдан иборат бўлган асосий функционал қисми.

## К

### **Кенотрон**

**uz** - kenotron

кенотрон

**en** - electronic rectifier

Электровакuumное устройство (диод, лампа), предназначенное в основном для выпрямления (преобразования в постоянный ток) переменного тока промышленной частоты.

Asosan, sanoat chastotali o'zgaruvchan tokini to'g'rilash (o'zgarmas tokka aylantirish) uchun mo'ljallangan elektr-vakuum qurilma (diod, lamp).

Asosan, sanoat chastotali ўzgaruvchan tokini tўg'rilash (ўzgarmas tokka aylantirish) uchun mўljalangan elektr-vakuum qurilma (diod, lamp).

### **Керра электрооптический эффект**

**uz** - Kerr elektrooptik

effekti

Керр электрооптик

эффекти

**en** - kerr electrooptical effect

Двойное лучепреломление света в оптически-изотропных веществах (газах, жидкостях, стеклах), помещённых в однородное электрическое поле.

Yorug'likning, bir jinsli elektr maydonga joylashtirilgan optik izotrop moddalarda (gaz, suyuqlik, shishada) ikkiga ajralib sinishi.

Ёруғликнинг, бир жинсли электр майдонга жойлаштирилган оптик изотроп моддаларда (газ, суюқлик, шишада) иккига ажралиб синиши.

### **Кинескоп**

**uz** - kineskop

кинескоп

**en** - picture tube

Приемная электронно-лучевая трубка, предназначенная для воспроизведения телевизионных изображений.

Televizion tasvirlarni aks ettirish uchun mo'ljallangan qabulqiluvchi elektron-nurli trubka.

Телевизион тасвирларни акс эттириш учун мўлжалланган қабулқилувчи электрон-нурли трубка.

### **Кинескоп цветного изображения**

**uz** - rangli tasvir kineskopi

рангли тасвир кинескопи

**en** - colour picture tube

Приемная телевизионная электронно-лучевая трубка, в которой участки изображения различаются по яркости и цветности.

## К

Tasvir uchastkalari yorqinligi va rangliligi boʻyicha farq qiladigan qabulqiluvchi elektron-nurli trubka.

Тасвир участкалари ёрқинлиги ва ранглилиги бўйича фарқ қиладиган қабулқилувчи электрон-нурли трубка.

### **Кинескоп черно-белого изображения**

**uz** - oq-qora tasvir kineskopi

оқ-қора тасвир кинескопи

**en** - black-and-white picture tube

Кинескоп, в котором участки изображения различаются только по яркости.

Tasvir uchastkalari faqat yorqinligi boʻyicha farq qiladigan kineskop.

Тасвир участкалари фақат ёрқинлиги бўйича фарқ қиладиган кинескоп.

### **Клипперный высоковольтный кенотрон**

**uz** - klipperli yuqori voltli kenotron

клипперли юқори

вольтли кенотрон

**en** - high-voltage clipper

kenotron

Импульсный высоковольтный кенотрон, служащий для устранения нестационарных колебаний в импульсных модуляторах.

Impulslı modulyatorlarda nostatsionar tebranişlarnı bartaraf etish uchun xızmat qiladigan impulslı yuqori voltli kenotron.

Импульсли модуляторларда ностационар тебранишларни бартараф этиш учун хизмат қиладиган импульсли юқори вольтли кенотрон.

### **Клистрон**

**uz** - klistron

клистрон

**en** - klystron

Прибор О-типа, в котором группирование электронов и передача их энергии сверхвысокочастотному полю происходит в результате взаимодействия электронов с сверхвысокочастотным полем, локализованным в одном или более зазорах резонаторов.

Elektronlarning guruhlanishi va ular energiyasining oʻta yuqori chastotali maydonga uzatilishi rezonatorlarning bir yoki undan koʻp oraligʻida cheklangan oʻta yuqori chastotali maydon bilan elektronlarning oʻzaro taʼsiri natijasida yuz beradigan O-turidagi asbob.

## К

Электронларнинг гурухланиши ва улар энергиясининг ўта юқори частотали майдонга узатилиши резонаторларнинг бир ёки ундан кўп оралиғида чекланган ўта юқори частотали майдон билан электронларнинг ўзаро таъсири натижасида юз берадиган О-туридаги асбоб.

### **Клистронный группирователь**

**uz** - klistron guruhlagich

клистрон гурухлагич

**en** - klystron buncher

Совокупность резонаторов сверхвысокой частоты и труб дрейфа, в которых происходит усиление сверхвысокочастотно сигнала за счет группирования электронов.

О‘та уқори chastotali signalning kuchayishi, elektronlarning guruhlanishi hisobiga yuz beradigan o‘ta yuqori chastota rezonatorlari va dreif trubalari yig‘indisi.

Ўта юқори частотали сигналнинг кучайиши, электронларнинг гурухланиши ҳисобига юз берадиган ўта юқори частота резонаторлари ва дрейф трубалари йиғиндиси.

### **Коаксиальная импульсная лампа**

**uz** - koaksial impulsli lampa

коаксиал импульсли

лампа

**en** - coaxial pulsed lamp

Трубчатая импульсная лампа, разряд в которой ограничен стенками двух коаксиально расположенных баллонов.

Razryad koaksial joylashgan ikkita ballon devorlari bilan chegaralangan, trubkasimon impulsli lampa.

Разряд коаксиал жойлашган иккита баллон деворлари билан чегараланган, трубкасимон импульсли лампа.

### **Коаксиальное защитное устройство**

**uz** - koaksial himoya qurilmasi

коаксиал ҳимоя қурилмаси

**en** - coaxial protection device

Сверхвысокочастотное защитное устройство, в конструкции которого используется коаксиальная линия.

Konstruksiyasida koaksial liniyadan foydalani-ladigan o‘ta yuqori chastotali himoya qurilmasi.

Конструкциясида коаксиал линиядан фойдаланиладиган ўта юқори частотали ҳимоя қурилмаси.

## К

### **Коаксиальный магнетрон**

**uz** - koaksial magnetron  
коаксиал магнетрон  
**en** - coaxial magnetron

Магнетрон, резонаторная система которого коаксиальна со стабилизирующим резонатором.

Rezonator tizimi stabillashtiruvchi rezonator bilan koaksial boʻlgan magnetron.

Резонатор тизими стабиллаштирувчи резонатор билан коаксиал бўлган магнетрон.

### **Когезионная прочность носителя записи**

**uz** - yozuv tashuvchining kogeziyon mustahkamligi  
ёзув ташувчининг когезион мустаҳкамлиги  
**en** - toughness of carrier record

Прочность внутреннего сцепления в рабочем слое носителя записи.

Yozuv tashuvchi ishchi qatlamidagi ichki ilashishning mustahkamligi.

Ёзув ташувчи ишчи қатламидаги ички илашишнинг мустаҳкамлиги.

### **Когерентность**

**uz** - kogerentlik  
когерентлик  
**en** - coherence

Свойство двух или более колебательных волновых или каких-либо других процессов взаимно усиливать или ослаблять друг друга при сложении.

Ikki yoki undan koʻp tebranma toʻlqin yoki boshqa qandaydir jarayonning qoʻshilganda birbirini oʻzaro kuchaytirish yoki susaytirish xususiyati.

Икки ёки ундан кўп тебранма тўлқин ёки бошқа қандайдир жараённинг қўшилганда бир-бирини ўзаро кучайтириш ёки сусайтириш хусусияти.

### **Когерентный гетеродин**

**uz** - kogerent geterodin  
когерент гетеродин  
**en** - coherent oscillator

Генератор колебаний, задающий опорное незатухающее колебание в когерентном радиолокаторе.

Kogerent radiolokatorda soʻnmaydigan tayanch tebranishni belgilovchi tebranishlar generatori.

Когерент радиолокаторда сўнмайдиган таянч тебранишни белгиловчи тебранишлар генератори.

## К

### Кодирование

**uz** - kodlash

кодлаш

**en** - framing

Регулирование, позволяющее правильно разместить разлагаемую пятном поверхность в кадровой рамке камеры или кинескопа.

Kameraning yoki kineskopning kadr ramkasida dog' bilan ajratiladigan yuzani to'g'ri joylashtirish imkonini beradigan rostlash.

Камеранинг ёки кинескопнинг кадр рамкасида доғ билан ажратиладиган юзани тўғри жойлаштириш имконини берадиган ростлаш.

### Кодирующая электронно-лучевая трубка

**uz** - kodlovchi elektron-nurli trubka

кодловчи электрон-нурли

трубка

**en** - coding tube

Электронно-лучевой прибор, предназначенный для преобразования аналогового электрического сигнала в двоичный импульсный цифровой код.

Analog elektr signalni odatda, ikkilik impuls raqamli kodga o'zgartirish uchun mo'ljallangan elektron-nurli asbob.

Аналог электр сигнални одатда, иккилик импульс рақамли кодга ўзгартириш учун мўлжалланган электрон-нурли асбоб.

### Колебания скорости записи (воспроизведения, носителя записи, сигналограммы)

Муайян улашнинг кечикish бurchаgida o'zgartirgichning o'zgarmas toki tomondagi kuchlanishning, o'zgartirgich ichidagi barcha kuchlanish yo'qotishlar (shu jumladan, kommutatsion yo'qotishlar) nolga teng deb taxmin qilinganda, kechikish burchagi nolga teng bo'lgandagi kuchlanishga nisbati.

Муайян улашнинг кечикиш бурчаgida ўзгартиргичнинг ўзгармас токи томондаги кучланишнинг, ўзгартиргич ичидаги барча кучланиш йўқотишлар (шу жумладан, коммутацион йўқотишлар) нолга тенг деб тахмин қилинганда, кечикиш бурчаgи нолга тенг бўлгандаги кучланишга нисбати.

## К

### **Кремниевая структура**

**uz** - kremniyli struktura

кремнийли структура

**en** - silicon structure

Структура, состоящая из сапфировой подложки и эпитаксиального слоя кремния, образованного на ней.

Sapfir to'shama va kremniyning unda hosil qilingan epitaksial qatlamidan iborat struktura.

Сапфир тўшама ва кремнийнинг унда ҳосил қилинган эпитаксиал қатлампдан иборат структура.

### **Кремникон**

**uz** - kremnikon

кремникон

**en** - kremnikon

Телевизионный передающий электронно-лучевой прибор (видикон) с мишенью, представляющей собой мозаику из большого числа (около  $10^6$ ) полупроводниковых диодов, изготавливаемых методами микроэлектроники.

Mikroelektronika metodlari bilan yaratiladigan katta miqdordagi ( $10^6$  ga yaqin) yarimo'tkazgichli diodlardan iborat mozaikani o'zida ifodalaydigan nishonli televizion uzatuvchi elektron-nurli asbob.

Микроэлектроника методлари билан яратиладиган катта миқдордаги ( $10^6$  га яқин) ярим-ўтказгичли диодлардан иборат мозаикани ўзида ифодалайдиган нишонли телевизион узатувчи электрон-нурли асбоб.

### **Криогенная электроника**

**uz** - kriogen elektronika

криоген электроника

**en** - cryogenic electronics

Направление электроники, охватывающее исследования при криогенных температурах (ниже 120 К) специфических эффектов взаимодействия электромагнитного поля с носителями зарядов в твердом теле.

Elektronikaning, qattiq jismda kriogen ( $120\text{ K}$  dan past) temperaturada elektromagnit maydonning zaryad tashuvchilar bilan o'zaro ta'sirining o'ziga xos effektlarini tadqiq qiluvchi yo'nalishi.

Электрониканинг, қаттиқ жисмда криоген ( $120\text{ K}$  дан паст) температурада электромагнит майдоннинг заряд ташувчилар билан ўзаро

## К

таъсирининг ўзига хос эффектларини тадқиқ қилувчи йўналиши.

### **Криостатный гермоввод сверхвысокой частоты**

**uz** - o'ta yuqori chastota  
kriostatli germetik kiritkich

ўта юқори частота крио-  
статли герметик кириткич

**en** - cryostat ultra high  
frequency

hermetic input

Вакуумно-плотный элемент тракта, предназначенный для передачи сверхвысокочастотной энергии в криостат или вывода из него с минимальными тепловыми и электрическими потерями.

Traktning, o'ta yuqori chastotali energiyani kam issiqlik va elektr yo'qotishlar bilan kriostatga uzatish yoki undan chiqarish uchun mo'ljallangan vakuum-zich elementi.

Трактнинг, ўта юқори частотали энергияни кам иссиқлик ва электр йўқотишлар билан криостатга узатиш ёки ундан чиқариш учун мўлжалланган вакуум-зич элементи.

### **Криотрон**

**uz** - kriotron

криотрон

**en** - cryotron

Прибор на основе сверхпроводимости, предназначенный для обработки и запоминания информации. Принцип действия криотрона заключается в изменении состояния сверхпроводящего элемента под действием внешнего магнитного поля при подаче на вход импульса управления.

O'ta o'tkazuvchanlik asosidagi, axborotni qayta ishlash va yodda saqlash uchun mo'ljallangan asbob. Uning ishlash prinsipi, kirishga boshqaruv impulsi uzatilgan paytda o'ta o'tkazuvchan element holatining tashqi magnit maydon ta'sirida o'zgarishidan iborat.

Ўта ўтказувчанлик асосидаги, ахборотни қайта ишлаш ва ёдда сақлаш учун мўлжалланган асбоб. Унинг ишлаш принципи, киришга бошқарув импульси узатилган пайтда ўта ўтказувчан элемент ҳолатининг ташқи магнит майдон таъсирида ўзгаришидан иборат.

### **Криоэлектроника**

**сверхвысокой частоты**

**uz** - o'ta yuqori chastota

Раздел криотехники по созданию криоэлектронных приборов, блоков и систем сверхвысокой частоты на основе корпусных

## К

krioelektronikasi  
ўта юқори частота  
криоэлектроникаси  
**en** - ultra high frequency  
cryoelectronics

**Криоэлектронная  
система**  
**uz** - krioelektron tizim  
криоэлектрон тизим  
**en** - cryoelectronic system

**Криоэлектронная интег-  
ральная микросхема**  
**uz** - krioelektron integral  
mikrosxema  
криоэлектрон интеграл  
микросхема  
**en** - cryoelectronic  
integrated microcircuit

полупроводниковых приборов и коаксиально-  
волноводных элементов.

Kriotexnikaning, korpusli yarimoʻtkazgichli as-  
boblar va koaksial toʻlqin oʻtkazgichli element-  
lar asosida, oʻta yuqori chastotali krioelektron  
asboblar, bloklar va tizimlar yaratish boʻyicha  
boʻlimi.

Криотехниканинг, корпусли яримўтказгичли  
асбоблар ва коаксиал тўлқин ўтказгичли  
элементлар асосида ўта юқори частотали  
криоэлектрон асбоблар, блоклар ва тизимлар  
яратиш бўйича бўлими.

Многофункциональная конструктивно закон-  
ченная система, включающая криоэлектрон-  
ные блоки, микрокриогенную систему, уст-  
ройства управления и контроля радиотехни-  
ческими параметрами.

Krioelektron bloklarni, mikrocriogen tizimni, ra-  
diotexnik parametrlarni boshqarish va nazorat qi-  
lish qurilmalarini ichiga oladigan, koʻp  
funktsiyali, konstruktiv jihatdan tugallangan tizim.

Криоэлектрон блокларни, микрокриоген ти-  
зимни, радиотехник параметрларни бошқа-  
риш ва назорат қилиш қурилмаларини ичига  
оладиган, кўп функцияли, конструктив  
жихатдан тугалланган тизим.

Интегральная микросхема, использующая эф-  
фекты, возникающие в твердом теле при  
криогенных температурах.

Kriogen temperaturalarda qattiq jismda paydo  
boʻladigan effektlardan foydalaniladigan integral  
mikrosxema.

Криоген температураларда қаттиқ жисмда  
пайдо бўладиган эффектлардан фойдаланила-  
диган интеграл микросхема.

## К

### **Криоэлектронное материаловедение**

**uz** - krioelektron  
materialshunoslik

криоэлектрон  
материалшунослик  
**en** - cryoelectronic science  
of materials

### **Криоэлектронное изделие**

**uz** - krioelektron buyum  
криоэлектрон буюм

**en** - cryoelectronic item

### **Криоэлектронный усилитель**

**uz** - krioelektron kuchaytirgich  
криоэлектрон кучайтиргич

**en** - cryoelectronic amplifier

### **Криоэлектронный ферритовый циркулятор**

**uz** - krioelektron ferrit  
sirkulyator

криоэлектрон феррит  
циркулятор

**en** - cryoelectronic ferrite  
circulator

Раздел криоэлектроники по созданию материалов и исследованию их свойств в криоэлектронных приборах и блоках.

Krioelektronikaning materiallar yaratish va krioelektron asboblari hamda bloklarda ularning xossalari tekshirish bo'yicha bo'limi.

Криоэлектрониканинг материаллар яратиш ва криоэлектрон асбоблар ҳамда блокларда уларнинг хоссаларини текшириш бўйича бўлими.

Изделие, выполняющее свои функции при криогенных температурах.

O'z funksiyalarini kriogen temperaturalarda bajaradigan buyum.

Ўз функцияларини криоген температураларда бажарадиган буюм.

Усилительный криоэлектронный прибор, действующий на основе параметрических явлений в твердом теле.

Qattiq jismdagi parametrik hodisalar asosida ishlaydigan kuchaytiruvchi krioelektron asbob.

Қаттиқ жисмдаги параметрик ҳодисалар асосида ишлайдиган кучайтирувчи криоэлектрон асбоб.

Криогенный прибор, основанный на использовании гиротропных свойств магнитных ферритов.

Magnitlangan ferritlarning givotrop xossalariidan foydalanishga asoslangan kriogen asbob.

Магнитланган ферритларнинг гиротроп хоссаларидан фойдаланишга асосланган криоген асбоб.

## К

### **Криоэлектронный парамагнитный квантовый усилитель**

**uz** - krioelektron paramagnit kvant kuchaytirgichi

криоэлектрон парамагнит квант кучайтиргичи

**en** - cryoelectronic paramagnetic quantum amplifier

Криоэлектронный усилитель сверхвысокой частоты, принцип действия которого основан на явлении вынужденного излучения микро-частиц (атомов и ионов) при их квантовых переходах.

Ishlash prinsipi mikrozaralarning (atomlar va ionlarning), kvant o'tishlar paytida ularni majburiy nurlatish hodisasiga asoslangan, o'ta yuqori chastota krioelektron kuchaytirgichi.

Ишлаш принципи микрозарраларнинг (атомлар ва ионларнинг), квант ўтишлар пайтида уларни мажбурий нурлатиш ҳодисасига асосланган, ўта юқори частота криоэлектрон кучайтиргичи.

### **Криоэлектронный блок**

**uz** - krioelektron blok

криоэлектрон блок

**en** - cryoelectronic unit

Одно или многофункциональное криоэлектронное устройство, конструктивно законченное, состоящее из криостата и размещенных в нем криоэлектронных приборов или криоэлектронных интегральных микросхем.

Konstruktiv jihatdan tugallangan, kriostatdan va unda joylashtirilgan krioelektron asboblardan yoki krioelektron integral mikrosxemalardan iborat, bir yoki ko'p funksiyali krioelektron qurilma.

Конструктив жиҳатдан тугалланган, криостатдан ва унда жойлаштирилган криоэлектрон асбоблардан ёки криоэлектрон интеграл микросхемалардан иборат, бир ёки кўп функцияли криоэлектрон қурилма.

### **Криоэлектронный высоко-стабильный генератор сверхвысокой частоты**

**uz** - krioelektron yuqori stabil o'ta yuqori chastota generatori

криоэлектрон юқори стабил ўта юқори частота генератори

**en** - ultra high frequency

Высокостабильный генератор сверхвысокой частоты, в котором использовано явление сверхпроводимости, имеющий относительную нестабильность частоты в пределах  $10^{-7}$ - $10^{-9}$  в 1 ч.

Chastotaning nisbiy nostabilligi bir soatda  $10^{-7}$ - $10^{-9}$  oraliqda bo'lgan, o'ta o'tkazuvchanlik hodidasidan foydalanilgan, yuqori stabil o'ta yuqori chastota generatori.

## К

cryoelectronic high stability generator

### **Криоэлектронный модуль**

**uz** - krioelektron modul

криоэлектрон модуль

**en** - cryoelectronic module

Частотанинг нисбий ностабиллиги бир соатда  $10^{-7}$ - $10^{-9}$  ораликда бўлган, ўта ўтказувчанлик ходисасидан фойдаланилган, юқори стабил ўта юқори частота генератори.

Модуль сверхвысокой частоты, работающий при криогенных температурах (ниже 120 К). Состоит из одного или нескольких функциональных узлов (усилителей, преобразователей, модуляторов, фильтров, блока охлаждения криогенной установки).

Kriogen (120 K dan past) temperaturalarda ishlaydigan o‘ta yuqori chastota moduli. Bitta yoki bir nechta funksional uzeldan (kuchaytirgich, o‘zgartirgich, modulyator, filtrdan, kriogen qurilmani sovitish blokidan) tashkil topgan.

Криоген (120 К дан паст) температураларда ишлайдиган ўта юқори частота модули. Битта ёки бир нечта функционал узелдан (кучайтиргич, ўзгартиргич, модулятор, филтрдан, криоген қурилмани совитиш блокидан) ташкил топган.

### **Криоэлектронный прибор**

**uz** - krioelektron asbob

криоэлектрон асбоб

**en** - cryoelectirc device

Конструктивно и функционально законченный прибор, действующий на основе электронных эффектов в твердом теле при криогенных температурах.

Kriogen temperaturalarda qattiq jismdagi elektron effektlar asosida ishlaydigan, konstruktiv va funksional jihatdan tugallangan asbob.

Криоген температураларда каттиқ жисмдаги электрон эффектлар асосида ишлайдиган, конструктив ва функционал жиҳатдан тугалланган асбоб.

### **Криоэлектронный сверхвысокостабильный генератор сверхвысокой частоты**

**uz** - krioelektron o‘ta yuqori stabil o‘ta yuqori chastota generatori

Сверхвысокостабильный генератор сверхвысокочастотный, в котором использовано явление сверхпроводимости, имеющий относительную нестабильность частоты не более  $10^{-9}$  в 1 ч.

## К

криоэлектрон ўта юқори  
стабил ўта юқори частота  
генератори  
**en** - ultra high frequency cryoelec-  
tronic superhigh stability  
generator

### **Криоэлектронный сверхпро- водящий магнитометр**

**uz** - krioelektron o'ta  
o'tkazuvchan magnitometr  
криоэлектрон ўта  
ўтказувчан магнитометр  
**en** - cryoelectronic susupercon-  
ductive magnetometer

### **Криоэлектронный фильтр**

**uz** - krioelektron filtr  
криоэлектрон фильтр  
**en** - cryoelectronic filter

### **Кристалл интегральной микросхемы**

**uz** - integral mikrosxema  
kristali  
интеграл микросхема  
кристалли  
**en** - IC chip

O'ta o'tkazuvchanlik hodisasidan foydalanilgan, chastotaning nisbiy nostabilligi 1 soatda  $10^{-9}$  dan ko'p bo'lmagan, o'ta yuqori stabil o'ta yuqori chastota generatori.

Ўта ўтказувчанлик ҳодисасидан фойдаланилган, частотанинг нисбий ностабиллиги 1 соатда  $10^{-9}$  дан кўп бўлмаган, ўта юқори стабил ўта юқори частота генератори.

Криоэлектронный блок, предназначенный для измерения слабых магнитных полей (потокос) сверхпроводниковым квантовым интерференционным датчиком.

O'ta o'tkazuvchan kvant interferension datchik bilan kuchsiz magnit maydonlarni (oqimlarni) o'lchash uchun mo'ljallangan krioelektron blok.

Ўта ўтказувчан квант интерференцион датчик билан кучсиз магнит майдонларни (оқимларни) ўлчаш учун мўлжалланган криоэлектрон блок.

Частотно-селективный прибор, предназначенный для работы при криогенных температурах.

Kriogen temperaturalarda ishlash uchun mo'ljallangan chastotaviy-selektiv asbob.

Криоген температураларда ишлаш учун мўлжалланган частотавий-селеktiv асбоб.

Часть полупроводниковой пластины, в объеме и на поверхности которой сформированы элементы полупроводниковой интегральной микросхемы, межэлементные соединения и контактные площадки.

Yarimo'tkazgichli plastinaning hajmida va yuzasida yarimo'tkazgichli integral mikrosxema elementlari, elementlararo bog'lanishlar va kontakt maydonlari shakllanadigan qismi.



## К

### **Кристаллический детектор**

**uz** - kristall detektor

кристалл детектор

**en** - crystal detector

### **Кругосветное эхо**

**uz** - Yer shari atrofidagi

aks sado

Ер шари атрофидаги

акс садо

**en** - round-the-world echo

### **Круговая характеристика**

**uz** - xarakteristikaning tikligi

характеристиканинг

тиклиги

**en** - forward transconductance  $S$

Яримўтказгичли пластинанинг ҳажмида ва юзасида яримўтказгичли интеграл микросхема элементлари, элементлараро боғланишлар ва контакт майдонлари шаклланадиган қисми.

Детектор на полупроводниковом кристаллическом диоде.

Yarimo'tkazgichli kristall diod asosidagi detektor.

Яримўтказгичли кристалл диод асосидаги детектор.

Радиосигнал, попадающий в точку приема после того как пройдет больше половины большого круга вокруг Земли при распространении на основе последовательного отражения сигнала между ионосферой и земной поверхностью.

Signalning ionosfera va Yer yuzasi o'rtasida izchil qaytishi asosida tarqalishi vaqtida Yer atrofidagi katta aylananing yarmidan ko'pini o'tgandan so'ng qabul qilish nuqtasiga kelib tushadigan radiosignal.

Сигналнинг ионосфера ва Ер юзаси ўртасида изчил қайтиши асосида тарқалиши вақтида Ер атрофидаги катта айлананинг ярмидан кўпини ўтгандан сўнг қабул қилиш нуқтасига келиб тушадиган радиосигнал.

Отношение изменения тока стока к изменению напряжения на затворе при коротком замыкании по переменному току на выходе транзистора в схеме с общим истоком.

Chiqish toki o'zgarishining, umumiy chiqishga ega sxemada tranzistor chiqishidagi o'zgaruvchan tok bo'yicha qisqa tutashuv paytida zatvordagi kuchlanishga bo'lgan nisbati.

## К

Чиқиш токи ўзгаришининг, умумий чиқишга эга схемада транзистор чиқишидаги ўзгарувчан ток бўйича қисқа туташув пайтида затвордаги кучланишга бўлган нисбати.

### Кюри температура

**uz** - Kyuri temperaturasi

Кюри температураси

**en** - Curie temperature

Температура  $T_K$ , при которой интенсивность теплового движения атомов оказывается достаточной для полного разрушения упорядоченности магнитной и электрической структур.

Atomlar issiqlik harakatining intensivligi magnit va elektr strukturalarning tartiblanganligini to'liq buzish uchun yetarli bo'lgan  $T_K$  temperatura.

Атомлар иссиқлик ҳаракатининг интенсивлиги магнит ва электр структураларнинг тартибланганлигини тўлиқ бузиш учун етарли бўлган  $T_K$  температура.

## Л

### Лавинное умножение носителей заряда

**uz** - zaryad tashuvchilarning ko'chki ko'payishi

заряд ташувчиларнинг кўчки кўпайиши

**en** - avalanche multiplication of charge

Образование пар подвижных носителей заряда (электронов и дырок) при ударной ионизации атомов кристаллической решетки полупроводника подвижными электронами (дырками), ускоренными внешним электрическим полем.

Tashqi elektr maydon orqali tezashtirilgan harakatchan elektronlar (teshiklar) bilan yarimo'tkazgich kristall panjarasi atomlarini zarbli ionlashda harakatchan zaryad tashuvchilar (elektron va teshiklar) juftining hosil qilinishi.

Ташқи электр майдон орқали тезлаштирилган ҳаракатчан электронлар (тешиқлар) билан яримўтказгич кристалл панжараси атомларини зарбли ионлашда ҳаракатчан заряд ташувчилар (электрон ва тешиқлар) жуфтнинг ҳосил қилиниши.

## Л

### **Лавинно-пролетная неустойчивость**

**uz** - ko‘chki-oraliq  
nobarqarorlik

кўчки-оралик  
нобарқарорлик

**en** - avalanche transit-time  
instability

### **Лавинно-пролетный диод**

**uz** - ko‘chki-oraliq diod  
кўчки-оралиқ диод

**en** - avalanche transit diode

### **Лавинно-тепловой пробой**

**uz** - ko‘chki-issiqlik  
teshilish

кўчки-иссиқлик  
тешилиш

**en** - avalanche-termal wash

Токовая неустойчивость, возникающая в полупроводниках вследствие ударной ионизации и лавинного умножения носителей заряда.

Zarbli ionlanish va zaryad tashuvchilarning ko‘chki ko‘payishida yarimo‘tkazgichlarda yuzaga keladigan tok nobarqarorligi.

Зарбли ионланиш ва заряд ташувчиларнинг кўчки кўпайишида яримўтказгичларда юзага келадиган ток nobarqarorligi.

Полупроводниковый диод, работающий в режиме лавинного размножения носителей заряда при обратном смещении электрического перехода и предназначенный для генерации сверхвысокочастотных колебаний.

Elektr o‘tishning teskari siljishida, zaryad tashuvchilarning ko‘chkisimon ko‘payish rejimida ishlaydigan va o‘ta yuqori chastotali tebranishlarni generatsiyalash uchun mo‘ljallangan yarim-o‘tkazgichli diod.

Электр ўтишининг тескари силжишида, заряд ташувчиларнинг кўчкисимон кўпайиш режимида ишлайдиган ва ўта юқори частотали тебранишларни генерациялаш учун мўлжалланган яримўтказгичли диод.

Резкое возрастание тока полупроводникового прибора, связанное с разогревом полупроводника (диэлектрика) при ударной ионизации и лавинном умножении носителей заряда.

Yarimo‘tkazgichli asbob tokining, yarimo‘tkazgich (dielektrik) ning zarbli ionlanish va zaryad tashuvchilarning ko‘chki ko‘payishida qizib ketishi bilan bog‘liq keskin oshishi.

Яримўтказгичли асбоб токининг, яримўтказгич (диэлектрик) нинг зарбли ионланиш ва заряд ташувчиларнинг кўчки кўпайишида кизиби кетиши билан боғлиқ кескин ошиши.

## Л

### **Лавинный выпрямительный диод**

**uz** - ko'chki to'g'rilovchi diod

кўчки тўғриловчи диод

**en** - avalanche rectifier

diode

Выпрямительный полупроводниковый диод с заданными характеристиками минимального напряжения пробоя, предназначенный для рассеивания в течение ограниченной длительности импульса мощности в области пробоя вольт-амперной характеристики.

Minimal teshilish kuchlanishining berilgan xarakteristikalariga ega, volt-amper xarakteristikasining teshilish sohasida chegaralangan davomiylik mobaynida quvvat impulsini tarqatish uchun mo'ljallangan to'g'rilovchi yarimo'tkazgichli diod.

Минимал тешилиш кучланишининг берилган характеристикаларига эга, вольт-ампер характеристикасининг тешилиш соҳасида чегараланган давомийлик мобайнида қувват импульсини тарқатиш учун мўлжалланган тўғриловчи яримўтказгичли диод.

### **Лавинный пробой p-n перехода**

**uz** - p-n o'tishning ko'chkili teshilishi

p-n ўтишининг кўчкили

тешилиши

**en** - p-n unctio avalanche

breakdown

Электрический пробой p-n-перехода, вызванный лавинным размножением носителей заряда под действием сильного электрического поля.

p-n-o'tishning, kuchli elektr maydon ta'sirida zaryad tashuvchilarning ko'chkili ko'payishi keltirib chiqaradigan elektr teshilishi.

p-n-ўтишининг, кучли электр майдон таъсирида заряд ташувчиларнинг кўчкили кўпайиши келтириб чиқарадиган электр тешилиши.

### **Лавинный транзистор**

**uz** - ko'chki tranzistor

кўчки транзистор

**en** - avalanche transistor

Биполярный транзистор, действие которого основано на использовании режима лавинного размножения носителей заряда в коллекторном переходе.

Ishlashi kollektorli o'tishda zaryad tashuvchilarning ko'chkili ko'payish rejimidan foydalanishga asoslangan bipolyar tranzistor.

## Л

### **Лавинный триодный тиристор, непроводящий в обратном направлении**

**uz** - teskari yoʻnalishda oʻtkazmaydigan koʻchki triodli tiristor

тескари йўналишда ўтказмайдиган кўчки триодли тиристор

**en** - avalanche reverse blocking thyristor

### **Лавинный шум в полупроводниках и диэлектриках**

**uz** - yarimoʻtkazgichlar va dielektriklardagi koʻchki shovqin

яримўтказгичлар ва диэлектриклардаги кўчки шовқин

**en** - avalanche noise in semiconductors and dielectrics

### **Лазер**

**uz** - lazer

лазер

**en** - laser

Ишлаши коллекторли ўтишда заряд ташувчиларнинг кўчкили кўпайиш режимдан фойдаланишга асосланган биполяр транзистор.

Тиристор с заданными характеристиками в точке минимального напряжения пробоя, предназначенный для рассеивания в течение ограниченной длительности импульса мощности в области пробоя вольт-амперной характеристики обратного непроводящего состояния.

Teshilishning minimal kuchlanish nuqtasida berilgan xarakteristikalariga ega, teskari oʻtkazmaydigan holat volt-amper xarakteristikasining teshilish sohasida cheklangan davomiylik mobaynida quvvat impulsini tarqatish uchun moʻljallangan tiristor.

Тешилишнинг минимал кучланиш нуқтасида берилган характеристикаларга эга, тескари ўтказмайдиган ҳолат вольт-ампер характеристикасининг тешилиш соҳасида чекланган давомийлик мобайнида қувват импульсини тарқатиш учун мўлжалланган тиристор.

Флуктуации тока носителей заряда при наличии ударной ионизации и лавинного умножения носителей заряда.

Zarbli ionlanish va zaryad tashuvchilarning koʻchki koʻpayishi mavjudligida zaryad tashuvchilar toki fluktuatsiyalari.

Зарбли ионланиш ва заряд ташувчиларнинг кўчки кўпайиши мавжудлигида заряд ташувчилар токи флуктуациялари.

Генератор электромагнитного излучения оптического диапазона, основанный на использовании вынужденного излучения.

## Л

Majburiy nurlanishdan foydalanishga asoslangan, optik diapazondagi elektromagnit nurlanish generatori.

Мажбурий нурланишдан фойдаланишга асосланган, оптик диапазондаги электромагнит нурланиш генератори.

### **Лазер на парах металла (металлоида)**

**uz** - metall (metalloid)

bug'laridagi lazer

металл (металлоид)

буғларидаги лазер

**en** - laser on vapour of the metal (metalloid)

Газовый лазер, в котором активная лазерная среда создается в парах металла (металлоида).

Lazer aktiv muhit metall (metalloid) bug'larida hosil qilinadigan gazli lazer.

Лазер актив мухит металл (металлоид) буғларида ҳосил қилинадиган газли лазер.

### **Лазер на растворе органических соединений**

**uz** - organik birikmalar

eritmasidagi lazer

органик бирикмалар

эритмасадаги лазер

**en** - laser on solution of organic connection

Жидкостный лазер, в котором лазерное вещество находится в виде раствора, органического соединения.

Lazer modda organik birikma eritmasi ko'rinishida bo'ladigan suyuq moddali lazer.

Лазер модда органик бирикма эритмаси кўринишида бўладиган суюқ моддали лазер.

### **Лазер на растворе неорганических соединений**

**uz** - noorganik birikmalar

eritmasidagi lazer

ноорганик бирикмалар

эритмасадаги лазер

**en** - laser on solution of inorganic connections

Жидкостный лазер, в котором лазерное вещество находится в виде раствора активатора в неорганическом растворителе.

Lazer modda noorganik erituvchidagi aktivatorning eritmasi ko'rinishida bo'ladigan suyuq moddali lazer.

Лазер модда ноорганик эритувчидаги активаторнинг эритмаси кўринишида бўладиган суюқ моддали лазер.

### **Лазер на свободных электронах**

**uz** - erkin elektronlardagi

lazer

эркин электронлардаги

лазер

Генератор когерентных электромагнитных колебаний оптического диапазона, основанный на взаимодействии пучка свободных релятивистских электронов с пространственно-периодическим электрическим или магнитным полем.

## Л

**en** - free-electron laser

Erkin relyativistik elektronlar dastasining, fazoviy-davriy elektr yoki magnit maydon bilan o'zaro ta'siriga asoslangan, optik diapazondagi kogerent elektromagnit tebranishlar generatori.

Эркин релятивистик электронлар дастасининг, фазовий-даврий электр ёки магнит майдон билан ўзаро таъсирига асосланган, оптик диапазондаги когерент электромангнит тебранишлар генератори.

### **Лазер с распределенной обратной связью**

**uz** - taqsimlangan teskari bog'lanishli lazer

таксимланган тескари

боғланишли лазер

**en** - distributed feedback laser

Лазер, в котором обратная связь, необходимая для появления встречных волн, осуществляется непрерывно в каждой точке объема активной среды или внешним отражающим устройством.

Qarshi to'liqlar yuzaga kelishi uchun zarur bo'lgan teskari bog'lanish, aktiv muhitning har bir nuqtasida yoki tashqi qaytaruvchi qurilma tomonidan amalga oshiriladigan lazer.

Қарши тўлқинлар юзага келиши учун зарур бўлган тескари боғланиш, актив мухитнинг ҳар бир нуқтасида ёки ташқи қайтарувчи қурилма томонидан амалга ошириладиган лазер.

### **Лазерная активная среда**

**uz** - lazer aktiv muhit

лазер актив мухит

**en** - laser active sphere

Среда, обладающая способностью усиления электромагнитного излучения на частоте лазерного перехода.

Lazer o'tish chastotasida elektromagnit nurlanishni kuchaytirish qobiliyatiga ega bo'lgan muhit.

Лазер ўтиш частотасида электромагнит нурланишни кучайтириш қобилиятига эга бўлган мухит.

### **Лазерная накачка**

**uz** - lazer to'ldirish

лазер тўлдириш

**en** - laser pumping

Оптическая накачка лазерным излучением.

Lazer nurlanish orqali optik to'ldirish.

Лазер нурланиш орқали оптик тўлдириш.

## Л

### Лазерное вещество

**uz** - lazer modda

лазер модда

**en** - laser substance

Вещество, в котором в процессе накачки может быть создана лазерная активная среда.

Toʻldirish jarayonida lazer aktiv muhit yaratilishi mumkin boʻlgan modda.

Tўldiriш жараёнида лазер актив мухит яратилиши мумкин бўлган модда.

### Лазерное излучение

**uz** - lazer nurlanish

лазер нурланиш

**en** - laser irradiation

Электромагнитное излучение в оптическом диапазоне волн, создаваемое лазером, отличающееся от излучения других источников света высокой степенью когерентности, малой угловой расходимостью луча, высокой спектральной яркостью и монохроматичностью.

Optik toʻlqin diapazonidagi lazer vujudga keltiradigan, boshqa yorugʻlik manbalarining nurlanishidan yuqori kogerentlik, nurning taqsimlanish burchagi kichik boʻlishi, yuqori yorqinlik va monoxromatiklik bilan farq qiladigan elektromagnit nurlanish.

Оптик тўлқин диапазонидаги лазер вужудга келтирадиган, бошқа ёруғлик манбаларининг нурланишидан юқори когерентлик, нурнинг тақсимланиш бурчаги кичик бўлиши, юқори ёрқинлик ва монохроматиклик билан фарк қиладиган электромагнит нурланиш.

### Лазерное модуляционное устройство

**uz** - modulyatsiyalovchi lazer qurilma

модуляцияловчи лазер

қурилма

**en** - laser modulation device

Устройство управления лазерным излучением, предназначенное для изменения по заданному закону во времени и/или в пространстве одного или нескольких параметров лазерного излучения или положения пучка лазерного излучения.

Berilgan qonunga koʻra, vaqt boʻyicha va/yoki fazoda lazer nurlanishning bir yoki bir nechta parametrini yoki lazer nurlanish dastasining holatini oʻzgartirish uchun moʻljallangan, lazer nurlanishni boshqarish qurilmasi.



## Л

### **Лазерные уровни энергии**

**uz** - energiyaning lazer sathlari

энергиянинг лазер сатҳлари

**en** - laser level of energy

Берилган қонунга кўра, вақт бўйича ва/ёки фазода лазер нурланишининг бир ёки бир нечта параметрини ёки лазер нурланиш дастасининг ҳолатини ўзгартириш учун мўлжалланган, лазер нурланишни бошқариш қурилмаси.

Уровни энергии, используемые при генерировании или усилении лазерного излучения.

Lazer nurlanishni generatsiyalashda yoki kuchaytirishda foydalaniladigan energiya sathlari.

Лазер нурланишни генерациялашда ёки кучайтиришда фойдаланиладиган энергия сатҳлари.

### **Лазерный активный элемент**

**uz** - lazer aktiv element

лазер актив элемент

**en** - laser active element

Основной функциональный элемент излучателя лазера, содержащий лазерное вещество.

Lazer nurlatkichining, lazer moddani o'z ichiga olgan asosiy funksional elementi.

Лазер нурлаткичининг, лазер моддани ўз ичига олган асосий функционал элементи.

### **Лазерный гироскоп**

**uz** - lazer giroskop

лазер гироскоп

**en** - laser gyroscope

Квантовый оптический прибор для обнаружения вращения объектов и определения их угловой скорости в инерциальной системе отсчета.

Inersial sanoq tizimida obyektarning aylanishini aniqlash va ularning burchak tezligini belgilash uchun mo'ljallangan kvant optik asbob.

Инерциал санок тизимида объектларнинг айланишини аниқлаш ва уларнинг бурчак теълигини белгилаш учун мўлжалланган квант оптик асбоб.

### **Лазерный диод**

**uz** - lazerli diod

лазерли диод

**en** - laser diode

Лазерный активный элемент инжекционного лазера.

Injeksion lazerning lazer aktiv elementi.

Инжекцион лазернинг лазер актив элементи.

## Л

### **Лазерный затвор**

**uz** - lazer zatvor

лазер затвор

**en** - laser shutter

Устройство, предназначенное для обеспечения заданного импульсного режима генерирования лазерного излучения посредством изменения добротности оптического резонатора.

Lazer nurlanishni generatsiyalashning berilgan impulsli rejimini optik rezonator aslligini o'zgartirish orqali ta'minlash uchun mo'ljallangan qurilma.

Лазер нурланишни генерациялашнинг берилган импульсли режимини оптик резонатор асллигини ўзгартириш орқали таъминлаш учун мўлжалланган қурилма.

### **Лазерный переход**

**uz** - lazer o'tish

лазер ўтиш

**en** - laser transition

Вынужденный переход между лазерными уровнями энергии или зонами.

Energiya lazer sathlari yoki zonalari orasidagi majburiy o'tish.

Энергия лазер сатҳлари ёки зоналари орасидаги мажбурий ўтиш.

### **Лазерный усилитель**

**uz** - lazer kuchaytirgich

лазер кучайтиргич

**en** - laser amplifier

Усилитель электромагнитного излучения оптического диапазона, основанный на использовании вынужденного излучения.

Majburiy nurlanishdan foydalanishga asoslangan, optik diapazondagi elektromagnit nurlanishni kuchaytirgich.

Мажбурий нурланишдан фойдаланишга асосланган, оптик диапазондаги электромагнит нурланишни кучайтиргич.

### **Лазерный электропроигрыватель**

**uz** - lazer elektroproigrivatel

лазер электропроигрыватель

**en** - laser electro player

Бытовой радиоэлектронный аппарат, предназначенный для преобразования сигналов компакт-диска в электрические сигналы звуковой частоты.

Kompakt-disk signallarini tovush chastotasi elektr signallariga aylantirish uchun mo'ljallangan maishiy radioelektron apparat.

## Л

### **Лазеры на органических красителях**

**uz** - organik bo'yovchilardagi lazerlar

органик бўёвчилардаги лазерлар

**en** - organic-dye laser

### **Лампа бегущей волны с центробежной электростатической фокусировкой**

**uz** - markazdan qochuvchi elektrostatik fokusirovkali yuguruvchi to'liqin lampasi

марказдан қочувчи электростатик фокусировкали югурувчи тўлқин лампаси

**en** - centrifugal electrostatically focused travelling-wave tube

### **Лампа бегущей волны**

**uz** - yuguruvchi to'liqin lampasi

югурувчи тўлқин лампаси

**en** - travelling-wave tube

Компакт-диск сигналларини товуш частотаси электр сигналларига айлантириш учун мўлжалланган маиший радиоэлектрон аппарат.

Жидкостные лазеры на растворах органических красителей, накачка которых производится светом обычных импульсных ламп.

To'ldirilishi oddiy impulsli lampalarning nuri orqali amalga oshiriladigan, organik bo'yovchilar eritmalaridagi suyuq moddali lazer.

Тўлдирилиши оддий импульсли лампаларнинг нури орқали амалга ошириладиган, органик бўёвчилар эритмаларидаги суюқ моддали лазер.

Лампа бегущей волны, в которой фокусировка электронного потока происходит под действием центробежной силы и радиального электростатического поля.

Elektron oqimni fokuslash markazdan qochuvchi kuch va radial elektrostatik maydon ta'sirida yuz beradigan yuguruvchi to'liqin lampasi.

Электрон оқимни фокусилаш марказдан қочувчи куч ва радиал электростатик майдон таъсирида юз берадиган югурувчи тўлқин лампаси.

Прибор О-типа, в котором электронный поток взаимодействует с прямой замедленной бегущей волной, при этом направления групповой скорости электронов и скорости электромагнитной волны совпадают.

Elektron oqim sekinlashgan to'g'ri yuguruvchi to'liqin bilan o'zaro ta'sirlashadigan, elektronlarning guruhli tezligi va elektromagnit to'liqin tezligining yo'nalishi bir xil bo'ladigan O-turidagi asbob.

## Л

Электрон оқим секинлашган тўғри югурувчи тўлқин билан ўзаро таъсирлашадиган, электронларнинг гуруҳли тезлиги ва электромагнит тўлқин тезлигининг йўналиши бир хил бўладиган О-туридаги асбоб.

### Лампа бегущей волны

#### М-типа

**uz** - *M-turidagi yuguruvchi to'ldirin lampasi*

М-туридаги югурувчи тўлқин лампаси

**en** - *M-type travelling-wave tube*

Нерезонансный прибор М-типа, в котором разомкнутый электронный ток взаимодействует с прямой замедленной бегущей волной.

*Uzilgan elektron tok to'g'ri sekinlashgan yuguruvchi to'ldirin bilan o'zaro ta'sirda bo'ladigan M-turidagi norezonans asbob.*

Узилган электрон ток тўғри секинлашган югурувчи тўлқин билан ўзаро таъсирда бўладиган М-туридаги норезонанс асбоб.

### Лампа бегущей волны

#### с фотоэмиссией

**uz** - *fotoemissiyali yuguruvchi to'ldirin lampasi*

фотоэмиссияли югурувчи тўлқин лампаси

**en** - *photocathode travelling-wave tube*

Лампа бегущей волны, в которой электронный поток создается фотокатодом под действием светового сигнала.

*Elektron oqim fotokatod tomonidan yorug'lik signali ta'sirida vujudga keltiriladigan yuguruvchi to'ldirin lampasi.*

Электрон оқим фотокатод томонидан ёруғлик сигнали таъсирида вужудга келтириладиган югурувчи тўлқин лампаси.

### Лампа накачки

**uz** - *to'ldirish lampasi*

тўлдириш лампаси

**en** - *lamp of the pumping*

Лампа, в которой электрическая энергия преобразуется в оптическое излучение, используемое для накачки лазерного активного элемента.

*Elektr energiya lazer aktiv elementni to'ldirish uchun foydalaniladigan optik nurlanishga aylantiriladigan lamp.*

Электр энергия лазер актив элементни тўлдириш учун фойдаланиладиган оптик нурланишга айлантириладиган лампа.

## Л

### **Лампа обратной волны**

**uz** - qaytgan to'liqin lampasi

қайтган тўлқин лампаси

**en** - backward wave tube

Прибор О-типа, в котором электронный поток взаимодействует с обратной замедленной бегущей волной, направление скорости электромагнитной волны противоположно направлению скорости электронов.

Elektron oqim sekinlashgan qaytgan yuguruvchi to'liqin bilan o'zaro ta'sirda, elektromagnit to'liqin tezligining yo'nalishi elektronlar tezligining yo'nalishiga qarama-qarshi bo'ladigan O-turidagi asbob.

Электрон оқим секинлашган қайтган югурувчи тўлқин билан ўзаро таъсирда, электромагнит тўлқин тезлигининг йўналиши электронлар тезлигининг йўналишига қарма-қарши бўладиган О-турадаги асбоб.

### **Лампа обратной волны**

#### **М-типа**

**uz** - M-turidagi qaytgan to'liqin lampasi

М-турадаги қайган тўлқин лампаси

**en** - M-type backward wave tube

Генераторный прибор М-типа с электронной перестройкой частоты, разомкнутым электронным потоком и разомкнутой замедляющей системой, имеющей на одном конце сверхвысокочастотный поглотитель.

Chastota elektron qayta sozlanadigan, uzilgan elektron oqimli va bir uchida o'ta yuqori chastotali yutkichi bo'lgan uzilgan sekinlashtiruvchi tizimli M-turidagi generator asbob.

Частота электрон қайта созланадиган, узилган электрон оқимли ва бир учида ўта юқори частотали юткичи бўлган узилган секинлаштирувчи тизимли М-турадаги генератор асбоб.

### **Лампа переменной крутизны**

**uz** - tikligi o'zgaruvchan lampati

тиклиги ўзгарувчан лампа

**en** - lamp of the variable steepness

Электронно-управляемая лампа, в которой коэффициент усиления и крутизна анодно-сеточной характеристики могут изменяться в широких пределах при изменении рабочей точки.

Kuchaytirish koeffitsiyenti va anod-to'r xarakteristika tikligi ishchi nuqta o'zgarganda, keng

## Л

doirada o'zgarishi mumkin bolgan elektron-boshqariladigan lampa.

Кучайтириш коэффициенти ва анод-тўр характеристика тиклиги ишчи нуқта ўзгарганда, кенг доирада ўзгариши мумкин бўлган электрон-бошқариладиган лампа.

### **Лампа постоянной крутизны**

**uz** - tikligi o'zgarmas lampa  
тиклиги ўзгармас лампа  
**en** - lamp constant steepness

Электронно-управляемая лампа, в которой коэффициент усиления и крутизна анодно-сеточной характеристики остаются практически постоянными при изменении рабочей точки.

Kuchaytirish koeffitsiyenti va anod-to'r xarakteristika tikligi ishchi nuqta o'zgartirganda amalda doimiy bo'lib qoladigan elektron-boshqariladigan lampa.

Кучайтириш коэффициенти ва анод-тўр характеристика тиклиги ишчи нуқта ўзгарганда амалда доимий бўлиб қоладиган электрон-бошқариладиган лампа.

### **Лампа с катодной сеткой**

**uz** - katod to'rli lampa  
катод тўрли лампа  
**en** - lamp with cathode net

Электронно-управляемая лампа, имеющая дополнительную сетку с положительным потенциалом, расположенную между катодом и управляющей сеткой.

Katod va boshqaruvchi to'r orasida joylashgan musbat potentsialli qo'shimcha to'ri bo'lgan elektron-boshqariladigan lampa.

Катод ва бошқарувчи тўр орасида жойлашган мусбат потенциалли қўшимча тўри бўлган электрон-бошқариладиган лампа.

### **Лампа со вторичной эмиссией**

**uz** - ikkilamchi emissiyali lampa  
иккиламчи эмиссияли лампа  
**en** - lamp with secondary emission

Электронно-управляемая лампа, в которой поток первичных электронов умножается посредством вторичной эмиссии.

Birlamchi elektronlar oqimi ikkilamchi emissiya natijasida ko'payadigan elektron-boshqariladigan lampa.

## Л

### **Лампа со специальной характеристикой**

**uz** - maxsus xarakteristikali lampa

махсус хактеристикали лампа

**en** - lamp with special feature

### **Ламповая накачка**

**uz** - lampali to'ldirish

лампали тўлдириш

**en** - lamp pumping

### **Линейка оптоэлектронных полупроводниковых приборов**

**uz** - optoelektron yarim-

o'tkazgichli asboblar qatori

оптоэлектрон ярим-ўтказгичли асбоблар қатори

**en** - straightedge optoelectron semiconductor devices

### **Линейная интегральная схема**

**uz** - chizikli integral sxema

чизиқли интеграл схема

**en** - linear integrated circuit

Бирламчи электронлар оқими иккиламчи эмиссия натижасида кўпаядиган электрон-бошқариладиган лампа.

Электронно-управляемая лампа, у которой при изменении напряжения управляющего электрода ток анода изменяется по заданному закону.

Примечание – Ток анода изменяется по логарифмическому, квадратичному, экспоненциальному закону и т.д.

Boshqaruvchi elektrod kuchlanishi o'zgarganda, anod toki berilgan qonun bo'yicha o'zgaradigan elektron-boshqariladigan lamp.

Izoh – Anod toki logarifmik, kvadratik, eksponensial va h.k. qonun bo'yicha o'zgaradi.

Бошқарувчи электрод кучланиши ўзгарганда, анод токи берилган қонун бўйича ўзгарадиган электрон-бошқариладиган лампа.

Изоҳ – Анод токи логарифмик, квадратик, экспоненциал ва ҳ.к. қонун бўйича ўзгаради.

Оптическая накачка излучением лампы.

Lampa nurlanishi orqali optik to'ldirish.

Лампа нурланиши орқали оптик тўлдириш.

Совокупность оптоэлектронных полупроводниковых приборов, расположенных с заданным шагом на одной линии.

Belgilangan qadam bilan bir chiziqda joylashgan optoelektron yarimo'tkazgichli asboblar jami.

Белгиланган қадам билан бир чизикда жойлашган оптоэлектрон яримўтказгичли асбоблар жами.

Аналоговая интегральная схема, выходной сигнал которой представляет собой линейную функцию от входного сигнала.

## Л

Chiqish signali kirish signalidan kelib chiqadigan chiziqli funktsiyani o'zida ifodalaydigan analog integral sxema.

Чиқиш сигнали кириш сигналидан келиб чиқадиган чизиқли функцияни ўзида ифода-лайдиган аналог интеграл схема.

### **Линейная радиоэлектронная схема**

**uz** - chiziqli radioelektron  
sхема

чизиқли радиоэлектрон  
схема

**en** - linear circuit

Радиоэлектронная схема, математическая модель которой является системой линейных уравнений.

Matematik modeli chiziqli tenglamalar tizimi hisoblanadigan radioelektron sxema.

Математик модели чизиқли тенгламалар тизими ҳисобланадиган радиоэлектрон схема.

### **Линейный детектор**

**uz** - chiziqli detektor

чизиқли детектор  
**en** - linear detector

Амплитудный детектор, напряжение на выходе которого пропорционально амплитуде входного сигнала.

Chiqishidagi kuchlanish kirish signalining amplitudasiga proporsional bo'lgan amplitudaviy detektor.

Чиқишидаги кучланиш кириш сигналининг амплитудасига пропорционал бўлган амплитудавий детектор.

### **Линейный оптоэлектронный полупроводниковый прибор**

**uz** - chiziqli optoelektron  
yarimo'tkazgichli asbob

чизиқли оптоэлектрон  
яримўтказгичли асбоб

**en** - linear optoelectronic  
semiconductor device

Оптоэлектронный полупроводниковый прибор, состоящий из дифференциальной оптопары или двух диодных оптопар и предназначенный для преобразования сигналов, изменяющихся по закону непрерывной функции.

Differensial optoparadan yoki ikkita diodli optoparadan iborat bo'lgan, uzluksiz funktsiya qonuni bo'yicha o'zgaradigan signallarni o'zgartirish uchun mo'ljallangan optoelektron yarimo'tkazgichli asbob.

Дифференциал оптопарадан ёки иккита диодли оптопарадан иборат бўлган, узлуксиз



## Л

### **Линейный симметричный вибратор**

**uz** - chiziqli simmetrik vibrator

чизикли симметрик

вибратор

**en** - linear symmetrical vibrator

### **Линейный стабилизатор постоянного тока**

**uz** - chiziqli o'zgarmas tok stabilizatori

чизикли ўзгармас ток стабилизатори

**en** - linear of direct current stabilizer

### **Линзовая антенна**

**uz** - linzali antenna

линзали антенна

**en** - lens antenna

### **Линия передачи**

**сверхвысоких частот**

**uz** - o'ta yuqori chastotalarni uzatish liniyasi

функция қонуни бўйича ўзгарадиган сигналларни ўзгартириш учун мўлжалланган опто-электрон яримўтказгичли асбоб.

Симметричный вибратор, оси проводников которого располагаются по одной прямой.

O'tkazgichlarining o'qlari bitta to'g'ri chiziq bo'ylab joylashadigan simmetrik vibrator.

Ўтказгичларининг ўқлари битта тўғри чизик бўйлаб жойлашадиган симметрик вибратор.

Стабилизатор постоянного тока, в котором регулирование выходного напряжения осуществляется посредством транзистора, последовательно включенного в одну из шин постоянного тока и работающего в активном непрерывном режиме.

Chiqish kuchlanishini rostlash, o'zgarmas tokning shinalaridan biriga ketma-ket ulangan va uzluksiz aktiv rejimda ishlaydigan tranzistor vositasida amalga oshiriladigan o'zgarmas tok stabilizatori.

Чиқиш кучланишини ростлаш, ўзгармас токнинг шиналаридан бирига кетма-кет уланган ва узлуксиз актив режимда ишлайдиган транзистор воситасида амалга ошириладиган ўзгармас ток стабилизатори.

Направленная антенна, состоящая из первичного излучателя и радиолинзы.

Birlamchi nurlatkich va radiolinzadan iborat bo'lgan yo'naltirilgan antenna.

Бирламчи нурлаткич ва радиолинзадан иборат бўлган йўналтирилган антенна.

Устройство, ограничивающее область распространения электромагнитных колебаний и направляющее поток сверхвысокочастотной электромагнитной энергии в заданном направлении.

## Л

ўта юқори частоталарни  
узатиш линияси  
**en** - line of transfer of  
ultrahigh frequencies

Elektromagnit tebranishlarning tarqalish doirasi-  
ni cheklaydigan va belgilangan yoʻnalishda oʻta  
yuqori chastotali elektromagnit energiya oqimini  
yoʻnaltiruvchi qurilma.

Электромагнит тебранишларнинг тарқалиш  
доирасини чеклайдиган ва белгиланган йўна-  
лишда ўта юқори частотали электромагнит  
энергия оқимини йўналтирувчи қурилма.

**Логическая интегральная  
схема**

**uz** - mantiqiy integral sxema  
мантиқий интеграл схема  
**en** - logic integrated circuit

Интегральная схема, выполняющая одну или  
несколько логических функций, например И,  
ИЛИ, НЕ, И-НЕ.

Битта yoki bir nechta mantiqiy funksiyani,  
masalan, I (VA), ILI (YoKI), NE (YOʻQ), I-NE  
(VA-YOʻQ)ni bajaradigan integral sxema.

Битта ёки бир нечта мантиқий функцияни,  
масалан, И (ВА), ИЛИ (ЁКИ), НЕ (ЙЎҚ),  
И-НЕ (ВА-ЙЎҚ)ни бажарадиган интеграл  
схема.

**Логические элементы**

**uz** - mantiqiy elementlar  
мантиқий элементлар  
**en** - logical component

Электронные устройства, реализующие про-  
стейшие логические операции (функции) над  
входными сигналами согласно правилам ал-  
гебры логики и выдающие сигналы, соответ-  
ствующие значениям реализуемых функций.

Mantiqiy algebra qoidalariga binoan kirish  
signallari ustida oddiy mantiqiy operatsiyalarni  
(funksiyalarni) amalga oshiradigan va amalga  
oshiriladigan funksiyalarning qiymatlariga mos  
keladigan signallar beruvchi elektron qurilmalar.

Мантиқий алгебра қоидаларига биноан ки-  
риш сигналлари устида оддий мантиқий опе-  
рацияларни (функцияларни) амалга ошира-  
диган ва амалга ошириладиган функциялар-  
нинг қийматларига мос келадиган сигналлар  
берувчи электрон қурилмалар.

## Л

### **Логический тиратрон**

**uz** - mantiqiy tiratron

мантиқий тиратрон

**en** - logic thyatron

Тиратрон тлеющего разряда, предназначенный для выполнения логических операций, в котором возникновение разряда обеспечивается определенными комбинациями входных логических сигналов, подаваемых на управляющие электроды.

Mantiqiy operatsiyalarni bajarish uchun mo'ljallangan, razryadning paydo bo'lishi boshqaruvchi elektrodlarga kirish mantiqiy signallarning muayyan kombinatsiyalarini uzatish orqali ta'minlanadigan miltillama razryad tiratroni.

Мантиқий операцияларни бажариш учун мўлжалланган, разряднинг пайдо бўлиши бошқарувчи электродларга кириш мантиқий сигналларнинг муайян комбинацияларини узатиш орқали таъминланадиган милтиллама разряд тиратрони.

### **Ложный сигнал**

**воспроизведения**

**uz** - soxta qayta tiklash

signali

сохта қайта тиклаш

сигнали

**en** - drop-in

Кратковременное увеличение воспроизводимого сигнала или появление постороннего сигнала, происходящее из-за дефектов носителя записи или из-за недостатков работы устройств записи и/или воспроизведения.

Yozuv tashuvchining defektlari yoki yozish va/ yoki qayta tiklash qurilmalari ishidagi kamchiliklar tufayli yuz beradigan, qayta tiklanadigan signalning qisqa muddali oshishi yoki yot signalning paydo bo'lishi.

Ёзув ташувчининг дефектлари ёки ёзиш ва/ ёки қайта тиклаш қурилмалари ишидаги камчиликлар туфайли юз берадиган, қайта тикланадиган сигналнинг қисқа муддатли ошиши ёки ёт сигналнинг пайдо бўлиши.

**Локальная плотность энергии (мощности) лазерного излучения**

**uz** - lazer nurlanish energiyasi (quvvati) ning lokal zichligi

Плотность энергии (мощности) лазерного излучения, отнесенная к заданному участку сечения пучка лазерного излучения.

## Л

лазер нурланиш энергияси (куввати) нинг локал зичлиги  
**en** - local density of energy (powers) laser radiation

### Лучевой тетрод

**uz** - nurli tetrod

нурли тетрод

**en** - radial tetrode

Lazer nurlanish energiyasi (quvvati)ning, lazer nurlanish dastasi kesimining belgilangan qismiga tegishli bo'lgan zichligi.

Лазер нурланиш энергияси (куввати)нинг, лазер нурланиш дастаси кесимининг белгиланган қисмига тегишли бўлган зичлиги.

Тетрод, в котором влияние вторичной эмиссии с анода подавляется посредством концентрации электронного тока в отдельные электронные лучи за счет применения лучевой системы электродов.

Anoddan bo'ladigan ikkilamchi emissiya ta'siri, elektrodlarning nurli tizimini qo'llash hisobiga, elektron tokni ayrim elektron nurlarga to'plash orqali yo'qotiladigan tetrod.

Аноддан бўладиган иккиламчи эмиссия таъсири, электродларнинг нурли тизимини қўллаш ҳисобига, электрон токни айрим электрон нурларга тўплаш орқали йўқотиладиган тетрод.

### Люминесцентный преобразователь частоты лазерного излучения

**uz** - lyuminessent lazer nurlanish chastotasini o'zgartirgich

люминесцент лазер нурланиш частотасини ўзгартиргич  
**en** - luminescent converter of the frequency of laser radiation

Преобразователь частоты лазерного излучения, действие которого основано на вынужденном излучении, возникающем в люминесцирующем веществе при лазерной накачке.

Ishlashi lazer to'ldirish paytida lyuminessensiyalaydigan moddada vujudga keladigan majburiy nurlanishga asoslangan, lazer nurlanish chastotasini o'zgartirgich.

Ишлаши лазер тўлдириш пайтида люминесценциялайдиган моддада вужудга келадиган мажбурий нурланишга асосланган, лазер нурланиш частотасини ўзгартиргич.

### Люминесцентный экран

**uz** - lyuminessent ekran

люминесцент экран

**en** - luminescent screen

Устройство с использованием люминофоров, предназначенное для преобразования энергии электромагнитного излучения или корпускулярных пучков в видимое изображение с последующей его фиксацией.

## Л

Lyuminoforlardan foydalaniladigan, elektromagnit nurlanish yoki korpuskulyar dastalar energiyasini, keyinchalik qayd etish bilan ko'rinadigan tasvirga aylantirish uchun mo'ljallangan qurilma.

Люминофорлардан фойдаланиладиган, электромагнит нурланиш ёки корпускуляр дасталар энергиясини, кейинчалик қайд этиш билан кўринадиган тасвирга айлантриш учун мўлжалланган қурилма.

### Люминесценция

**uz** - lyuminessensiya

люминесценция

**en** - luminescence

Оптическое излучение, возбужденное в веществе за счет какого-либо вида энергии.

Moddada energiyaning qandaydir turi hisobiga qo'zg'atilgan optik nurlanish.

Моддада энергиянинг қандайдир тури ҳисобига кўзғатилган оптик нурланиш.

### Люминофоры

**uz** - lyuminoforlar

люминофорлар

**en** - luminescent material

Вещества, способные светиться под воздействием различного рода возбуждений.

Turli qo'zg'atishlar ta'sirida nur sochish qobiliyatiga ega bo'lgan moddalar.

Турли кўзғатишлар таъсирида нур сочиш қобилиятига эга бўлган моддалар.

## М

### Магнетрон

**uz** - magnetron

магнетрон

**en** - magnetron

Резонансный прибор М-типа, в котором замкнутый электронный поток взаимодействует с сверхвысокочастотным полем замкнутой замедляющей системы.

Berk elektron oqim berk sekinlashtiruvchi tizimning o'ta yuqori chastotali maydoni bilan o'zaro ta'sirda bo'ladigan M-turidagi rezonans asbob.

Берк электрон оқим берк секинлаштирувчи тизимнинг ўта юқори частотали майдони би-

## М

лан ўзаро таъсирда бўладиган М-туридаги резонанс асбоб.

### **Магнетрон с поверхностной волной**

**uz** - yuza to'liqinli magnetron  
юза тўлқинли магнетрон  
**en** - magnetron with surface wave

Магнетрон, электромагнитное поле замедляющей системы которого в основном сосредоточено вблизи поверхности анода.

Sekinlashtiruvchi tizimining elektromagnit maydoni asosan anod yuzasi yaqinida to'plangan magnetron.

Секинлаштирувчи тизимининг электромагнит майдони асосан анод юзаси яқинида тўпланган магнетрон.

### **Магнетрон с сеткой**

**uz** - to'rli magnetron  
тўрли магнетрон  
**en** - magnetron with net

Магнетрон, содержащий третий электрод, предназначенный для осуществления амплитудной или частотной модуляции выходного сигнала.

Chiqish signalining amplitudaviy yoki chastotaviy modulyatsiyasini amalga oshirish uchun mo'ljallangan, uchinchi elektrodi bo'lgan magnetron.

Чиқиш сигналининг амплитудавий ёки частотавий модуляциясини амалга ошириш учун мўлжалланган, учинчи электроди бўлган магнетрон.

### **Магнетрон с фиксированной частотой**

**uz** - qayd etilgan chastotali magnetron  
қайд этилган частотали магнетрон  
**en** - magnetron with fixed frequency

Магнетрон, конструкция которого не предусматривает управляемого изменения частоты выходного сигнала.

Konstruksiyasida chiqish signali chastotasini boshqariladigan tarzda o'zgartirish ko'zda tutilmagan magnetron.

Конструкциясида чиқиш сигнали частотасини бошқариладиган тарзда ўзгартириш кўзда тилмаган магнетрон.

### **Магнетрон, настраиваемый напряжением**

**uz** - kuchlanish bilan sozlanadigan magnetron

Магнетрон с сильно нагруженной колебательной системой, работающей в режиме ограниченной плотности электронного потока, в результате чего достигается широкий

## М

кучланиш билан  
созланадиган магнетрон  
**en** - voltage tunable  
magnetron

диапазон электронной перестройки частоты генерируемых колебаний при изменении напряжения анода.

Elektron oqimning cheklangan zichlik rejimida ishlaydigan, o'ta yuklangan tebranish tizimiga ega magnetron, natijada anod kuchlanishi o'zgarganda generatsiyalanayotgan tebranishlar chastotasini elektron qayta sozlashning keng diapazoniga erishiladi.

Электрон оқимнинг чекланган zichlik режимида ишлайдиган, ўта юкланган тебраниш тизимига эга магнетрон, натижада анод кучланиши ўзгарганда генерацияланаётган тебранишлар частотасини электрон қайта созлашнинг кенг диапазониغا эришилади.

### Магнетронного типа приборы

**uz** - magnetron turidagi asboblar

магнетрон туридаги асбоблар

**en** - magnetron type devices

Электривакуумные приборы сверхвысокой частоты, в которых группирование (формирование) электронного потока и его взаимодействие с сверхвысокочастотным полем происходит в пространстве, где постоянные электрическое и магнитное поля перпендикулярны друг другу.

Elektron oqimning to'planishi (shakllanishi) va uning o'ta yuqori chastotali maydon bilan o'zaro ta'siri elektr va magnit maydon doimo bir-biriga perpendikulyar bo'lgan muhitda yuz beradigan, o'ta yuqori chastota elektrovakuum asboblari.

Электрон оқимнинг тўпланиши (шаклланиши) ва унинг ўта юқори частотали майдон билан ўзаро таъсири электр ва магнит майдон доимо бир-бирига перпендикуляр бўлган мухитда юз берадиган, ўта юқори частота электривакуум асбоблари.

### Магнетронного типа усилители

**uz** - magnetron turidagi kuchaytirgichlar

Магнетронного типа приборы для усиления сверхвысокочастотных колебаний. В магнетронного типа усилителе электронный поток взаимодействует с полем волны, бегущей по замедляющей системе.

## М

магнетрон туридаги  
кучайтиргичлар  
**en** - magnetron type  
amplifier

Magnetron turidagi, o'ta yuqori chastotali tebranishlarni kuchaytirish uchun mo'ljallangan asbob. Bunday kuchaytirgichda elektron oqim sekinlashtiruvchi tizim bo'ylab yuguruvchi to'lqin maydoni bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi.

Магнетрон туридаги, ўта юқори частотали тебранишларни кучайтириш учун мўлжалланган асбоб. Бундай кучайтиргичда электрон оқим секинлаштирувчи тизим бўйлаб югурувчи тўлқин майдони билан ўзаро таъсирда бўлади.

**Магнитная волна**  
**uz** - magnit to'lqin  
магнит тўлқин  
**en** - magnetic wave

Электромагнитная волна, вектор напряженности магнитного поля которой имеет поперечную и продольную составляющие, а вектор напряженности электрического поля лежит в плоскости, перпендикулярной направлению распространения.

Magnit maydon kuchlanganlik vektori ko'ndalang va bo'yлама tashkil etuvchilarga ega bo'lgan, elektr maydon kuchlanganligining vektori esa, tarqalish yo'nalishiga perpendikulyar tekislikda yotadigan elektromagnit to'lqin.

Магнит майдон кучланганлик вектори кўндаланг ва бўйлама ташкил этувчиларга эга бўлган, электр майдон кучланганлигининг вектори эса, тарқалиш йўналишига перпендикуляр текисликда ётадиган электромагнит тўлқин.

**Магнитная головка  
звукоснимателя**  
**uz** - tovush olgichning  
magnit kallagi  
товуш олгичнинг  
магнит каллагии  
**en** - magnetic cartridge

Головка звукоснимателя, электродвижущая сила которой обусловлена электромагнитной индукцией, возникающей при колебаниях воспроизводящей иглы.

Elektr yurituvchi kuchi qayta tiklovchi ignaning tebranishlari paytida yuzaga keladigan elektromagnit induksiya bilan bog'liq tovush olgich kallagi.



## М

### **Магнитная головка Холла**

**uz** - Xoll magnit kallagi

Холл магнит каллаги

**en** - magnetic head of a Hall

Электр юритувчи кучи қайта тикловчи игна-нинг тебранишлари пайтида юзага келадиган электромагнит индукция билан боғлиқ товуш олгич каллаги.

Потокочувствительная магнитная головка, действие которой основано на использовании эффекта Холла.

Ishlashi Xoll effektidan foydalanishga asoslangan, oqim sezgir magnit kallak.

### **Магнитная дорожка**

**uz** - magnit yo'lka

магнит йўлка

**en** - magnetic track

Ишлаши Холл эффектидан фойдаланишга асосланган, оқим сезгир магнит каллак.

Магнитный рабочий слой, нанесенный в форме полосы на поверхность основы носителя записи.

Yozuv tashuvchi asosining yuzasiga polosa shaklida surtilgan magnitli ishchi qatlam.

### **Магнитная запись**

**uz** - magnit yozish

магнит ёзиш

**en** - magnetic recording

Ёзув ташувчи асосининг юзасига полоса шаклида суртилган магнитли ишчи қатлам.

Запись, осуществляемая изменением остаточного магнитного состояния носителя записи или его отдельных частей в соответствии с сигналами записываемой информации.

Yozib olinadigan axborot signallariga mos ravishda, magnit tashuvchi yoki uning ayrim qismlari qoldiq magnit holatini o'zgartirish bilan amalga oshiriladigan yozish.

### **Магнитная карта**

**uz** - magnit karta

магнит карта

**en** - magnetic card (map)

Ёзиб олинadigan ахборот сигналларига мос равишда, магнит ташувчи ёки унинг айрим қисмлари қолдиқ магнит ҳолатини ўзгартириш билан амалга ошириладиган ёзиш.

Магнитный лист размером не более 150x100 mm.

O'lchami 150x100 mm dan katta bo'lmagan magnit varaq.

## М

Ўлчами 150x100 mm дан катта бўлмаган магнит варақ.

### **Магнитная краска**

**uz** - magnit bo‘yoq

магнит бўёқ

**en** - magnetic paint

Краска для записи на немагнитном носителе, содержащая ферромагнитный или ферримагнитный порошок.

Ferromagnit yoki ferrimagnit kukundan tashkil topgan, nomagnit tashuvchida yozish uchun mo‘ljallangan bo‘yoq.

Ферромагнит ёки ферримагнит кукундан ташкил топган, номагнит ташувчида ёзиш учун мўлжалланган бўёқ.

### **Магнитная лента**

**uz** - magnit tasma

магнит тасма

**en** - magnetic tape

Носитель магнитной записи, имеющий форму ленты.

Tasma shaklidagi magnit yozuvni tashuvchi.

Тасма шаклидаги магнит ёзувни ташувчи.

### **Магнитная линза**

**uz** - magnit linza

магнит линза

**en** - magnetic lens

Устройство для формирования пучков заряженных частиц (электронов, ионов), их фокусировки и создания электронно- и ионно-оптических изображений с помощью магнитных статических полей с осевой симметрией.

Zaryadlangan zarralar (elektronlar, ionlar) dastasini shakllantirish, ularni fokuslash va o‘q simmetriyali magnit statik maydon yordamida elektron- va ion- optik tasvirlarni hosil qilish uchun mo‘ljallangan qurilma.

Зарядланган зарралар (электронлар, ионлар) дастасини шакллантириш, уларни фокуслаш ва ўқ симметрияли магнит статик майдон ёрдамида электрон- ва ион- оптик тасвирларни ҳосил қилиш учун мўлжалланган қурилма.

### **Магнитная манжета**

**uz** - magnit manjeta

магнит манжета

**en** - magnetic cuff

Кольцо магнитной ленты, диаметр которого соизмерим с шириной ленты.

Magnit tasmaning, diametri tasma kengligi bilan teng o‘lchovli bo‘lgan halqasi.

## М

### **Магнитная нить**

**uz** - magnit ip

магнит ип

**en** - magnetic thread

Магнит тасманинг, диаметри тасма кенглиги билан тенг ўлчовли бўлган ҳалқаси.

Носитель магнитной записи, имеющий форму нити.

Ip shaklidagi magnit yozuvni tashuvchi.

Ип шаклидаги магнит ёзувни ташувчи.

### **Магнитная периодическая фокусировка**

**uz** - magnit davriy fokuslash

магнит даврий фокуслаш

**en** - magnetic periodic

focusing

Способ формирования протяженных электронных пучков, основанный на периодическом изменении направления продольной (осевой) составляющей напряженности магнитного поля.

Magnit maydon kuchlanganligi koʻndalang (oʻq) tashkil etuvchisi yoʻnalishini davriy oʻzgartirishga asoslangan, choʻzilgan elektron dastalarni shakllantirish usuli.

Магнит майдон кучланганлиги кўндаланг (ўқ) ташкил этувчиси йўналишини даврий ўзгартиришга асосланган, чўзилган электрон дасталарни шакллантириш усули.

### **Магнитная фокусирующая система электронно-оптического преобразователя**

**uz** - elektron-optik

oʻzgartirgichning magnit

fokuslovchi tizimi

электрон-оптик ўзгартиргичнинг магнит фокусловчи тизими

**en** - magnetic focusing system of the electrooptic converter

Система электронно-оптического преобразователя, фокусирующая прямое электронное изображение в результате взаимодействия электронов с электрическими и магнитными полями.

Elektron-optik oʻzgartirgichning, toʻgʻri elektron tasvirni elektronlarning elektr va magnit maydonlar bilan oʻzaro taʼsiri natijasida fokuslovchi tizimi.

Электрон-оптик ўзгартиргичнинг, тўғри электрон тасвири электронларнинг электр ва магнит майдонлар билан ўзаро таъсири натижасида фокусловчи тизими.

## М

### **Магнитное копирование сигналограммы**

**uz** - signalogrammadan  
magnit nusxa ko‘chirish  
сигналограммадан  
магнит нусха кўчириш  
**en** - magnetic copying

Способ контактного копирования магнитной сигналограммы, при котором в зоне контакта сигналограммы и носителя записи копии создается вспомогательное магнитное поле от внешнего источника.

Magnit signalogrammadan, signalogramma va nusxa yozuvini tashuvchining kontakt zonasida tashqi manbadan yordamchi magnit maydon vujudga keltiriladigan, kontaktli nusxa ko‘chirish usuli.

Магнит сигналограммадан, сигналограмма ва нусха ёзувини ташувчининг контакт зонасида ташқи манбадан ёрдамчи магнит майдон вужудга келтириладиган, контактли нусха кўчириш усули.

### **Магнитные интегральные схемы**

**uz** - magnit integral sxemalar  
магнит интеграл схемалар  
**en** - magnetic integrated circuits

Интегральные схемы, в которых для обработки и/или хранения информации используются магнитные материалы, например, пленочные материалы с цилиндрическими магнитными доменами.

Axborotni qayta ishlash va/yoki saqlash uchun magnit materiallardan, masalan, silindrik magnit domenga ega plyonkali materiallardan foydalaniladigan integral sxemalar.

Ахборотни қайта ишлаш ва/ёки сақлаш учун магнит материаллардан, масалан, цилиндрик магнит доменга эга плёнкали материаллардан фойдаланиладиган интеграл схемалар.

### **Магнитный барабан**

**uz** - magnit baraban  
магнит барабан  
**en** - magnetic drum

Носитель магнитной записи, имеющий форму круглого цилиндра, у которого рабочий слой нанесен на цилиндрическую поверхность.

Ishchi qatlami silindrik yuzaga surtilgan, doiraviy silindr shakliga ega bo‘lgan magnit yozuvni tashuvchi.

Ишчи қатлами цилиндрик юзага суртилган, доиравий цилиндр шаклига эга бўлган магнит ёзувни ташувчи.

## М

### **Магнитный диполь**

**uz** - magnit dipol

магнит диполь

**en** - magnetic doublet

Условный излучающий элемент, образованный двумя изменяемыми магнитными массами, равными по величине и обратными по знаку, расстояние между которыми может рассматриваться: как намного меньшее, чем минимальная длина волны излучаемых электромагнитных волн.

Kattaligi bo'yicha teng va belgisi bo'yicha teskari bo'lgan, ular o'rtasidagi masofa nurlantiruvchi elektromagnit to'lqinlarning minimal to'lqin uzunligidan birmuncha kam deb qaraladigan, ikkita o'zgaruvchan magnit massa hosil qilgan shartli nurlantiruvchi element.

Kattaligi b'uyicha teng va belgisi b'uyicha teskari b'ulgan, ular 'urtasidagi masofa nurlantiruvchi elektromagnit t'ulkinlarining minimal t'ulkin uzunligidan birmuncha kam deb qaraladigan, ikkita 'zgaruvchan magnit massa hosil qilgan shartli nurlantiruvchi element.

### **Магнитный домен**

**uz** - magnit domen

магнит домен

**en** - magnetic domain

Макрооптическая однородная область в магнитных образцах, отделенная от соседних областей тонким переходным слоем. Совокупность магнитного домена в образце называется доменной структурой.

Magnit namunalardagi, qo'shni sohalardan yupqa o'tuvchi qatlam bilan ajratilgan makrooptik bir jinsli soha. Magnit domenlarning namunadagi yig'indisi domenli struktura deyiladi.

Магнит намуналардаги, қўшни соҳалардан юпқа ўтувчи қатлам билан ажратилган макрооптик бир жинсли соҳа. Магнит доменларнинг намунадаги йигиндиси доменли структура дейилади.

### **Магнитный лист**

**uz** - magnit varaq

магнит варақ

**en** - magnetic sheet

Носитель магнитной записи, имеющий форму прямоугольного листа.

To'g'ri burchakli varaq shaklidagi magnit yozuvni tashuvchi.

## М

Тўғри бурчакли варақ шаклидаги магнит ёзувни ташувчи.

### **Магнитный пеленг**

**uz** - magnit peleng

магнит пеленг

**en** - magnetic bearing

Пеленг, отсчитываемый от магнитного меридиана.

Magnit meridiandan hisoblanadigan peleng.

Магнит меридиандан ҳисобланадиган пеленг.

### **Магнитный регистратор телеметрической информации**

**uz** - magnit telemetrik

axborot registratori

магнит телеметрик

ахборот регистратори

**en** - tape recorder

Регистратор телеметрической информации, осуществляющий запись телеметрических сообщений на магнитный носитель.

Telemetrik xabarlarining magnit tashuvchiga yozilishini amalga oshiradigan telemetrik axborot registratori.

Телеметрик хабарларнинг магнит ташувчига ёзилишини амалга оширадиган телеметрик ахборот регистратори.

### **Магнитный резонанс**

**uz** - magnit rezonans

магнит резонанс

**en** - magnetic resonance

Избирательное поглощение веществом электромагнитного излучения определенной частоты, обусловленное изменением ориентации магнитных моментов частиц вещества (электронов, атомных ядер) во внешнем магнитном поле.

Moddaning muayyan chastotadagi elektromagnit nurlanishni tanlab yutishi. Tashqi magnit maydonda modda zarralari (elektronlari, atom yadrolari) magnit momentlari yoʻnalishining oʻzgarishi bilan bogʻliq.

Модданинг муайян частотадаги электромагнит нурланишни танлаб ютиши. Ташқи магнит майдонда модда зарралари (электронлари, атом ядролари) магнит моментлари йўналишининг ўзгариши билан боғлиқ.

### **Магнитный рекордер**

**uz** - magnit rekorder

магнит рекордер

**en** - magnetic cutter head

Рекордер, работа которого основана на взаимодействии постоянного магнитного поля с магнитным полем записываемых сигналов.

## М

Ishlashi, doimiy magnit maydonning yoziladigan signallarning magnit maydoni bilan o‘zaro ta’siriga asoslangan rekorder.

Ишлаши, доимий магнит майдоннинг ёзиладиган сигналларнинг магнит майдони билан ўзаро таъсирига асосланган рекордер.

### **Магнитоионное расщепление**

**uz** - magnit-ion parchalanish

магнит-ион парчаланиш

**en** - magneto-double refraction

Расщепление в ионосфере радиоволны на две различные волны под воздействием магнитного поля Земли.

Radioto‘lqinning ionosferada Yerning magnit maydoni ta’sirida ikki turli to‘lqinga ajralishi.

Радиотўлқиннинг ионосферада Ернинг магнит майдони таъсирида икки турли тўлқинга ажралиши.

### **Магнитола**

**uz** - magnitola

магнитола

**en** - radiorecorder

Конструктивное объединение бытового магнитофона и радиоприемника.

Maishiy magnitofon va radioqabulqilgichning konstruktiv birikmasi.

Маиший магнитофон ва радиоқабулқилгичнинг конструктив бирикмаси.

### **Магнитомодуляционная головка**

**uz** - magnitomodulyatsion

kallak

магнитомодуляцион

каллак

**en** - magnetic-modulation head

Потокочувствительная магнитная головка, действие которой основано на периодическом изменении магнитного сопротивления сердечника или рабочего зазора, либо дополнительного зазора магнитной головки или на использовании принципа магнитного усиления.

Ishlashi o‘zak magnit qarshiligining yoki ishchi tirqishning yoki magnit kallak qo‘shimcha tirqishining davriy o‘zgarishiga yoki magnit kuchaytirish prinsipidan foydalanishga asoslangan, oqim sezuvchan magnit kallak.

Ишлаши ўзак магнит қаршилигининг ёки ишчи тирқишнинг ёки магнит каллак қўшим-

## М

ча тирқишининг даврий ўзгаришига ёки магнит кучайтириш принциpidан фойдаланишга асосланган, оқим сезувчан магнит каллак.

### **Магнитооптика**

**uz** - magnitooptika  
магнитооптика  
**en** - magnetooptics

Раздел физики, в котором изучается влияние магнитного поля на оптические свойства среды (магнитооптические эффекты) и взаимодействие света с веществом, помещенным в магнитное поле.

Fizikaning, magnit maydonning muhit optik xossalariга ta'sirini (magnitooptik effekt) va nurning magnit maydonga joylashtirilgan modda bilan o'zaro ta'sirini o'rganadigan bo'limi.

Физиканинг, магнит майдоннинг муҳит оптик хоссаларига таъсирини (магнитооптик эффект) ва нурнинг магнит майдонга жойлаштирилган модда билан ўзаро таъсирини ўрганадиган бўлими.

### **Магнитооптический дефлектор**

**uz** - magnitooptik deflektor  
магнитооптик дефлектор  
**en** - magnet optical deflector

Оптический дефлектор, действие которого основано на использовании магнитооптического эффекта.

Ishlashi magnitooptik effektdan foydalanishga asoslangan optik deflektor.

Ишлаши магнитооптик эффектдан фойдаланишга асосланган оптик дефлектор.

### **Магнитооптический модулятор**

**uz** - magnitooptik modulyator  
магнитооптик модулятор  
**en** - magnet optical modulator

Оптический модулятор, действие которого основано на использовании магнитооптического эффекта.

Ishlashi magnitooptik effektdan foydalanishga asoslangan optik modulyator.

Ишлаши магнитооптик эффектдан фойдаланишга асосланган оптик модулятор.

### **Магнитооптический эффект**

**uz** - magnitooptik effekt  
магнитооптик эффект  
**en** - magnet optical effect

Изменение некоторых оптических параметров вещества под действием магнитного поля.

Modda ba'zi bir optik parametrlarining magnit maydon ta'sirida o'zgarishi.



## М

### **Магниторадиола**

**uz** - magnitoradiola

магниторадиола

**en** - magneto radio

Модда баъзи бир оптик параметрларининг магнит майдон таъсирида ўзгариши.

Конструктивное объединение бытового магнитофона с радиолой.

Maishiy magnitofonning radiola bilan konstruktiv birikmasi.

Маиший магнитофоннинг радиола билан конструктив бирикмаси.

### **Магниторезистивная головка**

**uz** - magnitorezistiv kallak

магниторезистив каллак

**en** - magnetoresistive head

Потокочувствительная магнитная головка, действие которой основано на изменении электрического сопротивления материала в магнитном поле.

Ishlashi magnit maydonda material elektr qarshiligining o'zgarishiga asoslangan, oqim sezuvchan magnit kallak.

Ишлаши магнит майдонда материал электр қаршилигининг ўзгаришига асосланган, оқим сезувчан магнит каллак.

### **Магниторезистивный эффект**

**uz** - magnitorezistiv effekt

магниторезистив эффект

**en** - magnetoresistance

Изменение электрического сопротивления проводников под действием внешнего магнитного поля.

O'tkazgichlar elektr qarshiligining tashqi magnit maydon ta'sirida o'zgarishi.

Ўтказгичлар электр қаршилигининг ташқи магнит майдон таъсирида ўзгариши.

### **Магниторезистор**

**uz** - magnitorezistor

магниторезистор

**en** - magnetoresistor

Полупроводниковый переменный резистор, сопротивление которого изменяется под действием внешнего поперечного магнитного поля.

Qarshiligi tashqi ko'ndalang magnit maydon ta'sirida o'zgaradigan yarimo'tkazgichli o'zgaruvchan rezistor.

## М

Қаршилиги ташқи кўндаланг магнит майдон таъсирида ўзгарадиган яримўтказгичли ўзгарувчан резистор.

### **Магнитострикция**

**uz** - magnostriksiya

магнитострикция

**en** - magnetostriction

Изменение размеров и формы кристаллического тела при его намагничивании.

Jism magnitlanganda, o'Ichamlari va shaklining o'zgarishi.

Жисм магнитланганда ўлчамлари ва шаклининг ўзгариши.

### **Магнитофон**

**uz** - magnitofon

магнитофон

**en** - tape recorder

Устройство, предназначенное для магнитной звукозаписи и/или воспроизведения сигналов магнитной фонограммы.

Magnit ovoz yozish va/yoki magnit fonogramma signallarini qayta tiklash uchun mo'ljallangan qurilma.

Магнит овоз ёзиш ва/ёки магнит фонограмма сигналларини қайта тиклаш учун мўлжалланган қурилма.

### **Магнитофонная панель**

**uz** - magnitofon paneli

магнитофон панели

**en** - tape deck

Бытовой магнитофон без оконечного усилителя и электроакустической системы для прослушивания, являющийся комплектующим изделием и предназначенный для встраивания в бытовую радиоэлектронную аппаратуру.

Oxirgi kuchaytirgichi va eshitish uchun elektroakustik tizimi bo'lmagan, butlovchi buyum hisoblanadigan va maishiy radioelektron apparatga o'rnatish uchun mo'ljallangan maishiy magnitofon.

Охирги кучайтиргичи ва эшитиш учун электроакустик тизими бўлмаган, бутловчи буюм ҳисобланадиган ва маиший радиоэлектрон аппаратга ўрнатиш учун мўлжалланган маиший магнитофон.

## М

**Магнитофон-приставка**  
**uz** - magnitofon-pristavka  
магнитофон-приставка  
**en** - tape-recorder-  
attachment

Бытовой магнитофон без оконечного усилителя и электроакустической системы для прослушивания, используемый совместно с другой бытовой радиоэлектронной аппаратурой.

Oxirgi kuchaytirgichi va eshitish uchun elektroakustik tizimi bo'lmagan, boshqa maishiy radioelektron apparatura bilan birgalikda foydalaniladigan maishiy magnitofon.

Охирги кучайтиргичи ва эшитиш учун электроакустик тизими бўлмаган, бошқа маиший радиоэлектрон аппаратура билан биргаликда фойдаланиладиган маиший магнитофон.

**Магнитофон-проигрыватель**  
**uz** - magnitofon-proigrivatel  
магнитофон-  
проигрыватель  
**en** - tape-recorder-player

Бытовой магнитофон, предназначенный для воспроизведения сигналов звуковой частоты.

Tovush chastotasi signallarini qayta tiklash uchun mo'ljallangan maishiy magnitofon.

Товуш частотаси сигналларини қайта тиклаш учун мўлжалланган маиший магнитофон.

**Магниточувствительные полупроводниковые приборы**  
**uz** - magnitsezgir yarimo'tkazgichli asboblari  
магнитсезгир ярим-  
ўтказгичли асбоблар  
**en** - magnetic sensible  
semiconductors

Полупроводниковые приборы, основанные на использовании гальваномагнитных явлений. В магниточувствительных полупроводниковых приборах под действием магнитного поля либо возникает разность потенциалов (Холла эффект), либо изменяется электрическое сопротивление.

Galvanomagnet hodisalaridan foydalanishga asoslangan yarimo'tkazgichli asboblari. Bunday asboblarda magnet maydon ta'sirida potentsiallar farqi yuzaga keladi (Xoll effekti) yoki elektr qarshilik o'zgaradi.

Гальваномагнит ҳодисалардан фойдаланишга асосланган яримўтказгичли асбоблар. Бундай асбобларда магнит майдон таъсирида потенциаллар фарқи юзага келади (Холл эффекти) ёки электр қаршилиқ ўзгаради.

## М

### **Магнитоэлектрофон**

**uz** - magnitoelektrofon

магнитоэлектрофон

**en** - magnet electrophone

Бытовой радиоэлектронный аппарат, конструктивно объединяющий магнитофонную приставку, электропроигрыватель и полный усилитель.

Konstruktiv jihatdan magnitofon-pristavka, elektroproigrivatel va to'liq kuchaytirgichni birlash-tiradigan maishiy radioelektron apparat.

Конструктив жихатдан магнитофон-приставка, электропроигрыватель ва тўлиқ кучайтиргични бирлаштирадиган маиший радиоэлектрон аппарат.

### **Мазер**

**uz** - mazer

мазер

**en** - maser

Любой прибор сверхвысокой частоты, в котором используется вынужденное излучение атомов или молекул. К мазерам относятся квантовый парамагнитный усилитель, молекулярный генератор и другие активные квантовые стандарты частоты.

Atom va molekulalarning majburiy nurlanishidan foydalaniladigan har qanday o'ta yuqori chastota asbobi. Ularga kvant paramagnit kuchaytirgich, molekulyar generator va boshqa aktiv kvant chastota standartlari kiradi.

Атом ва молекулаларнинг мажбурий нурланишидан фойдаланиладиган ҳар қандай ўта юқори частота асбоби. Уларга квант парамагнит кучайтиргич, молекуляр генератор ва бошқа актив квант частота стандартлари кирди.

### **Макромодель радио-электронной схемы**

**uz** - radioelektron sxemaning makromodeli

радиоэлектрон схеманинг

макромодели

**en** - magromodel

Математическая модель радиоэлектронной схемы, более простая с точки зрения объема вычислений и затрат машинной памяти при ее реализации, чем полная математическая модель.

Radioelektron sxemaning, amalga oshirishda hisoblashlar va mashina хотираси sarflari hajmi nuqtai nazaridan qaraganda, to'liq matematik

## М

modelga nisbatan birmuncha sodda matematik modeli.

Радиоэлектрон схеманинг, амалга оширишда хисоблашлар ва машина хотираси сарфлари ҳажми нуқтаи назаридан қараганда, тўлиқ математик моделга нисбатан бирмунча содда математик модели.

### **Максимальная мощность импульса лазерного излучения**

**uz** - lazer nurlanish impulsining maksimal quvvati

лазер нурланиш импульс-  
сининг максимал қуввати  
**en** - maximum power of the  
laser radiation pulse

Максимальное значение мощности лазерного излучения за время генерирования импульса.

Lazer nurlanish quvvatining, impulsni generatsiyalash vaqti mobaynidagi maksimal qiymati.

Лазер нурланиш қувватининг, импульсни генерациялаш вақти мобайнидаги максимал қиймати.

### **Максимальная рассеиваемая мощность затвора**

**uz** - zatvorning maksimal sochiladigan quvvati

затворнинг максимал  
сочиладиган қуввати  
**en** - peak gate power dissipation

Максимально допустимая мощность, рассеиваемая в цепи управления или превышение которой приводит к выходу прибора из строя.

Boshqarish zanjirida sochiladigan, yoki oshib ketishi asbobning ishdan chiqishiga olib keladigan maksimal yo‘l qo‘yiladigan quvvat.

Бошқариш занжирида сочиладиган, ёки ошиб кетиши асбобнинг ишдан чиқишига олиб келадиган максимал йўл қўйиладиган қувват.

### **Максимальная рассеиваемая мощность полупроводниково-вого прибора**

**uz** - yarimo‘tkazgichli asbobning maksimal sochiladigan quvvati

яримўтказгичли асбоб-  
нинг максимал сочиладиган  
қуввати  
**en** - total power dissipation

Максимально допустимое значение постоянной рассеиваемой мощности при расчетных тепловых условиях, определяемое как отношение приращения температуры к тепловому сопротивлению.

Hisoblangan issiqlik sharoitida doimiy sochiladigan quvvatning, temperaturaning issiqlik qarshilikka ortirmasining nisbati sifatida belgilanadigan maksimal yo‘l qo‘yiladigan qiymati.

## М

Ҳисобланган иссиқлик шароитида доимий сочиладиган қувватнинг, температуранинг иссиқлик қаршилиққа орттирмасининг нисбати сифатида белгиланадиган максимал йўл қўйиладиган қиймати.

### **Максимальная температура р-п перехода**

**uz** - *p-n-o'tishning maksimal temperaturasi*

*p-n-ўтишнинг максимал температураси*

**en** - *maximum temperature of the p-n- junction*

Верхняя предельно допустимая рабочая температура перехода, устанавливаемая из соотношений требуемого уровня характеристик надежности.

*Ishonchlilik xarakteristikalarining talab qilinadigan darajasi nuqtai nazaridan kelib chiqib o'rnatiladigan, o'tishning yuqori eng ko'p darajada yo'l qo'yiladigan ishchi temperaturasi.*

Ишончлилиқ харақтеристикаларининг талаб қилинадиган даражаси нуқтаи назаридан келиб чиқиб ўрнатиладиган, ўтишнинг юқори энг кўп даражада йўл қўйиладиган ишчи температураси.

### **Максимальная энергия лавинного пробоя**

**uz** - *ko'chkili teshilishning maksimal energiyasi*

*кўчкили тешилишнинг максимал энергияси*

**en** - *maximum avalanche energy*

Допустимое значение энергии, рассеиваемой транзистором при коммутации индуктивной нагрузки без внешнего ограничения напряжения сток-исток или коллектор-эмиттер.

*Kollektor-emitter yoki kirish-chiqish kuchlanishini tashqi cheklamasdan induktiv nagruzkani kommutatsiyalash paytida tranzistor sohadigan energiyaning yo'l qo'yiladigan qiymati.*

Коллектор-эмиттер ёки кириш-чиқиш кучланишни ташқи чекламасдан индуктив нагрукани коммутациялаш пайтида транзистор сочадиган энергиянинг йўл қўйиладиган қиймати.

### **Максимально допустимая рассеиваемая мощность**

**uz** - *maksimal yo'l qo'yiladigan sochiluvchi quvvat*

*максимал йўл қўйиладиган сочилувчи қувват*

**en** - *power dissipation*

Максимальная постоянная мощность, которая может быть рассеяна полупроводниковым прибором при максимальной температуре перехода (канала) и нормированной температуре корпуса (обычно 25 °С) с гарантируемыми параметрами надежности.

## М

Kafolatlangan ishonchlilik parametrlari bilan, o'tish (kanal) temperaturasi maksimal va korpusning temperaturasi normalangan (odatda, 25 °C) sharoitda yarimo'tkazgichli asbob sochishi mumkin bo'lgan maksimal doimiy quvvat.

Кафолатланган ишончилилик параметрлари билан, ўтиш (канал) температураси максимал ва корпуснинг температураси нормаланган (одатда, 25 °C) шароитда яримўтказгичли асбоб сочиши мумкин бўлган максимал доимий қувват.

### **Максимально допустимый импульсный ток коллектора**

**uz** - kollektorning maksimal yo'l qo'yiladigan impulsli toki

коллекторнинг максимал

йўл қўйиладиган импульсли токи

**en** - maximum pulse collector current

Предельная амплитуда импульсов тока коллектора заданной длительности и частоты следования, при которой температура p-n перехода не превышает допустимую.

Berilgan davomiylik va o'tish chastotasidagi kollektor toki impulslarining eng yuqori amplitudasi bunda p-n-o'tish temperaturasi yo'l qo'yiladigandan oshib ketmaydi.

Берилган давомийлик ва ўтиш частотасидаги коллектор токи импульсларининг энг юқори амплитудаси бунда p-n ўтиш температураси йўл қўйиладигандан ошиб кетмайди.

### **Максимально допустимый ток коллектора**

**uz** - kollektorning maksimal yo'l qo'yiladigan toki

коллекторнинг максимал

йўл қўйиладиган токи

**en** - maximum collector current

Максимально допустимый постоянный ток коллектора при нормированных температурах перехода и корпуса.

O'tish va korpus temperaturalari normalangan sharoitda, kollektorning maksimal yo'l qo'yiladigan o'zgaras toki.

Ўтиш ва корпус температуралари нормаланган шароитда, коллекторнинг максимал йўл қўйиладиган ўзгармас токи.

### **Максимально допустимый ток переключения при индуктивной нагрузке**

**uz** - induktiv nagruzkada

Максимальное значение тока, который может быть выключен транзистором при индуктивной нагрузке. Определяется конструктивно-технологическим исполнением и граничными

## М

maksimal yo‘l qo‘yiladigan almashlab ulash toki

индуктив нагрукзада максимал йўл кўйиладиган алмашлаб улаш токи

**en** - peak switching current

значениями других электрических параметров.

Induktiv nagruzkada tranzistor uzib qo‘yadigan tokning maksimal qiymati. Konstruktiv-texnologik bajarilish va boshqa elektr parametrlarning qo‘shni qiymatlari bilan belgilanadi.

Индуктив нагрукзада транзистор узиб кўядиган токнинг максимал қиймати. Конструктив-технологик бажарилиш ва бошқа электр параметрларнинг қўшни қийматлари билан белгиланади.

**Максимальное запирающее напряжение управления**

**uz** - boshqarishning maksimal berkituvchi kuchlanishi

бошқаришнинг максимал беркитувчи кучланиши

**en** - peak reverse voltage

Максимальное значение повторяющегося напряжения на управляющем переходе запираемого тиристора, превышение которого приводит к лавинному пробое управляющего перехода.

Berkartiladigan tiristorning boshqaruvchi o‘tishidagi takrorlanuvchi kuchlanishning, oshib ketishi boshqaruvchi o‘tishning ko‘chkili teshilishiga olib keladigan maksimal qiymati.

Беркитиладиган тиристорнинг бошқарувчи ўтишидаги такрорланувчи кучланишнинг, ошиб кетиши бошқарувчи ўтишнинг кўчкили тешилишига олиб келадиган максимал қиймати.

**Максимальное рабочее напряжение электронно-оптического преобразователя**

**uz** - elektron-optik o‘zgartirgichning maksimal ishchi kuchlanishi

электрон-оптик ўзгартиргичнинг максимал ишчи кучланиши

**en** - maximum supply voltage

Наибольшее напряжение, при котором электронно-оптический преобразователь в течение заданного интервала времени сохраняет заданные для этого напряжения параметры.

Elektron-optik o‘zgartirgich berilgan vaqt intervali mobaynida ushbu kuchlanish uchun berilgan parametrlarni saqlaydigan eng katta kuchlanish.

Электрон-оптик ўзгартиргич берилган вақт интервали мобайнида ушбу кучланиш учун берилган параметрларни сақлайдиган энг катта кучланиш.



## М

### **Максимальный уровень записи сигнала**

**uz** - signalni yozishning maksimal darajasi

сигнални ёзишнинг максимал даражаси

**en** - maximum level of signal writing

Нормированное максимально допустимое значение уровня записи сигнала.

Signalni yozish darajasining normalangan maksimal yo‘l qo‘yiladigan qiymati.

Сигнални ёзиш даражасининг нормаланган максимал йўл қўйиладиган қиймати.

### **Малая интегральная микросхема**

**uz** - kichik integral mikrosxema

кичик интеграл микросхема

**en** - little integrated microcircuiting

Интегральная микросхема, содержащая до 100 элементов и/или компонентов включительно.

100 ta gacha element va/yoki komponentni o‘z ichiga oladigan integral mikrosxema.

100 та гача элемент ва/ёки компонентни ўз ичига оладиган интеграл микросхема.

### **Малозумящая криоэлектронная система**

#### **сверхвысокой частоты**

**uz** - kam shovqinli o‘ta yuqori chastota krioelektron tizimi

кам шовқинли ўта юқори частота криоэлектрон тизими

**en** - low-noise ultra high frequency cryoelectronic system

Криоэлектронная система с температурой шума от 40 до 150 К.

Shovqin temperaturasi 40 K dan 150 K gacha bo‘lgan krioelektron tizim.

Шовқин температураси 40 К дан 150 К гача бўлган криоэлектрон тизим.

### **Малозумящий прибор сверхвысокой частоты**

**uz** - kam shovqinli o‘ta yuqori chastota asbobi

кам шовқинли ўта юқори частота асбоби

**en** - ultra high frequency low-noise tube

Прибор сверхвысокой частоты, коэффициент шума которого менее 7 дВ.

Shovqin koeffitsiyenti 7 dB dan kam bo‘lgan o‘ta yuqori chastota asbobi.

Шовқин коэффиценти 7 дВ дан кам бўлган ўта юқори частота асбоби.

### **Манипуляционная запись**

**uz** - manipulyatsion yozish

манипуляцион ёзиш

**en** - handling record

Цифровая запись, при которой записываемая информация, представленная в цифровой форме, манипулирует в канале записи одним или несколькими параметрами вспомогательного колебания.

## М

Raqamli shaklda taqdim etilgan yoziladigan axborot, yozish kanalida yordamchi tebranişning bitta yoki bir nechta parametri bilan manipulyatsiya qiladigan raqamli yozish.

Рақамли шаклда тақдим этилган ёзиладиган ахборот, ёзиш каналида ёрдамчи тебранишнинг битта ёки бир нечта параметри билан манипуляция қиладиган рақамли ёзиш.

### **Маркер группы зон записи**

**uz** - yozish zonalari guruhi markeri

ёзиш зоналари гуруҳи маркери

**en** - marker group of the record zones

Магнитный маркер, используемый для логического определения начала или конца группы зон записи.

Yozish zonalari guruhi boshlanish va tugash joyini mantiqiy aniqlash uchun foydalaniladigan magnit marker.

Ёзиш зоналари гуруҳи бошланиш ва тугаш жойини мантиқий аниқлаш учун фойдаланиладиган магнит маркер.

### **Маркер начала (конца) магнитной ленты**

**uz** - magnit tasmaning boshlanish (tugash) joyi markeri

магнит тасманинг бошланиш (туғаш) жойи маркери

**en** - marker begin (end) of the magtape

Маркер, расположенный на нормированном расстоянии от начала (конца) магнитной ленты.

Magnit tasmaning boshlanish (tugash) joyidan ma'lum masofada joylashgan marker.

Магнит тасманинг бошланиш (туғаш) жойидан маълум масофада жойлашган маркер.

### **Маркер сигналограммы (носителя записи)**

**uz** - signalogramma (yozuv tashuvchi) markeri

сигналограмма (ёзув ташувчи) маркери

**en** - signal marker (carrier record)

Специальная отметка на сигналограмме (носителе записи), используемая для автоматического управления устройством записи или устройством воспроизведения, устройством записи-воспроизведения либо для условных обозначений.

Signalogramma (yozuv tashuvchi)dagi yozish qurilmasini yoki qayta tiklash qurilmasini, yozish-qayta tiklash qurilmasini avtomatik boshqarish yoki shartli belgilar uchun foydalaniladigan maxsus belgi.

## М

Сигналограмма (ёзув ташувчи)даги ёзиш қурилмасини ёки қайта тиклаш қурилмасини, ёзиш-қайта тиклаш қурилмасини автоматик бошқариш ёки шартли белгилар учун фойдаланиладиган махсус белги.

### **Масштабирующий электрод электронно-оптического преобразователя**

**uz** - elektron-optik o'zgartirgichning kengaytiradigan elektrodi

электрон-оптик ўзгартиргичнинг кенгайтирадиган электроди

**en** - scaling electrode

Электрод электронно-оптического преобразователя, предназначенный для создания электрического поля, изменяющего электронно-оптическое увеличение.

Elektron-optik o'zgartirgichning, elektron-optik kattalashtirishni o'zgartiradigan elektr maydonni vujudga keltirish uchun mo'ljallangan elektrodi.

Электрон-оптик ўзгартиргичнинг, электрон-оптик катталаштиришни ўзгартирадиган электр майдонни вужудга келтириш учун мўлжалланган электроди.

### **Математическая модель радиоэлектронной схемы (компонента радиоэлектронной схемы)**

**uz** - radioelektron sxemaning (radioelektron sxema komponentining) matematik modeli

радиоэлектрон схеманинг (радиоэлектрон схема компонентининг) математик модели

**en** - mathematical model of circuit (of component)

Система математических выражений, описывающая электрические процессы в радиоэлектронной схеме (в компоненте радиоэлектронной схемы).

Radioelektron sxemada (radioelektron sxema komponentida) elektr jarayonlarini tavsiflaydigan matematik ifodalar tizimi.

Радиоэлектрон схемада (радиоэлектрон схема компонентида) электр жараёнларини тавсифлайдиган математик ифодалар тизими.

### **Матрица оптоэлектронных полупроводниковых приборов**

**uz** - optoelektron yarimo'tkazgichli asboblarning matritsasi

оптоэлектрон яримўтказгичли асбоблар матрицаси

**en** - matrix of optical electronic semiconductor device

Совокупность оптоэлектронных полупроводниковых приборов, сгруппированных по строкам и столбцам.

Satrlar va ustunlar bo'yicha guruhlashtirilgan optoelektron yarimo'tkazgichli asboblarning jami.

Сатрлар ва устунлар бўйича гурухлаштирилган оптоэлектрон яримўтказгичли асбоблар жами.

## М

### **Матричный преобразователь**

**uz** - matritsali o'zgartirgich  
матрицали ўзгартиргич  
**en** - matrix converter

Преобразователь, схема которого представляет собой матрицу из электронных ключей, позволяющих коммутировать нагрузку (нагрузки) и источник (источники) питания в произвольной последовательности.

Sxemasi, nagruzka(lar) va ta'minot manbaini (manbalarini) ixtiyoriy ketma-ketlikda kommutatsiyalash imkonini beradigan elektron kalitlardan tuzilgan matritsani o'zida ifodalaydigan o'zgartirgich.

Схемаси, нагрузка(лар) ва таъминот манбаини (манбаларини) ихтиёрий кетма-кетликда коммутациялаш имконини берадиган электрон калитлардан тузилган матрицани ўзида ифодаляйдиган ўзгартиргич.

### **Межсистемная радиопомеха**

**uz** - tizimlararo radioxalaqit  
tizimlارaro  
радиохлақит  
**en** - intersystem interference

Непреднамеренная радиопомеха, возникающая между радиоэлектронными средствами разных радиосистем.

Turli radiotizimlarning radioelektron vositalari o'rtasida vujudga keladigan ataylab qilinmagan radioxalaqit.

Турли радиотизимларнинг радиоэлектрон воситалари ўртасида вужудга келадиган атайлаб қилинмаган радиохлақит.

### **Мейснера эффект**

**uz** - Meysner effekti  
Мейснер эффекти  
**en** - Maysner effect

Полное вытеснение магнитного поля из металлического проводника, когда последний становится сверхпроводящим (при понижении температуры и напряженности магнитного поля ниже критического значения  $H_{kr}$ ). При мейснера эффекте внешнее магнитное поле оказывается заэкранированным полем токов, возникающих в тонком поверхностном слое сверхпроводника.

Metall o'tkazgich o'ta o'tkazuvchan bo'lgan holatda (temperatura va magnit maydon kuchlanligi  $H_{kr}$  kritik qiymatdan past bo'lganda) undan magnit maydonning to'liq siqib chiqarilishi.

## М

Meysner effektida tashqi magnit maydon o'ta o'tkazgichning yuqqa yuza qatlamida vujudga keladigan tok maydoni bilan ekranlangan bo'ladi.

Металл ўтказгич ўта ўтказувчан бўлган ҳолатда (температура ва магнит майдон кучланганлиги  $H_{кр}$  критик қийматдан паст бўлганда) ундан магнит майдоннинг тўлиқ сиқиб чиқарилиши. Мейснер эффектида ташқи магнит майдон ўта ўтказгичнинг юққа юза қатламида вужудга келадиган ток майдони билан экранланган бўлади.

### **Местный гетеродин приемника**

**uz** - qabulqilgichning mahalliy geterodini

қабулқилгичнинг маҳаллий гетеродини  
**en** - local oscillator

Генератор дополнительных колебаний, служащих для частотного преобразования при супергетеродинном приеме.

Supergeterodin qabulda chastotaviy o'zgartirish uchun xizmat qiladigan qo'shimcha tebranishlar generatori.

Супергетеродин қабулда частотавий ўзгариш учун хизмат қиладиган қўшимча тебранишлар генератори.

### **Металлизированный носитель магнитной записи**

**uz** - metallashtirilgan magnit yozuvni tashuvchi

металлаштирилган магнит ёзувни ташувчи  
**en** - metallic carrier of magnetic record

Носитель магнитной записи с пластмассовой основой и металлическим рабочим слоем.

Plastmassa asosli va metall ishchi qatlamli magnit yozuvni tashuvchi.

Пластмасса асосли ва металл ишчи қатламли магнит ёзувни ташувчи.

### **Металлическая лампа**

**uz** - metall lampa

металл лампа  
**en** - metal tube

Электронная лампа с металлической вакуумно-плотной оболочкой

Metall vakuum zich qobiqli elektron lampa.

Металл вакуум зич қобикли электрон лампа.

### **Металлический носитель магнитной записи**

**uz** - metall magnit yozuvni tashuvchi

Носитель магнитной записи, изготовленный целиком из металла.

## М

металл магнит ёзувни  
ташувчи  
**en** - metallic carrier by thread  
record

### **Металлокерамическая лампа**

**uz** - metall-keramik lampa  
металл-керамик лампа  
**en** - stacked-ceramic tube

### **Металл-оксид- полупроводник-структура**

**uz** - metall-oksid-  
yarimo'tkazgich struktura  
металл-оксид-  
яримўтказгич структура  
**en** - metal-oxide-semiconductor  
structure

### **Металл-оксид- полупроводниковые- управляемые приборы**

**uz** - metall-oksid-yarimo'tkaz-  
gichli boshqariladigan asboblari  
металл-оксид-ярим-  
ўтказгичли бошқариладиган  
асбоблар  
**en** - metal-oxide-  
semiconductor- devices

Butunlay metaldan tayyorlangan magnit yozuvni  
tashuvchi.

Бутунлай металдан тайёрланган магнит ёзув-  
ни ташувчи.

Электронная лампа, вакуумно-плотная обо-  
лочка которой выполнена из керамики, а  
электродные выводы, имеющие вид дисков,  
из металлов с близким к керамике коэффици-  
ентом теплового расширения.

Vakuum zich qobig'i keramikadan, disk shakli-  
dagi elektron chiqish uchlari issiqlik kengayish  
koeffitsiyenti keramikaga yaqin bo'lgan metal-  
dan qilingan elektron lampasi.

Вакуум зич қобиғи керамикадан, диск шак-  
лидаги электрон чиқиш учлари иссиқлик кен-  
гайиш коэффиценти керамикага яқин бўлган  
металдан қилинган электрон лампа.

Упорядоченная совокупность тонких (менее  
1  $\mu\text{m}$ ) слоев металла и оксида, нанесенная на  
полупроводниковую пластину.

Yarimo'tkazgich plastinaga tushirilgan metall va  
oksid yuqqa (1  $\mu\text{m}$  dan kam) qatlamlarining  
tartiblashtirilgan yig'indisi.

Яримўтказгич пластинага туширилган металл  
ва оксид юққа (1  $\mu\text{m}$  дан кам) қатламла-  
рининг тартиблаштирилган йиғиндиси.

Полупроводниковые приборы (тиристоры,  
транзисторы), управляемые металл-оксид-  
полупроводниковой структурой.

Metall-oksid-yarimo'tkazgich struktura boshqa-  
radigan yarimo'tkazgichli asboblari (tiristorlar,  
tranzistorlar).

Металл-оксид-яримўтказгич структура бош-  
қарадиган яримўтказгичли асбоблар (тирис-  
торлар, транзисторлар).

## М

**Металлостеклянный электронно-оптический преобразователь**

**uz** - metall-shisha elektron-optik o'zgartirgich  
металл-шиша электрон-оптик ўзгартиргич

**en** - glass-metallic optical converter

**Метастабильный уровень**

**uz** - metastabil sath  
метастабил сатҳ

**en** - metastable state

**Метеорная радиосвязь**

**uz** - meteor radioaloqa  
метеор радиоалоқа

**en** - meteoric  
radiocommunication

**Механический монтаж сигналограммы**

**uz** - signalogrammani  
mexanik montaj qilish

сигналограммани  
механик монтаж қилиш  
**en** - mechanical installation  
waveform

**Механическое эхо**

**uz** - mexanik aks sado  
механик акс садо

**en** - grosstalk between grooves

Электронно-оптический преобразователь, оболочка которого изготовлена из металлических и стеклянных элементов.

Qobig'i metall va shisha elementlardan tayyorlangan elektron-optik o'zgartirgich.

Қобиғи металл ва шиша элементлардан тайёрланган электрон-оптик ўзгартиргич.

Возбужденный уровень энергии атома, молекулы или другой квантовой системы.

Atom, molekula yoki boshqa kvant tizim energiyasining qo'zg'algan sathi.

Атом, молекула ёки бошқа квант тизим энергиясининг кўзгалган сатҳи.

Радиосвязь, основанная на использовании отражения радиоволн от ионизированных следов метеоров.

Radioto'lqinlarning meteorlarning ionlashgan izidan qaytishidan foydalanishga asoslangan radioaloqa.

Радиотўлқинларнинг метеорларнинг ионлашган изидан қайтишидан фойдаланишга асосланган радиоалоқа.

Соединение в необходимом порядке отдельных частей сигналограммы или сигналограмм.

Signalogramma yoki signalogrammalarning alohida qismlarini zarur tartibda ulash.

Сигналограмма ёки сигналограммаларнинг алоҳида қисмларини зарур тартибда улаш.

Опережающее или запаздывающее эхо, обусловленное деформацией канавки записи от воздействия модуляции соседних канавок записи.

## М

Yozish ariqchasining, qo'shni yozish ariqchalari modulyatsiyalash ta'sirida deformatsiyalinishi bilan bog'liq, ilgarilovchi yoki kechikuvchi aks sado.

Ёзиш ариқчасининг, қўшни ёзиш ариқчаларини модуляциялаш таъсирида деформацияланиши билан боғлиқ, илгарилувчи ёки кечикувчи акс садо.

### **Механотрон**

**uz** - mexanotron

механотрон

**en** - mechanically controlled tube

Электронно-управляемая лампа, в которой управление потоком электронов и ионов осуществляется механическим перемещением одного или нескольких ее электродов относительно других.

Примечание – Механотрон служит для преобразования механических величин в электрические и применяется как преобразователь малых перемещений, усилий.

Elektronlar va ionlar oqimini boshqarish, lampaning bir yoki bir nechta elektrodini boshqalariga nisbatan mexanik siljitish orqali amalga oshiriladigan elektron-boshqariladigan lamp.

Izoh – Mexanotron mexanik kattaliklarni elektr kattaliklarga o'zgartirish uchun xizmat qiladi va kichik ko'chishlar, kuchlar o'zgartirgichi sifatida qo'llaniladi.

Электронлар ва ионлар оқимини бошқариш, лампанинг бир ёки бир нечта электродини бошқаларига нисбатан механик силжитиш орқали амалга ошириладиган электрон-бошқариладиган лампа.

Изоҳ – Механотрон механик катталикларни электр катталикларга ўзгартириш учун хизмат қилади ва кичик кўчишлар, кучлар ўзгартиргичи сифатида қўлланилади.

### **Мехатроника**

**uz** - mexatronika

мехатроника

**en** - mechatronics

Направление электромеханики, имеющее дело с исследованием, созданием и использованием электромеханических устройств, конструктивно и функционально объединяющих рабочий орган машины, электродвигатель, электронный преобразователь и управляющее устройство.



## М

Elektromexanikaning, konstruktiv va funksional jihatdan, boshqaruvchi qurilma hamda elektron o'zgartirgich, elektr dvigatel, mashina ishchi organini birlashtiradigan elektromexanik qurilmalarni tadqiq qilish, yaratish va ulardan foydalanish bilan ish ko'radigan yo'nalishi.

Электромеханиканинг, конструктив ва функционал жihatдан, бошқарувчи қурилма ҳамда электрон ўзгартиргич, электр двигател, машина ишчи органини бирлаштирадиган электромеханик қурилмаларни тадқиқ қилиш, яратиш ва улардан фойдаланиш билан иш кўрадиган йўналиши.

### **Мешающий радиосигнал**

**uz** - халақит берувчи radiosignal

халақит берувчи

радиосигнал

**en** - disturbing radiosignal

Станционная радиопомеха, обусловленная основными излучениями радиопередающих устройств, не являющихся корреспондентом рассматриваемого радиоприемного устройства

Qarab chiqiladigan radioqabulqiluvchi qurilmaning korrespondenti bo'lmagan radiouzatuvchi qurilmalarning asosiy nurlanishlari bilan bog'liq bo'lgan stansion radioxalaqit.

Қараб чиқиладиган радиоқабулқилувчи қурилманинг корреспонденти бўлмаган радиозатувчи қурилмаларнинг асосий нурланишлари билан боғлиқ бўлган станцион радиохалақит.

### **Микроволны**

**uz** - mikroto'lqinlar

микротўлқинлар

**en** - microwaves

Электромагнитные волны, слишком короткие, чтобы можно было применить волноводную технику, объемные резонаторы и так далее для их приема и передачи.

Qabul qilish va uzatish maqsadida to'lqin o'tkazgich texnikani, hajmli rezonatorlarni va sh.k. qo'llash mumkin bo'lishi uchun juda ham qisqa bo'lgan elektromagnit to'lqinlar.

**uz** - hisoblash dekatroni  
ҳисоблаш декатрони  
**en** - counting dekatron

Декатрон, предназначенный для счета импульсов, в котором отдельный вывод имеет только один катод.

Impulslarni hisoblash uchun mo'ljallangan, faqat bitta katod alohida chiqish uchiga ega bo'lgan dekatron.

Импульсларни ҳисоблаш учун мўлжалланган, фақат битта катод алоҳида чиқиш учига эга бўлган декатрон.

### **Счетный прибор тлеющего разряда**

**uz** - miltillama razryad  
hisoblash asbobi  
милтиллама разряд  
ҳисоблаш асбоби  
**en** - glow discharge  
counter device

Прибор тлеющего разряда, предназначенный для счета импульсов, имеющий множество разрядных промежутков, в котором разряд может перемещаться из одного разрядного промежутка в другой под действием управляющих сигналов.

Ko'plab razryad oraliqlariga ega bo'lgan, impulslarni hisoblash uchun mo'ljallangan, razryad boshqaruvchi signallar ta'sirida bir razryad oralig'idan boshqasiga ko'chadigan miltillama razryad asbobi.

Кўплаб разряд оралиқларига эга бўлган, импульсларни ҳисоблаш учун мўлжалланган, разряд бошқарувчи сигналлар таъсирида бир разряд оралиғидан бошқасига кўчадиган милтиллама разряд асбоби.

### **Считывание информации**

**uz** - axborotni o'qish  
ахборотни ўқиш  
**en** - information readout

В электронно-лучевом приборе процесс преобразования потенциального рельефа, записанного на поверхности мишени запоминающего электронно-лучевого прибора в электрический сигнал.

Elektron-nurli asbobda kechadigan, xotirlovchi elektron-nurli asbob nishoni yuzasida yozilgan



## С

potensial relyefni elektr signalga aylantirish jarayoni.

Электрон-нурли асбобда кечадиган, хотирловчи электрон-нурли асбоб нишони юзасида ёзилган потенциал рельефни электр сигналга айлантириш жараёни.

### **Считывающий электронный пучок**

**uz** - o'qiydigan elektron dasta  
ўқийдиган электрон даста  
**en** - reading beam

Электронный пучок, используемый для считывания накопленной информации.

To'plangan axborotni o'qish uchun foydalaniladigan elektron dasta.

Tўпланган ахборотни ўқиш учун фойдаланиладиган электрон даста.

## Т

### **Таблеточная конструкция полупроводникового прибора**

**uz** - yarimo'tkazgichli asbobning  
tabletka konstruksiyasi  
яримўтказгичли асбоб-  
нинг таблетка конструкцияси  
**en** - press pack case, hokey disk

Конструкция силового полупроводникового прибора, представляющая собой цилиндрический полый изолятор, в торцевых частях которого имеются два основания, между которыми располагается полупроводниковая структура. Основания корпуса служат как для электрического подключения прибора, так и для контакта корпуса с охладителем.

Kuch yarimo'tkazgichli asbobning, o'zida silindrik kovak izolyatorni ifodalaydigan konstruksiyasi. Bu izolyatorning qisqa yon tomonlari qismida ikkita asos bo'lib, ular orasida yarimo'tkazgichli struktura joylashadi. Korpus asosi ham asbobni elektr ulash, ham korpusni sovitgich bilan bog'lash uchun xizmat qiladi.

Куч яримўтказгичли асбобнинг, ўзида цилиндрик ковак изоляторни ифодалайдиган конструкцияси. Бу изоляторнинг қисқа ён томонлари қисмида иккита асос бўлиб, улар орасида яримўтказгичли структура жойлашади. Корпус асоси ҳам асбобни электр улаш, ҳам корпусни совитгич билан боғлаш учун хизмат қилади.

### **Таситрон**

Газоразрядный прибор, в котором управле-

## Т

**uz** - tasitron  
таситрон  
**en** - tacitron

ние моментами возникновения и гашения разряда осуществляется изменением напряжения сетки.

Razryadning paydo bo'lish va so'nish momentlari ustidan boshqaruv to'r kuchlanishini o'zgartirish orqali amalga oshiriladigan gaz-razryadli asbob.

Разряднинг пайдо бўлиш ва сўниш моментлари устидан бошқарув тўр кучланишини ўзгартириш орқали амалга ошириладиган газ-разрядли асбоб.

### **Твердотельная электроника**

**uz** - qattiq jism elektronikasi  
каттик жисм электроникаси  
**en** - solid-state electronics

Область электроники, охватывающая исследования электронных процессов в твердых телах и применение этих процессов для преобразования электромагнитной энергии в широком диапазоне частот.

Elektronikaning, elektron jarayonlarning qattiq jismlarda borishini o'rganadigan va bu jarayonlarning chastotalarning keng diapazonida elektromagnit energiyani o'zgartirishda qo'llanilishini qamrab oladigan bo'limi.

Электрониканинг, электрон жараёнларнинг каттик жисмларда боришини ўрганадиган ва бу жараёнларнинг частоталарнинг кенг диапазонида электромагнит энергияни ўзгартиришда қўлланилишини қамраб оладиган бўлими.

### **Твердотельный лазер**

**uz** - qattiq jisimli lazer  
каттик жисмли лазер  
**en** - firmly flesh lazer

Лазер с твердотельным активным элементом.

Qattiq jisimli aktiv elementdan iborat lazer.

Қаттик жисмли актив элементдан иборат лазер.

### **Твердотельный электронный микроохладитель**

**uz** - qattiq jisimli elektron mikrosovitch  
каттик жисмли электрон микросовитгич

Устройство охлаждения, в котором холодопроизводительность обеспечивается за счет электронных эффектов в твердом теле.

Sovitish unumdorligi qattiq jisimdagi elektron effektlar hisobiga ta'minlanadigan sovitish

## T

**en** - solid-state electronic microcooler

### **Твистрон**

**uz** - tvistron

твистрон

**en** - twystron

### **Телевидение**

**uz** - televideniye

телевидение

**en** - television

### **Телевизионная камера**

**uz** - televizion kamera

телевизион камера

**en** - television camera

qurilmasi.

Совитиш унумдорлиги қаттиқ жисмдаги электрон эффектлар ҳисобига таъминланадиган совитиш қурилмаси.

Лампа бегущей волны, в которой для повышения коэффициента полезного действия используется клистронный группирователь.

Foydali ish koeffitsiyentini oshirish uchun, klis-tronli guruhlagichdan foydalaniladigan yuguruv-chi to'liq lampasi.

Фойдали иш коэффициентини ошириш учун, клистронли гуруҳлагичдан фойдаланиладиган югурувчи тўлқин лампаси.

Электросвязь, обеспечивающая передачу сменяющегося изображения подвижных или неподвижных объектов, сопровождаемую или не сопровождаемую звуком.

Harakatlanadigan yoki harakatlanmaydigan obyektlar almashinib keladigan tasvirining tovush jo'rligida yoki tovush jo'rligisiz uzatilishi ta'minlanadigan elektr aloqa.

Харакатланадиган ёки ҳаракатланмайдиган объектлар алмашиниб келадиган тасвирининг товуш жўрлигида ёки товуш жўрлигисиз узатилиши таъминланадиган электр алоқа.

1 Телевизионный датчик, предназначенный для телевизионного анализа передаваемой сцены при помощи оптоэлектронного преобразования.

2 Устройство, состоящее из оптических и электронных элементов, предназначенное для телевизионной передачи натуральных объектов.

1 Optik-elektron o'zgartirish yordamida uzatila-yotgan tasvirni televizion tahlil qilish uchun mo'ljallangan televizion datchik.

## T

2 Optik va elektron elementlardan tuzilgan, tabiiy obyektlarni televizion uzatish uchun mo'ljallangan qurilma.

1 Оптик-электрон ўзгартириш ёрдамида узатилаётган тасвирни телевизион таҳлил қилиш учун мўлжалланган телевизион датчик.

2 Оптик ва электрон элементлардан тузилган, табиий объектларни телевизион узатиш учун мўлжалланган қурилма.

### **Телевизионный антенный усилитель**

**uz** - televizion antenna kuchaytirgichi

телевизион антенна кучайтиргичи

**en** - television antenna amplifier

Вспомогательное бытовое радиоэлектронное устройство, предназначенное для усиления радиосигналов вещательного телевидения, принятых антенной, с целью компенсации потерь, возникающих в соединительном антенном кабеле.

Antenna qabul qilgan eshittirish televideniyesi radiosignallarini bog'lovchi antenna kabelida yuzaga keladigan yo'qotishlarni kompensatsiyalash maqsadida kuchaytirish uchun mo'ljallangan, yordamchi maishiy radioelektron qurilma.

Антенна қабул қилган эшиттириш телевидениеси радиосигналларини боғловчи антенна кабелида юзага келадиган йўқотишларни компенсациялаш мақсадида кучайтириш учун мўлжалланган, ёрдамчи маиший радио-электрон қурилма.

### **Телевизионный видеосигнал**

**uz** - televizion videosignal

телевизион видеосигнал

**en** - video signal

Телевизионный сигнал в исходной полосе видеочастот.

Videochastotalarning boshlang'ich polosasidagi televizion signal.

Видеочастоталарнинг бошланғич полосасидаги телевизион сигнал.

### **Телевизионный датчик**

**uz** - televizion datchik

телевизион датчик

**en** - sensor

Устройство, вырабатывающее полный видеосигнал или полный цветовой видеосигнал, или сигналы основных цветов.

To'liq videosignal yoki to'liq rangli videosignal

## T

yoki asosiy ranglar signallarini hosil qiladigan qurilma.

Тўлиқ видеосигнал ёки тўлиқ рангли видео-сигнал ёки асосий ранглар сигналларини ҳосил қиладиган қурилма.

### **Телевизионный конвертер**

**uz** - television konverter

телевизион конвертер

**en** - television converter

Вспомогательное бытовое радиоэлектронное устройство, предназначенное для преобразования принимаемых радиосигналов вещательного телевидения в дециметровом и сантиметровом диапазоне в сигналы метрового диапазона.

Detsimetrli va santimetrli diapazonda qabul qilinadigan eshittirish televideniyesi radiosignallarini metrli diapazondagi signallarga aylantirish uchun mo'ljallangan, yordamchi maishiy radioelektron qurilma.

Дециметрли ва сантиметрли диапазонда қабул қилинадиган эшиттириш телевидение-си радиосигналларини метрли диапазондаги сигналларга айлантириш учун мўлжалланган, ёрдамчи маиший радиоэлектрон қурилма.

### **Телевизионный контрольный осциллоскоп**

**uz** - television nazorat

ossilloskopi

телевизион назорат

осциллоскопи

**en** - television control

oscilloscope

Осциллоскоп, служащий для контроля технического качества видеосигнала.

Videosignalning texnik sifatini nazorat qilish uchun mo'ljallangan ossilloskop.

Видеосигналнинг техник сифатини назорат қилиш учун мўлжалланган осциллоскоп.

### **Телевизионный приемник**

**uz** - television qabulqilgich

телевизион қабулқилгич

**en** - television receiver

1 Бытовой радиоэлектронный аппарат, предназначенный для приема и воспроизведения изображения и звука телевизионных программ.

2 Радиоприемник, воспроизводящий визуальные и звуковые элементы программы, передаваемой телевизионным передатчиком.

1 Television dasturlar tasviri va tovushini qabul qilish va qayta tiklash uchun mo'ljallangan, maishiy radioelektron apparat.

2 Television uzatkich uzatadigan dasturning vi-

## T

zual va tovush elementlarini tiklaydigan radioqabulqilgich.

1 Телевизион дастурлар тасвири ва товушини қабул қилиш ва қайта тиклаш учун мўлжалланган, маиший радиоэлектрон аппарат.

2 Телевизион узаткич узатадиган дастурнинг визуал ва товуш элементларини тиклайдиган радиоқабулқилгич.

### **Телевизионный сигнал**

**uz** - television signal

телевизион сигнал

**en** - television signal

Сигнал, несущий информацию о телевизионном изображении и связанную с ним информацию.

Television tasvir to'g'risidagi va u bilan bog'liq bo'lgan axborotni tashuvchi signal.

Телевизион тасвир тўғрисидаги ва у билан боғлиқ бўлган ахборотни ташувчи сигнал.

### **Телеграфный дискриминатор**

**uz** - telegraf diskriminatori

телеграф дискриминатори

**en** - two-tone detector

Дискриминатор, используемый в телеграфной связи и предназначенный для трансформации сигналов частотной телеграфной связи в сигналы высокочастотной телеграфной связи.

Telegraf aloqada foydalaniladigan va chastotali telegraf aloqa signallarini yuqori chastotali telegraf aloqa signallarga transformatsiyalash uchun mo'ljallangan diskriminator.

Телеграф алоқада фойдаланиладиган ва частотали телеграф алоқа сигналларини юқори частотали телеграф алоқа сигналларига трансформациялаш учун мўлжалланган дискриминатор.

### **Телекино**

**uz** - telekino

телекино

**en** - telecine equipment

Оборудование, позволяющее передачу по телевидению программы, предварительно записанной на киноленту.

Televideniye orqali oldindan kinotasmaga yozilgan dasturni uzatish imkonini beradigan uskuna.

Телевидение орқали олдиндан кинотасмага ёзилган дастурни узатиш имконини берадиган ускуна.

## Т

### **Телемагнитола**

**uz** - telemagnitola

телемагнитола

**en** - tele radio - recorder

Бытовой радиоэлектронный аппарат, конструктивно объединяющий телевизионный приемник, тюнер и магнитофон-приставку.

Konstruktiv jihatdan televizion qabulqilgich, tyuner va magnitofon-pristavkani birlashtiradigan maishiy radioelektron apparat.

Конструктив жихатдан телевизион қабулқилгич, тюнер ва магнитофон-приставкани бирлаштирадиган маиший радиоэлектрон аппарат.

### **Телеметрирование**

**uz** - telemetrlash

телеметрлаш

**en** - telemetering

Совокупность операций, включающих в себя формирование, передачу на расстояние и регистрацию телеметрических сообщений.

O‘z ichiga telemetrik xabarlarini shakllantirish, masofaga uzatish va qayd etishni oladigan operatsiyalar jami.

Ўз ичига телеметрик хабарларни шакллантириш, масофага узатиш ва қайд этишни оладиган операциялар жами.

### **Телеметрическая**

#### **линия связи**

**uz** - telemetrik aloqa liniyasi

телеметрик алоқа линияси

**en** - transmission link

Совокупность устройств, обеспечивающих формирование телеметрических сигналов, передачу их по каналу связи, прием и формирование оценок передаваемых сообщений.

Telemetrik xabarlarning shakllanishini, ularning aloqa kanali bo‘ylab uzatilishini, uzatiladigan xabarlarning qabul qilinishini va baholashlarning shakllanishini ta‘minlaydigan qurilmalar jami.

Телеметрик хабарларнинг шаклланишини, уларнинг алоқа канали бўйлаб узатилишини, узатиладиган хабарларнинг қабул қилинишини ва баҳолашларнинг шаклланишини таъминлайдиган қурилмалар жами.

### **Телеметрическая**

#### **радиолиния**

**uz** - telemetrik radioliniya

телеметрик радиолиния

**en** - radiofrequency link

Телеметрическая линия связи, передача сигналов в которой, производится по радиоканалу связи.

Signallarning uzatilishi aloqa radiokanali orqali

## Т

amalga oshiriladigan telemetrik aloqa liniyasi.

Сигналларнинг узатилиши алоқа радиоканали орқали амалга ошириладиган телеметрик алоқа линияси.

### **Телеметрическая система**

**uz** - telemetrik tizim

телеметрик тизим

**en** - telemetry system

Совокупность устройств, обеспечивающих сбор сигналов со средств первичного преобразования, формирование телеметрических сигналов, передачу их по каналу связи, регистрацию и отображение телеметрических сообщений на приемной стороне.

Birlamchi o'zgartirish vositalaridan keladigan signallarning to'planishini, telemetrik signallarning shakllanishini, ularning aloqa kanali orqali uzatilishini, qabul qilinadigan tomonda telemetrik xabarlarining qayd etilishi va aks ettirilishini ta'minlaydigan qurilmalar jami.

Бирламчи ўзгартириш воситаларидан келадиган сигналларнинг тўпланишини, телеметрик сигналларнинг шаклланишини, уларнинг алоқа канали орқали узатилишини, қабул қилинадиган томонда телеметрик хабарларнинг қайд этилиши ва акс эттирилишини таъминлайдиган қурилмалар жами.

### **Телеметрический**

#### **канал связи**

**uz** - telemetrik aloqa kanali

телеметрик алоқа канали

**en** - telemetric communication channel

Совокупность устройств и/или составных частей с одним входом и одним выходом, обеспечивающих передачу групповых телеметрических сигналов на расстояние и их прием.

Bitta kirish va bitta chiqishga ega bo'lgan, guruhli telemetrik signallarning masofaga uzatilishini hamda ularning qabul qilinishini ta'minlaydigan qurilmalar va/yoki tarkibiy qismlar jami.

Битта кириш ва битта чиқишга эга бўлган, гуруҳли телеметрик сигналларнинг масофага узатилишини ҳамда уларнинг қабул қилинишини таъминлайдиган қурилмалар ва/ёки



## Т

### **Телеметрический нормализатор**

**uz** - telemetrik normalizator  
телеметрик нормализатор  
**en** - telemetry normalisator

таркибий қисмлар жами.

Устройство для приведения телеметрических сообщений к стандартизованному виду, отбора и выдачи их различным потребителям.

Telemetrik xabarlarini standartlashtirilgan ko'rinishga keltirish, ularni tanlab olish va turli iste'molchilarga uzatish qurilmasi.

### **Телеметрический панорамный приемник**

**uz** - telemetrik panoramali qabulqilgich  
телеметрик панорамали қабулқилгич  
**en** - panoramic receiver

Телеметрик хабарларни стандартлаштирилган кўринишга келтириш, уларни танлаб олиш ва турли истеъмолчиларга узатиш қурилмаси.

Устройство, обеспечивающее обзор спектра радиосигналов на приемной стороне с целью уточнения положения несущей частоты телеметрического сигнала и оценки помеховой обстановки.

Qabul qilinadigan tomonda telemetrik signal el-tuvchi chastotasi holatini aniqlash va xalaqit beruvchi vaziyatni baholash maqsadida, radiosignallar spektri obzorini ta'minlaydigan qurilma.

Қабул қилинадиган томонда телеметрик сигнал элтувчи частотаси ҳолатини аниқлаш ва халақит берувчи вазиятни баҳолаш мақсадида, радиосигналлар спектри обзорини таъминлайдиган қурилма.

### **Телеметрический пеленгационный приемник**

**uz** - telemetrik pelengatsion qabulqilgich  
телеметрик пеленгацион қабулқилгич  
**en** - direction finding receiver

Устройство, обеспечивающее прием и демодуляцию радиосигнала в системе поиска и автосопровождения.

Qidirish va avtomatik kuzatib borish tizimida radiosignalning qabul qilinishini va demodulyatsiyasini ta'minlaydigan qurilma.

Қидириш ва автоматик кузатиб бориш тизимида радиосигналнинг қабул қилинишини ва демодуляциясини таъминлайдиган қурилма.

## Т

### **Телеметрия**

**uz** - telemetriya  
телеметрия  
**en** - telemetry

Область науки и техники, занимающаяся вопросами разработки и эксплуатации комплекса автоматизированных средств, обеспечивающих получение, преобразование, передачу по каналу связи, прием, обработку и регистрацию измерительной информации и информации о событиях с целью контроля на расстоянии состояния и функционирования технических и биологических систем различных объектов и изучения явлений природы.

Fan va texnikaning, masofadan turib turli obyektlar texnik va biologik tizimlarining holati va ishlashini hamda tabiat hodisalarining tarqalishini nazorat qilish maqsadida aloqa kanali orqali o'lg'ov axboroti va voqealar to'g'risidagi axborotning olinishi, o'zgartirilishi, uzatilishi, qabul qilinishi, qayta ishlanishi va qayd etilishini ta'minlovchi avtomatlashtirilgan vositalar kompleksini ishlab chiqish va ekspluatatsiya qilish masalalari bilan shug'ullanadigan sohasi.

Фан ва техниканинг, масофадан туриб турли объектлар техник ва биологик тизимларининг ҳолати ва ишлашини ҳамда табиат ҳодисаларининг тарқалишини назорат қилиш мақсадида алоқа канали орқали ўлчов ахбороти ва воқеалар тўғрисидаги ахборотнинг олинishi, ўзгартирилиши, узатилиши, қабул қилиниши, қайта ишланиши ва қайд этилишини таъминловчи автоматлаштирилган воситалар комплексини ишлаб чиқиш ва эксплуатация қилиш масалалари билан шуғулланадиган соҳаси.

### **Телетюнер**

**uz** - teletyuner  
телетюнер  
**en** - teletuner

Бытовой радиоэлектронный аппарат, предназначенный для приема и преобразования радиосигналов вещательного телевидения в видеосигналы и электрические сигналы звуковой частоты, воспроизведение которых осуществляется бытовым видеомонитором.

Eshittirish televideniyesi radiosignallarini qabul qilish va ularni videosignallarga hamda qayta tiklanishi maishiy videomonitor tomonidan amalga oshiriladigan tovush chastotasi elektr signal-

## T

lariga aylantirish uchun mo'ljallangan maishiy radioelektron apparat.

Эшиттириш телевидениеси радиосигналларини қабул қилиш ва уларни видеосигналларга ҳамда қайта тикланиши маиший видеомонитор томонидан амалга ошириладиган товуш частотаси электр сигналларига айлантириш учун мўлжалланган маиший радиоэлектрон аппарат.

### **Температура корпуса**

**uz** - korpus temperaturasi

корпус температураси

**en** - case temperature

Температура корпуса, ограничивающая максимально допустимую мощность рассеивания и максимально допустимый постоянный ток полупроводникового прибора.

Yarimo'tkazgichli asbobning maksimal yo'l qo'yiladigan o'zgarish tokini va maksimal yo'l qo'yiladigan sochilish quvvatini cheklaydigan korpus temperaturasi.

Яримўтказгичли асбобнинг максимал йўл қўйиладиган ўзгармас токини ва максимал йўл қўйиладиган сочилиш қувватини чеклайдиган корпус температураси.

### **Температура охладителя**

**uz** - sovitgich temperaturasi

совитгич температураси

**en** - heat sink temperature

Температура поверхности охладителя в точке, расположенной на оси с центром полупроводникового кристалла.

Sovitgich yuzasining, yarimo'tkazgichli) kristall markazi bo'lgan o'qda joylashgan nuqtadagi temperaturasi.

Совитгич юзасининг, яримўтказгичли кристалл маркази бўлган ўқда жойлашган нуқтадаги температураси.

### **Тензорезистивный эффект**

**uz** - tenzorezistiv effekt

тензорезистив эффект

**en** - tensoresistive effect

Изменение электрического сопротивления твердого проводника (металла, полупроводника) в результате его деформации.

Qattiq o'tkazgich (metall, yarimo'tkazgich) elektr qarshiligining, deformatsiyalanishi natijasida o'zgarishi.

## Т

Қаттиқ ўтказгич (металл, яримўтказгич) электр қаршилигининг, деформацияланиши натижасида ўзгариши.

### Тепловая труба

**uz** - issiqlik trubasi

иссиқлик трубаси

**en** - heat pipe

Теплопередающий элемент в системах охлаждения электровакуумных приборов, представляющий собой герметизированную трубку, частично заполненную теплоносителем.

Elektrovakuum asboblarning sovitish tizimidagi, qisman issiqlik tashuvchi bilan to'ldirilgan germetik trubkadan iborat issiqlik uzatuvchi element.

Электровакuum асбобларнинг совитиш тизи-мидаги, қисман иссиқлик ташувчи билан тўлдирилган герметик трубкадан иборат ис-сиқлик узатувчи элемент.

### Тепловое сопротивление

**uz** - issiqlik qarshilik

иссиқлик қаршилиқ

**en** - thermal resistance;

heat resistance

Параметр  $R_T$ , характеризующий способность прибора (системы) отводить тепло от источника в окружающую среду в установившемся тепловом режиме:  $R_T = (T_H - T_C) / P$ , где  $T_H$  и  $T_C$  – температуры источника и окружающей среды,  $P$  – тепловая мощность.

Asbobning (tizimning) belgilangan issiqlik re-jimida issiqlikning manbadan atrof muhitga chiqarish xususiyatini ko'rsatuvchi  $R_T$  parametr.  $U R_T = (T_m - T_{a.m}) / P$  formula bilan ifodalanadi, bu yerda  $T_m$  va  $T_{a.m}$  – manba hamda atrof muhit temperaturasi,  $P$  – issiqlik quvvati.

Асбобнинг (тизимнинг) белгиланган ис-сиқлик режимида иссиқликнинг манбадан атроф муҳитга чиқариш хусусиятини кўрса-тувчи  $R_T$  параметр. У  $R_T = (T_m - T_{a.m}) / P$  формула билан ифодаланади, бу ерда  $T_m$  ва  $T_{a.m}$  – манба ҳамда атроф муҳит температу-раси,  $P$  – иссиқлик қуввати.

### Тепловое сопротивление

**корпус-окружающая среда**

**uz** - korpus-atrof muhit issiqlik

Тепловое сопротивление между корпусом прибора и окружающей средой, определяемое условиями теплоотвода от поверхности

## T

qarshilik

корпус-атроф муҳит

иссиқлик қаршилиқ

**en** - thermal resistance case  
to ambient air

**Тепловое сопротивление  
переход-корпус**

**uz** - o'tish-korpus issiqlik  
qarshilik

ўтиш-корпус иссиқлик

қаршилиқ

**en** - thermal resistance junction  
to case

**Тепловое сопротивление  
охладитель-окружающая  
среда**

**uz** - sovitgich-atrof muhit  
issiqlik qarshilik

совитгич-атроф муҳит

иссиқлик қаршилиқ

**en** - thermal resistance heatsink  
to ambient air

прибора в окружающую среду (без охладителя).

Atrof muhit va asbob korpusi o'rtasidagi, asbob yuzasidan atrof muhitga issiqlik olib ketish sharoitlari bilan belgilanadigan issiqlik qarshilik (sovitgichsiz).

Атроф муҳит ва асбоб корпуси ўртасидаги, асбоб юзасидан атроф муҳитга иссиқлик олиб кетиш шароитлари билан белгиланадиган иссиқлик қаршилиқ (совитгичсиз).

Тепловое сопротивление между переходом и корпусом прибора, определяемое технологией и качеством соединения кристалла с корпусом, а также размерами кристалла, его топологией и конструктивно-технологическим исполнением.

O'tish va asbob korpusi o'rtasidagi, kristalni korpus bilan birlashtirish sifati va texnologiyasi bilan, shuningdek, kristall o'lchamlari, uning topologiyasi va konstruktiv-texnologik bajarilishi bilan belgilanadigan issiqlik qarshilik.

Ўтиш ва асбоб корпуси ўртасидаги, кристални корпус билан бирлаштириш сифати ва технологияси билан, шунингдек, кристалл ўлчамлари, унинг топологияси ва конструктив-технологик бажарилиши билан белгиланадиган иссиқлик қаршилиқ.

Тепловое сопротивление между охладителем и окружающей средой, определяемое взаимодействием поверхности охладителя с окружающей средой (площадью поверхности охладителя, качеством его обработки, расположением).

Atrof muhit va sovitgich o'rtasidagi, sovitgich yuzasining atrof muhit bilan o'zaro ta'siri (sovitkich yuzasining maydoni, unga ishlov berish sifati, joylashishi) orqali belgilanadigan

## Т

issiqlik qarshilik.

Атроф муҳит ва совитгич ўртасидаги, совитгич юзасининг атроф муҳит билан ўзаро таъсири (совиткич юзасининг майдони, унга ишлов бериш сифати, жойлашиши) орқали белгиланадиган иссиқлик қаршилиқ.

### Тепловой пробой р-п-перехода

**uz** - *p-n-o'tishning issiqlik teshilishi*

*p-n-ўтишнинг иссиқлик тешилиши*

**en** - *p-n-junction thermal breakdown*

Пробой р-п-перехода, вызванный ростом числа носителей заряда в результате нарушения равновесия между выделяемым в р-п-переходе и отводимым от него теплом.

*p-n-o'tishning, p-n-o'tishda ajraladigan va undan olib ketiladigan issiqlik o'rtasida muvozanatning buzilishi natijasida zaryad tashuvchilar sonining oshib ketishi keltirib chiqaradigan teshilishi.*

р-п-ўтишнинг, р-п-ўтишда ажраладиган ва ундан олиб кетиладиган иссиқлик ўртасида мувозанатнинг бузилиши натижасида заряд ташувчилар сонининг ошиб кетиши келтириб чиқарадиган тешилиши.

### Тепловой шум

**uz** - *issiqlik shovqin*

*иссиқлик шовқин*

**en** - *thermal noise*

Флуктуационные токи и напряжения, обусловленные тепловым движением заряда в полупроводниках.

*Zaryadning yarimo'tkazgichlardagi issiqlik harakati bilan bog'liq bo'lgan fluktuatsion tok va kuchlanishlar.*

Заряднинг яримўтказгичлардаги иссиқлик ҳаракати билан боғлиқ бўлган флуктуацион ток ва кучланишлар.

### Термистор

**uz** - *termistor*

*термистор*

**en** - *thermistor*

Полупроводниковый резистор, электрическое сопротивление которого изменяется в зависимости от температуры.

*Elektr qarshiligi temperaturaga bog'liq holda o'zgaradigan yarimo'tkazgichli rezistor.*

Электр қаршилиги температурага боғлиқ ҳолда ўзгарадиган яримўтказгичли резистор.

### Термоциклоустойчивость

Способность прибора выдерживать циклические

## T

**uz** - termotsiklchidamlilik  
термоциклчидамлилик  
**en** - thermocycle durability

ские воздействия предельных температур без изменения его характеристик. Выражается в количестве циклов с указанием предельных температур и времени выдержек.

Asbobning, xarakteristikalari o'zgarmsdan eng yuqori temperaturalarning siklik ta'siriga chiday olish qobiliyati. Eng yuqori temperaturalar va chidamlilik vaqti ko'rsatilgan sikllar sonida ifodalanadi.

Асбобнинг, характеристикалари ўзгармасдан энг юқори температураларнинг циклик таъсирига чидай олиш қобилияти. Энг юқори температуралар ва чидамлилик вақти кўрсатилган циклар сониди ифодаланеди.

**Термокомпенсатор**  
**uz** - termokompensator  
термокомпенсатор  
**en** - thermocompensator

Элемент конструкции силового полупроводникового прибора, имеющий коэффициент линейного расширения, близкий к коэффициенту линейного расширения кремния (вольфрамовый или молибденовый диск), на котором крепится полупроводниковая (кремниевая) пластина для повышения механической прочности и уменьшения механических напряжений, возникающих при соединении элементов из материалов, коэффициенты линейного расширения которых существенно различаются.

Kuch yarimo'tkazgichli asbob konstruksiyasi-ning, chiziqli kengayish koeffitsiyenti kremniyning chiziqli kengayish koeffitsiyentiga yaqin bo'lgan mexanik mustahkamlikni oshirish va chiziqli kengayish koeffitsiyentlari jiddiy farq qiladigan materiallardan qilingan elementlarni birlashtirishda yuzaga keladigan mexanik kuchlanishlarni kamaytirish uchun, yarimo'tkazgichli (kremniyli) plastina mahkamlanadigan volfram yoki molibden disk.

Куч яримўтказгичли асбоб конструкциясининг, чизикли кенгайиш коэффициенти кремнийнинг чизикли кенгайиш коэффициентига

## Т

яқин бўлган механик мустаҳкамликни ошириш ва чизиқли кенгайиш коэффициентлари жиддий фарқ қиладиган материаллардан қилинган элементларни бирлаштиришда юзага келадиган механик кучланишларни камайтириш учун, яримўтказгичли (кремнийли) пластина маҳкамланадиган вольфрам ёки молибден диск.

### **Термомагнитная запись**

**uz** - termomagnit yozish

термомагнит ёзиш

**en** - thermomagnetic

recording

Магнитная запись, при которой намагниченность носителя записи изменяется в соответствии с сигналами записываемой информации в процессе охлаждения носителя, предварительно нагретого до температуры, равной или большей температуры Кюри.

Yozuv tashuvchining magnitlanishi, oldindan, Kyuri temperaturasiga teng yoki undan yuqori temperaturagacha qizdirilgan tashuvchini sovitish jarayonida yoziladigan axborot signallariga muvofiq o'zgaradigan magnit yozish.

Ёзув ташувчининг магнитланиши, олдиндан, Кюри температурасига тенг ёки ундан юқори температургача қиздирилган ташувчини совитиш жараёнида ёзиладиган ахборот сигналларига мувофиқ ўзгарадиган магнит ёзиш.

### **Термомагнитное копирование сигналограммы**

**uz** - signalogrammadan

termomagnit nusxa ko'chirish

сигналограммадан

термомагнит нусха кўчириш

**en** - thermomagnetic copying

Способ контактного копирования магнитной сигналограммы, при котором в зоне контакта сигналограммы и носителя записи копии осуществляется нагрев последнего до температуры, равной или большей температуры Кюри, с последующим охлаждением.

Magnit signalogrammadan, signalogramma va nusxa yozuvini tashuvchining kontakt zonasida nusxa yozuvini tashuvchini, keyinchalik sovitish bilan, Kyuri temperaturasiga teng yoki undan yuqori temperaturagacha qizdirish amalga oshiriladigan, kontaktli nusxa ko'chirish usuli.

Магнит сигналограммадан, сигналограмма ва нусха ёзувини ташувчининг контакт зонасида нусха ёзувини ташувчини, кейинчалик сови-



## Т

### **Термомагнитные эффекты**

**uz** - termomagnit effektlar

термомагнит эффектлар

**en** - thermomagnetic effect

тиш билан, Кюри температурасига тенг ёки ундан юқори температурагача қиздириш амалга ошириладиган, контактли нусха кўчириш усули.

Совокупность явлений, наблюдаемых в проводящих средах при одновременном наличии градиента температуры и магнитного поля.

Oʻtkazuvchi muhitlarda bir vaqtning oʻzida temperatura gradiyenti va magnit maydon mavjudligida kuzatiladigan hodisalar jami.

Ўтказувчи мухитларда бир вақтнинг ўзида температура градиенти ва магнит майдон мавжудлигида кузатиладиган ҳодисалар жами.

### **Термопластическая запись**

**uz** - termoplastik yozish

термопластик ёзиш

**en** - thermoplastic

recording

Запись оптического изображения или электрических сигналов, несущих информацию об изображении, при которой на поверхности термопластического слоя образуется микро-рельеф деформаций, отображающих записываемое изображение.

Tasvir toʻgʻrisida axborot tashuvchi elektr signallarni yoki optik tasvirni yozish boʻlib, uning davomida termoplastik qatlam yuzasida yozilayotgan tasvirni aks ettiruvchi deformatsiyalar mikrorelyefi hosil boʻladi.

Тасвир тўғрисида ахборот ташувчи электр сигналларни ёки оптик тасвирни ёзиш бўлиб, унинг давомида термопластик қатлам юзасида ёзилаётган тасвирни акс эттирувчи деформациялар микро-рельефи ҳосил бўлади.

### **Термопластический электронно-лучевой прибор**

**uz** - termoplastik elektron-

nurlı asbob

термопластик электрон-нурли асбоб

**en** - thermoplastic electron-

beam tube

Светоклапанный электронно-лучевой прибор, в котором электрические сигналы, несущие информацию об оптическом изображении, модулируют отклоняемый электронный пучок и записываются в виде рельефа деформаций на термопластической мишени.

Optik tasvir toʻgʻrisida axborot tashuvchi elektr signallar ogʻuvchi elektron dastani modu-

## Т

lyatsiyalaydigan va termoplastik nishondagi deformatsiyalar relyefi ko‘rinishida yoziladigan, yorug‘lik klapanli elektron-nurli asbob.

Оптик тасвир тўғрисида ахборот ташувчи электр сигналлар оғувчи электрон дастани модуляциялайдиган ва термопластик нишондаги деформациялар рельефи кўринишида ёзиладиган, ёруғлик клапанли электрон-нурли асбоб.

### **Термоэлектрические явления**

**uz** - termoelektr hodisalar

термоэлектр ходисалар

**en** - thermoelectric phenomena

Совокупность явлений, обусловленных взаимосвязью тепловых и электрических процессов в проводящих телах.

О‘tkazuvchi jismlardagi issiqlik va elektr jarayonlarning o‘zaro aloqadorligi bilan bog‘liq hodisalar jami.

Ўтказувчи жисмлардаги иссиқлик ва электр жараёнларнинг ўзаро алоқадорлиги билан боғлиқ ходисалар жами.

### **Термоэлектронная эмиссия**

**uz** - termoelektron emissiya

термоэлектрон эмиссия

**en** - thermoionic emission

Испускание электронов нагретыми телами в вакуум или другую среду.

Qizigan jismlarning elektronlarni vakuumga yoki boshqa muhitga chiqarishi.

Қизиган жисмларнинг электронларни вакуумга ёки бошқа мухитга чиқариши.

### **Термоэлектронный катод**

**uz** - termoelektron katod

термоэлектрон катод

**en** - hot cathode

Катод электровакуумного прибора, действие которого основано на явлении термоэлектронной эмиссии.

Ishlashi termoelektron emissiya hodisasiga asoslangan elektrovakuum asbob katodi.

Ишлаши термоэлектрон эмиссия ходисасига асосланган электровакуум асбоб катода.

### **Термоэлемент**

**uz** - termoelement

термоэлемент

Прибор, основанный на использовании термоэлектрических явлений: Зеебека эффекта и Пельтье эффекта.

## T

**en** - thermocouple

Termoelektir hodisalar: Zeebek effektidan va Peltie effektidan foydalanishga asoslangan asbob.

**Термоэмиссионный преобразователь энергии**

**uz** - termoemission energiya o'zgartirgich

термоэмиссион энергия ўзгартиргич

**en** - thermionic energy converter

Термоэлектр ҳодисалар: Зеебек эффектидан ва Пельтье эффектидан фойдаланишга асосланган асбоб.

Устройство для непосредственного преобразования тепловой энергии в электрическую на основе явления термоэлектронной эмиссии.

Termoelektron emissiya hodisasi asosida issiqlik energiyasini bevosita elektr energiyasiga aylantirish uchun xizmat qiladigan qurilma.

Термоэлектрон эмиссия ҳодисаси асосида иссиқлик энергиясини бевосита электр энергиясига айлантириш учун хизмат қиладиган қурилма.

**Территориальный разнос радиоэлектронных средств**  
**uz** - radioelektron vositalarning hududiy tarqalishi

радиоэлектрон воситаларнинг ҳудудий тарқалиши

**en** - radio electronic facilities territorial delivery

Регламентация размещения радиоэлектронных средств на территории и/или в пространстве для обеспечения электромагнитной совместимости радиоэлектронных средств.

Radioelektron vositalarning elektromagnit moslashuvini ta'minlash maqsadida, radioelektron vositalarning hududda va/yoki fazoda joylashishini reglamentlash.

Радиоэлектрон воситаларнинг электромагнит мослашувини таъминлаш мақсадида, радиоэлектрон воситаларнинг ҳудудда ва/ёки фазода жойлашишини регламентлаш.

**Тетрод**

**uz** - tetrod

тетрод

**en** - tetrode

Четырехэлектродная электронно-управляемая лампа, имеющая анод, катод, управляющий электрод и дополнительный электрод, который обычно бывает экранирующей сеткой.

Anod, katod, boshqaruvchi katod va odatda ekranlovchi to'rt hisoblanuvchi qo'shimcha elektrodi bo'lgan, to'rt elektrodli electron boshqari-

## Т

ladigan lampa.

Анод, катод, бошқарувчи катод ва одатда экранловчи тўр ҳисобланувчи кўшимча электроди бўлган, тўрт электродли электрон бошқариладиган лампа.

### **Тип интегральной микросхемы**

**uz** - integral mikrosxema turi  
интеграл микросхема тури  
**en** - integral microcircuit type

Интегральная микросхема конкретного функционального назначения и определенного конструктивно-технологического и схемотехнического решения и имеющая свое условное обозначение.

Aniq funksional maqsadda foydalaniladigan va muayyan konstruktiv-texnologik hamda sxema-texnik yechimdagi va o'zining shartli belgilanishiga ega bo'lgan integral mikrosxema.

Аниқ функционал мақсадда фойдаланиладиган ва муайян конструктив-технологик ҳамда схема-техник ечимдаги ва ўзининг шартли белгиланишига эга бўлган интеграл микросхема.

### **Типовой режим электровакуумного прибора**

**uz** - elektrovakuum asbobning namunali rejimi

электровакуум асбобнинг намунали режими  
**en** - standard mode of electrovacuum device

Режим электровакуумного прибора, установленный нормативной документацией для эксплуатации прибора данного типа.

Elektrovakuum asbobning, berilgan turdagi asbobdan foydalanish uchun normativ hujjat bilan belgilangan rejimi.

Электровакуум асбобнинг, берилган турдаги асбобдан фойдаланиш учун норматив хужжат билан белгиланган режими.

### **Типономинал интегральной микросхемы**

**uz** - integral mikrosxemaning tur nominali  
интеграл микросхеманинг

тур номинали  
**en** - integral microcircuit part type

Интегральная микросхема конкретного типа, отличающаяся от других микросхем того же типа одним или несколькими параметрами и требованиями к внешним воздействующим факторам.

Muayyan turdagi, bitta yoki bir nechta parametrlar va ta'sir etuvchi tashqi omillarga talablar bo'yicha shu turdagi boshqa mikrosxemalardan

## Т

farq qiladigan integral mikrosхема.

Муайян турдаги, битта ёки бир нечта параметрлар ва таъсир этувчи ташқи омилларга талаблар бўйича шу турдаги бошқа микросхемалардан фарқ қиладиган интеграл микросхема.

### **Тиратрон**

**uz** - tiratron

тиратрон

**en** - thyatron

Газоразрядный прибор с управлением моментом возникновения разряда, имеющий анод, катод и один или несколько управляющих электродов.

Anod, katod va bitta yoki bir nechta boshqaruvchi elektrodi boʻlgan, razryad paydo boʻlish momenti boshqariladigan gaz-razryadli asbob.

Анод, катод ва битта ёки бир нечта бошқарувчи электроди бўлган, разряд пайдо бўлиш momenti бошқариладиган газ-разрядли асбоб.

### **Тиратрон тлеющего разряда**

**uz** - miltillama razryad tiratroni

милтиллама разряд

тиратрони

**en** - thyatron glow discharge

Тиратрон с холодным катодом, в котором необходимый ток является током тлеющего разряда.

Zaruriy tok miltillama razryad toki hisoblanadigan sovuq katodli tiratron.

Зарурий ток милтиллама разряд токи ҳисобланадиган совуқ катодли тиратрон.

### **Тиристор**

**uz** - tiristor

тиристор

**en** - thyristor

Полупроводниковый прибор с двумя устойчивыми состояниями, имеющий три или более перехода, который может переключаться из закрытого состояния в открытое и наоборот.

Ikkita barqaror holatga, uchta yoki undan koʻp oʻtishga ega boʻlgan, yopiq holatdan ochiq holatga va aksincha, oʻta oladigan yarim-oʻtkazgichli asbob.

Иккита барқарор ҳолатга, учта ёки ундан кўп ўтишга эга бўлган, ёпиқ ҳолатдан очиқ ҳолатга ва аксинча, ўта оладиган яримўтказгичли асбоб.

## Т

### **Тиристор-диод**

**uz** - tiristor-diod

тиристор-диод

**en** - thyristor-diode

Однокристалльный полупроводниковый прибор, соответствующий встречно-параллельному соединению тиристора и диода, проводящий прямой ток при подаче управляющего импульса, блокирующий прямое напряжение при его отсутствии и проводящий ток в обратном направлении.

Tiristor va diodning qarama-qarshi parallel ulanishiga to'g'ri keladigan, boshqaruvchi impuls berilganda to'g'ri tokni o'tkazadigan, u bo'lmaganda to'g'ri kuchlanishni blokirovkalaydigan va teskari yo'nalishda tok o'tkazadigan bir kristalli yarimo'tkazgichli asbob.

Тиристор ва диоднинг қарама-қарши параллел уланишига тўғри келадиган, бошқарувчи импульс берилганда тўғри токни ўтказадиган, у бўлмаганда тўғри кучланишни блокировкалайдиган ва тескари йўналишда ток ўтказадиган бир кристалли яримўтказгичли асбоб.

### **Тиристор с инжектирующим управляющим электродом N-типа**

**uz** - N-turidagi injeksiyalaydigan boshqaruvchi elektrodi bo'lgan tiristor

N-туридаги инъекциялайдиган бошқарувчи электроди бўлган тиристор

**en** - thyristor-injecting the control electrode of the N-type

Тиристор, у которого управляющий электрод соединен с n-областью, ближайшей к аноду, который переводится в открытое состояние при подаче на управляющий вывод отрицательного по отношению к аноду сигнала.

Boshqaruvchi elektrodi anodga yaqin n-soha bilan bog'langan, boshqaruvchi chiqish uchiga anodga nisbatan manfiy signal uzatilganda ochiq holatga o'tkaziladigan tiristor.

Бошқарувчи электроди анодга яқин n-соҳа билан боғланган, бошқарувчи чиқиш учига анодга нисбатан манфий сигнал узатилганда очик ҳолатга ўтказиладиган тиристор.

### **Тиристор с инжектирующим управляющим электродом P-типа**

**uz** - P-turidagi injeksiyalaydigan boshqaruvchi elektrodi bo'lgan tiristor

Тиристор, у которого управляющий электрод соединен с p-областью, ближайшей к катоду, который переводится в открытое состояние путем подачи на управляющий вывод положительного по отношению к катоду сигнала.

Boshqaruvchi elektrodi, ochiq holatga boshqa-

## T

P-тиридаги инъекциялай-  
диган бошқарувчи электроди  
бўлган тиристор

**en** - thyristor-injecting the  
control electrode of the P-type

**Тиристор с полевым  
управлением**

**uz** - maydon boshqaradigan  
tiristor

майдон бошқарадиган  
тиристор

**en** - thyristor with field control

**Тиристор со статической  
индукцией**

**uz** - statik induksiya tiristor

статик индукцияли

тиристор

**en** - static induction thyristor

**Тиристор, коммутируемый  
по управляющему  
электроду**

**uz** - boshqaruvchi elektrod

ruvchi chiqish uchiga katodga nisbatan musbat  
signalni uzatish orqali o'tkaziladigan, katodga  
yaqin p-soha bilan bog'langan tiristor.

Бошқарувчи электроди, очик ҳолатга бошқа-  
рувчи чиқиш учига катодга нисбатан мусбат  
сигнални узатиш орқали ўтказиладиган, ка-  
тодга яқин p-соҳа билан боғланган тиристор.

Силовой полупроводниковый прибор, струк-  
тура которого содержит тиристор и два поле-  
вых транзистора, один из которых обеспечи-  
вает процесс включения, подавая импульс  
тока на управляющий электрод, а второй ана-  
логично процесс выключения прибора.

Strukturasi tiristor va ikkita maydon tranzistorini  
ichiga oladigan kuch yarimo'tkazgichli asbob.  
Bu ikki maydon tranzistorlaridan biri tok im-  
pulsini boshqaruvchi elektrodga uzatgan holda,  
ulash jarayonini ikkinchisi esa, o'xshash tarzda  
asbobning uzib qo'yilish jarayonini ta'minlaydi.

Структураси тиристор ва иккита майдон  
транзисторини ичига оладиган куч яримўт-  
казгичли асбоб. Бу икки майдон транзистор-  
ларидан бири ток импульсини бошқарувчи  
электродга узатган ҳолда, улаш жараёнини  
иккинчиси эса, ўхшаш тарзда асбобнинг узиб  
қўйилиш жараёнини таъминлайди.

Запираемый тиристор, характеристики кото-  
рого обусловлены явлением статической ин-  
дукции.

Xarakteristikalari statik induksiya hodisasi bilan  
bog'liq bo'lgan berkitiladigan tiristor.

Характеристикалари статик индукция ходи-  
саси билан боғлиқ бўлган беркитиладиган  
тиристор.

Запираемый тиристор, управляющий элект-  
род которого имеет очень малую индуктив-  
ность и способен кратковременно проводить  
ток, равный по значению выключаемому току

## Т

bo'yicha kommutatsiyalanadigan tiristor

бошқарувчи электрод

бўйича коммутацияланадиган тиристор

**en** - gate commutated thyristor

тиристора, за счет чего уменьшаются динамические потери и время выключения.

Boshqaruvchi elektrodi juda kichik induktivlikka ega bo'lgan va qiymati bo'yicha tiristorning uzib qo'yiladigan tokiga teng tokni qisqa muddat o'tkaza oladigan, buning hisobiga dinamik yo'qotishlar va uzib qo'yish vaqti berkitiladigan tiristor.

Бошқарувчи электроди жуда кичик индуктивликка эга бўлган ва қиймати бўйича тиристорнинг узиб қўйиладиган токига тенг токни қисқа муддат ўтказа оладиган, бунинг ҳисобига динамик йўқотишлар ва узиб қўйиш вақти беркитиладиган тиристор.

**Тиристор, коммутируемый по управляющему электроду с интегрированным управлением**

**uz** - integratsiyalashgan tarzda boshqariladigan boshqaruvchi elektrod bo'yicha kommutatsiyalanadigan tiristor

интеграциялашган тарзда бошқариладиган бошқарувчи электрод бўйича коммутацияланадиган тиристор

**en** - integrated gate commutated thyristor

Силовая интегральная схема, состоящая из тиристора, коммутируемого по управляющему электроду, обратного диода и блока управления, содержащего оптическую гальваническую развязку.

Boshqaruvchi elektrod bo'yicha kommutatsiyalanadigan tiristordan, teskari dioddan va optik galvanik yechilishni ichiga oladigan boshqarish blokidan tuzilgan kuch integral sxema.

Бошқарувчи электрод бўйича коммутацияланадиган тиристордан, тескари диоддан ва оптик гальваник ечилишни ичига оладиган бошқариш блокidan тузилган куч интеграл схема.

**Тиристорная оптопара**

**uz** - tiristorli optopara

тиристорли оптопара

**en** - thyristor optocouple

Оптопара с приемником излучения, выполненная на основе фототиристора.

Fototiristor asosida qilingan, nurlanish qabul-qilgichi bo'lgan optopara.

Фототиристор асосида қилинган, нурланиш қабулқилгичи бўлган оптопара.



## Т

### **Тиристорная оптопара с симметричным выводом**

**uz** - simmetrik chiqish uchi bo‘lgan tiristorli optopara  
симметрик чиқиш учи бўлган тиристорли оптопара  
**en** - thyristoroptocouple with symmetrical conclusion

### **Ток включения тиристора**

**uz** - tiristorni ulash toki  
тиристорни улаш токи  
**en** - latching current

### **Ток включения тиристорной оптопары**

**uz** - tiristorli optoparaning ulanish toki  
тиристорли оптопаранинг уланиш токи  
**en** - turn-on current

### **Ток вторичного пробоя**

**uz** - ikkilamchi teshilish toki  
иккиламчи тешилиш токи  
**en** - second breakdown current

Тиристорная оптопара с симметричным диодным или триодным фототиристором.

Simmetrik diodli yoki triodli fototiristori bo‘lgan tiristorli optopara.

Симметрик диодли ёки триодли фототиристорли бўлган тиристорли оптопара.

Наименьший основной ток тиристора, необходимый для поддержания тиристора в открытом состоянии непосредственно после окончания действия импульса тока управления после переключения тиристора из закрытого состояния в открытое.

Tiristorning, tiristor yopiq holatdan ochiq holatga almashlab ulangandan keyin, bevosita boshqarish toki impulsining ta’siri tugagandan keyin, tiristorni ochiq holatda ushlab turish uchun zarur bo‘lgan eng kichik asosiy toki.

Тиристорнинг, тиристор ёпиқ ҳолатдан очик ҳолатга алмашлаб улангандан кейин, бевосита бошқариш токи импульсининг таъсири тугагандан кейин, тиристорни очик ҳолатда ушлаб туриш учун зарур бўлган энг кичик асосий токи.

Входной ток тиристорной оптопары, обеспечивающий включение фотоприемного элемента.

Tiristorli optoparaning, fotoqabulqiluvchi element ulanishini ta’minlaydigan kirish toki.

Тиристорли оптопаранинг, фотоқабул-қилувчи элемент уланишини таъминлайдиган кириш токи.

Ток коллектора биполярного транзистора в пределах области безопасной работы при прямом смещении эмиттерного перехода, ограниченный явлением вторичного пробоя при нормируемых длительности и скважности импульса тока и напряжения коллектор-эмиттер.

## Т

Bipolyar tranzistor kollektorining, kollektor-emitter kuchlanish hamda tok impulsining davomiyligi va o'tkazishga moyilligi normalanganda, ikkilamchi teshilish hodisasi bilan cheklangan emitter o'tish to'g'ri siljiganda, xavfsiz ishlash sohasi chegarasidagi toki.

Биполяр транзистор коллекторининг, коллектор-эмиттер кучланиш ҳамда ток импульсининг давомийлиги ва ўтказишга мойиллиги нормаланганда, иккиламчи тешилиш ҳодисаси билан чекланган эмиттер ўтиш тўғри силжиганда, хавфсиз ишлаш соҳаси чегарасидаги токи.

### Ток инжектора

**uz** - injektor toki

инжектор токи

**en** - current

Значение тока в цепи вывода питания, необходимое для работы интегральной микросхемы в заданном режиме.

Таъминот чиқиш занжиридagi tokning integral mikrosxemaning berilgan rejimda ishlashi uchun zarur bo'lgan qiymati.

Таъминот чиқиш занжиридаги токнинг интеграл микросхеманинг берилган режимда ишлаши учун зарур бўлган қиймати.

### Ток обратного

#### восстановления

**uz** - teskari tiklanish toki

тескари тикланиш токи

**en** - reverse recovery current

Ток диода, вызванный рассасыванием накопленного заряда обратного восстановления на интервале времени обратного восстановления.

Teskari tiklanish vaqt intervalida to'plangan teskari tiklanish zaryadining tarqalishi keltirib chiqaradigan diod toki.

Тескари тикланиш вақт интервалида тўпланган тескари тикланиш зарядининг тарқалиши келтириб чиқарадиган диод токи.

### Ток перегрузки в открытом состоянии

**uz** - ochiq holatdagi o'ta yuklanish toki

очиқ ҳолатдаги ўта юкланиш токи

Ток в открытом состоянии диода или тиристора, который при длительном протекании вызвал бы превышение максимально допустимой температуры перехода, но который так ограничен во времени, что эта температура не превышает.

## T

**en** - overload on state current

Tiristor yoki diodning ochiq holatidagi, davomli oqib o'tishda maksimal yo'l qo'yiladigan o'tish temperaturasi oshishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan, biroq vaqtda temperatura oshib ketmaydigan darajada cheklangan tok.

Тиристор ёки диоднинг очик ҳолатидаги, давомли оқиб ўтишда максимал йўл кўйиладиган ўтиш температураси ошишини келтириб чиқариши мумкин бўлган, бироқ вақтда температура ошиб кетмайдиган даражада чекланган ток.

**Ток пучка электро-  
вакуумного прибора**

**uz** - elektrovakuum asbob  
dastasi toki

электровakuум асбоб  
дастаси токи

**en** - electrovacuum beam current of the device

Ток через заданное поперечное сечение электронного пучка электровакуумного прибора.

Elektrovakuum asbob elektron dastasining berilgan ko'ndalang kesimi orqali o'tadigan tok.

Электровakuум асбоб электрон дастасининг берилган кўндаланг кесими орқали ўтадиган ток.

**Ток удержания тиристора**

**uz** - tiristorni tutib turish toki  
тиристорни тутиб туриш  
токи

**en** - holding current

Наименьший основной ток тиристора, необходимый для поддержания тиристора в открытом состоянии.

Tiristorning, tiristorni ochiq holatda ushlab turish uchun zarur bo'lgan eng kichik asosiy toki.

Тиристорнинг, тиристорни очик ҳолатда ушлаб туриш учун зарур бўлган энг кичик асосий токи.

оралик частота кучайтиргичи

**en** - intermediate-frequency amplifier

Электронный усилитель сигналов промежуточной частоты, поступающих с преобразователя частоты.

Chastota o'zgartirgichidan kelayotgan oraliq chastota signallarini elektron kuchaytirgich.

Частота ўзгартиргичидан келаятган оралик частота сигналларини электрон кучайтиргич.

### **Усилитель радиочастотный**

**uz** - radiochastotaviy kuchaytirgich

радиочастотавий кучайтиргич

**en** - radio frequency amplifier

Усилитель электрических сигналов между входной цепью радиоприемника и первым преобразователем.

Radioqabulqilgichning kirish zanjiri va birinchi o'zgartirgich o'rtasidagi elektr signallarni kuchaytirgich.

Радиоқабулқилгичнинг кириш занжири ва биринчи ўзгартиргич ўртасидаги электр сигналларни кучайтиргич.

### **Усилитель яркости изображения**

**uz** - tasvir yorqinligini kuchaytirgich

тасвир ёрқинлигини кучайтиргич

**en** - light amplifier

Электронный прибор для увеличения яркости световых изображений, основанный на преобразовании светового изображения, спроецированного на фоточувствительный слой, в электрические сигналы.

Fotosezgir qatlamga proyeksiyalangan yorug'lik tasvirini elektr signallarga aylantirishga asoslangan, yorug'lik tasviri yorqinligini oshirish uchun mo'ljallangan elektron asbob.

Фотосезгир қатламга проекцияланган ёруғлик тасвирини электр сигналларга айлантиришга асосланган, ёруғлик тасвири ёрқинлигини ошириш учун мўлжалланган электрон асбоб.

### **Усилитель-корректор**

**uz** - kuchaytirgich-korrektor kuchaytirgich-korrektor

**en** - amplifier-patch

Бытовой радиоэлектронный аппарат, предназначенный для усиления электрических сигналов звуковой частоты и коррекции амплитудной и фазочастотной характеристик источника сигнала звуковой частоты для приведения их к стандартному виду.

Standart ko'rinishga keltirish maqsadida, tovush



## у

chastotasi elektr signallarini kuchaytirish va tovush chastotasi signali manbaining amplituda va faza-chastota xarakteristikalarini tuzatish uchun mo'ljallangan maishiy radioelektron apparat.

Стандарт кўринишга келтириш мақсадида, товуш частотаси электр сигналларини кучайтириш ва товуш частотаси сигнали манбаининг амплитуда ва фаза-частота характеристикаларини тузатиш учун мўлжалланган маиший радиоэлектрон аппарат.

**Усилительный прибор обратной волны с пространством дрейфа**  
**uz** - dreyf fazosiga ega qaytgan to'liqin kuchaytirgich asbobi

дрейф фазосига эга қайтган тўлқин кучайтиргич асбоби

**en** - inverse wave intensative device with driftage space

Усилительный прибор М-типа обратной волны с замкнутым электронным потоком, разомкнутой замедляющей системой и пространством дрейфа.

Berk elektron oqimli, sekinlashtiruvchi tizimi ochilgan va dreyf fazosiga ega qaytgan to'liqin M-turidagi kuchaytirgich asbobi.

Берк электрон оқимли, секинлаштирувчи тизими очилган ва дрейф фазосига эга қайтган тўлқин М-туридаги кучайтиргич асбоби.

**Усилительный прибор прямой волны с управляющим электродом**

**uz** - boshqaruvchi elektrodli to'g'ri to'liqin kuchaytirgich asbobi

бошқарувчи электродли тўғри тўлқин кучайтиргич асбоби

**en** - intensative device of direct wave with controlling electrode

Усилительный прибор М-типа прямой волны с замкнутым электронным потоком, разомкнутой замедляющей системой и холодным катодом, в разрыве которого расположен управляющий электрод, определяющий токоотбор с катода.

Berk elektron oqimli, sekinlashtiruvchi tizimi ochilgan va yorig'ida, katoddan tok olinishini belgilovchi boshqaruvchi elektrod joylashgan sovuq katodli to'g'ri to'liqin M-turidagi kuchaytirgich asbobi.

Берк электрон оқимли, секинлаштирувчи тизими очилган ва ёриғида, катоддан ток олинишини белгиловчи бошқарувчи электрод жойлашган совуқ катодли тўғри тўлқин М-туридаги кучайтиргич асбоби.

## У

### Усилительный прибор сверхвысокой частоты

**uz** - o'ta yuqori chastota  
kuchaytirgich asbobi

ўта юқори частота  
кучайтиргич асбоби

**en** - amplifier tube

Прибор сверхвысокой частоты, предназначенный для усиления мощности сверхвысоко-кочастотного колебаний.

O'ta yuqori chastotali tebranishlar quvvatini oshirish uchun mo'ljallangan o'ta yuqori chas- tota asbobi.

Ўта юқори частотали тебранишлар қувватини ошириш учун мўлжалланган ўта юқори частота асбоби.

### Ускорители заряженных частиц

**uz** - zaryadlangan zarralar  
tezlatgichlari

зарядланган зарралар  
тезлатгичлари

**en** - charged particle accelerator

Установки, предназначенные для получения заряженных частиц (электронов, протонов, ядер атомов, ионов) высоких энергий. Работа ускорителей заряженных частиц основана на использовании взаимодействия заряженных частиц с электрическими и магнитными полями.

Yuqori energiyalar zaryadlangan zarralari (elektronlar, protonlar, atom, ionlar yadrolari) hosil qilish uchun mo'ljallangan qurilmalar. Zaryadlangan zarralar tezlatkichlarining ishlashi zaryadlangan zarralarning elektr va magnit maydonlar bilan o'zaro ta'siridan foydalanishga asoslangan.

Юқори энергиялар зарядланган зарралари (электронлар, протонлар, атом, ионлар ядролари) ҳосил қилиш учун мўлжалланган қурилмалар. Зарядланган зарралар тезлаткичларининг ишлаши зарядланган зарраларнинг электр ва магнит майдонлар билан ўзаро таъсиридан фойдаланишга асосланган.

### Устройство блокировки передатчика

**uz** - uzatkichni blokirovkalash  
qurilmasi

узаткични блокировкалаш  
қурилмаси

**en** - antitransmit - receive tube

Устройство, обеспечивающее отключение передатчика от остальной части радиолокационной системы на время паузы между сверхвысокочастотными импульсами высокого уровня мощности.

Примечание – Под высоким уровнем мощности понимается мощность, при которой проявляется нелинейность характеристики элемента.

Uzatkichning radiolokatsion tizimning boshqa qismidan, quvvat yuqori darajasining o'ta yuqori

## У

chastotali impulslari o'rtasidagi pauza vaqtiga uzib qo'yilishini ta'minlaydigan qurilma.

Izoh – Quvvatning yuqori darajasi deganda, element xarakteristikasining nochiziqiligi namoyon bo'ladigan quvvat tushuniladi.

Узаткичнинг радиолокацион тизимнинг бошқа қисмидан, қувват юқори даражасининг ўта юқори частотали импульслари ўртасидаги пауза вақтига узиб қўйилишини таъминлайдиган қурилма.

Изоҳ – Қувватнинг юқори даражаси деганда, элемент хarakteristikasининг nochiziqiligi namoyon bo'ladigan quvvat tushuniladi.

### Устройство внутренней связи

**uz** - ichki aloqa qurilmasi

ички алоқа қурилмаси

**en** - talk-through facility

Устройство, благодаря которому при работе в двухчастотном режиме две подвижные радиостанции могут связываться между собой через наземную радиостанцию или третью радиостанцию.

Ikki chastotali rejimda ikkita ko'chma radiostansiyaning yer usti radiostansiyasi yoki uchinchi radiostansiya orqali o'zaro bog'lanishini ta'minlaydigan qurilma.

Икки частотали режимда иккита кўчма радиостанциянинг ер усти радиостанцияси ёки учинчи радиостанция орқали ўзаро боғланишини таъминлайдиган қурилма.

### Устройство инерционной синхронизации

**uz** - inersion sinxronlash qurilmasi

инерцион синхронлаш

қурилмаси

**en** - flywheel synchronization

Синхронизирующее устройство, используемое в телевизионных приемниках, обеспечивающее правильное разложение строк, даже в том случае, когда происходит временное искажение синхроимпульса.

Televizion qabulqilgichlarda foydalaniladigan, sinxroimpulsning vaqtinchalik buzilishi yuz berganda ham satrlarning to'g'ri joylashishini ta'minlaydigan sinxronlovchi qurilma.

Телевизион қабулқилгичларда фойдаланиладиган, синхроимпульснинг вақтинчалик бузилиши юз берганда ҳам сатрларнинг тўғри жойлашишини таъминлайдиган синхронловчи қурилма.

## У

### **Устройство отображения информации**

**uz** - axborotni aks ettirish qurilmasi

ахборотни акс эттириш курилмаси

**en** - information display device

Электронный прибор, обеспечивающий представление информации, носителем которой является электрический сигнал в форме, удобной для визуального восприятия.

Tashuvchisi vizual qabul qilish uchun qulay shakldagi elektr signal bo'lgan axborotning taqdim etilishini ta'minlaydigan elektron asbob.

Ташувчиси визуал қабул қилиш учун қулай шаклдаги электр сигнал бўлган ахборотнинг тақдим этилишини таъминлайдиган электрон асбоб.

### **Устройство управления лазерным излучением**

**uz** - lazer nurlanishni boshqarish qurilmasi

лазер нурланишни бошқариш курилмаси

**en** - laser radiation management device

Устройство, изменяющее параметры лазерного излучения под действием управляющего сигнала по заданному закону.

Berilgan qonun bo'yicha boshqaruvchi signal ta'sirida lazer nurlanish parametrlarini o'zgartiradigan qurilma.

Берилган қонун бўйича бошқарувчи сигнал таъсирида лазер нурланиш параметрларини ўзгартирадиган курилма.

### **Устройство фокусировки лазерного излучения**

**uz** - lazer nurlanishni fokuslash qurilmasi

лазер нурланишни фокуслаш курилмаси

**en** - laser radiation focusing device

Оптическое устройство для уменьшения поперечного сечения и повышения плотности энергии пучка лазерного излучения в заданном пространстве.

Berilgan fazoda lazer nurlanish dastasining ko'ndalang kesimini kichraytirish va energiya zichligini oshirish uchun mo'ljallangan optik qurilma.

Берилган фазода лазер нурланиш дастасининг кўндаланг кесимини кичрайтириш ва энергия зичлигини ошириш учун мўлжалланган оптик курилма.

### **Устройство формирования и преобразования сигналов времени**

Устройство, обеспечивающее выделение и формирование сигналов бортового времени, необходимых для временного масштабирования

## У

**uz** - vaqt signallarini shakllantirish va o'zgartirish qurilmasi

вақт сигналларини шакллантириш ва ўзгартириш қурилмаси

**en** - timing equipment

ния телеметрических сообщений в процессе регистрации и отображения.

Qayd etish va tasvirlash jarayonida telemetrik xabarlarini vaqtinchalik masshtablash uchun zarur bo'lgan bort vaqt signallarini ajratish va shakllantirishni ta'minlovchi qurilma.

Қайд этиш ва тасвирлаш жараёнида телеметрик хабарларни вақтинчалик масштаблаш учун зарур бўлган борт вақт сигналларини ажратиш ва шакллантиришни таъминловчи қурилма.

### **Устройство шумопонижения**

**uz** - shovqinni pasaytirish qurilmasi

шовқинни пасайтириш қурилмаси

**en** - noise reduction

Вспомогательное бытовое радиоэлектронное устройство, предназначенное для уменьшения шумов при записи и/или воспроизведения звука.

Tovushni yozish va/yoki uni qayta eshittirish paytida shovqinlarni kamaytirish uchun mo'ljallangan, yordamchi maishiy radioelektron qurilma.

Товушни ёзиш ва/ёки уни қайта эшиттириш пайтида шовқинларни камайтириш учун мўлжалланган, ёрдамчи маиший радиоэлектрон қурилма.

### **Уход параметра электровакуумного прибора**

**uz** - elektrovakuum asbob parametrining chetga chiqishi

электровакуум асбоб параметрининг четга чиқиши

**en** - electrovacuum device parameter drift

Относительное или абсолютное изменение параметра электровакуумного прибора при эксплуатации, испытании или хранении, обусловленное изменением свойств этого прибора.

Elektrovakuum asbob parametrining, undan foydalanishda, sinash paytida yoki saqlashda, bu asbob xossalarining o'zgarishi bilan bog'liq nisbiy yoki absolyut o'zgarishi.

Электровакуум асбоб параметрининг, ундан фойдаланишда, синаш пайтида ёки сақлашда, бу асбоб хоссаларининг ўзгариши билан боғлиқ нисбий ёки абсолют ўзгариши.

## Ф

### **Фазируемый магнетрон**

**uz** - fazalanadigan magnetron

fazalanaadigan magnetron

**en** - phasing magnetron

Магнетрон, у которого управление начальной фазой генерируемых колебаний и ее стабилизация, осуществляются введением в резонаторную систему внешнего сигнала.

Generatsiyalanadigan tebranihlarning boshlang'ich fazasini boshqarish va uni stabilashtirish, rezonator tizimga tashqi signalni kiritish orqali amalga oshiriladigan magnetron.

Генерацияланадиган тебранишларнинг бошланғич фазасини бошқариш ва уни стабиллаштириш, резонатор тизимга ташқи сигнални киритиш орқали амалга ошириладиган магнетрон.

### **Фазовая задержка электрооптического модулятора**

**uz** - elektrooptik modulyatorning fazaviy kechikishi

электрооптик модуляторнинг фазавий кечикиши

**en** - electro optical

modulator phase delay

Разность фаз на выходе модулятора между составляющими электрического вектора электромагнитной волны, параллельными главным (наведенным) осям оптического модуляционного элемента.

Modulyator chiqishidagi, elektromagnit to'liqin elektr vektorining optik modulyatsion element bosh (yo'naltirilgan) o'qlariga parallel bo'lgan tashkil etuvchilari o'rtasidagi fazalar farqi.

Модулятор чиқишидаги, электромагнит тўлқин электр векторининг оптик модуляцион элемент бош (йўналтирилган) ўқларига параллел бўлган ташкил этувчилари ўртасидаги фазалар фарқи.

### **Фазо-волновая характеристика записи-воспроизведения**

**uz** - yozish-qayta tiklashning faza-to'liqin xarakteristikasi

ёзиш-қайта тиклашнинг фаза-тўлқин харақтеристикаси

**en** - reproduction record phase-

wave characteristic

Зависимость фазового сдвига между сигналом в головке записи и электродвижущей силой головки воспроизведения за вычетом фазового сдвига, вызванного задержкой воспроизведения относительно записи, от волновой плотности записи.

Yozish kallagidagi signal bilan qayta tiklash kallagining elektr yurituvchi kuchi o'rtasidagi fazaviy siljishning, qayta tiklashning yozishga nisbatan kechikishi tufayli kelib chiqadigan fazaviy siljishni hisobga olmaganda, yozishning

## Ф

to‘lqin zichligiga bog‘liqligi.

Ёзиш каллагидаги сигнал билан қайта тиклаш каллагининг электр юритувчи кучи ўртасидаги фазавий силжишнинг, қайта тиклашнинг ёзишга нисбатан кечикиши тўфайли келиб чиқадиган фазавий силжишни ҳисобга олмаганда, ёзишнинг тўлқин зичлигига боғлиқлиги.

### **Фазо-частотная характеристика записи-воспроизведения**

**uz** - yozish-qayta tiklashning faza-chastota xarakteristikasi

ёзиш-қайта тиклашнинг фаза-частота

характеристикаси

**en** - reproduction record phase-frequency characteristic

Зависимость фазового сдвига между сигналом в головке записи и электродвижущей силой головки воспроизведения за вычетом фазового сдвига, вызванного задержкой воспроизведения относительно записи, от частоты сигнала.

Yozish kallagidagi signal bilan qayta eshittirish kallagining elektr yurituvchi kuchi o‘rtasidagi fazaviy siljishning, qayta eshittirishning yozishga nisbatan kechikishi tufayli kelib chiqadigan fazaviy siljishni hisobga olmaganda, signal chastotasiga bog‘liqligi.

Ёзиш каллагидаги сигнал билан қайта эшитириш каллагининг электр юритувчи кучи ўртасидаги фазавий силжишнинг, қайта эшитиришнинг ёзишга нисбатан кечикиши тўфайли келиб чиқадиган фазавий силжишни ҳисобга олмаганда, сигнал частотасига боғлиқлиги.

### **Фазо-частотная характеристика канала записи-воспроизведения**

**uz** - yozish-qayta tiklash kanalining faza-chastota xarakteristikasi

ёзиш-қайта тиклаш каналнинг фаза-частота

характеристикаси

**en** - phase-frequency characteristic of reproduction record channel

Зависимость фазового сдвига между сигналом на входе канала и сигналом на выходе канала, за вычетом фазового сдвига, вызванного задержкой воспроизведения относительно записи, от частоты сигнала.

Kanalning kirishidagi signal bilan kanalning chiqishidagi signal o‘rtasidagi fazaviy siljishning, qayta eshittirishning yozishga nisbatan kechikishi tufayli kelib chiqadigan fazaviy siljishni hisobga olmaganda, signal chastotasiga bog‘liqligi.

## Ф

Каналнинг киришидаги сигнал билан каналнинг чиқишидаги сигнал ўртасидаги фазавий силжишнинг, қайта эшиттиришнинг ёзишга нисбатан кечикиши туфайли келиб чиқадиган фазавий силжишни ҳисобга олмаганда, сигнал частотасига боғлиқлиги.

### **Фазовращательный прибор сверхвысокой частоты**

**uz** - faza aylantiruvchi

o'ta yuqori chastota asbobi

фаза айлантйривчи

ўта юқори частота асбоби

**en** - phase-shifter

Прибор сверхвысокой частоты, предназначенный для сдвига фазы выходного сигнала относительно фазы входного сигнала.

Chiqish signali fazasini kirish signali fazasiga nisbatan siljitish uchun mo'ljallangan o'ta yuqori chastota asbobi.

Чиқиш сигнали фазасини кириш сигнали фазасига нисбатан силжитиш учун мўлжалланган ўта юқори частота асбоби.

### **Фазовый детектор**

**uz** - fazaviy detektor

фазавий детектор

**en** - phase detector

Детектор, напряжение на выходе которого зависит от разности фаз двух входных сигналов равной частоты.

Chiqishidagi kuchlanish bir xil chastotali ikkita kirish signalining fazalar farqiga bog'liq bo'lgan detektor.

Чиқишидаги кучланиш бир хил частотали иккита кириш сигналининг фазалар фарқига боғлиқ бўлган детектор.

### **Фазовый корректор**

**uz** - fazaviy korrektor

фазавий корректор

**en** - equalizer

Схема, предназначенная для корректирования в некоторых интервалах частот амплитудно-частотного (частотно-фазового) искажения, образующегося в цепи связи.

Ba'zi chastotalar intervallarida aloqa zanjirida paydo bo'ladigan amplituda-chastota (chastota-faza) buzilishlarini tuzatish uchun mo'ljallangan sxema.

Баъзи частоталар интервалларида алоқа занжирида пайдо бўладиган амплитуда-частота (частота-фаза) бузилишларини тузатиш учун мўлжалланган схема.



## Ф

### **Фазовый метод пеленгования**

**uz** - fazaviy pelenglash metodi  
фазавий пеленглаш

методи

**en** - phase method of bearing

Метод пеленгования, основанный на измерении разности фаз принимаемых антенной радиопеленгатора сигналов и сигнала, соответствующего северному направлению.

Radiopelengator antennisasi qabul qiladigan signallarning fazalar farqini va shimol yoʻnalishiga mos keladigan signalni oʻlchashga asoslangan pelenglash metodi.

Радиопеленгатор антеннаси қабул қиладиган сигналларнинг фазалар фарқини ва шимол йўналишига мос келадиган сигнални ўлчашига асосланган пеленглаш методи.

### **Фазорегулирующий трансформатор питания**

**uz** - faza rostlaydigan taʼminot transformatori

фаза ростлайдиган

таъминот трансформатори

**en** - phase-shifting transformer

Трансформатор питания электронной аппаратуры, в котором фазы вторичного напряжения регулируются по отношению к фазе первичного напряжения.

Elektron apparaturaning, ikkilamchi kuchlanish fazalari birlamchi kuchlanish fazasiga nisbatan rostlanadigan taʼminot transformatori.

Электрон аппаратуранинг, иккиламчи кучланиш фазалари бирламчи кучланиш фазасига нисбатан ростланадиган таъминот трансформатори.

### **Фантастрон**

**uz** - fantastron

фантастрон

**en** - phantastron

Однотактовый триггер, в котором длительность квазистойчивого состояния является линейной функцией управляющего напряжения; линейность достигается при помощи эффекта Миллера.

Kvazibarqaror holatning davomiyligi boshqaruvchi kuchlanishning chiziqli funksiyasi hisoblanadigan bir taktli trigger; chiziqlilikka Miller effekti yordamida erishiladi.

Квазибарқарор ҳолатнинг давомийлиги бошқарувчи кучланишнинг чизиқли функцияси ҳисобланадиган бир тактли триггер; чизиқlilikка Миллер эффекти ёрдамида эришилади.

## Ф

### **Фарадея эффект**

**uz** - faradey effekti

фарадей эффекти

**en** - faraday effect

Один из эффектов магнитооптики, заключающийся во вращении плоскости поляризации света при его распространении в намагниченном веществе. Фарадея эффект наблюдается также в сверхвысокочастотном диапазоне.

Magnitooptikadagi effektlardan biri bo'lib, yorug'lik qutblanish tekisligining yorug'lik magnitlangan moddada tarqalayotganda aylanishida ifodalanadi. Faradey effekti, shuningdek, o'ta yuqori chastotali diapazonda ham kuzatiladi.

Магнитооптикадаги эффектлардан бири бўлиб, ёруғлик қутбланиш текислигининг ёруғлик магнитланган моддада тарқалаётганда айланишида ифодаланади. Фарадей эффекти, шунингдек, ўта юқори частотали диапазонда ҳам кузатилади.

### **Федотова-Кирка эффект**

**uz** - Fedotov-Kirk effekti

Федотов-Кирк эффекти

**en** - Fedotov-Kirka effect

Смещение границ обедненной области коллекторного перехода биполярного транзистора при увеличении плотности коллекторного тока.

Kollektor tokining zichligi oshganda, bipolyar tranzistor kollektor o'tishining kuchsizlashgan sohasi chegaralarining siljishi.

Коллектор токининг зичлиги ошганда, биполяр транзистор коллектор ўтишининг кучсизлашган соҳаси чегараларининг силжиши.

### **Ферритовое защитное устройство**

**uz** - ferrit himoya qurilmasi

феррит ҳимоя

қурилмаси

**en** - ferrite protector

Сверхвысокочастотное защитное устройство, в котором нелинейная ограничительная характеристика обусловлена применением ферритовых элементов.

Nochiziqli cheklovchi xarakteristika ferritli elementlarning qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lgan o'ta yuqori chastotali himoya qurilmasi.

Ночизикли чекловчи характеристика ферритли элементларнинг қўлланилиши билан боғлиқ бўлган ўта юқори частотали ҳимоя қурилмаси.

## Ф

### **Феррорезонансный стабилизатор**

**uz** - ferrozonans stabilizator

феррорезонанс

стабилизатор

**en** - ferroresonant stabilizer

Устройство для стабилизации напряжения или тока, основанное на явлении электромагнитного резонанса напряжений или токов в последовательно или параллельно соединенных конденсаторе и электрическом реакторе.

Parallel yoki ketma-ket ulangan kondensatorda va elektr reaktorda kuchlanishlar yoki toklarning elektromagnit rezonans hodisasiga asoslangan, kuchlanish yoki tokni stabillashtiradigan qurilma.

Параллел ёки кетма-кет уланган конденсаторда ва электр реакторда кучланишлар ёки токларнинг электромагнит резонанс ходисасига асосланган, кучланиш ёки токни стабиллаштирадиган қурилма.

### **Фидер**

**uz** - fider

фидер

**en** - feeder

Электрическая цепь и вспомогательные устройства (соединители, вентили, фазовращатели), с помощью которых энергия радиочастотного сигнала подводится от радиопередатчика к антенне или от антенны к радиоприемнику.

Elektr zanjiri va radiochastota signalining energiyasini radiouzatkichdan antennaga yoki antenadan radioqabulqilgichga yetkazadigan yordamchi qurilmalar (ulagichlar, ventillar, faza aylantirgichlar).

Электр занжири ва радиочастота сигналининг энергиясини радиоузаткичдан антеннага ёки антеннадан радиоқабулқилгичга етказадиган ёрдамчи қурилмалар (улагичлар, вентиллар, фаза айлантиргичлар).

### **Фиксирование**

**uz** - qayd etish

қайд этиш

**en** - clamping

Автоматическое регулирование среднего уровня сигнала, обеспечивающее поддержание определенной точки сигнала на уровне заданного опорного значения; точка сигнала определяется либо определенным значением, либо определенным мгновением во времени.

Signalning oʻrtacha darajasini, signalning muayyan nuqtasi berilgan tayanch qiymat darajasida saqlab turilishi taʼminlanadigan tarzda avtomatik

## Ф

rostlash; signal nuqtasi muayyan qiymat bilan yoki muayyan vaqt oni bilan belgilanadi.

Сигналнинг ўртача даражасини, сигналнинг муайян нуқтаси берилган таянч қиймат даражасида сақлаб турилиши таъминланадиган тарзда автоматик ростлаш; сигнал нуқтаси муайян қиймат билан ёки муайян вақт они билан белгиланади.

### **Фиксированная частота прибора сверхвысокой частоты**

**uz** - o'ta yuqori chastota asbobining qayd qilingan chastotasi

ўта юқори частота асбобининг қайд қилинган частотаси

**en** - spot frequency

Частота прибора сверхвысокой частоты, выбранная из рабочего диапазона частот.

O'ta yuqori chastota asbobining chastotalarning ishchi diapazonidan tanlangan chastotasi.

Ўта юқори частота асбобининг частоталарининг ишчи диапозонидан танланган частотаси.

### **Фиксирующий диод**

**uz** - qayd qiluvchi diod

қайд қилувчи диод

**en** - restorer diode

Диод, используемый для добавления к сигналу постоянной составляющей взамен правильно составляющей, потерянной во время предыдущей операции.

Signalga, avvalgi operatsiya vaqtida yo'qotilgan to'g'ri tashkil etuvchi o'rniga o'zgaras tashkil etuvchini qo'shish uchun foydalaniladigan diod.

Сигналга, аввалги операция вақтида йўқотилган тўғри ташкил этувчи ўрнига ўзгармас ташкил этувчини қўшиш учун фойдаланиладиган диод.

### **Фильтр переменного тока**

**uz** - o'zgaruvchan tok filtri

ўзгарувчан ток фильтри

**en** - alternating current filter

Силовой фильтр, предназначенный для уменьшения уровня высших гармоник на стороне переменного тока преобразователя.

O'zgartirgichning o'zgaruvchan toki tomonda yuqori garmonikalar sathini kamaytirish uchun mo'ljallangan kuch filtri.

Ўзгартиргичнинг ўзгарувчан токи томонда юқори гармоникалар сатҳини камайтириш учун мўлжалланган куч фильтри.

## Ф

### **Фильтр постоянного тока**

**uz** - o'zgarmas tok filtri

ўзгармас ток фильтри

**en** - direct current filter

Силовой фильтр, предназначенный для уменьшения пульсаций на стороне постоянного тока.

O'zgarmas tok tomonda pulsatsiyalarni kamaytirish uchun mo'ljallangan kuch filtri.

Ўзгармас ток томонда пульсацияларни камайтириш учун мўлжалланган куч фильтри.

### **Фокон (фокусирующий конус)**

**uz** - fokon (fokuslovchi konus)

фокон (фокусловчи конус)

**en** - focon (focusing cone)

Устройство на основе световода с сужающимся по ходу светового луча сечением, предназначенное для концентрации оптического излучения и для изменения масштаба передаваемого изображения.

Yorug'lik nuri yo'li bo'ylab torayib boradigan yorug'lik o'tkazgich asosidagi, optik nurlanishni to'plash va uzatiladigan tasvir ko'lamini o'zgartirish uchun mo'ljallangan qurilma.

Ёруғлик нури йўли бўйлаб торайиб борадиган ёруғлик ўтказгич асосидаги, оптик нурланишни тўплаш ва узатиладиган тасвир кўламини ўзгартириш учун мўлжалланган қурилма.

### **Фокусировка пучка лазерного излучения**

**uz** - lazer nurlanish

dastasini fokuslash

лазер нурланиш

дастасини фокуслаш

**en** - laser beam focusing

Увеличение в заданном пространстве концентрации энергии пучка лазерного излучения с помощью оптических устройств.

Berilgan fazoda optik qurilmalar yordamida lazer nurlanish dastasi energiyasining konsentratsiyasini oshirish.

Берилган фазода оптик қурилмалар ёрдамида лазер нурланиш дастаси энергиясининг концентрациясини ошириш.

### **Формат сигналограммы**

**uz** - signalogramma formati

сигналограмма формати

**en** - recorder format

Нормируемые размеры сигналограммы, включая размеры, расположение и назначение дорожек или строчек записи.

Signalogrammaning, yozish yo'lkalari yoki satrlarining o'lchamlari, joylashishi hamda vazifasi bilan birgalikdagi normalangan o'lchamlari.

## Ф

Сигналограмманинг, ёзиш йўлкалари ёки сатрларининг ўлчамлари, жойлашиши ҳамда вазифаси билан биргаликдаги нормаланган ўлчамлари.

### **Формирование электронного пучка**

**uz** - elektron dastani  
shakllantirish

электрон дастани  
шакллантириш

**en** - cathode beam formation

Придание электронному пучку необходимой конфигурации с помощью электрических и магнитных полей.

Elektr va magnit maydonlar yordamida elektron dastaning zarur shaklga keltirilishi.

Электр ва магнит майдонлар ёрдамида электрон дастанинг зарур шаклга келтирилиши.

### **Фотодиод**

**uz** - fotodiod

фотодиод

**en** - photodiode

Полупроводниковый диод с p-n-переходом между двумя типами полупроводника или между полупроводником и металлом, в котором поглощение излучения, происходящее в непосредственной близости перехода, вызывает фотогальванический эффект.

Yarimo'tkazgichning ikki turi o'rtasidagi yoki yarimo'tkazgich va metall o'rtasidagi p-n-o'tishga ega bo'lgan yarimo'tkazgichli diod, unda bevosita o'tish yaqinida yuz beradigan nurlanishning yutilishi fotogalvanik effektini keltirib chiqaradi.

Яримўтказгичнинг икки тури ўртасидаги ёки яримўтказгич ва металл ўртасидаги p-n-ўтишга эга бўлган яримўтказгичли диод, унда бевосита ўтиш яқинида юз берадиган нурланишнинг ютилиши фотогальваник эффектни келтириб чиқаради.

### **Фотодиссоциативный лазер**

**uz** - fotodissotsiativ lazer

фотодиссоциатив лазер

**en** - photodissociation laser

Газовый лазер, в котором лазерная активная среда возникает в результате фотодиссоциации молекул.

Lazer aktiv muhit molekulalarning fotodissotsiatsiyasi natijasida yuzaga keladigan gazli lazer.

Лазер актив мухит молекулаларнинг фотодиссоциацияси натижасида юзага келадиган газли лазер.

## Ф

### **Фотодиссоциация**

**uz** - fotodissotsiatsiya  
фотодиссоциация  
**en** - photodissociation

Распад молекул на атомы и радикалы при поглощении оптического излучения.

Optik nurlanishning yutilishi paytida molekularning atomlar va radikallarga parchalanishi.

Оптик нурланишнинг ютилиши пайтида молекулаларнинг атомлар ва радикалларга парчаланиши.

### **Фотоионизационный лазер**

**uz** - fotoionizatsion lazer  
фотоионизацион лазер  
**en** - photoionized laser

Газоразрядный лазер с высоким давлением газовой смеси, в которой проводимость для обеспечения однородного несамостоятельного разряда создается под действием ионизирующего оптического излучения.

Bir jinsli mustaqil bo'lmagan razryadni ta'minlash uchun o'tkazuvchanlik ionlovchi optik nurlanish ta'sirida vujudga keltiriladigan, yuqori bosimli gaz aralashmali gaz-razryadli lazer.

Бир жинсли мустақил бўлмаган разрядни таъминлаш учун ўтказувчанлик ионловчи оптик нурланиш таъсирида вужудга келтирилладиган юқори босимли газ аралашмали газ-разрядли лазер.

### **Фотокатод**

**uz** - fotokatod  
фотокатод  
**en** - photocathode

Экран, на котором в передающей электронной трубке формируется оптическое изображение и элементы которого излучают электроны под воздействием света.

Uzatuvchi elektron trubkada optik tasvir shakllanadigan va elementlari yorug'lik ta'sirida elektronlarni nurlantiradigan ekran.

Узатувчи электрон трубкада оптик тасвир шаклланадиган ва элементлари ёруғлик таъсирида электронларни нурлантирадиган экран.

### **Фотолитография**

**uz** - fotolitografiya  
фотолитография  
**en** - photolithography

Технология, используемая при производстве интегральных схем, полупроводниковых приборов, тонкопленочных элементов и печатных плат.

## Ф

Integral sxemalar, yarimoʻtkazgichli asboblardan, yuqqa plyonkali elementlar va bosma platalar ishlab chiqarishda qoʻllaniladigan texnologiya.

Интеграл схемалар, яримўтказгичли асбоблар, юпқа плёнкали элементлар ва босма платалар ишлаб чиқаришда қўлланиладиган технология.

### **Фотоприемное устройство**

**uz** - fotoqabulqiluvchi qurilma

фотоқабулқилувчи қурилма

**en** - photo receiving device

Фоточувствительный полупроводниковый прибор, состоящий из фотоэлектрического полупроводникового приемника излучения и схемы предварительного усиления фотосигнала в гибридном или интегральном исполнении, объединенных в единую конструкцию.

Yaxlit konstruksiyaga birlashtirilgan fotoelektrik yarimoʻtkazgichli nurlanish qabulqilgich va gibridd yoki integral koʻrinishdagi fotosignalni oldindan kuchaytirish sxemasidan iborat boʻlgan fotosezgir yarimoʻtkazgichli asbob.

Яхлит конструкцияга бирлаштирилган фотоэлектрик яримўтказгичли нурланиш қабулқилгич ва гибрид ёки интеграл кўринишдаги фотосигнални олдиндан кучайтириш схемасидан иборат бўлган фотосезгир яримўтказгичли асбоб.

### **Фотопроводимость (фоторезистивный эффект)**

**uz** - fotooʻtkazuvchanlik (fotorezistiv effekt)

фотоўтказувчанлик (фоторезистив эффект)

**en** - photoconductive effect (photoresistivity effect)

Изменение электропроводности полупроводника под действием электромагнитного излучения.

Elektromagnit nurlanish taʼsirida yarimoʻtkazgich elektr oʻtkazuvchanligining oʻzgarishi.

Электромагнит нурланиш таъсирида яримўтказгич электр ўтказувчанлигининг ўзгариши.

### **Фоторегистрирующая электронно-лучевая трубка**

**uz** - fotoqayd qiluvchi elektron-nurli trubka

Электронно-лучевой прибор, предназначенный для регистрации изображений на фоточувствительных материалах.



## Ф

фотокайдқилувчи  
электрон-нурли трубка  
**en** - photo registering  
electronic-beam tube

**Фоторезист**  
**uz** - fotorezist  
фоторезист  
**en** - photoresist

**Фоторезистор**  
**uz** - fotorezistor  
фоторезистор  
**en** - photoconductive cell

**Фотосимистор**  
**uz** - fotosimistor  
фотосимистор  
**en** - phototriac

Tasvirlarni fotosezgir materiallarda qayd qilish uchun mo'ljallangan elektron-nurli asbob.

Тасвирларни фотосезгир материалларда қайд қилиш учун мўлжалланган электрон-нурли асбоб.

Резист, чувствительный к оптическому излучению видимой или ультрафиолетовой области.

Ко'ринадиган yoki ultrabinafsha sohadagi optik nurlanishga sezgir bo'lgan rezist.

Кўринадиган ёки ультрабинафша соҳадаги оптик нурланишга сезгир бўлган резист.

Фотоэлектрический полупроводниковый приемник излучения, принцип действия которого основан на эффекте фотопроводимости.

Ishlash prinsipi fotoo'tkazuvchanlik effektiga asoslangan, fotoelektrik yarimo'tkazgichli nurlanish qabulqilgich.

Ишлаш принципи фотоўтказувчанлик эффектига асосланган, фотоэлектрик яримўтказгичли нурланиш қабулқилгич.

Фотогальванический приемник оптического излучения, воздействие энергии которого приводит к переключению в проводящее состояние симметричного тиристора при любой полярности напряжения на электродах.

Energiyasining ta'siri, elektrodlarda kuchlanish har qanday qutblilikda bo'lganda, simmetrik tiristorni o'tkazuvchi holatga almashlab ulanishiga olib keladigan, fotogalvanik optik nurlanish qabulqilgich.

Энергиясининг таъсири, электродларда кучланиш ҳар қандай қутблиликда бўлганда, симметрик тиристорни ўтказувчи ҳолатга алмашлаб уланишига олиб келадиган, фотогальваник оптик нурланиш қабулқилгич.

## Ф

### **Фототиристор**

**uz** - fototiristor

фототиристор

**en** - photothyristor

Тиристор, в котором используется фотоэлектрический эффект.

Fotoelektrik effektdan foydalaniladigan tiristor.

Фотоэлектрик эффектдан фойдаланиладиган тиристор.

### **Фототранзистор**

**uz** - fototranzistor

фототранзистор

**en** - phototransistor

Транзистор, в котором используется фотоэлектрический эффект.

Fotoelektrik effektdan foydalaniladigan tranzistor.

Фотоэлектрик эффектдан фойдаланиладиган транзистор.

### **Фотоумножитель**

**uz** - fotoko'paytirgich

фотоку́пайтиргич

**en** - photomultiplier

Электривакуумный прибор, преобразующий энергию оптического излучения в электрическую, обычно с преобразованием оптического сигнала в электрический и содержащий фотокатод, вторично-электронный умножитель и анод.

Optik nurlanish energiyasini, odatda optik signalni elektr signalga aylantirgan holda, elektr energiyasiga, o'zgartiruvchi hamda fotokatodi, ikkilamchi elektron ko'paytirgichi va anodi bo'lgan elektrovakuum asbob.

Оптик нурланиш энергиясини, одатда оптик сигнални электр сигналга айланттирган холда, электр энергиясига ўзгарттирувчи ҳамда фотокатоди, иккиламчи электрон кўпайтиргичи ва аноди бўлган электривакуум асбоб.

### **Фотоупругость (пьезоэлектрический эффект)**

**uz** - fotoelastiklik

(piezoelektrik effekt)

фотоэластиклик

(пьезоэлектрик эффект)

**en** - photoelastic effect

(piezoelectric effect)

Возникновение оптической анизотропии в первоначально изотропных твердых телах под действием механических напряжений.

Mexanik kuchlanishlar ta'sirida dastlab izotrop bo'lgan qattiq jismlarda optik anizotropiyaning yuzaga kelishi.

Механик кучланишлар таъсирида дастлаб изотроп бўлган қаттиқ жисмларда оптик анизотропиянинг юзага келиши.

## Ф

### **Фотохромизм**

**uz** - fotoxromizm

фотохромизм

**en** - photochromism

Способность вещества обратимо приобретать или изменять окраску (спектры пропускания и поглощения) под действием оптического излучения.

Moddaning optik nurlanish ta'sirida rangini (o'tkazish va yutish spektrlarini) o'zgartirish yoki qayta egallash qobiliyati.

Модданинг оптик нурланиш таъсирида рангини (ўтказиш ва ютиш спектрларини) ўзгартириш ёки қайта эгаллаш қобилияти.

### **Фоточувствительный полупроводниковый прибор**

**uz** - fotosezgir yarim-

o'tkazgichli asbob

фотосезгир ярим-

ўтказгичли асбоб

**en** - photosensitive

semiconductor device

Полупроводниковый прибор, чувствительный к электромагнитному излучению в видимой, инфракрасной и/или ультрафиолетовой областях спектра.

Spektrning ko'rinadigan, infraqizil va/yoki ultrabinafsha sohalarida elektromagnit nurlanishga sezgir bo'lgan yarimo'tkazgichli diod.

Спектрнинг кўринадиган, инфрақизил ва/ёки ультрабинафша соҳаларида электромагнит нурланишга сезгир бўлган яримўтказгичли диод.

### **Фотоэлектрическая головка звукоснимателя**

**uz** - tovush olgichning

fotoelektrik kallagi

товуш олгичнинг

фотоэлектрик каллаги

**en** - photoelectric cartridge

Головка звукоснимателя, действие которой основано на изменениях светового потока, падающего от источника света на фотоэлектрический преобразователь, возникающих при колебаниях воспроизводящей иглы.

Tovush olgichning, ishlashi yorug'lik manбайдан фотоэлектрик o'zgartirgichga tushadigan yorug'lik oqimining, qayta tiklovchi ignaning tebranishlari ta'sirida yuzaga keladigan o'zgarishlariga asoslangan kallagi.

Товуш олгичнинг, ишлаши ёруғлик манбайдан фотоэлектрик ўзгартиргичга тушадиган ёруғлик оқимининг, қайта тикловчи игнанинг тебранишлари таъсирида юзага келадиган ўзгаришларига асосланган каллаги.

## Ф

### **Фотоэлектрические явления**

**uz** - fotoelektr hodisalar  
фотоэлектр ходисалар  
**en** - photoelectricity

Электрические явления (изменение электропроводности, эмиссия электронов, возникновение электродвижущей силы), происходящие в веществе при воздействии на него электромагнитного излучения, в частности света.

Elektromagnit nurlanish, jumladan, nur ta'sirida moddada yuz beradigan elektr hodisalar (elektr o'tkazuvchanlikning o'zgarishi, elektronlar emissiyasi, elektr yurituvchi kuchning paydo bo'lishi).

Электромагнит нурланиш, жумладан, нур таъсирида моддада юз берадиган электр ходисалар (электр ўтказувчанликнинг ўзгариши, электронлар эмиссияси, электр юритувчи кучнинг пайдо бўлиши).

### **Фотоэлектрический полупроводниковый приемник излучения**

**uz** - fotoelektrik yarimo'tkazgichli nurlanish qabulqilgich  
фотоэлектрик яримўтказгичли нурланиш қабулқилгич  
**en** - photoelectric semiconductor detector

Фоточувствительный полупроводниковый прибор, принцип действия которого основан на внутреннем фотоэффекте в полупроводнике.

Ishlash prinsipi yarimo'tkazgichdagi ichki fotoeffektga asoslangan fotosezgir yarimo'tkazgichli asbob.

Ишлаш принципи яримўтказгичдаги ички фотоэффектга асосланган фотосезгир яримўтказгичли асбоб.

### **Фотоэлектрический генератор**

**uz** - fotoelektrik generator  
фотоэлектрик генератор  
**en** - photoelectric generator

Устройство, непосредственно преобразующее энергию оптического излучения в электрическую энергию на основе явления внутреннего фотоэффекта в полупроводниках.

Yarimo'tkazgichlardagi ichki fotoeffekt hodisasi asosida optik nurlanish energiyasini bevosita elektr energiyasiga aylantiruvchi qurilma.

Яримўтказгичлардаги ички фотоэффект ходисаси асосида оптик нурланиш энергиясини бевосита электр энергиясига айлантйрувчи қурилма.

## Ф

**Фотоэлектродвижущая сила**  
**uz** - fotoelektr yurituvchi kuch  
фотоэлектр юритувчи куч  
**en** - photovoltage

Электродвижущая сила, возникающая в полупроводнике при воздействии на него электромагнитного поля и являющаяся следствием фотоэлектрических явлений, связанных с внутренним фотоэффектом.

Yarimoʻtkazgichda elektromagnit maydon taʻsirida yuzaga keladigan va ichki fotoeffekt bilan bogʻliq fotoelektrik hodisalarning oqibati hisoblanadigan elektr yurituvchi kuch.

Yrimʻtkazgichda elektromagnit maydon taʻsirida yuzaga keladigan va ichki fotoeffekt bilan bogʻliq fotoelektrik hodisalarning oqibati hisoblanadigan elektr yurituvchi kuch.

**Фотоэлектродвижущая сила диодной оптопары**  
**uz** - diodli optoparaning fotoelektr yurituvchi kuchi  
диодли оптопаранинг фотоэлектр юритувчи кучи  
**en** - diode optocouple photoelectromotive

Электродвижущая сила на выходе диодной оптопары в вентильном режиме работы фотоприемного элемента при заданном входном токе.

Berilgan kirish tokida fotoqabulqiluvchi elementning ventilli ish rejimida diodli optopara chiqishidagi elektr yurituvchi kuch.

Берилган кириш токида фотоқабулқилувчи элементнинг вентилли иш режимда диодли оптопара чиқишидаги электр юритувчи куч.

**Фотоэлектронная эмиссия (внешний фотоэффект)**  
**uz** - fotoelektron emissiya (tashqi fotoeffekt)  
фотоэлектрон эмиссия (ташқи фотоэффект)  
**en** - photoelectron emission (extrensic photoeffect)

Испускание электронов из одной среды в другую под действием квантов электромагнитного излучения (фотонов).

Elektronlarning elektromagnit nurlanish kvantlari (fotonlar) taʻsirida bir muhitdan boshqasiga chiqarilishi.

Электронларнинг электромагнит нурланиш квантлари (фотонлар) таъсирида бир муҳитдан бошқасига чиқарилиши.

## Ф

### **Фотоэлектронные приборы**

**uz** - fotoelektron asboblar

фотоэлектрон асбоблар

**en** - photoemissive device

Электрвакуумные или полупроводниковые приборы, преобразующие энергию электромагнитного излучения оптического диапазона в электрическую энергию, или преобразующие изображения в невидимых лучах в видимое изображение.

Optik diapazondagi elektromagnit nurlanish energiyasini elektr energiyaga yoki ko‘rinmaydigan nurlardagi tasvirni ko‘rinadigan tasvirga o‘zgartiradigan elektrovakuum yoki yarimo‘tkazgichli asboblar.

Оптик диапазондаги электромагнит нурланиш энергиясини электр энергияга ёки кўринмайдиган нурлардаги тасвирни кўринадиган тасвирга ўзгартирадиган электрвакуум ёки яримўтказгичли асбоблар.

### **Фотоэлектронный**

**умножитель**

**uz** - fotoelektron

ko‘paytirgich

фотоэлектрон

кўпайтиргич

**en** - photoelectric multiplier

Фотоэлектронный прибор, действие которого основано на вторичной электронной эмиссии. Предназначен для усиления слабых фототоков.

Ishlashi ikkilamchi elektron emissiyaga asoslangan, kuchsiz fototolni kuchaytirish uchun mo‘ljallangan fotoelektron asbob.

Ишлаши иккиламчи электрон эмиссияга асосланган, кучсиз фототокни кучайтириш учун мўлжалланган фотоэлектрон асбоб.

### **Фотоэлектронный**

**приемник излучения**

**uz** - fotoelektron nurlanish

qabulqilgich

фотоэлектрон нурланиш

қабулқилгич

**en** - photoelectron radiation

detector

Приемник оптического излучения, в котором преобразование оптического излучения в электрический сигнал осуществляется с использованием потока свободных электронов или электронного луча в вакуумном или газонаполненном объеме.

Optik nurlanishni elektr signalga o‘zgartirish vakuum yoki gaz to‘ldirilgan hajmdagi elektron nurdan yoki erkin elektronlar oqimidan foydalangan holda amalga oshiriladigan optik nurlanishni qabulqilgich.

## Ф

### **Фотоэлемент**

**uz** - fotoelement  
    фотоэлемент  
**en** - photocell

Оптик нурланишни электр сигналга ўзгартириш вакуум ёки газ тўлдирилган хажмдаги электрон нурдан ёки эркин электронлар оқимидан фойдаланган ҳолда амалга ошириладиган оптик нурланишни қабулқилгич.

Электрвакуумный прибор, преобразующий энергию оптического излучения в электрическую, с преобразованием оптического сигнала в электрический, и содержащий фотокатод и анод.

Optik nurlanish energiyasini, optik signalni elektr signalga aylantirish bilan elektr energiyasiga o'zgartiradigan, fotokatodi va anodi bo'lgan elektrovakuum asbob.

Оптик нурланиш энергиясини, оптик сигнални электр сигналга айланттириш билан электр энергиясига ўзгартирадиган, фотокатоли ва аноли бўлган электрвакуум асбоб.

### **Фотоэффeкт**

**uz** - fotoeffekt  
    фотоэффeкт  
**en** - photoeffect

Перераспределение электронов по энергетическим состояниям, вызванное поглощением квантов электромагнитного излучения (фотонов).

Elektronlarning energetik holati bo'yicha elektromagnit nurlanish kvantining (fotonlarning) yutilishi tufayli qayta taqsimlanishi.

Электронларнинг энергетик ҳолати бўйича электромагнит нурланиш квантининг (фотонларнинг) ютилиши туфайли қайта тақсимланиши.

### **Функциональная электронно-лучевая трубка**

**uz** - funksional elektron-nurli trubka  
    функционал электрон-нурли трубка  
**en** - plotting display tube

Электронно-лучевой прибор, воспроизводящий в аналоговой форме функциональную зависимость между сигналами.

Analog shaklda signallar o'rtasidagi funksional bog'liqlikni qayta tiklaydigan elektron-nurli asbob.

Аналог шаклда сигналлар ўртасидаги функционал боғлиқликни қайта тиклайдиган электрон-нурли асбоб.

## Ф

### **Функциональная электроника**

**uz** - funksional elektronika

функционал электроника

**en** - functional electronics

Одно из направлений твердотельной электроники, основанное на использовании разнообразных физических явлений в твердых средах для интеграции различных схемотехнических функций в объеме одного твердого тела (функциональная интеграция) и создании электронных устройств с такой интеграцией.

Qattiq jism elektronikasining barqaror muhitda turli fizik hodisalardan bitta qattiq jism ko'lamida turli sxemotexnik funksiyalarni integratsiyalashga (funksional integratsiya) va shunday integratsiyali elektron qurilmalarni yaratishga asoslangan yo'nalishlaridan biri.

Qattiq jism elektronikasining barqaror muhitda turli fizik hodisalardan bitta qattiq jism ko'lamida turli sxemotexnik funksiyalarni integratsiyalashga (funksional integratsiya) va shunday integratsiyali elektron qurilmalarni yaratishga asoslangan yo'nalishlaridan biri.

### **Функциональный электронно-лучевой прибор**

**uz** - funksional elektron-

nurli asbob

функционал электрон-  
nurli asbob

**en** - functional electron-  
beam device

Электронно-лучевой преобразователь электрических сигналов без запоминания, предназначенный для быстрой выработки значений заданной функции двух независимых переменных, представленных в виде непрерывных или импульсных электрических сигналов.

Uzluksiz yoki impulsli elektr signallar ko'rinishida taqdim etilgan ikkita mustaqil o'zgaruvchi berilgan funksiyasining qiymatlarini, elektr signallarni eslab qolmagan tarzda tez ishlab chiqish uchun mo'ljallangan elektron-nurli o'zgartirgich.

Uzluksiz ёки импульсли электр сигналлар кўринишида тақдим этилган иккита мустақил ўзгарувчи берилган функциясининг қийматларини, электр сигналларни эслаб қолмаган тарзда тез ишлаб чиқиш учун мўлжалланган электрон-нурли ўзгартиргич.



## Х

### **Характеристика намагничивания носителя записи**

**uz** - yozuv tashuvchining magnitlash xarakteristikasi

ёзув ташувчининг магнитлаш харақтеристикаси  
**en** - magnetization characteristic

### **Характеристика радио-электронной схемы**

**uz** - radioelektron sxema xarakteristikasi

радиоэлектрон схема харақтеристикаси  
**en** - circuit performance

### **Характеристика электровакуумного прибора**

**uz** - elektrovakuum asbob xarakteristikasi

электрoвакуум асбоб харақтеристикаси  
**en** - electrovacuum device characteristic

Зависимость уровня записи сигнала от значения тока или поля записи.

Signalni yozib olish darajasining, tok qiymatiga yoki yozuv maydoniga bog‘liqligi.

Сигнални ёзиб олиш даражасининг, ток қийматига ёки ёзув майдонига боғлиқлиги.

Зависимость тока, напряжения, мощности или выходного параметра от аргументов, которыми могут быть время, частота, внешние параметры, токи, напряжения или мощности других узлов или ветвей схемы.

Tok, kuchlanish, quvvat yoki chiqish parametrining, vaqt, chastota, boshqa uzellarning yoki sxema tarmoqlarining tashqi parametrlari, toki, kuchlanishi yoki quvvati kabi argumentlarga bog‘liqligi.

Ток, кучланиш, қувват ёки чиқиш параметрининг, вақт, частота, бошқа узелларнинг ёки схема тармоқларининг ташқи параметрлари, токи, кучланиши ёки қуввати каби аргументларга боғлиқлиги.

Зависимость какого-либо параметра электровакуумного прибора или параметра режима от другого параметра, или параметра режима при неизменных остальных независимых параметрах режима или при дополнительных условиях между ними.

Elektrovakuum asbob qandaydir parametrining yoki rejim parametrining boshqa parametrga yoki rejimning qolgan o‘zgarimas mustaqil parametrlarida yoki ular o‘rtasidagi qo‘shimcha shartlarda, rejim parametriga bog‘liqligi.

Электрoвакуум асбоб қандайдир параметрининг ёки режим параметрининг бошқа параметрга ёки режимнинг қолган ўзгармас мустақил параметрларида ёки улар ўртасидаги қўшимча шартларда, режим параметрига

## Х

боғлиқлиги.

### **Хемотроника**

**uz** - xemotronika  
хемотроника  
**en** - chemotronics

Направление электроники, занимающееся исследованием явлений и процессов на границе электрод-электролит и в объеме электролита при протекании электрического тока.

Elektronikaning, elektr tok oqib o'tishi paytida elektrod-elektrolit chegarasida va elektrolit hajmida hodisa hamda jarayonlarni tadqiq qilish bilan shug'ullanadigan yo'nalishi.

Электрониканинг, электр ток оқиб ўтиши пайтида электрод-электролит чегарасида ва электролит ҳажмида ҳодиса ҳамда жараёнларни тадқиқ қилиш билан шуғулланадиган йўналиши.

### **Химическая накачка**

**uz** - kimyoviy to'ldirish  
кимёвий тўлдириш  
**en** - chemical pumping

Накачка, вызываемая химическими реакциями в лазерном веществе.

Lazer moddasida kimyoviy reaksiyalar tufayli kelib chiqadigan to'ldirish.

Лазер моддасида кимёвий реакциялар туфайли келиб чиқадиган тўлдириш.

### **Химический лазер**

**uz** - kimyoviy lazer  
кимёвий лазер  
**en** - chemical laser

Газовый лазер, в котором лазерная активная среда возникает в результате экзотермических химических реакций.

Lazer aktiv muhit ekzotermik kimyoviy reaksiyalar natijasida vujudga keladigan gazli lazer.

Лазер актив мухит экзотермик кимёвий реакциялар натижасида вужудга келадиган газли лазер.

### **Химический потенциал**

**uz** - kimyoviy potensial  
кимёвий потенциал  
**en** - chemical potential

Термодинамическая функция состояния, определяющая изменение термодинамических потенциалов при изменении числа частиц в системе.

Tizimdagi zarralar soni o'zgarganda, termodinamik potensiallarning o'zgarishini belgilaydigan termodinamik holat funksiyasi.

Тизимдаги зарралар сони ўзгарганда, термо-

## Х

динамик потенциалларнинг ўзгаришини белгилайдиган термодинамик ҳолат функцияси.

### **Холодная эмиссия**

**uz** - sovuq emissiya

совуқ эмиссия

**en** - cold emission

Испускание электронов твердыми или жидкими телами, а также плазмой газового разряда, происходящее под действием внешнего электрического поля.

Qattiq yoki suyuq jismlar, shuningdek, gaz razryad plazmasining tashqi elektr maydon ta'sirida elektronlar chiqarishi.

Қаттиқ ёки суюқ жисмлар, шунингдек, газ разряд плазмасининг ташқи электр майдон таъсирида электронлар чиқариши.

### **Холодный катод**

Электрон оқимнинг кўндаланг кинетик энергиясини кучайтириш, кириш ва чиқиш алоқа қурилмалари ўртасида жойлашган электростатик кучайтириш тизимида амалга ошириладиган, тез циклотрон тўлқин асосидаги ўта юқори частота асбоби.

**Электротехника**

**uz** - elektrotexnika

электротехника

**en** - electrical engineering

Отрасль науки и техники, связанная с получением, преобразованием и использованием электрической энергии и охватывающая вопросы применения электрических и магнитных явлений в промышленности, связи, на транспорте и др.

Fan va texnikaning, elektr energiyasi olish, o'zgartirish va undan foydalanish bilan bog'langan, elektr va magnit hodisalarni sanoatda, aloqa va transportda qo'llash masalalarini qamrab oladigan sohasi.

Фан ва техниканинг, электр энергияси олиш, ўзгартириш ва ундан фойдаланиш билан боғланган, электр ва магнит ҳодисаларни саноатда, алоқа ва транспортда қўллаш масалаларини қамраб оладиган соҳаси.

**Электрофон**

**uz** - elektrofon

электрофон

**en** - gramophone

Устройство воспроизведения сигналов грам-пластинки, содержащее электропроигрывающее устройство, усилитель и, в некоторых случаях, электроакустическую систему для прослушивания.

Elektroproigrivatel qurilma, kuchaytirgich va ba'zi hollarda eshitish uchun elektroakustik tizimni ham o'z ichiga oladigan, gramplastinka signallarini qayta tiklash qurilmasi.

Электропроигриватель қурилма, кучайтиргич

## Э

ва баъзи ҳолларда эшитиш учун электроакустик тизимни ҳам ўз ичига оладиган, грампластинка сигналларини қайта тиклаш қурилмаси.

### **Электрофотография**

**uz** - elektrofotografiya

электрофотография

**en** - electrophotography

Способ формирования фотографических изображений, основанный на преобразовании видимого изображения в слое светочувствительного электрофотографического материала.

Yorug'liksezgir elektrofotografik material qatlamida ko'rinadigan tasvirni o'zgartirishga asoslangan, fotografik tasvirlarni shakllantirish usuli. Ёруғликсезгир электрофотографик материал қатламида кўринадиган тасвирни ўзгантиришга асосланган, фотографик тасвирларни шакллантириш усули.

### **Электрохромный индикатор**

**uz** - elektroxrom indikator

электрохром индикатор

**en** - electrochromic indicator

Прибор отображения информации, основанный на использовании электромеханических процессов, сопровождающихся образованием окрашенных (светопоглощающих) слоев на электродах или продуктах реакций в электролите.

Elektrodlarda bo'yalgan (yorug'lik yutuvchi) qatlamning yoki elektrolitda reaksiya mahsulotlarining hosil bo'lishi bilan boradigan elektrokimyoviy jarayonlardan foydalanishga asoslangan, axborotni aks ettiruvchi asbob.

Электродларда бўялган (ёруғлик ютувчи) қатламнинг ёки электролитда реакция маҳсулотларининг ҳосил бўлиши билан борадиган электрокимёвий жараёнлардан фойдаланишга асосланган, ахборотни акс эттирувчи асбоб.

### **Элемент вибраторной антенны**

**uz** - vibratorli antenna elementi

вибраторли антенна

элементи

**en** - aerial element

Излучающий элемент, являющийся частью антенны.

Antennaning bir qismi hisoblanadigan nurlatkich element.

Антеннанинг бир қисми ҳисобланадиган нурлаткич элемент.

## Э

### **Элемент интегральной микросхемы**

**uz** - integral mikroshema elementi

интеграл микросхема  
элементи

**en** - circuit element

Часть интегральной микросхемы, реализующая функцию какого-либо электрорадиоэлемента, которая выполнена нераздельно от кристалла или подложки и не может быть выделена как самостоятельное изделие с точки зрения требований к испытаниям, приемке, поставке и эксплуатации.

Integral mikroshemaning qandaydir elektroradioelement funksiyasini bajaradigan, kristalldan yoki to'shamadan ajratilmagan holda qilingan va sinovlarga, qabul qilish, yetkazib berish va ekspluatatsiya qilishga qo'yiladigan talablar nuqtai nazaridan mustaqil buyum sifatida ajratish mumkin bo'lmagan qismi.

Интеграл микросхеманинг қандайдир электрорадиоэлемент функциясини бажарадиган, кристаллдан ёки тўшмадан ажратилмаган ҳолда қилинган ва синовларга, қабул қилиш, етказиб бериш ва эксплуатация қилишга қўйиладиган талаблар нуқтаи назаридан мустақил буюм сифатида ажратиш мумкин бўлмаган қисми.

### **Элемент электровакуумного прибора**

**uz** - elektrovakuum asbob elementi

электровакуум асбоб  
элементи

**en** - element

Любая целая часть электровакуумного прибора, необходимая для его работы, к которой можно подсоединяться снаружи.

Elektrovakuum asbobning, uning ishlashi uchun zarur bo'lgan, unga tashqaridan ulanish mumkin bo'lgan har qanday butun qismi.

Электровакуум асбобнинг, унинг ишлаши учун зарур бўлган, унга ташқаридан уланиш мумкин бўлган ҳар қандай бутун қисми.

### **Элионная технология**

**uz** - elion texnologiya

элион технология

**en** - electroionization

technology

Совокупность приемов и способов изготовления изделий электронной техники с субмикронными размерами (менее 1  $\mu\text{m}$ ) элементов посредством облучения (бомбардировки) материала изделий направленными потоками электронов или ионов.

## Э

Elektronlar yoki ionlarning yoʻnaltirilgan oqimi bilan nurlantirish (bombardimon qilish) vositasida, elementlarining oʻlchamlari submikron ( $1 \mu m$  dan kam) boʻlgan elektron texnika mahsulotlarini tayyorlash usullari va yoʻllarining yigʻindisi.

Электронлар ёки ионларнинг йўналтирилган оқими билан нурлантириш (бомбардимон қилиш) воситасида, элементларининг ўлчамлари субмикрон ( $1 \mu m$  дан кам) бўлган электрон техника маҳсулотларини тайёрлаш усуллари ва йўлларининг йиғиндиси.

**Эллиптическая воспроизводящая игла**  
**uz** - elliptik qayta tiklovchi igna

Эллиптик қайта тикловчи игна

**en** - elliptical reproducing stylus tip

Воспроизводящая игла, поперечное сечение которой в рабочей части имеет форму эллипса.

Коʻndalang kesimi ishchi qismida ellips shakliga ega boʻlgan qayta tiklovchi igna.

Кўндаланг кесими ишчи қисмида эллипс шаклига эга бўлган қайта тикловчи игна.

**Эмиссионная характеристика электровакуумного прибора**

**uz** - elektrovakuum asbobning emission karakteristikasi

электрoвакуум асбoбнинг эмиссион характеристикаси

**en** - electrovacuum device emission characteristic

Зависимость тока эмиссии электровакуумного прибора от параметра режима, определяющего эту эмиссию.

Примечание – В некоторых случаях эмиссионные характеристики имеют специальные значения, например, для термокатода «температурная характеристика», для фотокатода «световая характеристика».

Elektrovakuum asbob emissiya tokining, bu emissiyani belgilovchi rejim parametriga bogʻliqligi.

Izoh – Baʼzi hollarda, emission xarakteristika maxsus qiymatlarga ega boʻladi, masalan, termokatod uchun «temperatura xarakteristikasi», fotokatod uchun «yorugʻlik xarakteristikasi».

Электрoвакуум асбoб эмиссия токиннинг, бу эмиссияни белгилoвчи режим параметрига боғлиқлиги.

Изоҳ – Баъзи ҳoлларда, эмиссион хaрактеристика махсус қийматларга эга бўлади, масалан, термoкатoд

## Э

### **Эмиссионный электронный микроскоп**

**uz** - emission elektron  
mikroskop

эмиссион электрон  
микроскоп

**en** - emission electron  
microscope

учун «температура характеристикаси», фотокатод  
учун «ёруғлик характеристикаси».

Электронный микроскоп, формирующий изображение объекта электронными пучками, эмитируемые этим объектом.

Obyekt tasvirini, bu obyekt chigaradigan elektron dastalar bilan shakllantiradigan elektron mikroskop.

Объект тасвирини, бу объект чиқарадиган электрон дасталар билан шакллантирадиган электрон микроскоп.

### **Эмиттер**

**uz** - emitter

эмиттер

**en** - emitter

Катод электронного прибора, предназначенный для получения эмиссии электронов при воздействии на него ударов электронов, испускаемых другим источником.

Elektron asbobning, unga boshqa manba chiqaradigan elektronlarning zarbalari ta'sir ko'rsatganda, elektronlar emissiyasini olish uchun mo'ljallangan katodi.

Электрон асбобнинг, унга бошқа манба чиқарадиган электронларнинг зарбалари таъсир кўрсатганда, электронлар эмиссиясини олиш учун мўлжалланган катода.

### **Эмиттерно-связанная транзисторная логика**

**uz** - emitter bog'langan  
tranzistorli mantiq

эмиттер боғланган  
транзисторли мантик

**en** - emitter connected  
transistor-logic

Способ реализации логических операций и других преобразований дискретной информации посредством электронных схем, выполненных на транзисторных переключателях тока с объединенными эмиттерами.

Emitterlari birlashtirilgan tranzistorli tok almashlab ulagichlar asosidagi elektron sxemalar yordamida mantiqiy amallarni va diskret axborotning boshqa o'zgarishlarini amalga oshirish usuli.

Эмиттерлари бирлаштирилган транзисторли ток алмашлаб улагичлар асосидаги электрон схемалар ёрдамида мантикий амалларни ва дискрет ахборотнинг бошқа ўзгаришларини

## Э

### **Эмиттерный переход**

**uz** - emitter o'tish

эмиттер ўтиш

**en** - emitter junction

амалга ошириш усули.

Электрический переход между эмиттерной областью, назначением которой является инжекция носителей заряда, и базовой областью, в которую инжектируются неосновные носители заряда.

Vazifasi zaryad tashuvchilar injeksiyasi bo'lgan emitter soha va asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilar injektirlanadigan tayanch soha orasidagi elektr o'tish.

Вазифаси заряд ташувчилар инжекцияси бўлган эмиттер соҳа ва асосий бўлмаган заряд ташувчилар инжектирланадиган таянч соҳа орасидаги электр ўтиш.

### **Эндотрон**

**uz** - endotron

эндотрон

**en** - endotron

Вакуумный электронный прибор, содержащий внутри оболочки хотя бы одну систему электродов генераторной лампы и хотя бы один ультракоротковолновый или сверхвысокочастотный колебательный контур.

Qobiq ichida juda bo'lmaganda generator lampa elektrodlarining bitta tizimi yoki ultraqisqa to'lqinli yoki o'ta yuqori chastotali tebranish konturi bo'lgan vakuum elektron asbob.

Қобик ичида жуда бўлмаганда генератор лампа электродларининг битта тизими ёки ультрақиска тўлқинли ёки ўта юқори частотали тебраниш контури бўлган вакуум электрон асбоб.

### **Энергетическая расходимость лазерного излучения**

**uz** - lazer nurlanishning energetik tarqaluvchanligi

лазер нурланишнинг

энергетик тарқалувчанлиги

**en** - laser radiation divergence energy

Плоский или телесный угол, внутри которого распространяется заданная доля энергии или мощности лазерного излучения.

Ichida lazer nurlanish energiyasi yoki quvvatining berilgan ulushi tarqaladigan, yassi yoki fazoviy burchak.

Ичида лазер нурланиш энергияси ёки қувватининг берилган улуши тарқаладиган, ясси ёки фазовий бурчак.

### **Энергетическая зона**

Ряд уровней энергии, расширенных под дей-



## Э

**uz** - energetik zona  
энергетик зона  
**en** - energy zone

### **Энергетическая характеристика излучателя лазера**

**uz** - lazer nurlatkichining energetik xarakteristikasi  
лазер нурлаткичининг энергетик характеристикаси  
**en** - lazer emission energy characteristic

### **Энергия вторичного пробоя**

**uz** - ikkilamchi teshilish energiyasi  
иккиламчи тешилиш энергияси  
**en** - second breakdown energy base reverse biased

### **Энергия излучения**

**uz** - nurlanish energiyasi  
нурланиш энергияси  
**en** - radiation energy

### **Энергия импульса накачки излучателя лазера**

**uz** - lazer nurlatkichini to'ldirish impulsining energiyasi

ствием внешних сил внутренних полей таким образом, что эти уровни перекрываются.

Ichki maydonlarning tashqi kuchlari ta'sirida bir-biridan oshadigan qilib kengaytirilgan energiya sathlari qatori.

Ички майдонларнинг ташқи кучлари таъсирида бир-биридан ошадиган қилиб кенгайтирилган энергия сатҳлари қатори.

Зависимость мощности (энергии) лазерного излучения от мощности (энергии) накачки.

Lazer nurlanish quvvatining (energiyasining), to'ldirish quvvatiga (energiyasiga) bog'liqligi.

Лазер нурланиш қувватининг (энергиясининг), тўлдириш қувватига (энергиясига) боғлиқлиги.

Максимально допустимая энергия, выдерживаемая биполярным транзистором в процессе выключения индуктивной нагрузки без внешнего ограничения напряжения коллектор-эмиттер.

Kollektor-emitter kuchlanishi tashqi cheklanmasdan, induktiv nagruzkani uzib qo'yish jaryonida bipolyar tranzistor ko'taradigan maksimal yo'l qo'yiladigan energiya.

Коллектор-эмиттер кучланиши ташқи чекланмасдан, индуктив нагрукани узиб қўйиш жараёнида биполяр транзистор кўтарадиган максимал йўл қўйиладиган энергия.

Энергия, переносимая электромагнитными волнами.

Elektromagnit to'lqinlar tarqatadigan energiya.

Электромагнит тўлқинлар тарқатадиган энергия.

Энергия накачки излучателя лазера за один импульс.

Lazer nurlatkichining bir impuls davomidagi

## Э

лазер нурлаткичини  
тўлдириш импульсининг  
энергияси  
**en** - pump energy of lazer

**Энергия потерь переключе-  
ния за счет обратного  
восстановления**

**uz** - teskari tiklanish hisobiga  
almashlab ulash yo‘qotishlari  
energiyasi

тескари тикланиш  
хисобига алмашлаб улаш  
йўқотишлари энергияси  
**en** - energy dissipation during  
reverse recovery diode

**Эннод**

**uz** - ennod

эннод

**en** - annode

to‘ldirish energiyasi.

Лазер нурлаткичининг бир импульс давоми-  
даги тўлдириш энергияси.

Энергия, рассеиваемая диодом за время об-  
ратного восстановления.

Teskari tiklanish vaqti ichida diod tarqatadigan  
energiya.

Тескари тикланиш вақти ичида диод  
тарқатадиган энергия.

Девятиэлектродная электронно-управляемая  
лампа, имеющая анод, катод, управляющий  
электрод и шесть дополнительных электродов.

Anod, katod, boshqaruvchi elektrod va oltita  
qo‘shimcha elektrodni bo‘lgan, to‘qqiz elektrodli  
elektron boshqariladigan lamp.

Анод, катод, бошқарувчи электрод ва олтита  
қўшимча электроди бўлган, тўққиз электрод-  
ли электрон бошқариладиган лампа.

**Эпитаксиальная структура**

**uz** - epitaksial struktura

эпитаксиал структура

**en** - epitaxial structure

Один или несколько эпитаксиальных слоев,  
упорядоченно расположенных на подложке.  
Примечание – Различают гомоэпитаксиальные и ге-  
тероэпитаксиальные структуры.

Tartibli ravishda to‘shamada joylashgan bir yoki  
bitta nechta epitaksial qatlam.

Izoh – Gomoepitaksial va geteroepitaksial strukturalar  
farqlanadi.

Тартибли равишда тўшаманда жойлашган бит-  
та ёки бир нечта эпитаксиал қатлам.

Изоҳ – Гомоэпитаксиал ва гетероэпитаксиал струк-

## Э

туралар фаркланади.

### **Эпитаксиальный транзистор**

**uz** - eпитaksial tranzistor  
эпитаксиал транзистор  
**en** - epitaxial transistor

Транзистор, в котором электронно-дырочные переходы биполярного транзистора или канал полевого транзистора созданы методом эпитаксиального наращивания.

Bipolyar tranzistorning elektron-teshikli o'tishi yoki maydon tranzistorining kanali eпитaksial oshirib borish metodi bilan vujudga keltirilgan tranzistor.

Биполяр транзисторнинг электрон-тешикли ўтиши ёки майдон транзисторининг канали эпитаксиал ошириб бориш методи билан вужудга келтирилган транзистор.

### **Эпитаксиальный слой**

**uz** - eпитaksial qatlam  
эпитаксиал қатлам  
**en** - epitaxial layer

Монокристаллический слой вещества, получаемый в результате эпитаксии на поверхности монокристаллической пластины полупроводника или диэлектрика и отличающийся от подложки своими физико-химическими или электрическими свойствами.

Moddaniing, yarimo'tkazgich yoki dielektrik monokristall plastinasining yuzasida eпитaksiya natijasida olinadigan va to'shamadan o'zining fizik-kimyoviy yoki elektr xossalari bilan farqlanadigan monokristall qatlami.

Модданинг, яримўтказгич ёки диэлектрик монокристалл пластинасининг юзасида эпитаксия натижасида олинадиган ва тўшамадан ўзининг физик-кимёвий ёки электр хossalари билан фаркланадиган монокристалл қатлами.

### **Эпитаксия**

**uz** - eпитaksiya  
эпитаксия  
**en** - epitaxy

Процесс наращивания монокристаллических слоев вещества на подложку (кристалл), при котором кристаллографическая ориентация наращиваемого слоя повторяет кристаллографическую ориентацию подложки.

Modda monokristall qatlamining to'shamaga (kristallga) oshirib borish jarayoni. Bunda oshir-

## Э

ib boriladigan qatlamning kristallografik yoʻnalishi toʻshamaning kristallografik yoʻnalishini takrorlaydi.

Модда монокристалл қатламининг тўшамага (кристаллга) ошириб бориш жараёни. Бунда ошириб бориладиган қатламнинг кристаллографик йўналиши тўшаманинг кристаллографик йўналишини такрорлайди.

### **Эрли эффект**

**uz** - Erli effekti

Эрли эффекти

**en** - Early effect

Изменение (модуляция) толщины базы биполярного транзистора при изменении величины обратного напряжения, приложенного к коллекторному переходу.

Bipolyar tranzistor bazasi qalinligining, kollektor oʻtishga qoʻyilgan teskari kuchlanish kattaligi oʻzgargan paytdagi oʻzgarishi (modulyatsiyasi).

Биполяр транзистор базаси қалинлигининг, коллектор ўтишга қўйилган тескари кучланиш катталиги ўзгарган пайтдаги ўзгариши (модуляцияси).

### **Эффект насыщения**

**uz** - toʻyinish effekti

тўйиниш эффекти

**en** - saturation effect

Уменьшение интенсивности поглощения или вынужденного излучения при увеличении мощности падающего на вещество внешнего электромагнитного излучения с частотой квантового перехода.

Yutilish yoki majburiy nurlanish intensivligining, moddaga tushadigan kvant oʻtish chastotasi ega tashqi elektromagnit nurlanish quvvati oshganda kamayishi.

Ютилиш ёки мажбурий нурланиш интенсивлигининг, моддага тушадиган квант ўтиш частотасига эга ташқи электромагнит нурланиш қуввати ошганда камайиши.

### **Эффективная масса**

**uz** - effektiv massa

В зонной теории твердого тела величина, позволяющая описать реальное движение

## Э

эффектив масса  
**en** - effective mass

электрона проводимости в кристалле под действием внешних сил и внутренних сил кристаллической решетки.

Qattiq jismning zona nazariyasidagi, o'tkazuvchanlik elektronining kristalldagi tashqi kuchlar va kristall panjaraning ichki kuchlari ta'sirida bo'ladigan haqiqiy harakatini tavsiflash imkonini beradigan kattalik.

Қаттиқ жисмнинг зона назариясидаги, ўтказувчанлик электронининг кристаллдаги ташқи кучлар ва кристалл панжаранинг ички кучлари таъсирида бўладиган ҳақиқий ҳаракатини тавсифлаш имконини берадиган катталик.

**Эффективная поверхность (приемной антенны)**

**uz** - effektiv yuza (qabul qiluvchi antennaning)

эффектив юза (қабул қилувчи антеннанинг)

**en** - absorption cross-section

Частные величины максимальной мощности, на которую приемная антенна, предназначенная для определенного радиоприемника, может уменьшить мощность падающей плоской волны, и величины мощности, соотнесенной с единицей объема радиоволны.

Maksimal quvvatning, muayyan radioqabul qilgich uchun mo'ljallangan qabul qiluvchi antennaga tushadigan yassi to'lqin quvvatini va radioto'lqinning hajm birligi bilan bog'langan quvvat kattaligini kamaytirishi mumkin bo'lgan xususiy kattaliklari.

Максимал қувватнинг, муайян радиоқабулқилгич учун мўлжалланган қабул қилувчи антеннага тушадиган ясси тўлқин қувватини ва радиотўлқиннинг ҳажм бирлиги билан боғланган қувват катталигини камайтириши мумкин бўлган хусусий катталиклари.

**Эффективность магнитной головки**

**uz** - magnit kallak effektivligi

магнит каллак эффективлиги

Параметр магнитной головки, определяемый при воспроизведении как отношение значения магнитного потока, возбуждающего электродвижущую силу, к значению магнитного потока, поступающее из сигналаграммы в головку, или при записи как отношение

## Э

**en** - magnetic head efficiency

разности магнитных потенциалов на краях рабочего зазора к магнитодвижущей силе, возбуждаемой в головке записи.

Magnit kallakning, qayta tiklashda elektr yurituvchi kuch qo'zg'atuvchi magnit oqim qiymatining, signalogrammadan kallakka keluvchi magnit oqimning qiymatiga nisbati sifatida yoki yozishda ishchi tirqish chetlaridagi magnit potensiallar farqining yozish kallagida qo'zg'atiluvchi magnit yurituvchi kuchga nisbati sifatida aniqlanadigan parametri.

Магнит каллакнинг, қайта тиклашда электр юритувчи куч қўзғатувчи магнит оқим қийматининг, сигналотраммадан каллакка келувчи магнит оқимнинг қийматига нисбати сифатида ёки ёзишда ишчи тирқиш четларидаги магнит потенциаллар фарқининг ёзиш каллагиди қўзғатилувчи магнит юритувчи кучга нисбати сифатида аниқланадиган параметри.

**Эффективность преобразования частоты лазерного излучения**

**uz** - lazer nurlanish chastotasini o'zgartirish effektivligi

лазер нурланиш частотасини ўзгартириш эффективлиги

**en** - conversion efficiency of laser emission

Отношение энергии (мощности) преобразованного лазерного излучения на выходе преобразователя частоты лазерного излучения и энергии (мощности) лазерного излучения на входе преобразователя частоты.

Lazer nurlanish chastotasini o'zgartirgich chiqishidagi o'zgartirilgan lazer nurlanish energiyasi (quvvati)ning, chastota o'zgartirgich kirishidagi lazer nurlanish energiyasiga (quvvatiga) nisbati.

Лазер нурланиш частотасини ўзгартиргич чиқишидаги ўзгартирилган лазер нурланиш энергияси (қуввати)нинг, частота ўзгартиргич киришидаги лазер нурланиш энергиясига (қувватига) нисбати.

**Эффект Холла**

**uz** - Holl effekti

Холл эффекти

**en** - Hall's effect

Возникновение в пластинке проводника с током, находящейся в магнитном поле, электрического поля, перпендикулярного как направлению тока, так и направлению маг-

## Э

нитного поля. Холла эффект обусловлен действием силы Лоренца на движущиеся носители заряда.

Magnit maydonda joylashgan tokli o'tkazgich plastinkasida ham tokning yo'nalishiga, ham magnit maydon yo'nalishiga perpendikulyar bo'lgan elektr maydonning vujudga kelishi. Holl effekti Lorens kuchining harakatlanayotgan zaryad tashuvchilarga ta'siri bilan bog'liq.

Магнит майдонда жойлашган токли ўтказгич пластинкасида ҳам токнинг йўналишига, ҳам магнит майдон йўналишига перпендикуляр бўлган электр майдоннинг вужудга келиши. Холл эффекти Лоренц кучининг ҳаракатланаётган заряд ташувчиларга таъсири билан боғлиқ.

### **Эффект Штарка**

**uz** - Shtark effekti

Штарк эффекти

**en** - Shtark effect

Изменение значений энергии атомов, молекул и других квантовых систем под действием электрического поля, обнаруживаемое по сдвигу, расщеплению и уширению их спектральных линий.

Elektr maydon ta'sirida atomlar, molekulalar va boshqa kvant tizimlar energiyasi qiymatlarining, ular spektral liniyalarining siljishi, ajralishi va kengayishiga ko'ra aniqlanadigan o'zgarishi.

Электр майдон таъсирида атомлар, молекулалар ва бошқа квант тизимлар энергияси қийматларининг, улар спектрал линияларининг силжиши, ажралиши ва кенгайишига кўра аниқланадиган ўзгариши.

### **Эхо-заградитель**

**uz** - aks sado to'sgich

акс садо тўсгич

**en** - echo suppressor

Специальное устройство, предназначенное для ослабления повторных изображений, связанных с явлением отраженных сигналов.

To'siqdan qaytgan signallar hodisasi bilan bog'liq bo'lgan takrorlanadigan tasvirlarni susaytirish uchun mo'ljallangan maxsus qurilma.

## Э

Тўсиқдан қайтган сигналлар ҳодисаси билан боғлиқ бўлган такрорланадиган тасвирларни сусайтириш учун мўлжалланган махсус қурилма.

## Я

### **Ядерный магнитный резонанс**

**uz** - yadroviy magnit rezonans  
ядровий магнит резонанс  
**en** - nuclear-magnetic  
resonance

Разновидность магнитного резонанса, избирательное (резонансное) поглощение веществом электромагнитной энергии радиочастотного диапазона, обусловленное переориентацией магнитных моментов атомных ядер, помещенных в магнитное поле. Наблюдается в случае, когда на вещество действуют два взаимно перпендикулярных магнитных поля: сильное постоянное и слабое переменное.

Magnit rezonansning bir ko‘rinishi, moddaning radiochastota diapazonidagi elektromagnit energiyani magnit maydonda joylashgan atom yadrolari magnit momentlarini qayta yo‘naltirish bilan bog‘liq tanlangan (rezonans) yutishi. Moddaga ikkita o‘zaro perpendikulyar magnit maydon – kuchli o‘zgarmas va kuchsiz o‘zgaruvchan magnit maydon ta’sir qilganda kuzatiladi.

Магнит резонансинг бир кўриниши, модданинг радиочастота диапазонидаги электромагнит энергияни магнит майдонда жойлашган атом ядролари магнит моментларини қайта йўналтириш билан боғлиқ танланган (резонанс) ютиши. Моддага иккита ўзаро перпендикуляр магнит майдон – кучли ўзгармас ва кучсиз ўзгарувчан магнит майдон таъсир қилганда кузатилади.

### **Язык описания радиоэлектронных схем**

**uz** - radioelektron sxemalarni  
tavsiflash tili  
радиоэлектрон схемаларни  
тавсифлаш тили  
**en** - language for circuit  
description

Набор символов и система правил образования и истолкования конструкций из этих символов для задания вычислительной машине исходной информации о конфигурации принципиальной или эквивалентной схемы, о типах и численных значениях параметров компонентов радиоэлектронных схем.



## Я

Simvollar to‘plami va bu simvollardan hisoblash mashinasiga prinsipial yoki ekvivalent sxemaning konfiguratsiyasi va radioelektron sxemalar komponentlari parametrlarining son qiymatlari va tiplari to‘g‘risidagi boshlang‘ich axborotni berish uchun konstruksiyalar tuzish va talqin etish qoidalari tizimi.

Символлар тўплами ва бу символлардан ҳисоблаш машинасига принципиал ёки эквивалент схеманинг конфигурацияси ва радио-электрон схемалар компонентлари параметрларининг сон қийматлари ва типлари тўғрисидаги бошланғич ахборотни бериш учун конструкциялар тузиш ва талқин этиш қоидалари тизими.

## N

### **N-дорожечный магнитофон**

**uz** - *N* ta yo‘lkali magnitofon

*N* ta йўлкали магнитофон

**en** - tape-recorder

Магнитофон, в котором используется или при помощи которого создается *N*-дорожечная фонограмма.

Примечания

1 Если необходимо указать число дорожек, вместо «*N*» в термине пишут «одно», «двух» и т. д., например, «четырёхдорожечный магнитофон».

2 Если не требуется указывать число дорожек, используют термин «многодорожечный магнитофон».

*N* ta yo‘lkali fonogrammadan foydalaniladigan yoki uning yordamida *N* ta yo‘lkali fonogramma tuziladigan magnitofon.

Изохлар

1 Agar yo‘lkalar sonini ko‘rsatish zarur bo‘lsa, «*N*» o‘rniga atamada «bir», «ikki» va h.k. deb yoziladi, masalan, «to‘rt yo‘lkali magnitofon».

2 Agar yo‘lkalar sonini ko‘rsatish talab qilinmasa, «ko‘p yo‘lkali magnitofon» atamasidan foydalaniladi.

*N* ta йўлкали фонограммадан фойдаланиладиган ёки унинг ёрдамида *N* та йўлкали фонограмма тuzиладиган магнитофон.

Изохлар

1 Agar йўлкалар сонини кўрсатиш зарур бўлса, «*N*» ўрнига атамада «бир», «икки» ва х.к. деб ёзилади,

## N

масалан, «тўрт йўлкали магнитофон».

2 Агар йўлкалар сонини кўрсатиш талаб қилинмаса, «кўп йўлкали магнитофон» атамасидан фойдаланилади.

### **N-дорожечная сигналограмма**

**uz** - *N* ta yoʻlkali signalogramma

*N* ta йўлкали сигналограмма

**en** - *N*-type recording

Сигналограмма с *N* дорожками записи.

Примечания

1 Если необходимо указать число дорожек, вместо «*N*» в термине пишут «одно», «двух» и т.д, например, «двухдорожечная сигналограмма».

2 Если не требуется указывать число дорожек, используют термин «многодорожечная сигналограмма».

*N* ta yozish yoʻlkasiga ega boʻlgan signalogramma.

Изоҳлар

1 Агар yoʻlkalar sonini koʻrsatish zarur boʻlsa, «*N*» oʻrniga atamada «bir», «ikki» va h.k deb yoziladi, masalan, ikki yoʻlkali signalogramma.

2 Агар yoʻlkalar sonini koʻrsatish talab etilmasa, «koʻp yoʻlkali signalogramma» atamasidan foydalaniladi.

*N* ta ёзиш йўлкасига эга бўлган сигналограмма.

Изоҳлар

1 Агар йўлкалар сонини кўрсатиш зарур бўлса, «*N*» ўрнига атамада «бир», «икки» ва ҳ.к деб ёзилади, масалан, икки йўлкали сигналограмма.

2 Агар йўлкалар сонини кўрсатиш талаб этилмаса, «кўп йўлкали сигналограмма» атамасидан фойдаланилади.

### **N-дорожечная запись**

**uz** - *N* ta yoʻlkali yozish

*N* ta йўлкали ёзиш

**en** - *n*-track recording

Запись, при которой на носителе записи одновременно образуется *N* число дорожек записи.

Примечания

1 Если необходимо указать число дорожек и каналов, вместо приставки «*N*» в терминах пишут «одно», «двух», «трех» и т. д, например, «четырёхканальная двухдорожечная запись».

2 Если не требуется указывать значения *N*, то вместо *N* пишут «много», например, «многоканальная многодорожечная запись».

Yozuv tashuvchida bir vaqtning oʻzida *N* ta yozish yoʻlkasi hosil boʻladigan yozish.

Изоҳлар

1 Агар kanallar va yoʻlkalar sonini koʻrsatish zarur boʻlsa, «*N*» qoʻshimchasi oʻrniga atamalarda «bir», «ikki», «uch» va h.k deb yoziladi, masalan, «toʻrt kanalli ikki yoʻlkali yozuv».

2 Агар «*N*» qiymatini koʻrsatish talab etilmasa, u holda «*N*» oʻrniga «koʻp» yoziladi, masalan, «koʻp kanalli koʻp yoʻlkali yozuv».

## N

Ёзув ташувчида бир вақтнинг ўзида N та ёзиш йўлкаси ҳосил бўладиган ёзиш.

Изоҳлар

1 Агар каналлар ва йўлкалар сонини кўрсатиш зарур бўлса, «N» қўшимчаси ўрнига атамаларда «бир», «икки», «уч» ва ҳ.к деб ёзилади, масалан, «тўрт каналли икки йўлкали ёзув».

2 Агар «N» қийматини кўрсатиш талаб этилмаса, у ҳолда «N» ўрнига «кўп» ёзилади, масалан, «кўп каналли кўп йўлкали ёзув».

**N-дорожечное  
воспроизведение**

**uz** - N ta yoʻlkali qayta  
tiklash

N та йўлкали қайта  
тиклаш

**en** - N-type reproduction

Воспроизведение, при котором одновременно получают информацию с N числа дорожек записи сигналограммы.

Bir vaqtning oʻzida N ta signalogrammani yozish yoʻlkasidan axborot olinadigan qayta tiklash.

Бир вақтнинг ўзида N та сигналограммани ёзиш йўлкасидан ахборот олинadиган қайта тиклаш.

**N-дорожечное стирание**

**uz** - N ta yoʻlkali oʻchirish

N та йўлкали ўчириш

**en** - N-type erasing,  
wipe-out

Стирание записанных сигналов одновременно с N числа дорожек записи сигналограммы.

Yozilgan signallarni bir vaqtning oʻzida N ta signalogrammani yozish yoʻlkasidan oʻchirish.

Ёзилган сигналларни бир вақтнинг ўзида N та сигналограммани ёзиш йўлкасидан ўчириш.

**N-дорожечное устройство  
записи (воспроизведения,  
записи-воспроизведения)**

**uz** - N ta yoʻlkali yozish  
(qayta tiklash, yozish-  
qayta tiklash) qurilmasi

N та йўлкали ёзиш  
(қайта тиклаш, ёзиш-  
қайта тиклаш) қурилмаси

**en** - inscriber (reproduction,  
record-reproduction)

Устройство записи (воспроизведения, записи-воспроизведения), в котором создается или используется N-дорожечная сигналограмма.

Примечания

1 Если необходимо указать число дорожек и каналов, вместо приставки «N» в терминах пишут «одно», «двух», «грех» и т.д., например, «двухканальное двухдорожечное устройство записи-воспроизведения».

2 Если не требуется указывать значение «N», то вместо «N» пишут «много», например, «многодорожечное устройство записи».

N ta yoʻlkali signalogramma tuziladigan yoki shunday signalogrammadan foydalaniladigan yozish (qayta tiklash, yozish-qayta tiklash) qurilmasi.  
Izohlar

## N

1 Agar yoʻlkalar va kanallar sonini koʻrsatish zarur boʻlsa, «N» qoʻshimchasi oʻrniga atamalarda «bir», «ikki», «uch» va h.k. deb yoziladi, masalan, «ikki kanalli ikki yoʻlkali yozish-qayta tiklash qurilmasi».

2 Agar «N» qiymatini koʻrsatish talab qilinmasa, u holda, «N» oʻrniga «koʻp» deb yoziladi, masalan, «koʻp yoʻlkali yozish qurilmasi».

N ta йўлкали сигналограмма тузиладиган ёки шундай сигналограммадан фойдаланиладиган ёзиш (қайта тиклаш, ёзиш-қайта тиклаш) қурилмаси.

Изоҳлар

1 Agar йўлкалар ва каналлар сонини кўрсатиш зарур бўлса, «N» қўшимчиси ўрнига атамаларда «бир», «икки», «уч» ва ҳ.к. деб ёзилади, масалан, «икки каналли икки йўлкали ёзиш-қайта тиклаш қурилмаси».

2 Agar «N» қийматини кўрсатиш талаб қилинмаса, у ҳолда, «N» ўрнига «кўп» деб ёзилади, масалан, «кўп йўлкали ёзиш қурилмаси».

### **N-канальная запись**

**uz** - N ta kanalli yozish

N ta каналли ёзиш

**en** - multichannel recording

Запись на общем носителе записи при наличии N числа каналов записи.

N ta yozish kanali mavjud boʻlganda, umumiy yozuv tashuvchida yozish.

N ta ёзиш канали мавжуд бўлганда, умумий ёзув ташувчида ёзиш.

### **N-канальное**

#### **воспроизведение**

**uz** - N ta kanalli qayta tiklash

N ta каналли қайта

тиклаш

**en** - N-channel reproduction

Воспроизведение через N число каналов воспроизведения с общей сигналограммой.

Umumiy signalogrammaga ega boʻlgan N ta qayta tiklash kanali orqali qayta tiklash.

Умумий сигналограммага эга бўлган N та қайта тиклаш канали орқали қайта тиклаш.

### **N-канальное устройство записи (воспроизведения, записи-воспроизведения)**

**uz** - N ta kanalli yozish (qayta tiklash, yozish-qayta tiklash) qurilmasi

N ta каналли ёзиш (қайта тиклаш, ёзиш-қайта тиклаш) қурилмаси

Устройство записи (воспроизведения, записи-воспроизведения), имеющее N число каналов записи (каналов воспроизведения, каналов записи-воспроизведения, сквозных каналов записи-воспроизведения).

N ta yozish kanali (qayta tiklash kanali, yozish-qayta tiklash kanali, ochiq yozish-qayta tiklash kanali) boʻlgan yozish (qayta tiklash, yozish-

## N

**en** - N-channel recording device

qayta tiklash) qurilmasi.

N ta ёзиш канали (қайта тиклаш канали, ёзиш-қайта тиклаш канали, очиқ ёзиш-қайта тиклаш канали) бўлган ёзиш (қайта тиклаш, ёзиш-қайта тиклаш) қурилмаси.

**p-i-n** диод

**uz** - *p-i-n* diod

p-i-n диод

**en** - pin diode; p-i-n diode

Полупроводниковый диод с p-i-n-структурой, в которой между областями с дырочной (p) и электронной (n) проводимостью создана i-область, с проводимостью, близкой к проводимости собственного полупроводника.

Teshikli (*p*) va elektron (*n*) o'tkazuvchanlikka ega sohalar orasida, o'tkazuvchanligi yarimo'tkazgichning xususiy o'tkazuvchanligiga yaqin bo'lgan *i* soha vujudga keltirilgan, *p-i-n*-strukturali yarimo'tkazgichli diod.

Тешикли (p) ва электрон (n) ўтказувчанликка эга соҳалар орасида, ўтказувчанлиги яримўтказгичнинг хусусий ўтказувчанлигига яқин бўлган *i* соҳа вужудга келтирилган, p-i-n-структурали яримўтказгичли диод.

### Алфавитный указатель терминов на русском языке

#### Atamalarining rus tilidagi alifbo ko'rsatkichi

#### Атамаларнинг рус тилидаги алифбо кўрсаткичи

Абонентский громкоговоритель .....	1
Абсолютное черное тело .....	1
Автодинный прием .....	1
Автоинформатор .....	2
Автоматическая станция .....	2
Автоматический радиопеленгатор .....	2
Автономный инвертор .....	3
Автоэлектронный проектор .....	3
Адаптер видеотекста .....	4
Адаптер телетекста .....	4
Азимутально-дальномерный радиомаяк .....	5
Азимутальный радиомаяк .....	5
Аквадаг .....	5
Активная бытовая акустическая система .....	6
Активная бытовая антенна .....	6
Активная радиолокация .....	6

Активная схема	7
Активный излучатель	7
Активный резонатор сверхвысокой частоты	7
Активный силовой фильтр переменного тока	7
Активный силовой фильтр постоянного тока	8
Акустические волны	8
Акустооптика	9
Акустооптические устройства	9
Акустооптический дефлектор	10
Акустооптический лазерный затвор	10
Акустооптический перестраиваемый фильтр	10
Акустооптический эффект	10
Акустоэлектроника	10
Акустоэлектронное взаимодействие	11
Акустоэлектронные устройства	12
Акустоэлектронный усилитель	12
Акцептор	13
Амбиполярная диффузия	13
Аморфные полупроводники	13
Амплитрон	14
Амплитуда колебательной скорости механической записи	14
Амплитудная модуляция	15
Амплитудная характеристика оптического модулятора	15
Амплитудно-волновые искажения записи-воспроизведения	15
Амплитудно-импульсная модуляция	15
Амплитудно-частотная характеристика записи-воспроизведения	16
Амплитудно-частотная характеристика	16
Амплитудно-частотная характеристика канала воспроизведения	16
Амплитудно-частотная характеристика канала воспроизведения по измерительной сигналограмме	17
Амплитудно-частотная характеристика канала записи	17
Амплитудно-частотная характеристика канала записи-воспроизведения	17
Амплитудно-частотная характеристика радиоприемного устройства	17
Амплитудно-частотная характеристика записи	18
Амплитудно-частотная характеристика сквозного канала записи-воспроизведения	18
Амплитудный ограничитель	18
Амплитудный детектор	18
Амплитудный метод пеленгования	19
Амплитудный селектор	19
Аналоговая интегральная схема	19
Аналоговая интегральная микросхема	20
Аналоговая телеметрическая система	20
Аналогово-цифровой преобразователь	20

Анизотропия .....	21
Анод .....	21
Анод электровакуумного прибора .....	21
Анодный блок .....	22
Анодный вывод полупроводникового прибора .....	22
Антенна .....	22
Антенная решетка .....	22
Антенная стойка .....	23
Антенный переключатель .....	23
Антенный ток .....	23
Антенный элемент .....	23
Антидинаatronная сетка .....	24
Антиэмиссионные покрытия .....	24
Апериодический демодулятор .....	24
Апертура .....	25
Аргоновый лазер .....	25
Асимметричное фазовое управление .....	25
Асимметричный запираемый тиристор .....	26
Атомарный лазер .....	26
Атомный стандарт частоты .....	26
Аттенуаторная лампа обратной волны .....	26
База транзистора .....	27
Базовая плоскость магнитной головки .....	27
Базовая станция .....	27
Базовые системы бесперебойного питания .....	28
Базовый край носителя записи .....	28
Базовый матричный кристалл .....	28
Баллон импульсной лампы .....	29
Бареттер .....	29
Барьерная емкость .....	29
Барьерная сетка электронно-лучевого прибора .....	30
Бездрейфовый транзистор .....	30
Безнакальный магнетрон .....	30
Безоблетная проверка радиопеленгатора .....	31
Безэлектродная импульсная лампа .....	31
Безэлектродный разрядник .....	31
Бескорпусный полупроводниковый прибор .....	32
Бидематрон .....	32
Биматрон .....	32
Биметаллический носитель магнитной записи .....	32
Биполярная проводимость .....	33
Биполярная структура .....	33
Биполярный прибор .....	33
Биполярный транзистор .....	34
Биполярный фототранзистор .....	35

Битермитрон .....	35
Блокирование радиопеленгатора .....	35
Блок вращающихся видеоголовок .....	35
Блок магнитных головок .....	36
Блок сверхвысокой частоты .....	36
Блокирование .....	36
Боковая полоса .....	37
Боковая частота .....	37
Большая интегральная микросхема .....	37
Большая интегральная схема .....	38
Бортовой комплекс средств радиосвязи .....	38
Быстровосстанавливающийся диод .....	38
Быстродействие оптического дефлектора .....	39
Быстродействующий полупроводниковый диод .....	39
Бытовая акустическая система .....	39
Бытовой видеомонитор .....	39
Бытовой видеопроектор .....	40
Бытовой магнитофон .....	40
Бытовой предварительный усилитель сигналов звуковой частоты .....	40
Бытовой радиоэлектронный аппарат .....	41
Бытовой усилитель мощности сигналов звуковой частоты .....	41
Бытовой электропроектор .....	41
Бытовой электрофон .....	42
Вакуум .....	42
Вакуумная напылительная техника .....	42
Вакуумная электроника .....	43
Валентная зона .....	43
Варикап .....	43
Вариконд .....	44
Варистор .....	44
Вдавливание видеоголовки .....	44
Ведомый инвертор .....	45
Вентиль .....	45
Вентиль полупроводниковый .....	45
Вентильная матрица .....	46
Вертикальный угол воспроизведения .....	46
Вертикальный угол записи .....	47
Взаимодействие в скрещенных полях .....	47
Взаимодействие на обратной волне .....	48
Взаимодействие на поперечной волне .....	48
Взаимодействие на прямой волне .....	48
Взаимозаменяемость сигналограмм .....	49
Вибратор .....	49
Вид колебаний прибора сверхвысокой частоты .....	50
Видеоголовка .....	50



Видеодиск	50
Видеодиск с кратной синхронностью	50
Видеозапись	51
Видеозвукозапись	51
Видеоигровое устройство	51
Видеокамера	51
Видеола	51
Видеомагнитофон	52
Видеомагнитофонная камера	52
Видеомонитор	52
Видеообучающее устройство	53
Видеопроектор	53
Видеоскоп	53
Видеосниматель	53
Видеофонограмма	54
Видикон	54
Виртуальный катод	54
Внеполосное радиоизлучение	55
Внешняя модуляция	55
Внешняя характеристика преобразователя	55
Внутреннее падение постоянного напряжения	55
Внутренний оптический резонатор лазера	56
Внутренний угол задержки	56
Внутренняя коммутация	56
Внутренняя модуляция	57
Внутрикристаллическое поле	57
Внутрисистемная радиопомеха	57
Волноводное защитное устройство	58
Волноводный оптический дефлектор	58
Волноводный оптический модулятор	58
Волновое число	58
Волновой вектор	58
Волновые потери воспроизведения	59
Волновые потери записи	59
Волоконная оптика	59
Волоконно-оптическая линия связи	60
Волстрон	60
Вольтодобавочный трансформатор питания	60
Волюметр	61
Восприимчивость радиоэлектронного средства	61
Воспроизводящая игла	62
Воспроизводящий электронный луч	62
Временные искажения воспроизведения	62
Время включения полупроводникового прибора	63
Время воспроизведения изображения запоминающей электронно-	

лучевой трубки .....	63
Время восстановления интегральной микросхемы .....	63
Время выбора интегральной микросхемы .....	63
Время выключения тиристора .....	64
Время готовности лазера .....	64
Время задержки включения .....	64
Время задержки выключения .....	65
Время задержки оптопары (оптоэлектронного коммутатора) .....	65
Время затухания запоминающей электронно-лучевой трубки .....	66
Время нарастания .....	66
Время обратного восстановления .....	66
Время рассасывания .....	67
Время регулирования .....	67
Время релаксации .....	68
Время сохранения сигнала интегральной микросхемы .....	68
Время спада .....	68
Время установления сигнала интегральной микросхемы .....	69
Время хранения информации интегральной микросхемы .....	69
Время цикла интегральной микросхемы .....	69
Вставка головки звукоснимателя .....	70
Вставка записываемой информации .....	70
Вставка постоянного тока .....	70
Вставка разрешения записи .....	71
Вставной разрядник .....	71
Вторичная электронная эмиссия .....	71
Вторично-электронный умножитель .....	72
Вторичный излучатель антенны .....	72
Вторичный источник питания .....	72
Вторичный пробой .....	73
Входная грань магнитной головки .....	73
Входная емкость интегральной микросхемы .....	73
Входная мощность прибора сверхвысокой частоты .....	74
Входная характеристика .....	74
Входная характеристика ведомого инвертора .....	74
Входное напряжение база-эмиттер .....	75
Входное устройство прибора сверхвысокой частоты .....	75
Входное устройство связи прибора сверхвысокой частоты на быстрой циклотронной волне .....	75
Входной параметр радиоэлектронной схемы .....	75
Входной ток оптопары (оптоэлектронного коммутатора, оптоэлектрон- ного переключателя) .....	76
Выбег частоты прибора сверхвысокой частоты .....	76
Вывод полупроводникового прибора .....	76
Выводная канавка записи .....	77
Выделенный диапазон частот .....	77

Выжигание мишени электронно-лучевого прибора .....	77
Выключатель сверхвысокой частоты .....	78
Выносная аппаратура радиопеленгатора .....	78
Вынужденное излучение .....	78
Вынужденный переход .....	79
Выпрямитель .....	79
Выпрямитель управляемый тиристорный .....	79
Выпрямительная лампа .....	79
Выпрямительный газотрон .....	80
Выпрямительный контакт .....	80
Выпрямительный высоковольтный кенотрон .....	80
Выпрямительный полупроводниковый блок .....	80
Выпрямительный блок .....	81
Выпрямительный полупроводниковый диод .....	81
Выпрямительный полупроводниковый столб .....	81
Высоковольтная передача энергии постоянного тока .....	81
Высоковольтный кенотрон .....	82
Высоковольтный транзистор .....	82
Высокодобротный стабилизирующий резонатор .....	82
Высшие гармоники .....	83
Выходная грань магнитной головки .....	83
Выходная емкость интегральной микросхемы .....	83
Выходная мощность сверхвысококачественного прибора .....	84
Выходная мощность интегральной микросхемы .....	84
Выходное остаточное напряжение оптопары (оптоэлектронного комму- татора) .....	84
Выходное устройство прибора сверхвысокой частоты .....	84
Выходное устройство связи прибора сверхвысокой частоты на быстрой циклотронной волне .....	85
Выходной параметр радиоэлектронной схемы .....	85
Выходной ток оптопары .....	85
Газовый лазер .....	86
Газодинамический лазер .....	86
Газопоглотитель электровакуумного прибора .....	86
Газоразрядная индикаторная панель .....	86
Газоразрядное защитное устройство .....	87
Газоразрядные индикаторы .....	87
Газоразрядные сверхвысококачественные приборы .....	87
Газоразрядный вентиль .....	88
Газоразрядный лазер .....	88
Газоразрядный прибор .....	88
Газотрон тлеющего разряда .....	89
Гальваническая развязка .....	89
Гексод .....	89
Генератор биений в гетеродинном приеме .....	89

Генератор затухающих колебаний	90
Генератор испытательных импульсов	90
Генератор пилообразных импульсов	90
Генераторная лампа	91
Генераторный прибор сверхвысокой частоты	91
Генерация носителей заряда	91
Гептод	92
Герметизированный электронно-оптический преобразователь	92
Гетеродин	92
Гетеродинный прием	93
Гетеропереход	93
Гибкость звукоснимателя	93
Гибридная интегральная схема	94
Гибридное сверхвысоко-частотное защитное устройство	94
Гибридные системы бесперебойного питания	94
Гибридный силовой фильтр	95
Гистерезис электронной перестройки частоты прибора сверхвысокой частоты	95
Глубина модуляции излучения	96
Глубинная запись	96
Головка записи	96
Головка видеоснимателя	97
Головка воспроизведения	97
Головка звукоснимателя	97
Голография	97
Гомопереход	98
Гониометр	98
«Горячие» электроны в полупроводниках	98
«Горячих» электронов эмиссия	99
Граммафон	99
Граничное напряжение биполярного транзистора	100
Графekon	100
Гребешковые искажения изображения	100
Группирование электронов	101
Дальномерный радиомаяк	101
Дальность действия радиотехнической системы ближней навигации	101
Дальняя зона лазерного излучения	102
Датчик Холла	102
Двойное лучепреломление	103
Двусторонняя радиосвязь	103
Двухголовочная магнитная видеозапись	103
Двухквadrантный преобразователь	103
Двухкомплектный преобразователь	104
Двухкоординатный дефлектор	104

Двухполярная широтно-импульсная модуляция .....	105
Двухрежимный прибор сверхвысокочастотный .....	105
Двухтактный преобразователь .....	105
Двухчастотная симплексная радиосвязь .....	106
Дебаевский радиус экранирования .....	106
Дебая температура .....	107
Девиация радиопеленгатора .....	107
Дежурная дуга импульсной лампы .....	107
Дежурный режим электровакуумного прибора .....	108
Действующая масса подвижной системы звукоснимателя .....	108
Декатрон .....	108
Декод .....	109
Декодер телеметрического сообщения .....	109
Делитель мощности .....	109
Дельта-модуляция .....	109
Дематрон .....	110
Дембера эффект .....	111
Демодулятор .....	111
Демодулятор диапазона частот .....	111
Демодулятор телеметрического сигнала .....	112
Детектирование .....	112
Детектор телеграфных сигналов .....	112
Детекторный полупроводниковый диод .....	113
Детекторный прибор сверхвысокой частоты .....	113
Детекторный сверхвысокочастотный диод .....	113
Дефект изображения передающей телевизионной электронно-лучевой трубки .....	113
Дефекты кристаллов .....	114
Джозефсона эффект .....	114
Диаграмма направленности лазерного излучения .....	115
Диаметр пучка лазерного излучения .....	115
Диапазон радиоволн .....	115
Диапазон частот .....	115
Диапазон частот (телевизионного приемника) .....	116
Диапазонная антенна .....	116
Диафрагма пространственной фильтрации .....	117
Диктофон .....	117
Динамический диапазон .....	117
Динамическое полуволновое напряжение электрооптического модулятора .....	117
Динамическое сопротивление в открытом состоянии .....	118
Динаatronный эффект .....	118
Диод .....	118
Диод .....	119
Диод Ганна .....	119

Диод с накоплением заряда .....	120
Диод Шоттки .....	120
Диодная накачка .....	120
Диодная оптопара .....	121
Диодно-транзисторная логика .....	121
Диодный тиристор, не проводящий в обратном направлении .....	121
Диодный тиристор .....	121
Диодный тиристор, проводящий в обратном направлении .....	122
Диплексер .....	122
Директор антенны .....	122
Диск видеоголовок .....	123
Диск электропроигрывающего устройства .....	123
Дискретные полупроводниковые приборы .....	123
Дискретный оптический дефлектор .....	123
Дискретный преобразователь частоты лазерного излучения .....	124
Дискриминация .....	124
Дислокации .....	124
Дисперсия волн .....	125
Дисплей .....	125
Диссектор .....	126
Дифракционная решетка .....	126
Дифракция волн .....	126
Дифференциальная диодная оптопара .....	127
Дифференциальная проводимость .....	127
Дифференциальный корректор .....	127
Дифференциатор .....	128
Диффузионная длина .....	128
Диффузионная емкость .....	129
Диффузионный переход .....	129
Диффузионный разрядник .....	129
Диффузионный ток .....	129
Диффузия носителей заряда .....	130
Диффузия примесей в полупроводник .....	130
Диэлектрики .....	130
Длина волны лазерного излучения .....	131
Длина волны записи .....	131
Длина зоны записи .....	131
Длина рабочей поверхности магнитной головки .....	131
Длинноволновый $\pi$ -вид колебаний .....	132
Длительность перемотки сигналограммы .....	132
Длительность сигнала высокого уровня интегральной микросхемы .....	132
Донор .....	133
Дополнительный зазор магнитной головки .....	133
Допплеровская радиолокационная система .....	133
Допустимая радиопомеха .....	134

Допустимый разброс значений параметра электровакуумного прибора .....	134
Дорожка воспроизведения .....	135
Дорожка записи .....	135
Дорожка звукового канала видеоманитофона .....	135
Дорожка канала управления видеоманитофона .....	135
Дорожка режиссерского канала видеоманитофона .....	136
Дорожка стирания .....	136
Драйвер силового управляемого ключа .....	136
Дрейф носителей заряда .....	137
Дрейф скорости записи (воспроизведения, носителя записи, сигналограммы) .....	137
Дрейфовый транзистор .....	137
Дробовый шум .....	138
Дуговой радиопередатчик .....	138
Дуговой разряд .....	138
Дуплексер .....	138
Дуплексная радиосвязь .....	139
Дуплексный режим работы .....	139
Дырка .....	139
Дырочная проводимость (проводимость р-типа) .....	139
Единица системы бесперебойного питания .....	140
Емкостная головка звукоснимателя .....	140
Естественная коммутация .....	140
Естественное охлаждение .....	140
Жидкие кристаллы .....	141
Жидкие полупроводники .....	141
Жидкокристаллическая ориентированная структура .....	142
Жидкокристаллический дефлектор .....	142
Жидкокристаллический индикатор .....	142
Жидкокристаллический преобразователь изображения .....	143
Жидкометаллический катод .....	143
Жидкостный лазер .....	143
Задающий генератор .....	144
Заземление .....	144
Заземление антенны .....	144
Зазор резонатора сверхвысокой частоты .....	145
Заключительная канавка записи .....	145
Замедляющая система .....	145
Замирание .....	145
Запираемый тиристор .....	146
Запираемый ток тиристора .....	146
Запирание .....	146
Записывающая телевизионная аппаратура .....	147
Записывающая видеоаппаратура .....	147

Записывающий электронный луч	147
Записывающий резец	147
Записывающий электронный пучок	148
Запись 45х45	148
Запись возбужденной проводимостью передающей телевизионной электронно-лучевой трубки	148
